

# Бола – одоби билан азиз

*(Фарзанд тарбиялашда ота-оналарга маслаҳатлар)*

Нашрга тайёрловчи: **Зиёвуддин Раҳим**

«Наврўз» нашриёти  
Тошкент – 2015

КВК 82.12(50`zb)4

УО`К: 515.4.3

М40

Зиёвуддин Раҳим. **Бола – одоби билан азиз**

(Фарзанд тарбиялашда ота-оналарга маслаҳатлар) - Т: «Наврўз» нашриёти  
2015 й. 356 б.

“Бола – одоби билан азиз” китобида болалар одоб-ахлоқи ҳақида жуда керакли маълумотлар берилган. Мисол учун, уйда ва мактабда ўзини қандай тутиш лозимлиги, кўчада юриш одоблари, ота-онага, устозларга, қариндошларга қандай муомала қилиш ҳақида муҳим йўл-йўриқлар кўрсатилган. Шунингдек, бу китобдан болаларнинг дунёқарашини кенгайтирадиган қизиқ мавзулар ва ибратли ҳикоялар ҳам ўрин олган.

Севиқли фарзандларимиз бу китобни ўқиб, ҳаётнинг моҳиятини яхшироқ англаб етадилар, одоб-ахлоқ қоидаларини ўрганадилар, инсонларга ҳам, атроф-муҳит ва ҳайвонот оламига ҳам бирдек яхши муносабатда бўлиш нақадар муҳимлигини билиб оладилар.

КВК 82.12(50`zb)4

УО`К: 515.4.3

ISBN 978-9943-381-40-7

© «Наврўз» нашриёти 2015 й.

© Зиёвуддин Раҳим.

---

---

## КИРИШ

**А**ссалому алайкум, азиз болажонлар! Ота-боболаримиз болаларга ёшлигидан олим бўлма, одам бўл, инсон бўл, деб уқтириб келишган. Бу панд-насиҳат замирида улкан маъно мавжуд. Кўпчилик болалар олим бўлиш қийинлигини яхши билишади, аммо одам бўлиш ҳам оғир эканми, деб ўйлаши мумкин. Чунки олим бўлиш учун кўп китоб ўқиб, тунларни бедор ўтказиш керак. Бунга ҳамманинг ҳам тоқати етмайди. Келинглар, инсоний қадр-қиймат нима билан ўлчанади, деган саволга жавоб излаб кўрайлик. Бунга бир бола бойлик билан ўлчанади, деса, яна бири чиройли, қадр-қоматли бўлиш кифоя, деб жавоб беради. Яна бир бола либосни ва яна бири бошқа нарсани инсоний қадр-қимматга ўлчов деб билади.

Донишманд зотлар инсоний қадр-қиммат асосида одоб-ахлоқ, гўзал хулқ ва муомала туради, деб айтиб кетганлар. Навоий бобомиз инсоний шарафни адаб ва ҳаё белгилайди, дейди. Чунки одоб-ахлоқ бўлмаса, инсонни ҳайвондан фарқлаб бўлмайди. Олим бўлиш учун кўп китоб ўқиш кифоя, аммо одам бўлиш учун фақат илмнинг ўзи етарли эмас.

Агар ота-она фарзандига ёшлик пайтидан тўғри таълим-тарбия бермаса, у дангаса ва ялқовга айланиб, илм олишга ҳаракат қилмайди ва касб-ҳунар ўрганмайди. Натижада бу бола енгил-елпи ҳаёт кечиритиб ўйлайди, етарли таълим-тарбия олмагани учун адабсиз ва илмсиз ҳолда вояга етади. Шу боис у ҳаёт йўлида кўп қоқилади ва жамиятда ўз ўрнини топа олмайди. Шунинг учун сиз азиз болалар билан олиб борадиган суҳбатимизни “Бола – одоби билан азиз”, деб номладик. Зеро, ҳар бир бола ўз ота-онаси учун азиз. Аммо боланинг чиройли одоб-ахлоқи уни ота-онасига ҳам ва бошқаларга ҳам

суюкли қилади. Шундай экан, суюкли бола бўлиш учун илм олиш қаторида одобли ва тарбияли бўлишга интилиш катта самара бериб, олинган илм ҳам келажакда катта фойда келтиради.

Қадрли болалар! Мазкур китобимизда одоб-ахлоқ ҳақида суҳбатлашсак, бунга ҳамма ўғил-қизлар қўшилса керак. Жумладан, уйда ва мактабда ўзини тутиш одоблари, кўчада юриш одоблари, ота-онага муомала қилиш ва бошқа муҳим одоблар мавжуд. Буларнинг ҳар бири ҳақида ушбу китобимизда болаларга керакли маълумотларни беришга ҳаракат қиламиз. Сиз бу китобни мутолаа қилиш орқали ҳаётнинг моҳияти, инсоний одоб-ахлоқ ва одам бир-бири билан қандай муомала қилиши лозимлиги ҳақида керакли билимга эга бўласиз, деган умиддамиз.

---

---

## Одоб нима?

**Х**урматли болалар, биласизларми, одоб сўзи қандай маъно беради? Яратган Парвардигорга ҳам, одамларга ҳам маъқул ва мақбул одатларга “одоб-ахлоқ” дейилади. Одоб яхши ишлар ва чиройли сўзлардан иборат. Ҳар бир инсон яхши одамга айланиши учун одоб-ахлоқни бошқалардан ўрганиб, ўзи ҳам уни бошқаларга етказди. Маълумки, инсон яшаши учун ҳар куни турли ишларни бажариши керак. Масалан, уйқудан уйғониш, ювиниш, кийиниш, овқатланишнинг ҳар бири учун алоҳида қоидалар бор. Мана шу қоидаларни одоб, деб айтилади. Бунга кийиниш одоби, овқатланиш одоби, ухлаш одоби ва ҳоказо одоблар мисол бўлади.

Болажонлар, шуни билингки, танамиз ҳаракати бевосита руҳимизга боғлиқ. Агар табиатимизга гўзал феъллар ва яхши одатлар ўрнашса, аъзоларимиз ҳаракати ҳам шунга қараб яхши томонга ўзгаради. Бунга “яхши ахлоқ”, дейилади. Агар табиатимизга ёмон одатлар ўрнашса, аъзоларимиз ҳаракати ҳам шунга қараб ёмонлашади. Бунга “ёмон ахлоқ” дейилади. Сўз, ҳаракат ва хулқимиз яхши ва гўзал бўлиши учун руҳимизни ёмон хулқлардан поклаб, уни яхши феъл ва гўзал одатлар билан зийнатлаш керак. Дунёда одамлар бир-бирлари билан саломлашиб, мулоқот қилади, бир-бири билан борди-келди қилиб, ўзаро муносабат ўрнатадилар. Бу ишларни муомала, дейилади. Ҳаётда муомала турлари жуда кўп. Муомала турларидан ҳар бири учун муайян тартиб ва қоидалар бор. Бу қоидалар ҳам одобга киради. Масалан, саломлашиш одоби, сўзлаш одоби, меҳмон кутиш одоби ва ҳоказо. Демак, одоб қоидалари иккига бўлинади:

- 1) Шахсий одоблар; 2) Муомала қоидалари.

Шахсий одоблар ҳар бир инсон ёлғиз ўзи бажарадиган қоидалардир. Муомала қоидалари – бошқалар билан биргаликда бажариладиган одоблар.

## Нега инсон азиз ва мукаррам?

**Б**олажонлар, кузатган бўлсангиз, ҳайвонлар ҳам овқат ейди, сув ичади, ухлайди, тўғрими? Одамлар ҳам худди шундай. У ҳолда, инсон билан ҳайвон ўртасида қандай фарқ бор? Бу ҳақида ҳеч ўйлаб кўрганмисизлар? Агар инсон билан ҳайвон ўртасидаги фарқни билмоқчи бўлсак, шу иккови ҳаётини кузатиш кифоя. Инсон ҳар бир ишни ақл, одоб ва тартиб асосида бажаради. Ҳайвонда ақл йўқлиги учун на одоб ва на қоидага риоя этмай яшайверади. У бундай хусусиятдан маҳрум этилган. Шунинг учун адабсиз болага танбеҳ берилганда ҳайвонга ўхшама, деб айтилади. Ҳайвон кир-чир ҳолда юраверади, уят ва андишани билмайди. Шу боис у ҳеч қандай одоб-ахлоққа риоя қилмайди. Шундан ҳам биламизки, Аллоҳ инсонни ҳайвондан фарқлаб, улуғ мақомга кўтарди, унга ақл неъматини ато этиб, ҳар бир ишни шу орқали бажариш кераклигини буюрди. Агар инсон ўз ақлини ишлатса, биринчи навбатда нима учун яратилганини англайди, Аллоҳнинг мавжудлигига иймон келтиради ва унда яхши амаллар қилиб, ёмон амаллардан тийилиш ҳисси пайдо бўлади. Айниқса, ақлли бола ўз ақлига суяниб, бу олам ва борлиқ қандай яратилгани, ой, қуёш ва юлдузлар осмонда ўз-ўзича ва беҳуда сузиб юрмаслиги ҳақида фикрлайди. Шу тариқа у инсон ҳаёти ҳам муайян тартиб ва қоидага бўйсунганини билиб олади. Шундан кейин одоб, камтарлик ва ҳаё каби хулқ-атворлар инсонга жуда зарурлигини тушуниб етади. Демак, одоб ақлнинг меваси ва ҳосиласидир. Одобсизлик ақл камлиги ёки ақлни тўғри ишлатмаслик оқибатида юзага келади. Шунинг учун одамлар одобсиз болани ҳайвон деб атайди, бир ноҳўя ишни қилса, дарров дакки-дашном бериб, ақлни ишлат, деб қойишади. Одобли болани мақтаб, ақлли бола экан, одобли бола экан, деб алқайдилар. Демак, эй азиз фарзанд, сен ота-онанг ва

қариндошларинг суйиб, эркалайдиган одобли бола бўлишни истасанг, дастлаб яхши хулқ ва гўзал одоблар нималигини яхшилаб билиб олишинг керак. Аксинча, буларни билиб олмасанг, уларни ранжитиб қўйишинг ҳеч гап эмас.

## Одоб олтиндан қиммат

**И**нсон табиати бойлик, пул ва олтинни жуда яхши кўради. Чунки бойлик кўп нарсани ҳал этади, бой-бадавлат одам кўп нарсани осонгина қўлга киритади. Шу боис айрим болалар бой одамга ҳавас билан қарайди, бой бўлишни орзу қилади. Ҳаётда камчилик кўрмай, орзу-истакларига осонгина эришиш ҳақида ширин хаёллар суради. Тўғри, бой-бадавлат киши яхши яшаб, нимани истаса, шунга осонгина эришаётганини кўрамиз. Кўпчилик наздида шу нарса катта бахт. Аммо катта ва улкан бойликка эга бўла туриб, бахтли бўла олмаган ёки ўзини бахтсиз ҳис этадиган бойлар қанча. Улар камбағал ва фақир кишиларга қараганда кўпроқ изтироб чекиб яшайди.

Ҳақиқатда бахтли бўлиш учун дастлаб иймон, илм, яхши амал ва одоб сув ва ҳаводек зарур. Бунга кўпчилик болалар яхши билмайди, билса ҳам бу тўғрида чуқур ўйлаб кўрмайди. Қандай бўлмасин, бой бўлиш керак, деб катта хатога йўл қўяди. Бахтли бўлиш учун одоб бўлиши керак, деб айтдик. Бу бизнинг гапимиз эмас, балки асрлар давомида тажрибада синалиб, донишманд болаларимиз томонидан айтилган. Одобнинг катта фойдаси шуки, қаерда одоб бўлса, ўша жойда тартиб ва интизом бўлиши аниқ. Тартиб ва интизом ҳар бир ишни ўз вақтида ва пухта бажаришни талаб этади. Бунга амал қилган бола доимо мақтовга лойиқ. Нега биз бошқа юрт одамларидан орқада қолганмиз, нега турли компьютер ва бошқа асбоб-ускуналар ҳамда ўйинчоқ турларини улардан сотиб оламиз, деб ўйласак, бунга улар ёшлигидан илм ва одобни юксак даражада эгаллагани сабабдир. Илми ва одобли бўлишнинг фойдаси жуда катта. Одамлар ҳам одобли болани ёқтириб, унинг ота-онасига раҳмат айтишади ва илоё, бахтли бўлгин, асло кам бўлмагин, дея ҳақиқага хайрли дуолар қилишади. Аллоҳ интизомли бола учун номаи аъмолига алоҳида савоблар

ёздиреди, ризқини кўпайтириб, умрига умр кўшади. Одоб ана шундай ажойиб фазилатдир. Шунинг учун доно халқимиз “одоб олгиндан қиммат”, деб бежиз айтмаган. Буни тўғри тушуниб олган бола асло адашмайди, ҳаётда қоқилмайди ва ота-онаси-га кўпдан-кўп раҳмат келтиради. Мана бу ривоят адаб бойликдан афзал эканини тушунишда ёрдам беради: Асмай деган зот шундай ҳикоя қилади: Мен билан суҳбатлашиб турадиган араб болаларидан бири фасоҳати ва малоҳати билан лол қолдирди. Мен синамоқчи бўлиб, юз минг дирҳам эвазига аҳмоқ бўлишни хоҳлайсанми”, дедим унга. У саволимга йўқ, деб жавоб берди. Нима учун деб сўрадим. “Аҳмоқлигим туфайли бир жиноят қилишим ва бор-будимдан айрилиб, кейин шу аҳмоқлигим яна ўзимда қолишидан кўрқаман”, деди. Қарангки, ёш бола ўз ақлига суяниб бойлик ҳеч нарсани ҳал қилмаслигини англаб етди.

### **Фойдали маслаҳат**

*1. Бешиқдан то қабргача илм ва тарбия олишга имкони етса ҳам, лекин болалиқдан шунга кўникма ҳосил қилдириш фойдали ва муҳимдир.*



*2. Болани тарбия қилиш уни жисмонан, фикран ва хулқан камолга етказиб, саодатга эришишга ёрдам беришдан иборат.*

*3. Бефойда сўзни кўп гапирма ва фойдали сўзни кўп эшитишдан қайтма.*

*4. Кам гапир, оз егин ва кам ухла.*

### **Одобли ва одобсиз бола**

**К**елинлар, одобли ва одобсиз бола қандай бўлиши ҳақида суҳбатлашайлик. Одобли бола уйқудан эрта туриб, дарҳол юз-қўлини ювади. Ҳатто бадантарбия машқларини бажариб, баданини чиниқтиради. Бадани ва кийимлари доим тоза ва озода бўлишига эътибор беради. У кўп китоб ўқиш баробарида дарсларини ўз вақтида бажариб қўйишни яхши кўради. Ота-онаси ва устозларидан эшитган насиҳат ва ўғитлардан

асло бўйин товламайди. Одобли бола ҳар доим аъло баҳоларга ўқийди. Агар яхши ва хушмуомала кишини кўрса, дарҳол ундан ибрат олиб, унга амал қилишга интилади. Бундай болани тарбияли ёки хулқи чиройли экан, деб мақталади. Одобли бола иложи борича одамларга яхшилик қилиш ҳақида ўйлайди. Кичик ёшидан бошлаб кўчада ёки бирон жойда қарияларни кўрганда салом бериб, кўлида юки бўлса, уни кўтариб уйигача элтиб беради. Қўни-қўшнилар томига тош отиб ўйнамайди, мушук ва шунга ўхшаш жонзотларга озор бермайди.

Аммо болалар ичида одобсизлари ҳам учраб туради. Бундай бола эрта ўринга ётиб, уйқудан кеч уйғонади. Уйқудан турганида юз-қўлини чала ювади, бадантарбия машқларини бажаришни ёқтирмайди. Усти-боши кир-чир ва ифлос бўлиб юради. У кўлига китоб ушламайди ва дарсларини тайёрлашга ҳафсала қилмайди. Ота-онаси бир ишни буюрса, уни лаббай деб, бажармайди, балки эринчоқлик қилиб, орқага суради. Устозлари берган уй вазифаларини қилмагани учун мактабга борганда гап эшитиб, синфдошлари олдида мулзам бўлади, ёмон баҳога ўқийди, яхши одоб ва хулқ ҳақидаги насиҳатларга қулоқ солмайди. Одобсиз болани ҳеч ким ёқтирмайди. Чунки у ақлини кам ишлатади-да. Шу боис одамлар уни хулқи ёмон бола экан ёки ота-онаси яхши тарбия бермабди, деб айтишади. Тарбиясиз бола қандай саломлашишни ҳам билмайди. Одобсиз бўлгани учун унинг атрофида дўстлари кам. Тарбия ва одоби йўқлиги учун болалар ундан узоқроқ юришга ҳаракат қилади, чунки у дилозорлик қилиб, кўпчилик кўнглини қолдиради. Шу боис биронта бола у билан дўстлашишни истамайди. Демак, одобсиз бола бир ўзи яккаланиб, дўстларидан ажраб қолади.

Хўш, одобсиз бола қандай қилиб яхши бўлади, деб савол берарсан. Бунинг учун ҳар қандай одобсиз болага ҳам яхши тарбия берилса, у ўз айбини тушуниб, ундан воз кечиш ҳақида ўйлайди. Яхши болалар одобсиз болага чиройли насиҳат қилиб, уни тўғри йўлга бошлайди. Айниқса, кўчага чиққанда компютерхонада ҳар хил бўлмағур компютер ўйинларига берилиб вақтини зое

кеткизаётгани ва ёмон болага айланиб бораётганини билдиради. Одобсиз боланинг одобли болага айланиши осон эмас. Агар у ақлини тўғри ишлата олса, аста-секин яхши болалар сафига қўшилиб олади. Бунинг фойдасини ёши улғайгандан кейин билади. Фақат у яхши ва одобли бола бўлишга ҳаракат қилиши керак. Бир донишманд: «Ўғлинг етти ёшгача райҳонингдир, яна етти ёш қўшилгунча дастёринг ва яна етти ёш қўшилганда вазиринг ва кейин эса у дўстинг ёки душманингдир», дебди. Шундан биламизки, итоатли ва одобли фарзанд ҳар доим ота-она ёнида бўлиб, уларнинг кўзини қувонтиради ва ишларида кўмак беради. Итоатсиз ва одобсиз бола эса ота-она гапини олмаслиги ва айтганига юрмаслиги билан худди ота-онаси ундан жудо бўлгандек таассурот қолдирар экан.

### Болалар луғати



**Одоб** – яхши хулқ, тарбия ва хушмуомалалик.

**Ахлоқ** – инсон табиати, муомала, хатти-ҳаракати ва одоби.

**Тарбия** – таълим, ахлоқ-одобни ўргатиш, инсонни вояга етказиш ва улғайтириш.

**Эслаб қолинг:** “Одоб ҳар бир инсон амал қилиш керак бўлган ҳаёт қонунидир. Инсон айнан одоби билан тилсиз ва ақлсиз ҳайвонлардан ажралиб туради”.

### Фойдали насиҳатлар



1. “Ҳар кимда одоб бўлса, унда илм ҳам бўлиши қандай яхши. Чунки одоб ақл билан чамбарчас боғлиқ. Агар ақл устига одоб ҳам қўшилса, нур устига нурдир. Улуглик ақл ва одобдан юзага келади. Ақлнинг қадри одоб, бойлик қадри саховат ва куч-қувват қадри баҳодирлик туфайли ошадди” (“Фавоқиҳул-жуласо”).

2. Яҳё ибн Муоз шундай деди: “Қалб кўкракдаги қозонга ўхшайди. Шу қозонда қайнаган нарсани сузиб оладиган чўмич

тилдир. Кимлигини билмоқчи бўлсанг, унинг сўзига эътибор бер. Чунки тил сенга қалбдаги ширин, нордон, хуштаъм ва аччиқ нарсаларни кўрсатади”.

3. Одоб хулқни чиройли қилиш, сўз ва ҳаракатни тузатишидир.

4. Гўзал сифат ва чиройли хулқ билан безанмаган кишини чиройли кийимлар ҳеч қачон кўркам қилолмайди.

## Қайси бири яхшироқ?

(Ибратли ҳикоя)

**Б** озордан сават кўтариб қайтаётган уч аёл дам олиш учун йўл четидаги ўриндиққа ўтиришди. Бир-бири билан ўз ўғиллари ҳақида гаплаша бошлади. Биринчи аёл шундай деди: “Ўғлим жуда ҳам чаққон бола. Ҳатто бир неча дақиқа оёғини осмонга қилиб, қўлида тик юра олади”. Иккинчи аёл ҳам ўғлини мақтаб қолди: “Ўғлимнинг булбулдек овози бор, эшитган одам эриб кетади”. Учинчи аёл ўғли тўғрисида лом-мим демади, икки аёлнинг гапларига жимгина қулоқ солиб ўтирди. Икки аёл сен нега гапирмайсан, деб ундан сўрашганида тортинибгина шундай деди: “Менинг ўғлимда айтарли бирорта алоҳида фазилат йўқ. Аллоҳ берган бир бола-да”.

Бир қария нарироқда аёллар нима деб гаплашаётганига қулоқ солиб турган эди. Аёллар йўлга тушиб, юк кўтариб оғриётган бел ва қўлларини ишқалаб силай бошлашди. Шу пайт уч бола олдиларига чопиб келишди. Булар уч аёлнинг ўғиллари эди. Биринчи аёлнинг ўғли оёқларини осмонга кўтариб қўли билан ерда тик юришни амалда кўрсатди. Иккинчи аёлнинг ўғли харсанг тош устига чиқиб, онаси яхши кўрган қўшиқни хушовозда куйлай бошлади. Аёллар ҳурсанд бўлишиб, уни олқишлаб чапак чалишди. Учинчи аёлнинг ўғли эса онаси олдига келиб: “Ойижон, саватни менга беринг, уни мен кўтариб борай”, дедию уни кўтариб йўлга тушди. Аёллар кузатиб турган қариядан қайси биримизнинг ўғлимиз яхши экан, деб сўрашди. Қария: “Онасига ёрдам беришга шошилган ўғилни яхши бола деса бўлади”, деб жавоб берди.

## Дуоси мустажоб бола

(Ибратли ҳикоя)

**Б**ир куни мўминлар амири Умар ибн Хаттоб Мадина кўчаларининг бирида чопқиллаб юрган ёш болани кўриб қолди. Шу онда болага қараб:

– Эй бола! Ҳақимизга бир дуо қилгин, Аллоҳ таоло бизга раҳм қилсин, – деди. Шунда саҳобалар:

– Эй мўминлар амири, Аллоҳ таоло раҳм қилсин, деб шу боладан дуо сўраяпсизми? Ахир сиз жаннат башорат қилинган ўн кишидан бирисиз-ку! – дея ажабланишди. Шунда Ҳазрати Умар:

– Ҳа, мен ундан ҳақимизга дуо қил, деб сўраяпман, чунки у ҳали балоғат ёшига етиб улгурмаган. Ҳали унинг амаллар китобида гуноҳ амали йўқ. Шунинг учун унинг дуоси қабул бўлади. Аммо биз мукаллаф ёшдамиз, бизнинг устимиздан қалам юргизилган, – деб жавоб берди.

### Луқмони Ҳақимнинг ўғлига насиҳатлари (1)

**Л**уқмони ҳақим ўз фарзандига насиҳат қилиб шундай деди: “Эй ўғлим, уч нарсадан бирини эҳтиёт қил. Аввал нариги дунё учун динингни эҳтиёт қил. Иккинчиси, саломатлик учун ҳикматни (табобатни) эҳтиёт қил. Учинчиси, таъмагир бўлмаслик учун пулни эҳтиёт қил. Эй ўғлим, нодонлар билан дўст тутинма, хасисдан бирон нарса сўрама. Илм ўрган, кимда илм бўлмаса, ҳурмат-иззатга етишмайди. Кимда мулойимлик бўлмаса, у илмдан баҳра ололмайди. Кимда саховат бўлмаса, ҳеч ким унга дўст бўлмайди. Кимнинг дўсти бўлмаса, мол-давлати бўлмайди.

Эй ўғлим, сабрни ва ўз нафсинг билан курашишни ўзингга шиор қил, ҳаром нарсалардан тийилиб, топганингга қаноат қил. Бировнинг ризқ-рўзига кўз олайтирма, шунда ўзингни қийнашдан қутуласан! Таомдан оч, ҳикматдан тўқ бўл. Одамларнинг фаҳмига яраша сўзла. Иложи борича сукутни их-

тиёр қил, шунда одамларнинг ёмонлигидан омон бўласан. Аҳмоқларга қарши сукутдан кўмак қидир. Одамлар сенда йўқ хислатни бор, деб сени мақтасалар, бунга керилмаки, одамлар гап-сўзи билан қуруқ бош косаси дурга айланмайди. Ўзингдан кучлилар билан низолашма, ўзингдан заифларни ерга урма. Бадгумонликка қалбингдан жой бермаки, у бирон-бир дўст билан самимий яшашингга йўл бермайди.

Эй ўғлим, сўзламоқчи бўлсанг, фақат ҳикмат ва насиҳатлардан сўзла, айтганларингга аввал ўзинг амал қил, ўз касбинг ва мартабангга яраша сўзла, одамларни ғазаб пайтида сина, дўстларингни эса бошингга кулфат ва мусибат тушганда сина, доим мақбул ишларни амалга оширишга урин, агар гапирмоқчи бўлсанг, далил ва ҳужжат билан гапир. Ёшлиқни ғанимат бил, доно кишилар билан ҳамсуҳбат бўл. Дўстларингни ҳурмат қил, одамларга очиқ юзлилик билан боқ.

Эй ўғлим, ота-онангни доимо ҳурмат қилиб, хизматларида бўл, устоз ва муаллимларингга жону дилингдан эҳтиром кўрсат, барча ишларда ўртача йўл тут, киримга қараб чиқим қил, сахий бўл, меҳмонни эъзозла, унга тилингни эҳтиёт қил, душманлардан бир лаҳза ҳам ғофил қолма, бирон сўзни айтишдан олдин унинг жавобини беришни ўйла, бахил ва такаббур кишилардан узоқ юр, қаноатни ҳақиқий бойлик деб ҳисобла.

Эй ўғлим, илм талабида бўл, қайсар ва ўжар бўлма, ўз айтганингда туриб олма, ўзгалар сўзини ҳам эътиборга ол, муро-са йўлини танла, ҳамиша одамлар ичида бўл, улардан ажрама, кексаларни ҳурмат қил, барчани эҳтиром билан тилга олгин, кимнинг тузини тотган бўлсанг, унинг ҳақини адо қилишни унутма.

Эй ўғлим, уст-бошингни тоза тут, ким билан гаплашсанг, унинг ўзига яраша гапни гапир, тунда кишилар билан суҳбат қурсанг, сўзни юмшоқ ва оҳиста гапир, сўзлаётган вақтингда бир кишига қараб гапираверма, ҳаммага назар сол, кам ейиш ва кам ухлаш яхши кўрган амалинг бўлсин! Ўзингга нимани раво кўрсанг, уни ўзгаларга ҳам раво кўр. Ўзинг яхши ўқимаган ва билмаган ҳолда бировга ақл ўргатма ва устозлик қилма.

Эй ўғлим, сир сақлай олмайдиган кишиларга сирингни айтма, ҳамма ҳам яхшилик қилади, деб ўйлама, бирон кишининг бахил эканини билсанг, ундан яхшилик чиқади, деб ўйлама, бировнинг иши тушиб олдинга келса, уни ноумид қилиб қайтарма, ўзингдан катталар билан ҳазиллашма, уйда бор нарсаларингни душман кўзидан яширин тут, ўз ака-укаларингни ҳурмат қил.

Эй ўғлим, бир кўришда синамай туриб, бировни дўст тутма, синалмаган одамга ишонма, ўз қаддини билмайдиган кишилардан яхшилик умид қилма, офтоб чиққунча ухлама, ҳадеб кулаверма, бадном (номи ёки хулқи ёмон) кишиларга суҳбатдош бўлма, кексалар ва улуғ кишилар олдига ўтиб, улардан олдин юрма, одамлар ўзаро гаплашаётган пайтда уларнинг сўзини бўлиб, гап солма, меҳмоннинг олдида бировга ғазабингни сочма, бошингни эса қуйи солмасдан ўтир...”

**Ёдда тутиш:** ҳикмат “билимдонлик”, “донолик”, “ҳикматли сўз”, “тиббиёт илми”, “шифокорлик” каби маъноларни англатади.

## **Болалар тарбиясининг ўзига хос жиҳатлари**

**А**зиз болалар, тарбия ва одоб-ахлоқ қуйидаги муҳим жиҳатларни ўз ичига олади.

### **Феъл-атвор тарбияси.**

Болалар ёш пайтидан яхши тарбияланса, одобли-ахлоқли ва маданиятли бўлиб вояга етадилар. Ёшлик пайтидан олинган илм ва одоб-ахлоқ бола хотирасига қаттиқ муҳрланади. Қайси бола ёшлигидан яхши таълим-тарбия олган бўлса, унинг комил инсон бўлиб етишишига шубҳа йўқ. Албатта бунда оналар ва устозлар асосий ўрин тутади. Шу сабаб устоз ва мураббийлар сўзига қулоқ тутиш ва уларнинг ўғитларига амал қилиш лозим.

### **Эътиқод тарбияси.**

Эътиқод инсон ҳаётида энг муҳим омил саналади. Чунки эътиқодсиз одамнинг онги бўш, фикри тарқоқ ҳамда бузуқ ғоя

ва қарашларга эргашиб кетиш хавфи бўлади.

Инсон қалбидаги эътиқодни ҳеч нарса кетказа олмайди, уни на пул, на мансаб ва на қўрқув ва на дўқ-пўписа билан кетказиб бўлмайди. Эътиқоди мустаҳкам одам улкан тоғдек бақувват, дарёдек тошқин ва серғайрат бўлади. Шунинг учун эътиқод ва у билан боғлиқ нарсаларни пухта ўрганиб олиш керак.

### **Бадан тарбияси.**

Инсон модда ва руҳдан иборат. Шундай экан, унинг руҳий соғлом бўлиши билан бирга моддий соғломлиги ҳам муҳим омиллардан ҳисобланади. Бадан тарбияси баданни соғлом ва кучли ҳамда аъзоларни мукамал даражага етказишдан иборат.

### **Фикр (ақл) тарбияси.**

Инсон боласини дунё ва охират саодатига бошловчи нарса, албатта Аллоҳнинг энг буюк неъматини бўлган ақлдир. Ақл орқали инсон яхшини ёмондан, оқни қорадан ажрата олади. Мана шу нарса унинг саодатга эришишида восита вазифасини бажаради.

### **Болалар луғати:**

Феъл-атвор – инсоннинг ўзига хос хусусияти, характери ва табиати.

Эътиқод – ишонч, қалб билан тасдиқлаш ва имон.

Фикр – ўйлаш, хаёл, мулоҳаза ва ғоя.

## **Одобли бўлиш йўллари**

**О**добли боланинг белгиси шуки, у барвақт, катталар билан баробар уйғонади. Улардан илгари ҳам турмайди, кейин ҳам қолмайди. Ҳамма уйқудан уйғонганида ҳам ўрнидан қўзғалмай ухлаб ётган болани дангаса деб чақирадилар.

Одобли бола уйқудан туриб, кийимларини кийиб юз-қўлини ювади, ота-онасига салом бериб, улардан ҳол-аҳвол сўрайди. Ёмон болалар эса уйқудан туриб, юзларини ювмасдан овқатланишга ўтиради, ота-оналарининг ҳолидан хабар олмайди.

Одобсиз боланинг яна бир белгиси шуки, у уйқудан туриши билан юз-қўлини ювмасдан кўчага ўйнашга чиқиб кета-

ди, чой вақти ўтиб бўлгач, ҳаммадан ортда қолиб бир ўзи нонушта қилади. У чой ичиб бўлгунича мактабга бориш вақти ўтиб кетади. Дарсга кеч қолиб ўқитувчиларидан дакки эшилтади, дарсларни яхши ўзлаштиролмади. Чунки эрталаб йўл қўйилган биргина хато мана шундай натижага олиб келади. Шу сабаб барвақт туриб, ҳамма ишларни ўз вақтида бажариш керак.

Одобли бола ўрнидан туриб, чой вақти бўлгунича ўтган кундаги сабоқларини такрорлайди. Ушбу кунда ўтиладиган сабоқларини бир-икки марта кўздан кечиради. Чой вақти бўлганидан сўнг дарҳол ота-она, ака-ука ва опа-сингиллари қаторида одоб билан ўтириб чой ичади. Тайёр нонуштага ўтирмасдан катталар вақтини олмайди, ўзи дарсдан кечга қолганидек, уларни ҳам иши ва ўқишидан кечикишига сабабчи бўлмайди. Одобли бола мактабга яхши хулқ ва одоб билан боради. Катта кишилардек ўз йўлидан юради, лой йўлак ва юрилмайдиган жойлардан юрмади. Кўчада катта ёшли кишиларни кўрса, улардан олдин салом беради. Уларга ҳурмат-эҳтиром кўрсатади, ранжитмайди ёки дилига озор бермайди.

## Одобли боланинг белгиси

Одобли бола бирон ножўя ишни билмасдан қилиб қўйса, кишилар унга қараши билан иши нотўғри эканини тушуниб, хижолат чекади, қилган ишидан ўзини ноқулай ҳис этади ва уялади. Агар шу вақтда бир киши насиҳат қилса, унинг айтгани ўзининг фойдасига айтилаётганини ўйлайди. Бироқ индамай йўлига кетмасдан насиҳат қилган кишига: “Билмасдан қилиб қўйибман. Бошқа бундай хато ишга қўл урмайман!” деб кечирим сўрайди.

Аммо одобсиз ва тарбия кўрмаган бола эса ундан фарқ қилади, хато ишларини тушуниб етмайди. Агар унга бирон киши насиҳат қилса, насиҳат қилувчига қаттиқ гапириб, сўзини эътиборга олмайди, ҳатто унга ҳурматсизлик қилади.

Азиз болажон, шуни доим ёдда сақла: одобли бола ҳар қанча кўримсиз бўлса ҳам тарбияли ва одобли бўлгани учун

уни ҳамма яхши кўради. Одобсиз бола ҳар қанча чиройли бўлса ҳам, эътибор қозонмайди. Устига шинам ва яхши либослар кийиб олганига қарамай ҳеч ким унга ҳавас билан қарамайди. Чунки болага баҳо берилганда ҳамма вақт унинг одобига қаралади, кийимларига эмас.

Одобли боланинг кундан-кунга қадри ва ҳурмати ошиб боради. Аммо у бундан талтайиб кетмайди, шундай тарбия бергани учун ота-онасидан миннатдор бўлади, улар буюрган хизматни бўйин товламасдан бажаради. Одобсиз боланинг эса кундан-кунга ҳурмати тушиб боради.

Қайси бола ёши улуғ ва кекса кишиларнинг сўзига кирса, ўзи ҳам улуғ бўлади. Одобли бола яна ўзидан катталар ҳурматини бажо келтиради, дуоларини олишга интилади. Зеро, дуо одамнинг ўсиб-униши учун қанот вазифасини бажаради.

Одобли болани ҳар ким хуш кўради ва уни мақтов билан тилга олади. Қандай ишни қилмоқчи бўлсалар, одамлар одобли болага ишонадилар. Аммо тарбия кўрмаган болани ҳеч бир ишга яқинлаштирмайдилар, унга бирон юмушни ишониб топшира олмайдилар. Балки уни изза қилиб, беодоблигини юзига соладилар.

Ота-она учун тарбия топган бола катта бойликдир. Одобли болани ҳеч қандай бойликка алмаштириб бўлмайди. Чунки бойлик билан одоб-ахлоқни сотиб олиш мумкин эмас-да! Яна одоб билан эришиш мумкин бўлган ютуқларга бойлик билан етиб бўлмайди.

Эй фарзандим, энди ўзинг айт-чи: миллиард сўм пули, қўша-қўша данғиллама уй-жойлари, турли русумдаги машиналари бор одам бойми ёки бир одобли фарзанди бор одамми? Бойлиги бисёр одамнинг ўғли беодоб бўлса, қандай хунук, бойлиги ўртача ёки камбағал кишининг фарзанди одобли, ўқишлари аъло бўлса, қандай чиройли?! Икковини бир-бирига қиёслаш асло мумкин эмас. Демак, бойлик ҳамма нарсани ҳал қилади, деб ўйлаш тўғри эмас. Ҳақиқий истеъдод, адолат, одоб-ахлоқ, инсоф ва имон-эътиқод олдида бойлик жуда ожиз нарса бўлиб қолади.

Одобли бола ҳақорат ва қарғиш олмайди. Ўзи бировларни сўкиб, ҳақорат қилмайди, бошқаларнинг сўкиниши ва ҳақоратига сабаб бўлмайди.

Одобли бола қилган ишлари ёки ўзида бор фазилатлар билан мақтанмайди, керилмайди, кеккаймайди, балки камтар бўлади, ўзидаги фазилатларни дўстлари билан баҳам кўради, мулойим, очикқўл ва очикқўнгил бўлади. Бу “меники”, бу “сеники” деб ажратиш, ҳамма вақт фақат ўзини ўйлаш, бошқалар билан иши бўлмаслик одобли бола шаънига дуруст эмас. Демак, боланинг келажақда бахтли ва толеъли бўлиши унинг одоб-ахлоқи ва қанчалик илм олишига боғлиқ. Бола ота-онасининг сўзига кирса, айтганларидан чиқмаса, берган маслаҳатларини жон деб қабул қилса, бундай бола улғайганида, албатта бахтли бўлади.

## Ота ҳақини адо этган ўғил

*(Ибратли ҳикоя)*

**К**адим замонда қароқчилар йўлтўсарлик қилиб, ожиз ва заиф одамларни асир олиб бозорда қул қилиб сотардилар. Кунларнинг бирида қароқчиларнинг қўлига бир катта ёшли камбағал киши тушиб қолди. Қароқчилар бошлиғи унга: “Агар бозорда қул бўлиб сотилишни истамасанг, менга юз тилла танга келтирсанг, сени озод қиламан”, деди.

Шунда камбағал киши оиласига хат ёзиб, унга шундай сўзлар битди: “Биламан, сизларда мени қутқариш учун тўлашга пулинглар йўқ. Аммо бу хатни мен бошимга тушган ишдан хабардор бўлишингиз учун ёзаяпман”.

Ўша кишининг ғоятда яхши ва жасур бир ўғли бор эди. Хат етиб бориши билан қароқчилар турган жойга етиб келиб уларга: “Эй жаноблар! Мен отамни текиндан-текин олиб кетмоқчи эмасман, чунки, биламанки, сиз асло бундай қилмайсиз. Аммо отам қари, заиф ва ишга яроқсиз киши. Уни қул бозорида сотсангиз ҳам кўп пул беришмайди. Унинг ўрнига мана мени сотсангиз кўп пул оласиз”.

Қароқчилар унинг бу таклифига рози бўлишди ва бошлиқлари билан маслаҳатлашиб жавоб бермоқчи бўлишди. Қароқчилар бошлиғи бу гапни эшитганида ўз қулоқларига ишонмади ва қари кишининг ўғлига ажабланиб шундай деди: “Ё тавба! Бу дунёда мана шундай жасур ўғлонлар ҳам борми? Ўзини мана шундай қурбон қиладиган кишилар ҳам борми бу оламда?! Мендан одамгарчилик кетдими? Отангни сен туфайли авф этдим. Қани энди кета қолинглар”.

Фақир ота ва унинг учун ўзини қурбон қилмоқчи бўлган ўғли хурсанд бўлиб уйларига қайтишди.

## **Одобли бола бўлиш қийинми?**

**О**добли бола ғоятда қадрли ва бебаҳодир. Хўш, одоб-ахлоқ ҳар бир боланинг кўрки ва бойлиги экан, бунга қандай қилиб эришиш мумкин?

Бола одобли бўлиш учун кўп машаққат ва риёзат чекиши шарт эмас. Одобли бола бўлиш учун ҳамма мақталган сифатларни ўзига сингдириб, ахлоқ қоидаларига амал қилиш керак. Шунда боланинг билим олиши ҳам, хулқи ҳам жойида бўлади. Одоб бор жойда билим олиш ҳам осон ва баракали бўлади. Чунки одобли боланинг ҳар бир ишида тартиб ва самара бўлади.

## **Имом Аъзамнинг ўғлига насиҳатлари**

*Эй ўғлим, сенга айтадиган бир қанча васиятларим бор. Уларни жон қулогинг билан эшитиб, амал қилсанг, икки дунёда бахт-саодат қозонасан:*



1. Барча ишларингда ниятни холис қил. Ҳалол луқма ейшига ҳаракат қил.

2. Барча аъзоларингни гуноҳ ва ёмон ишлардан сақла!

3. Нимани билишига муҳтож бўлсанг, уни билмай қолма!

4. Дунё ва охираат йўлида фойдаси тегадиган кишилар билангина дўст тутин.

5. Мусулмонга ҳам, гайримусулмонга ҳам душманлик қилма.
6. Аллоҳ берган ризққингга қаноат қил.
7. Бошқаларга муҳтож бўлиб қолмаслик учун қўлингдаги бор имкониятдан тадбиркорлик билан фойдалан.
8. Одамлар сенга наст назар билан қарашларига сабаб бўладиган ёмон ишларни қилма.
9. Ҳожатингдан ортиқча нарсаларга берилишдан сақлан.
10. Одамлар билан кўришганда гапни салом беришдан бошла, майин ва мулойим сўзла, яхшиларга ёқимли бўл, ёмонлар билан мурося қил.
11. Одамлар орасида низо ва жанжал чиққанида душманларингдан кўра дўстларингдан эҳтиёт бўл. Зеро, душманинг дўстингдан фойдаланиши мумкин.
12. Сирингни, пулингни ва борадиган жойингни бировга айтма.
13. Яхши қўшничилик қил ва уларнинг азиятларига сабр қил.

**Ёдда сақланг:** Имом Аъзам – Нўъмон ибн Собит (мел. 699-769) ҳанафий мазҳабининг асосчиси ва жуда катта олим.

## Қизалоқлар одоби

**К**из бола оиланинг зийнатидир. Қизи бор ҳовли файз таратиб туради. Қизнинг муомаласи унинг ҳуснидир. Қизнинг ҳаёси гўзаллигидир. Қизнинг ҳаёси билан андишаси бўлса, ясанишнинг ҳожати йўқ. Ҳаёси бор қиз оддий кийим билан ҳам чиройли кўринади.

Тарбия топиш ва одобли бўлиш ўғил болаларга қанчалик лозим бўлса, қиз учун ундан ҳам кўпроқ лозимдир. Шу сабабдан баъзи ишлар ўғил болаларга айб кўринмаса ҳам, қиз болаларда катта айб саналади. Масалан, либос ва бош кийим йиртиқ бўлиши ўғил болаларда ҳам айб, лекин қизларда ундан кўпроқ айбдир. Одобли қизлар эркак одам назарини тортмайдиган кийимларни кияди, ярим яланғоч кийим кийишдан уялади, уят

саналадиган аъзоларини беркитиб юради, кўчада бегона эр-как кишиларга қарамасдан, одобсиз сўзларга қулоқ солмасдан мактабга боради.

Мактабдан қайтгандан сўнг сабоқларини такрорлаб бўлиб, қизларга лозим бўлган уй юмушларини қиладилар. Улар кўпроқ кийим ва дўппи тикиш, ҳар хил таомлар пишириш, пишириқ ва ширинликлар тайёрлаш ва ўрганиш билан машғул бўладилар.

Одобли қиз ҳамиша онаси ёнида бўлади, кўча-кўйларга чиқиб юрмайди, бирон иш билан кўчага чиқса ҳам, кеч бўлмасдан уйига қайтади ва ўғил болалар билан ўйнамайди. Одобли қиз кир-чир, нопок ва йиртиқ, очиқ-сочиқ кийимларни киймайди, бошланг ва оёқланг юришдан ийманади. Одобли қиз уст-бошини тоза тутиб, сочларини тараб озода ва ораста бўлиб юради, оғзи ва тишларини тозаловчи воситалар билан поклаб, нохуш ҳид таралишининг олдини олади.

Одобли қиз тиззалари ва билакларини очиб, сочларини ёйиб юриш билан ўзини бошқаларга кўз-кўз қилмайди. Қиз бола ўз номусини пок сақлаши ва унга асло гард-ғубор тегизмаслиги керак. Қиз боланинг сўзи ва қиладиган иши ҳар доим одоб доирасида бўлса, ҳамма уни мақтайди ва ўзига келин қилишни дилига тутиб қўяди.

## Инсон жисм ва руҳдан иборат

**А**зиз болалар, инсон жисм ва руҳдан иборат. Бизнинг ўз танамиз олдидаги вазифамиз бўлгани каби маънавиятимиз – руҳиятимиз олдидаги вазифаларимиз ҳам бор. Буларнинг ҳар иккисини баробар олиб борилмаса, бирини қилиб, иккинчисини ўз ҳолига ташлаб қўйсак, комил инсон бўла олмаймиз. Шу сабаб ўз танамиз олдидаги вазифаларни билиб олишимиз лозим. Мазкур китобда биз болаларнинг моддий ва руҳий олами билан боғлиқ энг муҳим маълумотларни келтирамиз.

## Ухлаш одоблари

**И**нсон ҳар куни ишлаб, уйига чарчаб қайтганидан сўнг дам олишни истайди. Худди шундай болалар ҳам кундузи ўйнаб чарчайдилар. Кеч бўлганда кўчада қоронғи тушгунча санғиб юрмасдан дарҳол уйига кирадилар. Кечки овқатдан кейин дарсини қилиб, бошқа ишлари бўлмаса, маза қилиб ухлаб, дам оладилар. Эртанги кун учун куч тўплайдилар. Болалар ухлаганларида чарчоқлари чиқиб кетади. Улар уйқудан турсалар, яна аввалгидай кучли бўлиб қоладилар.

## Уйқуга тайёргарлик

**Б**олалар кеч бўлганда “мен эртароқ ётишим керак”, деган фикрни хаёлларига келтирсалар, яхши бўлади. Чунки эртароқ ётиш яхши одатдир. Эрта ётган бола қуёш чиқиб кетгунга қадар ухлаб ётмайди. Одобли болалар кечки овқатдан кейин дарс тайёрлаб, ундан кейин бошқа зарур иши бўлмаса, ҳар хил кераксиз ўйинга берилмасдан ухлайдилар. Чунки эрта ётган бола барвақт уйғонади. Кечқурун соат 9:00да ҳамма болалар уйқуга ётган бўлишлари керак. Баъзи болалар узоғи билан кеч соат 10:00да ухлашлари маъқул. Маълумки, бир ишга киришишдан аввал унга тайёргарлик кўрилади. Биз қуйида ухлашдан олдин қилинадиган амаллар ҳақида маълумот берамиз.

Уйқуга ётишдан олдин мана бу ишларни бажариш лозим:

- эшикларни қулфлаш;
- овқатлар устини ёпиш;
- техника асбобларини (компьютер, телевизор кабиларни) ўчириш;
- тишларни ювиш;
- олов ва чироқни ўчириш.

Техника асбоблари ишлаб турган пайтда улардан кўзга кўринмайдиган нурлар таралади. Бу нурлар инсон соғлиғига салбий таъсир қилади. Шунинг учун уларни ишлатиб бўлиб, дарҳол ўчириш керак. Ётишдан аввал тишларни ва юз-қўлни

ювишнинг фойдаси жуда кўп. Шундай қилган бола тинч ухлайди, ёмон тушлар кўрмайди.

## Уйқу одоблари

**У**ринга ётиш олдидан қилинадиган амаллар:  
– ўринни тайёрлаш ва текшириш;

– уйқу кийимида бўлиш.

– ўринга ётган пайтда қилинадиган амаллар:

– ўнг томонга ёнбошлаб ётиш;

– ўнг кафтни ўнг юзга қўйиб ётиш.

Уйқуга ётган пайтда мана бу ишларни қилиш номаъқудир:

– авратларини ёпмасдан ётиш;

– қорнини ерга қаратиб ётиш;

– оғзида овқат билан ётиш;

– ёнбошлаб олган ҳолда китоб ўқиш.

## Уйқудан эрта туришни ўрганинг

**У**йқудан эрта туриш яхши одат. Эрта туришнинг жуда кўп фойдалари бор.

Мактаб ўқувчилари кун чиқмасдан олдин ўрнидан туриб, ўз юмушларини бажарадилар. Улар юз-қўлларини ювиб, нонушта қилиб, сўнг мактабга боришга тайёргарлик кўрадилар. Аммо кичик болалар кечроқ уйғонсалар ҳам зарари йўқ.

## Уйқудан эрта туриш учун нима қилиш керак?

**Б**унинг учун учта нарсага эътибор бериш зарур:

– болалар кечқурун ҳаммадан эртaroқ ухлашлари керак. Чунки эрта ётган бола эрта туриши осон бўлади;

– уйқуга ётаётган бола “эрталаб барвақт уйғонаман”, деб ният қилиши керак;

– ухлашдан аввал катталарга: “Мени эртaroқ уйғотинглар”, деб тайинлаши лозим. Баъзи болалар кун чиққунча ўрнидан

турмасдан ётаверади. Биров уйғотса ҳам туришга эриниб, катталарнинг ундовини кутади. Ундай бола – ялқов ва дангаса, дейилади.

## Эрта туришнинг фойдалари

**У**йқудан эрта туришнинг ақл, бадан ва иймонга фойдаси бор. Ақлнинг тиниқлашиб, яхши ишлайдиган вақти тонг пайтига тўғри келади. Ана шу пайтда уйқудан турган боланинг ақли тиниқ ва ўткир бўлиб, мияси яхши ишлайди. Бундай боланинг дарсида ҳам, ишларида ҳам унум ва барака бўлади. У кечгача ғайратли ва хурсанд бўлиб юради. Ўртоқлари билан ҳам хушчақчақ ва қувноқ ҳолда ўйнайди.

Тана доимо соғ бўлиши учун ҳар куни эртароқ туришга одатланиш керак. Эрталаб бадантарбия билан шуғулланиш соғлиқни мустаҳкамлайди. Уйқудан кеч турган бола ўзини ланж ва лоҳас ҳис этади.

## Уйғонгандан сўнг

**У**йғонгандан сўнг қилинадиган ишлар мана булардир:

1. Уйғонгач, Яратганга шукр қилиш;
2. Кийимларни кийиш;
3. Жойни йиғиштириш;
4. Хонани шамоллатиш;
5. Бадантарбия;
6. Атрофдагилар билан сўрашиш.
7. Нонушта;
8. Мактабга тайёргарлик;
9. Ўқишга бориш.

Демак, сиз уйқудан кўзингизни очган заҳоти уйғониш дуосини ўқийсиз. Дуодан сўнг кийимларингизни киясиз. Ўринкўрпаларни чиройли қилиб йиғиб қўясиз.

Туни билан хона димиқиб қолган бўлади. Шунинг учун деразаларни бир оз очиб, ҳавони алмаштириш керак.

## Уйғонгандан сўнг қилиш номаъқул ҳисобланган амаллар

1. Ўриндан турмай, ялқовланиб ётавериш;
2. Ётадиган кийим билан одамларга кўриниш;
3. Ўринни йиғиштирмай туриб кетиш;
4. Юз-қўлни ювмасдан бошқа ишга киришиш;
5. Эрталабки зарур ишларини орқага суриш.

Эрталаб уйқудан тургач, озгина бадантарбия қилишга одатланиш керак. Бундай қилиш одамнинг соғлиғи учун жуда ҳам фойдалидир. Машқлардан сўнг нонушта қиласиз. Нонушта тайёрлашда катталарга ёрдамлашишни ўрганинг. Нонушта пайтида овқатланиш одобига риоя қилишни унутманг. Нонуштадан сўнг дарс жадвалига қараб, китобларингизни текшириб оласиз. Мактабга тайёргарлик кўрасиз. Бугун керак бўладиган китоб-дафтарларингизни эсингиздан чиқарманг. Мактабга кеч қолмасдан боришга одатланинг.

## Луқмони Ҳакимнинг ўғлига насиҳатлари (2)

Эй ўғлим, Аллоҳга ширк келтирма! Чунки ширк энг катта гуноҳдир. Одамларга юзингни буриштирма. Ҳеч қачон кеккайиб, манмансираб юрма. Чунки Аллоҳ такаббур ва мақтанчоқ кимсаларни хуш кўрмайди. Ерга қараб вазминлик билан юргин ва ҳеч қачон овозингни баланд кўтарма!

Эй ўғлим, саломатлик бебаҳо бойлик ва гўзал ахлоқ беқиёс неъматдир. Катталар билан гаплашаётганигда ҳар бир сўзингга аҳамият бер. Қариндошлар билан алоқани узма. Бекорчи ва бемаъни одамлар олдида ўтирма. Ўзингдан катталар билан ҳазиллашма.

Ўғлим, имкон қадар уруш-жанжалдан сақлан! Дунё ишлари учун ортиқча ғам ема. Ёшлигингни ғанимат бил ва илми кишилар билан маслаҳатлаш. Қайғуга ботма, ғамгин бўлма. Одамларнинг қўлидаги нарсаларга кўз тикма. Тақдирга рози бўл. Ўзингга берилган ризққа қаноат қил. Ўзингдан-ўзинг беҳуда ғамгин бўлма. Хафагарчилик билан қалбингни банд этма.

Эй ўғлим, аввало ўзингга насиҳат қил. Бошқаларга бир нарсани айтишдан олдин ўзинг унга амал қил. Билиминг ва ҳолингга қараб сўзла. Сукут қилсанг, пушаймон бўлмайсан. Сўз кумуш бўлса, сукут олгиндир. Катталар билан тортишма. Мусибатга сабрли, кишилар олдида камтар бўл.

Ўғлим, ёлғон сўзлашдан жуда эҳтиёт бўл. Чунки ёлғон динингни бузади ва одамлар олдида обрўйингни тўкади. Натижада эътибор ва даражангни йўқотасан. Очиқ чеҳрали, тўғри сўзли бўл. Саломлашишга одатлан.

Эй ўғлим, оз мол-дунё жўяли сарф-харажат ва тадбир билан кўпаяди. Кўп мол-дунё беҳуда сарф-харажат оқибатида камаяди. Агар қаноатли бўлсанг, дунёда сендан бой одам бўлмайди.

Эй ўғлим, меъдангни овқатга тўлдирма. Акс ҳолда ақлинг ва фаҳм-фаросатинг ўтмаслашади. Агар ошқозон тўлса, фикр ухлайди, ҳикмат сукутга кетади ва аъзолар ибодатдан бош тортади.

Эй ўғлим, ишларингда фақат олимлар билан маслаҳатлаш. Олим жоҳилни билади. Чунки унинг ўзи олдин жоҳил эди, жоҳил олимни билмайди, чунки у олдин олим бўлмаган.

Ўғлим! Яхшиликни унинг қадрига етадиганларга қил. Бўри билан қўй дўст бўлмаганидек яхшилик соҳиблари билан гуноҳкор кимсалар ҳам бир-бирига дўст бўлолмайди. Дунёда тоат-ибодатларга ҳам ғайрат қилки, охиратда сенга ҳамроҳ бўлсин. Дунёни батамом тарк этма. Ҳалолидан ризқ ишлаб топки, ҳеч кимга муҳтож бўлмайсан.

Эй ўғлим, ҳасад қилма, бировлар орқасидан ёмонлама. Агар сенга ёмонлик қилишса, кечиримли бўлгин, яхшилик кўрсанг, шукр қилгин, офат ва балоларга дуч келганингда сабр этгин. Ғайрлик ва кўра олмасликдан ҳазар қил, касалмандлар зиёратини қанда қилма, ўтганларни ёмон сифатлар билан эслама.

Фарзандим, сўзни юмшоқ сўзла, қаттиқ сўзлама, аҳмоқ ва жоҳилларни сукут билан кутиб ол. Вақтингни кўпини сукут билан ўтказ. Кўпроқ тафаккур қилсанг, тилинг балосидан қутуласан. Сукут саломатлик эшигини очувчи ягона калит-

дир. Ўзингдан катталар билан тортишма ва уларга қайсарлик қилма. Ўзингдан кичикларга паст назар билан қарама, бир сўзни айтмоқчи бўлсанг, яхшилаб ўйлаб гапиргинки, ҳеч ким сенга “уф” демасин.

Эй ўғлим, ёзда сойдан, қишда кўзадан сув ичма. Очкўзлик баданнинг энг катта душманидир, иштаҳасизлик ҳам шундай. Ювингач, маълум муддат ўраниб ётиш керак. Овқатдан сўнг юриш керак. Оёғингни иссиқ тут, бошингни салқин...

Эй ўғлим, бировга яхшилик қилсанг, яхшилигингни эсла-тиб, уни уялтирма, камситма. Бировга ичирган ва едирганинг-ни миннат қилиб, заҳарга айлантирма! Эвазига нарса кутиб қилинган яхшилик яхшилик ҳисобланмайди, балки у оддий олди-бердидан иборат, холос.

### **Ҳожатхонага кириш ва ундан чиқиш одоблари**

**О**дам боласи ҳар куни овқатланиб, сув ичадиган қилиб яратилган. Шундай экан, инсон ҳар куни ҳожатхонага боришга ҳам муҳтож. Ейилган овқат ошқозонда ҳазм бўлиб, бир қисми баданга озуқа ҳолида сўрилади, ундан қолган қисми эса ортиқча чиқиндига айланади. Чиқиндига айланган бадандан ташқарига чиқишга йўл қидиради. Ҳожат ушатиш ана ўша ортиқча ва зарарли нарсалардан қутулиш бўлади. Инсон ҳар куни ҳожатхонага киради, лекин кўпчилик унга киришнинг қоидалари борлигини яхши билмайди. Уларга амал қилишнинг инсон соғлиғи учун катта фойдаси бор.

### **Ҳожатхонага киришдан олдин**

**Х**ожатхонага киришдан олдин қуйидаги ишларга аҳамият бериш керак:

1. Оғзида овқат юқи қолмаслиги;
2. Қўлининг тозаллигига эътибор бериш;
3. Қалин кийимларини ташқарига ечиб кириш;
4. Қўлида бирон нарса бўлса, уни ичкарига олиб кирмаслик;

5. Муқаддас каломлар – оят ва ҳадислар бўлса, ташқарида қолдириш;

6. Ҳожатга киришдан олдин дуо ўқиш;

7. Ҳожатнонага чап оёқ билан кириб, у ердан ўнг оёқ билан чиқиш.

Оғизда чайнаб ютилмаган таом бўлаги бўлса, у билан ҳожатхонага кирилмайди. Шунингдек, қўл ёғ ёки ифлос бўлса, олдинига қўлни яхшилаб ювиб олиш керак. Акс ҳолда қўл кийимни ушлаганда кийим ифлос бўлади. Ҳожатхонага киришдан аввал қалинроқ устки кийимлар нопок сув тегмаслиги учун ташқарида ечиб қўйилади. Устки кийим деганда пальто, чопон ва куртка каби қалин кийимлар тушунилади.

Баъзи болалар қисталиб турса ҳам, ўйинни кўзи қиймасдан ўйнашда давом этаверади, фақат иложи қолмаган вақтда ҳожатхонага югуриб қоладилар. Шунинг унутмангки, болалар, ҳожати қистаганда ўзини зўриқтириш соғлиққа зарар. Чунки бунақа пайтда сийдик қонга шимилишни бошлайди.

## Ҳожатхонага киргандан кейин

**Х**ожатхонага киргандан кейин аҳамият бериш керак бўлган ишлар мана булар:

1. Ҳожатхона эшигини қулфлаб олиш;

2. Кийимни нопок нарсалар тегишидан эҳтиёт қилиш;

3. Тана аъзоларини покиза сақлаш;

4. Ҳожатдан сўнг тозаланиш;

5. Тозаланишда чап қўлни ишлатиш.

6. Ҳожат чиқариш вақтида гапирмаслик.

Ҳожатга кирган одам ҳеч кимнинг кўзига кўринмаслиги керак. Чунки уят (аврат) жойини бировга кўрсатиш ёки бировнинг авратига қараш асло мумкин эмас. Шунинг учун ҳожатхона эшигини қулфлаб олиш даркор. Ҳожат ушатаётган жойда ўзидан бошқа ҳеч ким бўлмаслиги керак. Айрим болалар кўчада ўйнаб юрганда ҳожатхонага киришга эриниб, даҳшат таги ёки шунга ўхшаш одамлар ўтадиган жойларга тик туриб чоптиради. Бу ҳолда сийдик кийимига тегиб, уни иф-

лос қилса, иккинчидан пойабзал ифлос бўлиб, шу ифлос нарса билан уйига кириши мумкин. Мусулмон боланинг кийимлари ҳамда танаси тоза ва беҳид бўлиши лозим. Агар кийимга ёки баданга нажосат тегса, албатта уни тозалаш керак, шунда ҳам кетмаса, уни ювиш керак.

Инсон ҳожатхонада бўшаниб бўлгач, нажосат чиққан аъзони ювиб, тозаланади. Тозаланишда махсус қоғоз, кесак ёки сувдан фойдаланиш маъқул. Нажосат чиққан жойни олдинига қоғоз билан артилиб, ундан кейин илиқ сув билан ювилади. Бунда совуқ сувдан фойдаланилса, аврат аъзоларини шамоллатиб қўйиши мумкин. Тозаланишда тезак ва суяк каби нарсаларни ишлатиш асло мумкин эмас. Тозаланиш пайтида чап қўлдан фойдаланиш керак. Чунки ўнг қўлни одамлар билан сўрашиш ва овқат ейиш учун ишлатилади.

## **Ҳожатхонада қилиш таъқиқланадиган ишлар**

**Х**ожат ушатиш пайтида баъзи ишларни қилиш мумкин эмас. Жумладан:

1. Қиблага қараб ёки орқа қилиб ўтириш;
2. Кўп ўтириш ёки мудраш;
3. Биров билан гаплашиш;
4. Бирор нарсани қўлида тутиб ўқиш;
5. Ейишга улгурмаган нарсани олиб кириб у ерда еб-ичиш;
6. Сув ва қоғозни кўп ишлатиш;
7. Тозаланиш пайтида сувни сачратиш;
8. Узрсиз тик туриб ёзилиш;
9. Заруратсиз аврат аъзосига қараш;
10. Ҳожатхонани ифлос қилиб чиқиш.

Очиқ ерда ҳожат ушатишга тўғри келиб қолса, қуйидаги ишлар таъқиқланади:

1. Ой ёки қуёшга қараб ўтириш;
2. Шамол эсаётган томонга қарши ўтириш;
3. Оқаётган ёки тўхтаб турган сувга чоптириш;
4. Экинзорга ёки мевали дарахт остига ёзилиш;
5. Қабристонга ҳожат ушатиш;

6. Тешик ва ковакка сийиш;
7. Ҳашаротлар устига ҳожат ушатиш.
8. Одамлар ёки ҳайвонлар ўтадиган йўл устида ҳожат ушатиш.

### Ҳожатхонадан чиқиш

**Х**ожатхонадан чиқишда қуйидаги ишларга эътибор бериш лозим:

1. Ахлат кетадиган ерни сув билан тозалаш;
2. Сув жўмрақларини ўчириш;
3. Кийимларни чиройли кийиш;
4. Ҳожатхона қоғозини текшириш;
5. Чироқни ўчириш;
6. Ўнг оёқ билан чиқиш;
7. Чиққандан сўнг зикр айтиш.

Болалар, ҳожатхонадан чиқаётган пайтингизда у ернинг тозалигини кўздан кечиринг. Ҳожатхона сиздан кейин озода ҳолда қолиши керак. Баъзи беадаб болалар ўзлари ўтирган ерни тозаламасдан чиқадилар. Бу яхши тарбия олмаганини кўрсатади. Сув жўмрақларини ҳам яхшилаб ўчириш керак. Чала бураб чиқиб кетилса, сув оқиб, исроф бўлади. Ҳожатхонадан чиқмасдан туриб, кийимларни чиройли қилиб кийиб олинади. Уст-бошининг у ёқ-бу ёғига қарамасдан ёки тугмаларини яхши қадамасдан чиқиш уят бўлади.

Ҳожатхонадан ўнг оёқ билан чиқиш одобдандир. Ҳожатхонадан чиққандан кейин иккала қўлни яхшилаб, иложи бўлса, совунлаб ювилади.

### Соғлиқни сақлаш чоралари

**Б**олалар, сизлар яхши биласизларки, соғлиқ етук инсон бўлишда муҳим аҳамиятга эгадир. Чунки соғлом ва тетик кишининг ишлари ҳам унумли бўлади. Соғлиқ йўқотилган жойда иш ҳам унмайди, инсон бирон ютуққа эриша олмайди. Шунинг учун Аллоҳ тарафидан берилган соғлиқни сақлаш ҳар бир одамнинг бурчидир. Айниқса, бунга кўпроқ болалар

аҳамият беришлари керак. Азиз болажон, сен ёшлигингдан соғлиқни сақлашга эътибор бериб, зарарли одатларни тарк қилсанг, катта бўлганингда ҳам соппа-соғ ва бардам-бақувват юрасан, оғриқ, касаллик ва бошқа қийинчиликлардан холи бўласан. Айрим болалар кичик ёшидан катталарга тақлид қилиб, чекиш ва ичишга одатланади. Бу соғлиқ учун катта зарар, шунингдек, кейинчалик бу одатни ташламоқчи бўлганида уни ташлашга қийналади ва афсусланади. Шунинг учун чекиш ва ичишга мутлақо яқин бормаслик керак. Катталар чекиб-ичиб юрибди-ку, зарар бўлганида буни ташлаган бўларди деб хато ўйламаслик керак. Балки улар қутулиш чорасини топа олмасдан ич-ичидан қийналиб юргандир ёки ўрганиб қолганидан ташлай олмаётгандир.

### **Болалар луғати**



**Соғлиқ** – сиҳҳат, саломатлик, одамнинг касал бўлмаётган саломат ҳолда юриши.

**Чора** – тадбир, илож, йўл (масалан, қийин вазиятдан чиқиш йўли чорадир).

### **Фойдали маслаҳатлар**



1. Соғлигини ўйлаган киши ўз овқатининг асосий қисми сабзавотлар, мевалар ва булардан ташқари шифобахш таомлардан иборат бўлишига эътибор қаратиши лозим.

2. Бадантарбия баданни соғлом ва кучли ҳамда аъзоларни мукаммал даражага етказишидир. Чунки инсон ҳаракат қилишга яратилган, ҳаракатсиз бахт-саодатга эришиб бўлмайди.

3. Ҳар кун бадантарбия қилишга одатланган одамга дард яқин келмайди.

4. Бадантарбия билан машғул бўлинса, ҳеч қандай дори-дармонга зарурат қолмайди. Бунинг учун маълум бир тартибга риоя қилиш ҳам шарт.

5. Бадантарбияни тарк этган киши ялқов ва дангаса бўлиб қолади. Зеро, ҳаракатсиз қолган аъзолар заиф ва нимжон бўлади.

6. Баданнинг саломат ва қувватли бўлиши инсонга энг керакли нарсадир. Чунки ўқиш, ўқитиш, ўрганиш ва ўргатиш учун инсон соғлом ва тетик бўлиши лозим.

7. Тананинг роҳати таомнинг озлигидадир. Дилнинг роҳати сўзнинг камлигидадир. Рухнинг роҳати уйқунинг камлигидадир.

8. Кўп овқат ейдиганлар овқати бадҳазм бўлади. Овқати бадҳазм бўлган киши доим дардманд бўлади.

### **Озодалик соғлиқ гарови**

**Э**й фарзанд, агар баданинг соғлом ва тетик бўлишини, ақлинг ўткир ва қалбинг хушнуд бўлишини истасанг, қўйидаги насиҳатларга қулоқ сол:

1. Қишда ҳар ҳафтада камида икки марта иссиқ сув билан, ёзда эса ҳар куни бир марта илиқ сув билан ювин.

2. Ухлашдан олдин ва уйқудан тургандан кейин юзинг, қўлларинг ва оёқларингни юв.

3. Одамлар олдида кўзинг, қулоғинг ёки бурнингни ўйнаб кавлама. Чунки бу ўша аъзоларга зарар беради ва одамларни сендан нафратлантиради. Агар уларни тозаламоқчи бўлсанг, бир чеккага ўтиб, тоза дастрўмол билан артиб тозала.

4. Одамлар олдида тишларингни кавлама ва тирноқларингни олма. Чунки бу жуда хунук одат.

5. Ухлашдан олдин ва уйқудан тургандан кейин мисвок ва тиш чўткалари билан тишларингни тозалаб ювгин. Чунки овқат қолдиқлари милк ва тишларга зарар етказиб, оғизнинг ҳидини бузади.

6. Юз артиладиган сочиқ, тиш чўтка, ухлайдиган кроват, ёстиқ, ёпинчиқ ва тароқ каби нарсалар алоҳида ўзингники бўлсин, уларни сендан бошқа одам ишлатмасин.

7. Сувни тоза ва соф ҳолида ич.

8. Юзинг, таоминг ёки ичадиган ичимлигингга пашша қўнишидан эҳтиёт бўл. Чунки у кўпинча юқумли касаллик

микробларини олиб юради, ана шуларни сенга ҳам юқтириши мумкин.

9. Одамлар сенга ҳурмат-эътибор ва ҳавас билан қарашлари учун кийимларинг тозалигига ва кўринишинг чиройли бўлишига эътибор бер.

10. Зарарли ҳашаротлар бўлмаслиги учун яшайдиган уйинг тоза бўлишига ҳаракат қил.

11. Сен ухлайдиган хонанинг ҳавоси бузилмаслиги учун қуёш нурлари кириб турадиган тарафда бўлсин.

12. Мактаб қуроллари ва уйда ўйнайдиган ўйинчоқларинг тозалигига риоя қил. Шунда уларнинг кўркемлиги сақланиб, болалар билан ўйнаганда қўллари кир-чир бўлмайди. Қўлларинг ёки кийимларингни сиёҳ билан ифлослама.

13. Доимо тоза жойларда ўйна ва сайр қил.

## **Кўчада ҳолва еган бола**

*(Ҳикоя)*

**Б**ир кичкина бола кўчада ўйнаб ўтирганда ҳолва сотувчи ўтиб қолди. У сотиб юрган ҳолвасини пашша ва чанглардан эҳтиёт қилмас эди. Бола бир танга бериб, ҳолвасидан сотиб олди. Бир неча кундан кейин қаттиқ касал бўлиб ётиб қолди ва отаси уйга табиб чақириб келди. Кўп савол-жавоблардан кейин табиб унинг касали ҳолва ейишдан келиб чиққанини аниқлади. Уни даволаш учун безгак касалликлари шифохонасига олиб боришга буюрди. Оиласи изтироб чекиб, отаси уни даволашга кўп пул сарфлади. У касалхонада бир ой ётиб, тузалиб чиқди.

## **Тоза тутиш керак бўлган нарсалар**

**Б**из ўзимизни ҳам, атрофдаги нарсаларни ҳам доим озода сақлашимиз лозим. Ҳар биримиз беш хил нарсани тоза сақлашни ўрганишимиз керак. Озода сақланиши шарт бўлган беш хил нарса мана булар:

- 1) Тана аъзолари;
- 2) Кийимлар;
- 3) Шахсий буюмлар;
- 4) Уй ва хоналар;
- 5) Атроф-муҳит.

## **Тана аъзоларини тоза тутиш**

**Т**арбияли бола ўз танасини озода ва пок тутади. Аммо баъзи аъзоларни бошқасига қараганда кўпроқ ювиб туриш керак.

Тез-тез ювиб туриш лозим бўлган тана аъзолари қуйидагилар: 1) Қўл; 2) Юз; 3) Тиш; 4) Бурун; 5) Бош; 6) Оёқ.

1) Қўл. Қўл жуда кўп фойдали хизматларни бажаради. Биз қўлимиз билан юзимизни ва танамизнинг барча аъзоларини ювамиз. Қўлда овқат еймиз, бир-биримиз билан қўл бериб сўрашамиз. Қўлда бир нарсани оламиз ёки берамиз. Шунинг учун қўлларимиз доимо тоза бўлиши шарт. Тирноқларни ўстириб юбормасдан олиб туриш ҳам қўлнинг тозалигини таъминлайди. Бола тирноғини ўзи ололмаса, катталарга айтиб олдиради.

2) Юз. Юз ҳаммага кўриниб турадиган аъзодир. Тананинг бошқа аъзолари кўпинча кийим ёпиб туради. Аммо юзни кийим ёпмайди. Чанг ва кирлар юзга тез ёпишади. Шунинг учун юзни бошқа аъзоларга қараганда кўпроқ ва тез-тез ювиб туриш зарур. Одамлар бир-бирлари билан гаплашганда юзга қараб гаплашадилар. Юзи кир бўлган ҳолда бошқаларнинг кўзига кўриниш уят саналади.

3) Тиш. Аллоҳ тишларни чиройли қилиб яратган. Уларни авайлаб асраш керак. Тишлар соғлом ва оппоқ бўлса қандай яхши! Оппоқ тишлар инсонга чирой бағишлайди. Тишлар овқатни чайнаб, майдалаб беради. Агар улар тоза бўлса, овқат ҳам қоринга покиза ҳолатда киради. Тишларни тез-тез ювиб турилмаса, улар орасида кир тўпланади ёки ҳидланади. Бу кирлик овқатга қўшилиб, қоринга тушса, одам касал бўлиб қолади.

Тишини яхши ювмайдиган боланинг тиши кўп оғрийди. Тиш оғриғи жуда ёмон. Тишга эътибор берилмаса, у сарғайиб, хунук тус олади. Тиши хунук бўлиб юриш ҳам дуруст эмас. Овқатланиб бўлгандан сўнг тишларни яхшилаб ювиш зарур. Акс ҳолда оғизда ёқимсиз ҳид пайдо бўлиб, ёнидаги одамга озор беради.

Тишни ҳар куни икки марта мисвок ёки паста (маъжун) билан ювиш керак. Пайғамбаримиз таҳорат олаётганда тишини мисвок билан ювганларни мақтаганлар. Одамларнинг олдида тишни кавлаш хунук одат. Бу беодобликдир. Агар кавламоқчи бўлса, қўли билан оғзини тўсиб кавлашнинг зарари йўқ.

4) Бурун. Аллоҳ бурунни ҳам муҳим вазифа учун яратган. У нафас олишимизга ёрдам беради. Агар бурун тоза бўлса, инсон ютаётган ҳаво ичкарига соф ва безарар ҳолатда киради. Одобли бола ҳеч кимнинг кўзи тушмайдиган жойда бурунларини қоқиб, тозалаб олади. Бировнинг олдида асло бурнини тортмайди ва кавламайди. Баъзи болалар эса ҳадеб бурнини тортаверади. Бунақа одат ҳеч кимга ёқмайди.

Инсон аксирганда ёки йўталганда юзини четга буриши керак. Оғзи ва бурнини дастрўмол ёки енги билан тўсиши лозим. Чунки бундай пайтда бурун ва оғиздан зарарли моддалар отилиб чиқади.

5) Бош. Инсон ҳаёти учун жуда зарур ҳисобланган аъзолар – мия, қулоқ, кўз, бурун ва оғиз бошда жойлашган. Демак, бошга яхши аҳамият бериш лозим. Уни тез-тез ювиб туриш талаб этилади. Қизлар сочларини ҳафтада камида бир марта ювиб туриши керак. Ўғил болалар сочларини кўп ўстириб юборишлари дуруст эмас. Сочни бир ойда бир марта олинадиган ёки қисқартирилади. Бош, кўз, қулоқ, бурун ва оғизни ойнага қараб тозалигини текшириб туриш керак.

б) Оёқ. Оёқ кўпинча пайпоқ ичида бўлгани учун кўзга ташланмайди. Аммо уни ҳам вақтида ювиб турилмаса, ундан ёмон ҳид тарқала бошлайди. Шунинг учун таҳорат пайтида оёқнинг панжалари орасини бармоқ билан ишқалаб ювилади. Шунда улар покиза ва соғлом бўлади.

## Ҳар бир соҳада тозаллик муҳимдир

**Х**ар бир соҳада тозалikka аҳамият бериш ва поклик сари интилиш тараққиётнинг асосидир. Юқорида инсоннинг танаси, уй-жойлари ва либослари тоза бўлиши лозимлиги айтиб ўтилди. Аммо биз яна бир аъзонинг поклигига алоҳида эътибор беришимиз лозим. Бу қалбдир. Тўғри, болалар қалби туғилганида пок ва маъсум ҳолда туғилади. Бу аъзони одоб ва хуш хулқлар ҳар хил чирк ва ифлосликлардан асрайдди. Аммо тенгдошларингиз ичида ёмонлик қилишни қалбида асраб юрадиган болалар ҳам учраши мумкин. Шундай экан, ҳар қандай зарарли ишлардан сақлансак, қалбимизни ҳам тоза сақлаган, уни турли маънавий кирлардан пок тутган бўламиз.

## Зарарли одатлардан узоқ бўлинг!

**Х**урматли болажонлар, ҳаётда инсон соғлиғи ва руҳий ҳолатига зарар келтирувчи нарсалар кўп. Масалан, маст қилувчи ичимликлар ва тамаки маҳсулотларини истеъмол қилишнинг соғлиғимиз учун зарари катта. Чунки маст қилувчи ичимликлар инсон ақл-ҳушини кетказадди, унга ҳар тарафлама зиён етказадди. Тамаки эса саломатлигимизнинг асосий кушандасидир. Ҳатто унинг ҳиди ҳам ўта зарарли. Тамаки чеккан одам хавфли рак касаллигига чалиниши илмий томондан тасдиқланган. Яна чекувчи кишиларнинг оғзи, кийимлари ва қўлидан бадбўй ҳид келиб туради. Шундай экан, болалар, бундай зарарли нарсалар ўрнига фойдали бўлган таомлар, мева-сабзавотларни истеъмол қилиш соғликка жуда фойдалидир.

## Жанжалкаш бола

*(Ибратли ҳикоя)*

**З**окир аълочи ўқувчи, аммо уни ўртоқлари унча ёқтирмайдди. Чунки у доим ким биландир жанжаллашиб-тортишадди, муросани билмайдди. Куз кунларининг бирида болалар кўл бўйида йиғилишди. Улар кўллар ва денгизлар

ҳақида гаплашиб, денгизлар кўлларга нисбатан совуқроқ ва чуқурроқ бўлиши ҳақида тортишиб қолишди. Аммо Зокир ўз одатига кўра болалар фикрига қарши бориб, ўзининг гапини маъқулларди.

Аммо бу гал дўстлари одатини яхши билишгани учун унинг фикрига қўшилишмади. Шундан кейин улар ўйнаб майда тошчаларни кўлга ота бошлашди. Бу майда тошчалар сув сатҳида чўкмасдан турарди. Шу куни Форуқ бошқаларга қараганда кўпроқ хурсанд эди. Форуқ отган тошлар сув сатҳида чўкмасдан турганини кўрган Зокир ҳасад қилиб ундан сўради: “Кўлингдаги тошларни кўрсам майлими?”. Форуқ кафтини очганда Зокир унинг кафтидаги тошларни бирмабир кўздан кечира бошлади. Аслида эса бу тошлар бошқа тошлардан фарқ қилмасди. Аммо уруш-жанжални яхши кўрувчи Зокир унга деди: “Кўриб турибманки, сен энг кичик ва энг енгил, қоғоздек юпқа тошларни йиғибсан. Бунақа тошлари бор киши ютиб чиқиши керак”.

Форуқ феъли кенг бола эди. Шунинг учун Зокирга қараб деди: “Гапингга қўшиламан, кел, бўлмаса тошларимизни алмаштирамиз, бу тошларни сен олгин-да, кўлингдагиларни менга бер”.

Лекин бу билан ҳеч нарса ўзгармади. Шунда автоҳалокатга учраб, чўлоқ бўлиб қолган Ҳайдар деган бола Зокирга яқин бориб, унга одоб билан деди: “Азиз дўстим, бугун ўйинда ютиб чиқа олмаганинг учун кайфиятинг яхши эмас”.

Ютқазгани алам қилиб, Зокирнинг роса жаҳли чиқди ва унга қараб бақирди: “Биз нима қилаётганимизни тушунмайсан, сен чўлоқ!” Зокирнинг Ҳайдарга айтган гапи бошқа болаларга таъсир қилиб: “Нега бундай дейсан? Унинг кўнглини оғритдинг”, деб Зокирга танбеҳ беришди. Зокир қилган ишидан пушаймон бўлди...

## Овқатланиш одоби

Эй фарзанд, овқат ейишнинг ҳам бир қанча одоблари бўлиб, ҳар бир бола уларга амал қилиши керак. Шундай қилса, соғлиги яхшиланиб, тана бақувват бўлади. Овқатланиш одобларига риоя қилган боланинг ақли ва зеҳни ўткирлашиб, ҳар хил касаллик ва оғриқлардан саломат бўлади. Боланинг қай даражада тарбияли экани унинг дастурхон атрофида ўзини қандай тутишидан ҳам кўриниб туради.

## Овқатланишдан олдин

Қачон овқатланиш керак? Ҳамма яхши биладики, қачон қорин очса, овқат ейишга иштаҳа пайдо бўлади. Аммо баъзи болалар овқатни кўриб қолса, одоб ва риояни ҳам унутиб дарҳол овқатга ташланади. Бу овқатланиш одоби ва тартибига зиддир. Шунини унутмаслик керакки, фақат қорин очган вақтда овқатланиш танага фойда келтиради. Тўқ қоринга устма-уст овқат ейиш соғлиққа зарар етказиши. Қорин очган пайтда ейилган овқат баданга яхши ҳазм бўлади ва уни зўриқтирмайди. Шофеъийнинг: «Ўн йилдан бери тўйиб овқат емадим. Чунки тўйиб ейиш баданни оғирлаштиради, фатонатни кеткизиши, уйқуни келтиради ва соҳибини ибодатдан қолдиради», деган сўзига эътибор беринг. У зот таом етарли бўла туриб, нафсини тўйиб овқатланишдан тийганлиги бежиз эмас. Кўп овқат ейиш баднафсликни келтириб чиқаради, сабрқаноатли бўлишдан узоқлаштиради.

## Овқатланишга тайёргарлик

Овқат пайти бўлди, дейлик. Демак, ўз-ўзидан овқатланишга иштаҳамиз очилади. Айрим беодоб болалар дарагини эшитган заҳоти овқат ейишдан олдин бажариш лозим бўлган одобларни унуттади. Овқат ейишдан олдин қўлни кир бўлса-бўлмаса, дарҳол ювиб олиш керак ва шунга доимо одатланиш лозим. Дастурхон ва сочиқлар ҳам озода, овқат

сузиладиган идишлар ҳам ювилган бўлиши керак. Синиқ, дарз кетган ёки чети учган пиёла ёки косаларда овқатланиш мутлақо мумкин эмас. Дастурхон солишда кўпроқ қиз болалар катталарга қарашиб, дастурхонда қайси нарса қаерда туришини ёшлигидан билиб бориши керак. Ўғил болалар ҳам дастурхон ёзиш ва овқат келтиришда онаси ва опа-сингилларига ёрдам берса, фойдадан холи эмас.

## Ёши катта биринчи бошлайди

**Д**астурхонга овқат келтирилганида атрофида ўтирганлар бир-бирини овқатланишга ундаши керак. Ҳамма ўзича қўл узатиб ейвериши одобдан эмас. Агар ёши катта киши ёки меҳмон ўтирган бўлса, унинг дастурхонга қўл узатишини кутиб турилади. Овқатга қўл узатишдан олдин Аллоҳ таолодан ейладиган таомни фойдали ва баракотли қилишини сўраймиз. Овқатга қўл узатилганда “бисмиллоҳ”ни тўлиқ айтиб, овқат ейишни бошлашни катталар ёши кичикларга ўргатиб бориши керак. Чунки кекса ота-боболаримиз айтишларича агар бисмиллаҳ, деб айтилмаса, бу таомга шайтон шерик бўлиб, унинг баракасини кеткизар экан. Қолаверса, овқатга ёмон шерик қўшилгандан кейин унинг баракаси ҳам кетади.

Демак, овқат ейиш олдидан бажариш лозим бўлган амаллар мана булардир:

1. Қўллар тоза бўлиши;
2. Одоб билан ўтириш;
3. Ёнидагиларни таклиф қилиш;
4. Таом дуосини ўқиш;
5. “Бисмиллоҳ”ни айтишни унутмаслик.

## Овқатланиш пайтида

**О**вқат ейиш пайтимизда мана бу одобларга амал қиламиз:

1. Ўнг қўл билан ейиш;
2. Ўз олдидан ейиш;
3. Лукмани кичикроқ олиш;

4. Яхши сўзлардан гапириш.

Бу саналган амалларнинг ҳар бири ҳақида устозлар истаганча гапириб беришлари мумкин. Овқатдан ҳаддан ошиқ тўйиб кетмасдан олдин қўлни тортган маъқул.

## **Овқатланиш пайтидаги ёқимсиз ишлар**

**О**вқатланиш пайтида ёқимсиз саналган ишларни қилиш бирга овқатланиб ўтирганларга хуш келмайди. Уларнинг иштаҳасини бўғиб қўяди. Овқатдан ҳам барака кўтарилади. Овқатланиш одобига тўғри келмайдиган макруҳ (ёқимсиз) ишлар уч турга бўлинади:

1) Овқат ейишдаги макруҳ ишлар:

1. Чап қўлда овқатланиш;
2. Оғзидагини ютмасдан овқатга қўл чўзиш;
3. Тик туриб ёки юриб овқатланиш;
4. Ёнбошлаб ёки оёқни узатиб овқатланиш;
5. Оғзида овқат билан гапириш;
6. Чапиллатиб ейиш, хўриллатиб ичиш;
7. Шошиб овқат ейиш;
8. Имиллаб овқат ейиш;
9. Овқатга пуфлаш;
10. Тўйгандан сўнг ҳам еявериш.

2) Ўзини тутишдаги макруҳ ишлар:

1. Овқатни айблаш;
2. Ёқимсиз сўзларни гапириш;
3. Дастурхонга қараб йўталиш, аксириш;
4. Бурун, тиш ёки қулоқ кавлаш;
5. Бирор аъзосини қашлаш.

3) Бошқалар билан овқатланишдаги макруҳлар:

1. Овқатга чақирганда тез келмаслик;
2. Катталардан олдин овқатни бошлаш;
3. Бировнинг оғзига ёки овқатига қараш;
4. Таомнинг яхшисини ўзига олиш;
5. Бировнинг олдидагини олиб ейиш;
6. Ҳаммадан олдин қўлни тортиб олиш;

7. Одамлар еб бўлгандан сўнг ҳам еявериш;

8. Бошқалардан тез ва кўп ейиш;

9. Ҳаммадан кўп гапириш;

10. Сукут сақлаб ўтириш.

Булардан ташқари, қошиқва идишларни қаттиқ тақирлатиш, тўкиб-сочиб овқатланиш ҳам дуруст эмас. Синган ва дарз кетган идишда овқат ейиш соғлиқ учун зарарли.

## Овқатлангандан сўнг бажариладиган ишлар

**О**вқатланиб бўлгандан сўнг мана бу ишларни қиламиз:

1. Тарелкани (ёки косани) нон ёки бармоқ билан ялаш;
2. Дастурхонга тўкилган ушоқ ёки овқатларни териб ейиш;
3. Бармоқдаги овқат қолдиқларини ялаш;
4. Таомдан кейин айтиладиган дуони ўқиш;
5. Овқат тайёрлаганга раҳмат айтиш;
6. Дастурхонни йиғиштириш;
7. Идиш-товоқларни ювиш;
8. Қўл ва оғизларни ювиш.

### Овқатланишнинг умумий одоблари

**А**зиз болалар, қуйидагилар овқатланишнинг умумий одобларига киради:

1. Ейиладиган таом ҳалол йўл билан топилган, яхши ва тоза бўлиши керак.
2. Фақат рухсат этилган нарсаларни еб-ичиш, соғлиқ учун зарарли егуликлардан сақланиш.
3. Таомни етказгани учун Аллоҳга шукроналар айтиш.
4. Таом ейишдан олдин қўлларни ювиш ва оғизни чайиш.
5. Таомни ўнг қўли билан ейиш.
6. Ўртадаги идишдан овқатланаётганда ўз олдидан олиб ейиш, бошқалар олдидаги нарсаларга қарамаслик ва ҳожатидан ошиғини емаслик.
7. Дастурхон атрофида тоза ва покиза кийимда ўтириш.
8. Луқмани кичикроқ олиш, катта луқма олиш ва яхши чай-намай ютиш ўта одобсизлик ва соғлиқ учун зарардир.

9. Овқат яхши ҳазм бўлиши учун уни яхшилаб чайнаш. Ҳар хил овозлар чиқариб, пишиллаб чайнамаслик.

10. Оғизни овқат билан тўлдириб олмаслик ва оғизда овқат бор пайтда гапирмаслик.

11. Бошқа бир кишининг еяётган таомига ва олган луқмасига қарамаслик.

12. Оғзига солинган овқатдан суяк ва бошқа нарсалар чиқса, оғиздан олиб дастурхонга қўймаслик. Ўзгалар эътиборини қаратмаслик учун шундай қилинади.

13. Ўзгалар иштаҳасини бузадиган ва дилини сиёҳ қиладиган ҳаракатдан ниҳоятда эҳтиёт бўлиш.

14. Одамлар овқат еяётганида тишни кавламаслик. Тишдан чиққан нарсаларни одамлар назари тушмайдиган жойга ташлаш.

15. Овқат ейиш вақтида иложи борича сув ичмаслик, агар ичмоқчи бўлинса, пиёла ёки идиш ёғ бўлмаслиги учун олдин қўлни яхшилаб артиш керак.

16. Нонни ерга ташламаслик, нон устига товоқ ва бошқа идишларни қўймаслик.

17. Бир хил овқат билан кифояланиш ва ошқозон тўлиб кетгунгача овқат емаслик. Агар шундай қилинса, овқат ҳазм бўлиши оғирлашиб, касаллик келтириб чиқариши мумкин.

18. Агар аксирмоқчи ёки оғзидан бир нарсани чиқармоқчи бўлса, юзни дастурхондан бошқа томонга буриш ва оғизни беркитиш.

19. Овқат идишини яхшилаб тозалаб қўйиш, таомни охиригача еб, коса ва лагандаги ёғларни нон билан артиб олиш. Мана шунда барака ва файз ёғилади, исрофдан сақланилади.

20. Қўлдаги ёғни аввал ялаб, кейин сочиққа артилади. Қўл ёғини яламасдан ювиб ташлаш ёки артиш исрофдир.

21. Агар мактаб ошхонасида ўтирилса, тўполон қилмаслик ва ўз насибасидан кўпроқ овқат ейишга уринмаслик.

22. Агар ошхона хизматчисидан пиёла, қошиқ ва салфетка (қўл сочиқ) каби бирон нарса сўрамоқчи бўлса, мулойимлик билан сўраш.

23. Овқат еб бўлинганидан кейин қўллар ва оғизни ювиш, тишлар тозалигига эътибор бериш (айниқса, кечки овқат истеъмолидан кейин қўл ва оғизни яхшилаб ювиб, тишларни тозалаб кейин уйқуга ётиш керак. Қўл ва оғизда ёғ ва шира каби нарсалар қолдиғи қолиб кетса, соғлиққа зарар бўлади).

24. Қўлни юваётганда қўл ва тишлар орасини тозалашга алоҳида эътибор бериш.

25. Таомни еб бўлганидан кейин “Алҳамдулиллаҳ” (“бизни едириб-ичирган ва мусулмон қилиб яратган Аллоҳга шукр”), деб берган неъматлари учун Аллоҳга ҳамд айтиб, “раҳмат, овқат ширин бўлибди”, деб овқат тайёрлаганларга миннатдорлик билдириш.

26. Овқатдан ҳосил бўлган куч-қудратни яхши ва савобли ишларга сарфлаш.

### **Сақланиш керак бўлган нарсалар:**

1. Қорин тўйганидан кейин ҳам ўзини зўрлаб овқат ейиш.
2. Овқатни исроф қилиш.
3. Меҳмондорчиликка чақирилмаса ҳам бориш.
4. Ўзгаларнинг насибасини ейиш.
5. Касаллик ва бошқа зарар келтирувчи нарсаларни ейиш.
6. Нима еяётгани ва ичаётганига эътибор бермаслик.

### **Таом ейишидаги одобсизликлар:**

1. Овқатни чап қўли билан ейиш.
2. Овқатни ҳидлаб кўриш.
3. Нонни юмишқ ё қаттиқлигини билиш учун ушлаш.
4. Овқатни шошилиб, яхши чайнамасдан ютиш.
5. Овқатни ўта иссиқ ҳолида ейиш (шу сабаб нонушта ва тушилиқни мактабга кетишидан олдинроқ қилиб олиш керак. Мактабга кетишига 5-10 дақиқа қолганида шошилиб овқатланиш ўқувчиларнинг кун тартиби бузилиши ва соғлиғи ёмонлашишига сабаб бўлади).

## Ҳикоя

**Б**ир ўқувчи касал бўлиб қолди ва унинг касали оғирлашди. Доктор келиб касалини текшириб кўргач, овқат ва ҳолвани ҳаддан зиёд кўп еб қўйгани учун ошқозони ишдан чиқиб, соғлиги ёмонлашганини аниқлади. Тасодифан доктор шу ўқувчининг қўлида пул тўла ҳамён борлигини кўриб қолиб унга деди:

– Агар сенга яна шунча миқдорда пул берсам, шу ҳамёнга сиғдира оласанми?

– Унга ичидагидан ортиқ пул сиғдириш мумкин эмас, – деб жавоб берди ўқувчи.

– Зўрлаб сиғдир.

– У қимматбаҳо ҳамён. Йиртилиб кетишидан кўрқаман.

Шунда доктор деди:

– Билгинки, эй ўғлим! Сенинг ошқозонинг ҳам шу ҳамёнга ўхшайди. Агар қорнингга сиққанидан ошиғини есанг, ҳар хил касалликларга чалинасан.

## Фойдали насиҳатлар



1. Кўп ейиш оз ейишдан ҳам маҳрум қилади.
2. Баданнинг қуввати овқат, руҳнинг қуввати илмдир.
3. Қорин ейишдан завқ олади, ақл эса ҳикматдан.

4. Олимлардан бири Низомиддин шундай дейди: “Қуйидагилар ёқимсиз, хунук ва номақбул ишлардандир: ўзгаларни масхаралаш, кўп кулиш, аччиқ нарсаларни кўп ейиш, мевалари пишиб турган дарахт тагига ётиш ёки унинг остига ҳожат ушатиш, сочни бошқа кишилар тароғи билан тараши, қозондан қўл билан овқат ейиш, жамоат олдида тупуриш, сичқон еган нарсани ейиш, бозорда кўпчилик назари тушиб турган жойда овқат ейиш, қабристонда ўтириб овқатланиш ва у ерда қаҳқаҳа отиб кулиш!”

## Бекинмачоқ ўйини

*(Ибратли ҳикоя)*

**Ш**окир дўстлари билан бекинмачоқ ўйини ўйнаётган эди. Бекиниш учун ҳар томонга тарқаб кетганларида Шокир йўл четидаги улкан каштан дарахтининг орқасига бекинмоқчи бўлди. Бу ўйинда бирор боланинг уни топиб олиши қийин эди.

Шу пайтда оппоқ соқолли мусофир киши шаҳарга келиб, Шокир бекиниб турган каштан дарахтига яқинлашиб қолди ва унга деди: “Ўғлим, сендан бир манзил ҳақида сўрамоқчи эдим”. Шокир бироз шошилиб қолди ва ундан жим бўлишини сўраб қўллари билан ишора қилди.

Ҳалиги киши Шокир нима учун жим бўлишини талаб қилаётганига тушунмади ва унга ажабланиб қараб деди: “Сендан бир нарса ҳақида сўрагандим. Агар билсанг хабарини бер, билмасанг ўзинг жим бўл!” Сўнгра таажжубланиб деди: “Шаҳар болалари соғ-саломат экан-ку, аммо уларнинг аҳволи кулгили ва қизиқ!”

Ўйиндаги болалар анави ерда бир кекса ёшли киши дарахт ортига бекинган ўртоғи билан гаплашиб турганини кўргач, ўша бола Шокир эканини билишди. Оёқ учида юриб секин-аста ўша дарахтга яқинлашишди.

Улардан қаттиқ норози бўлган қария келган томонига қайтиб кета бошлади. Шунда Шокир қаттиқ хижолат бўлиб ўйинини ташлади, бекинган жойидан чиқди. Нуроний қариянинг ортидан югурди ва ундан кечирим сўради. Кейин қарияни кетаётган манзилига олиб бориб қўйди.

## Болалар учун нонуштанинг фойдаси

*(Тиббий маслаҳат)*

**Б**олаларнинг нонуштаси ҳар кунлик ҳаракатлари ва ўқишни қай даражада ўзлаштиришларига таъсир қилади. Кунни яхши нонушта билан бошлаган болаларнинг

мактабда яхши ўқишлари ва танловсиз истеъмолга хоҳиш билдирмасликлари маълум бўлган. Нонуштада тоза меванинг шарбати ёки сут, пишлоқ, тухум, кепаги олинмаган унли нон истеъмол қилиш жуда фойдали.

Нонушта қилмаган ўқувчиларнинг фикрини жамлашда қийналишлари, беҳузур бўлишлари ва қондаги қанд миқдори пасайиб, янада тез чарчашлари кузатилган. Уйқу ҳам етарли бўлмаса, стресс (тушкунлик, руҳий босим) гармонлари ортади ва керагидан зиёд калория истеъмолига замин ҳозирлайди.

Тадқиқотлар нонуштанинг имтиҳон баҳоларига ҳам таъсир кўрсатишини тасдиқлади. Нонушта қилиш одатини давом эттириш болаликдаги депрессия ва гиперактивлик борасида ҳам ҳимояловчи таъсирга эгадир. Нонушта билан кунни бошлаган болаларнинг диққат ва зеҳни ўткир бўлади.

## Ҳалол ризқ ва ҳалол меҳнат

**Б**олалар шуни зинҳор унутманг, ҳалол ризқ еган одамнинг тани соғлом, қилган ишлари тўғри бўлади. Ҳаром ризқ еган одамнинг қилган иши унумсиз бўлади. Унинг дуоси ҳам, ибодати ҳам қабул бўлмайди.

Ҳалол ризқ соғлиқ учун фойдали. Ҳаром овқат ва ичимлик инсон танасига зарар етказди ва жамиятни бузади. Таом ва ичимлик ҳалол бўлиши учун нималарга эътибор бериш лозим? Таом ҳалол бўлиши учун унда учта шарт бўлиши керак:

1. Ҳалол йўл билан пул топиш.
2. Ҳалол ҳайвон ёки зарарсиз ўсимликдан овқат тайёрлаш;
3. Ҳайвонни шаръий йўл билан сўйиш.

Ҳалол ризқ топиш учун, аввало ҳалол меҳнат қилиш лозим. Ўғирлик, порахўрлик, қиморбозлик каби йўллар билан пул топиш ҳаром. Бундай пулга озиқ-овқат сотиб олган одам ҳаром овқат еган бўлади.

Маълумки, овқат гўшт ва ўсимликлардан тайёрланади. Уй ҳайвонларидан туя, мол, қўй, эчки ва отнинг гўшти ҳалол. Ёввойи ҳолда яшайдиган баъзи ҳайвонлар ҳам ҳалол. Буларга кийик, буғу, тоғ эчкиси, ёввойи мол киради. Ёввойи ҳолда

кун кечирадиган ҳайвонларнинг гўшти ҳаромдир. Ифлос нарсаларни ейдиган жониворлар ҳам ҳаром саналади. Сув ҳайвонларидан балиқларнинг ҳамма тури ҳалол. Ўсимлик ва донлар ҳам ҳалол саналади. Аммо қайси ўсимлик зарарли бўлса, ўшани истеъмол қилиш ҳаром бўлади. Масалан, ақлга зарар етказадиган наша ҳаром. Маст қиладиган ичимликлар ичиш ҳаром. Шаръий йўл билан сўйилмаган ҳайвон гўштини ҳам еб бўлмайди.

### **Болалар луғати:**



**Ҳалол** – рухсат этилган, қонуний, тўғри, пок (шариат томонидан рухсат этилган иш ва сўз).

**Ҳаром** – ман қилинган, ноқонуний (шариат томонидан ман қилинган иш ва сўз).

**Ризқ** – насиба, улуш, неъмат (таом ва ичимликлар ҳам, истеъдод ва қобилият кабилар ҳам инсонга берилган ризқдир).

### **Ҳаром луқма**

**А**бу Зафар Мағрибий бир асарида Муҳосибий ёшлигидан зукко ва ҳозиржавоблиги билан танилганини шундай ҳикоя қилади: «Ҳорис Муҳосибий ёшлигида хурмо сотувчи бир кишининг эшиги олдида ўйнаётган болалар олдидан ўтиб қолди. У болалар ўйинини бироз томоша қилиб турди. Бир вақт ҳовли эгаси кўлида бир қанча хурмо билан уйдан чиқиб, манави хурмолардан егин, дея Ҳорисга хурмоларни узата туриб, ҳозиргина бир кишига хурмо сотганидан ундан тушиб қолганини айтди. Ҳорис уни танийсизми, деди. У танийман, деди. Ҳорис бошқа бир сўз демасдан уйига йўл олди. Хурмофуруш унинг орқасидан чопиб бориб, елкасидан тутиб шундай деди: «Аллоҳга қасамки, менга ичингдагини айтмагунингча, қўйиб юбормайман». Ҳорис унга: «Эй шайх, агар мусулмон бўлсангиз, қаттиқ чанқаган вақтда сувни излагандек ҳисобидан қутулиш учун хурмо эгасини изланг. Мусулмон болаларига ҳаром луқмани едирасизми?», деди. Шайх:

«Аллоҳга қасамки, шундан кейин савдо қилганда жуда эҳтиёт бўлиб иш тутдим», деди.

## Кулининг қулидан нарса сўрамаган одам

(Ибратли ҳикоя)

**Б**ир бой пули кўплиги учун мақтаниб, олим одамга шундай дебди:

– Сизга қанча пулу олтин керак бўлса, мана мендан сўранг!  
– Йўқ, – дебди олим. – Мен қулимнинг қулидан нарса сўрамайман!

– Ие, қанақасига сизга қул бўлай? – дарғазаб бўлибди бой. Олим жавоб берибди:

– Нафс менинг қулим, сен эса нафснинг қулисан!..

### Фойдали насиҳатлар



1. Ўзи поку кўзи покни инсон деса бўлади.
2. Ҳалол покиза киши доим хотиржаму тинчликдадир. Бировга хиёнат қиладиган киши эса ҳалоқатга гирифтордир.
3. Ҳалоллик-поклик зеҳн ва идрокни кенг ва ўткир қилади. Халқ орасида эътибору шуҳратга сабаб бўлади.
4. Ҳаром оз бўлса ҳам зарари кўпдир.

---

---

## КИЙИНИШ ОДОБИ

### Нима учун кийим кийилади?

**Б** олалар, нима учун кийим кийилади, биласизларми? Кийим кийишдан уч нарсани мақсад қилинади:

1. Уят аъзоларни бекитиш;
2. Иссиқ ва совуқдан сақланиш;
3. Одамларга чиройли кўриниш.

Инсон ҳар куни уйқудан кўзини очиб, Яратганга шукр қилади. Шундан сўнг энг биринчи қиладиган иш – кийимларни кийиш. Уйқу вақтидаги юпқа кийим билан одамларга кўриниш одобдан эмас. Яна биздан соғлигимизни сақлаш ҳам талаб қилинади. Шунинг учун биз иссиққа ва совуққа мослаб кийинамиз.

Чиройли ва озода кийиниш ҳам мақталган сифатлардандир. Кийимнинг содда бўлиши ҳам яхши фазилат.

### Кийим кийиш ва ечиш одоблари

1) Кийиниш пайтидаги одоблар.

1. Кийим кийишда “бисмиллоҳ”, деб айтиш;
2. Ўнг томондан бошлаб кийиш;
3. Кийимни шошилмасдан кийиш. Агар шошилсанг, кийимни тескари кийишинг ёки тугмаларини узиб юборишинг, янги либосингни тез эскиртиб қўйишинг мумкин. Шу сабаб либосни авайлаб кийиш керак.

2) Кийим ечишдаги одоблар.

Кийим ечаётганда ҳам “бисмиллоҳ” дейилади ва чап томондан бошлаб ечилади. Ечилган кийимлар чиройли қилиб тахлаб қўйилади. Кийим қўйиладиган жой одамнинг кўзи тушмайдиган, масалан, шкаф ичида бўлгани афзал. Шунда кийимлар

тоза сақланиб, уларга чанг юқмайди. Ўғил болаларнинг баъзи кийимлари (кўйлак, костюм, устки кийимлар) вақтинчага кўз тушадиган ерда туриши мумкин. Аммо шим, шалвор ва ички кийимларни кўз тушмайдиган ерга қўйиш керак. Қизларнинг кийимлари одамларнинг кўзи тушмайдиган пана жойда туради. Ўғил болаларнинг кийимига аралашмайди.

Одобсиз боланинг кийим ечишини кўрганмисиз? У кўчадан келса, кийимларини ечиб, дуч келган ерга улоқтиради. Эртасига мактабга кетаётганда кийимларини топа олмайди. Чунки ечган жойини эсидан чиқариб қўйган бўлади. Баъзида у ичдан киядиган юпқа кийим билан кўчага чиқиб, ҳаммага кулги бўлади...

## Кийим турлари

1) Ўғил болалар кийими. Ўғил болаларнинг кийимлари пахта, жун ёки канопдан тайёрланади. Уларнинг ранги ҳар хил бўлиши мумкин. Аммо оқ рангли кийимлар мақталган. Чунки оқ ранг тоза ва ёқимли бўлади. Озгина кир бўлса ҳам тезда билинади ва тез ювилади. Яна яшил рангли кийим ҳам яхшидир.

Кўйлак. Кўйлак ўғил болалар учун энг яхши кийимлардан биридир.

Эркаклар кўйлагининг турлари кўп. Ҳар бир миллатнинг ўзига хос кўйлаклари бўлади. Баъзилари узун, баъзилари қисқароқ.

Шим, шалвар. Тикилиши оддий шимлар ўғил болалар учун яхши шимлардир. Шим ва шалварларнинг почаси тўпиққача тушиб туради.

Шортик. Шортик – ёзда кийиладиган калта шалвар. Шортикнинг почаси тиззани ёпиб турадиган бўлиши керак. Ўғил болалар чўмилганда ҳам шортикка ўхшаган иштон киядилар.

2) Аёл-қизлар кийими. Қизлар ва аёлларнинг кийими каноп, пахта, жундан ташқари ипақдан ҳам тикилади. Ранглари ҳам ҳар хил ва ранг-баранг бўлади.

Рўмол. Рўмол қизлар ва аёллар энг яхши кўрадиган кийим

бўлиб, унинг катта-кичиклиги ҳар хил бўлади. Хотин-қизлар уйда кичикроқ рўмол ўрашади. Кичкина рўмол билан кўчага чиқишмайди.

Кўйлак ва лозим. Қизларнинг кўйлаги кенг ва узун бўлади. Узунлиги тўпиққача тушиб турадиган кўйлак – яхши кўйлак. Лозим ҳам узун ва кенг бўлиши керак.

## **Кийиш мумкин бўлмаган кийимлар**

1) Ўғил болалар учун. Ўғил болаларнинг кўйлаги қизларникига ўхшаган гулли ёки ялтироқ бўлмайди. Ипак кийимлар кийиш ҳам мумкин эмас. Ўғил болаларга қип-қизил, сап-сарик, оловранг ёки пушти рангли кийимлар ярашмайди.

Ўғил болалар тор шимларни киймайдилар. Баъзи шимлар одамнинг орқасини аниқ билдириб туради. Буларни кийиш мумкин эмас. Шимнинг почаси ҳаддан ташқари узун бўлмаслиги керак. Тўпиқдан тушиб кетадиган шимни мақталмайди.

Шортикларнинг узунлиги, агар тиззадан тепада бўлса, одобли болаларга тўғри келмайди. Ўғил болалар қизларникига ўхшаган кийимларни киймайдилар. Кийимлари ва баданларига ҳар хил бемаъни нарсаларни осиб юрмайдилар. Тилла соат тақмайдилар. Тилла тақинчоқлар қизларга ярашади.

2) Қиз болалар учун. Бели тор, кўкраги очик, енги калта кўйлак қизларга тўғри келмайди. Қиз бола шим ёки шортик киймайди. Чунки булар эркаклар кийимидир. Қизлар ўғил болага ўхшатиб қўядиган кийимларни кийиш мумкин эмас.

Одобли қизлар бегона одамлар олдида тақинчоқларини кўрсатиб юрмайдилар.

3) Ҳамма учун. Қизлар ва ўғил болаларнинг кийимлари баданга ёпишиб турадиган тор бўлиши тўғри эмас. Тор кийим ахлоққа хилоф саналади ва соғлиққа зиён келтиради. Танада қон айланишига халақит беради. Танани кўрсатиб турадиган юпқа кийим кийиш ҳам ёмон. Юпқа кийимлар инсон авратини яшира олмайди. Хулққа салбий таъсир кўрсатади.

Ақлли болаларга бачкана кийимларни кийишдан сақланиш

тавсия қилинади. Масалан, жонли нарсаларнинг сурати солинган ва ёмон сўзлар ёзилган кийимлар одобли болалар кийими эмас. Одобли бола бизнинг диний ва миллий қадриятларимизга бегона, ўзга диндагиларга хос бўлган кийимларни киймайди.

Демак, азиз болалар, кийиш мумкин бўлмаган кийимлар қуйидагилардир:

1. Баданга ёпишиб турадиган тор кийим;
2. Терини кўрсатиб турадиган юпқа кийим;
3. Жонли нарсаларнинг расми солинган кийим;
4. Ёмон сўзлар ёзилган кийим;
5. Ҳаммани ўзига қаратадиган ғайри оддий кийим;
6. Бошқа дин ва миллатнинг рамзи туширилган кийим;
7. Ҳаром йўл, масалан, ўғирлик билан топилган кийим;
8. Қиз болани ўғил болага ўхшатиб қўядиган кийим;
9. Ўғил болани қизларга ўхшатиб қўядиган кийим;
10. Ўғил болалар учун ипак кийим.

## Кийимларни тоза сақлаш

### Тоза кийим – покиза табиат

**А**зиз болажонлар, сиз эгнингиздаги кийимни доим тоза тутишга ҳаракат қилинг. Шунда сизни кўрган одам: “Бу боланинг табиати покиза, хулқи яхши экан”, деб ўйлайди. Кийим ҳашамли бўлиши шарт эмас, аммо тоза бўлиши зарур.

Кир-чир кийимда юрган болани кўрган одам нима дейиши мумкин? “Э, бу боланинг кўнгли ҳам тоза бўлмаса керак”, дейди. Сўнг ундан узоқ бўлишни истаб қолади. Чунки кийимга аҳамият бермаслик инсон табиатининг тоза эмаслигини кўрсатади. Ақлли бола тез-тез ювиниб, ҳар доим озода бўлиб юради. Унинг бадани тоза бўлгандан кейин кийимларнинг ҳам тозасини кияди.

Агар бадан тоза бўлса-ю кийимлар кир бўлса, нима бўлади? Кийимдаги кирлар баданга ўтади. Шундан кейин ювинишнинг ҳам фойдаси қолмайди.

Кийимлар тез-тез ювилиши ва дазмолланиши керак. Каттароқ болалар кийимларини ўзлари ювишга ўрганадилар. Кичкина болалар эса кийимларини оналари ёки опаларига юндириб оладилар.

### Устки кийимлар

**П**альто, куртка, чопон, костюм ёки шимга ўхшаш кийимлар устки кийимлардир. Уларни эҳтиёт қилиб кийиш лозим. Кўчада юрганда кийимни нопок нарсалар тегишдан сақлаш керак. Кўчадан келганда уйга киришдан аввал устки кийимларга бир қараб олиш керак. Агар чанг ўтирган бўлса, қоқиб тозаланади. Агар қиш фасли бўлса, кийимга ёпишиб қолган қорлар тушириб юборилади. Шундан кейин уйга кирилади. Уйга киргач, қалинроқ кийимларни эшик олдида ечилади, сўнг ўз ўрнига қўйилади. Дуч келган томонга улоқтирилмайди. Шунда улар тоза сақланади. Баъзи болалар кўчада тоза кийим билан ифлос жойга ўтириб оладилар. Ҳеч иккиланмай ерга думалайдилар. Бунақада кийим кир бўлиб кетади ва тез йиртилади.

### Кўйлак ва ички кийимлар

**К**ўйлак уйда ҳам, кўчада ҳам кийиб юриладиган доимий либос. Шунинг учун у тез кир бўлади. Кўйлакнинг энг кўп кир бўладиган қисми ёқаси ва енги. Демак, кўйлакнинг ёқа ва енгини тез-тез текшириб туриш керак. Агар кирланган бўлса, юндириш ва дазмоллатиш лозим.

Болалар овқат еётганда эҳтиёт бўлсинлар. Баъзи болалар овқатни худди биров еб қўядигандек шошиб еганларидан кўйлакларига тўкиб, оқизиб юборадилар. Яна баъзи болалар беадаблиги боис овқатни еб, қўлини кийимига артадилар. Бунақада кийим доғ бўлиб қолади, уни ювса ҳам кетмайди.

Ички кийимлар. Ички кийимлар (майка, ички иштон) одамнинг баданига бевосита тегиб туради. Шунинг учун уларнинг тоза бўлиши жуда муҳим. Ички кийим бошқаларга

кўринмайди. Ҳар бир бола ўзининг ички кийимларини текшириб туриши керак. Сал кирланган бўлса, алмаштириш лозим.

Болалар ҳожат ушатганда эҳтиёт бўлишлари зарур. Чунки бу пайтда кийимга нажосат (сийдик, ахлат) тегса, албатта ювиш шарт. Нопок кийимда юриш киши соғлиғига зарардир. Агар ички кийимга эътибор берилмаса, у ҳидланиб, бирон-бир касалликни юзага келтиради.

## Оёқ қийимлари

**Т** уфли, этик, шиппак, сандал каби оёқ қийимлари кўчада ва ҳовлида ҳар хил ерларни босиб юради. Уларга чанг, лой ёки нажосат илашиб қолиши мумкин. Одобли бола йўлда юрганда нопок ерларни босмайди. Мабодо оёғига бирор ифлос нарса тегиб кетса, дарров тозалайди. Кўчадан қайтганда уйга киришдан олдин оёқ қийимларига бир қараб олади. Агар ифлос нарса текканига кўзи тушса, оёғини ерга ишқалаб тозалайди. Ёки бирор чўп билан нажосатни кетказди. Одобсиз бола лой, кир оёқ қийими билан уйга кириб кетаверади ва уйни ифлос қилиб қўяди.

Пайпоқ. Пайпоқ доимо пойабзал ичида ва ечиб қўйилганда гиламга ўхшаш нарсалар устида бўлади. Шунинг учун у тез кирланади. Бундан ташқари баъзан оёқ пайпоқ ичида терлайди. Оёқдан чиққан тер ва ҳид пайпоққа ўтади ва кейин ундан атрофга бадбўй ҳид тарқала бошлайди. Шунинг учун оёқни ҳам, пайпоқни ҳам тез-тез ювиб туриш керак.

## Дастрўмол

**У** йдан ташқарида бўлганда баъзида қўлни ёки оғизбурунни ювишга тўғри келиб қолади. Ўша пайтда ювилган аъзоларни артиш учун дастрўмол ёки бир марталик салфетка ишлатилади. Дастрўмол чўнтакда олиб юриладиган нарса. У ювилган ва тахланган ҳолатда бўлиши керак. Айтайлик, сиз автобусда кетаяпсиз, ёки кўпчилик билан гаплашиб ўтирибсиз. Кутилмаганда аксириб қолдингиз. Нима қиласиз?

– Бунақа пайтда бурунни дастрўмол ёки салфетка билан тўсилади, кейин унга артилади. Баъзи жойларда аксирганда ва йўталганда оғиз ва бурунни енг билан тўсиш одати бор. Баъзи болалар дастрўмол тутишни эсдан чиқариб қўйишган. Дастрўмолни кўрмаганларига анча бўлиб кетган. Бир марталик қоғозни ҳам билишмайди. Бу яхши эмас. Одобли бола ҳар сафар кўчага чиқиб кетишдан аввал дастрўмолни бир текширади. Ё бўлмаса чўнтагига бир марта ишлатиладиган салфеткадан бир неча дона солиб олади.

## **Аҳмаднинг яхши иши**

*(Ибратли ҳикоя)*

**С**овуқ қиш куни. Мактабга кетаётган Аҳмад йўлда бир камбағал болани учратиб қолди. Бу ночор боланинг устида пальтоси йўқ эди. Йиртиқ этигидан сув ўтиб кетгани ҳам кундай равшан бўлиб кўриниб турганди.

Аҳмад унинг аҳволи яхши эмаслигини сезиб, ўзида унга нисбатан ачиниш ва ғам ҳис қилди. Оиласининг аҳволи яхши бўлмаса-да, Аҳмад мухтожларга ёрдам беришни кечиктирмасди.

Аҳмад бу ночор камбағал боланинг ортидан кета бошлади. Боланинг ўзи ўқийдиган мактабга кириб кетганини кўрганида ажабланди. Олдин мактабда бу болани кўрганини эслай олмади. Унга қандай ёрдам бериш ҳақида ўйлай бошлади, аммо бир тайинли фикр келмади. Агар унга ўзининг икки йилдан бери кийиб юрган пойафзалини берса, ўрнига ўзи нима кийишини билмасди.

Танаффус пайтида бу ночор бола билан учрашиб унга деди: “Мен сен билан дўстлашмоқчиман”.

Бир пасда унга ўрганиб қолди. Бечора боланинг отаси бир неча йил аввал вафот қилиб, у онаси ва икки укаси билан яшар экан. Бу туманга яқинда кўчиб келишган экан. Аҳмад ёнидан бир-иккита сомса чиқариб уни бола билан бўлишиб еди.

Кечқурун отасига деди: “Ўқитувчимиз бизга уй вазифаси бериб, камбағал кишиларга ёрдам бериш йўлини излаб

топишимизни буюрдилар. Шунда отаси унга камбағалларга ёрдам бериш йўллари ҳақида тушунтириб берди.

Келгуси куни мактабга чиққанида тўппа-тўғри муҳтожларга ёрдам берадиган ташкилот томон кетди. У ерда бир истараси иссиқ инсонга ўзининг камбағал ва муҳтож дўсти ҳақида гапириб берди ва унга ёрдам бериш ниятида эканлигини айтди. Тоза қалбли бу инсон Аҳмаднинг ишидан жуда хурсанд бўлди. Уни мақтади. Ўртоғининг турар жойини билиб беришини сўради.

Шундай қилиб, Аҳмад бир ночор болага ёрдам беришларига сабабчи бўлди. Зеро, савобли ишга йўлловчи уни қилувчи каби савобга эга бўлади.

Демак, азиз болалар, биз яхши ишларни қилишга шошилишимиз, агар бу эзгу ишлар қўлимиздан келмаса, уни амалга ошира оладиган кишиларга айтиб, яхшилик қилинишига сабабчи бўлишимиз керак.

## **Нарсаларни тоза тутиш**

### **Буюмлар тозалиги**

**Б**олалар, ҳар бир инсон беш хил нарсани тоза тутиши шарт эканини биламиз. Шуларнинг учинчиси шахсий буюмлар эди. “Шахсий буюмлар” деганда уй ичидаги ҳамма нарса тушунилади. Уйдаги нарсалар ё сизники ё ота-онангизники ёки акангиз ё укангизники. Ўқувчининг шахсий буюмларига қараб, унинг қандай бола эканини билиш мумкин. Агар унинг буюмлари озода бўлса, демак у ақлли ва тарбияли бола. Агар буюмлари кир-чир ва бетартиб бўлса, демак, у унча ҳам ақлли бола эмас.

Ҳар бир бола ўз буюми ва нарсаларини тоза тутиш учун зарур бўлган биринчи шарт – тартиб. Тартиб ҳар бир нарсани жой-жойига қўйишдир. Нарсалар ҳар жойда сочилиб ёки қалашиб ётиши адабсизликни билдиради. Балки ҳар бир буюм ўзига муносиб жойда туриши лозим. Ҳар бир нарса ўзининг шериклари билан бирга қўйилиши керак.

Буюмларни ишлатилмаган тақдирда қаровсиз қолдирилмайди, балки вақти-вақтида тозалаб турилади. Акс ҳолда уларни чанг ва кир қолайди. Кир микробларни пайдо бўлади. Микроблардан касаллик келиб чиқади. Агар буюмлар тоза тутилса, эгасига кўп хизмат қилади. Шу сабабли пул ҳам тежалади. Демак, буюмларни тоза тутишда учта фойда бор экан: унинг тартибли бўлиши, касалликдан сақланиш ва пулнинг тежалиши.

## Китоблар

**К**итоб инсон учун улуғ неъматдир. Китоб туфайли биз билмаганимизни билиб оламиз ва тўғри йўлни ва одоб-ахлоқни ўрганамиз. Шунинг учун китобларни авайлашимиз ва тоза тутишимиз зарур. Китобдан фойдаланган бола шунчаки эрмак учун унга ёзиши, чизиши, унинг варақларини буклаши ёки йиртиши мумкин эмас. Ўқиган вақтда китоб титилиб-тўзиб кетиши ва кир қилиши ҳам ёмон иш. Китоблар уйда алоҳида тоқчада ёки шкафта туриши керак. Китобни ўқиб бўлгач, яна ўз жойига қўйиб қўйилади. Китобларни ва улар турадиган тоқчаларни тез-тез артиб, чангдан тозалаб турилади.

## Ўқув қуроллари

1. Дафтарлар. Ақлли боланинг дафтарлари тоза бўлиши керак. Агар дафтарга сиёҳ билан хато ёзиб қўйса, нима қилиш керак? Унинг устидан бир чизиқ тортилади – бўлди. Ақли камроқ бола эса хатони тирноғи билан ўчиришга уринади. Бунақада дафтар хунук бўлиб кетади. Ёзиш учун чиқарилган дафтарга расм солинмайди. Расм дафтари алоҳида бўлади.

2. Қалам (ручка). Қаламни ўйнаш, синдириш ва оғизга солиб кир қилиш мумкин эмас. Айрим одобсиз болалар қаламни найза қилиб отади, тишлаб ғажийди. Натижада қалам яроқсиз ҳолга келади. Бу ота-онаси пешана тери билан топган неъматни исроф қилишдир. Исроф қилиш эса гуноҳ.

3. Сумка-портфеллар. Китоб ва дафтар солинадиган сумкалар ҳам тоза бўлиши керак. Сумкага турли егулик, кийим-бош ёки турли ўйинчоқлар ҳам солинмайди. Бу нарсаларнинг сумкаси алоҳида. Аммо мактабга кетаётганда сумкага қуруқ мева солиш мумкин. Мевани сумкага солишда аввал коғозга ўралади ёки махсус идишга солиниб, ундан кейин сумкага жойланади.

Сумкани чанг жойларга қўйилмайди. Баъзи болалар мактабдан қайтаётганда сумкасини ифлос жойга ташлаб, ўзлари ўйинга берилиб кетади. Ёки уйининг олдига келганда сумкани ичкарига олиб кирмасдан кўча эшик ёнида қолдиради. Ўйинга овуниб, сумкасига ифлос бўлиш-бўлмаслигига аҳамият бермайди. Бу ёмон одат.

### **Сочиқ, тиш чўтка ва кўрпа-ёстиқлар**

1. Сочиқ, тиш чўтка. Ҳар бир боланинг сочиқ ва тиш чўткаси алоҳида бўлади. Буларни ҳаммомнинг ичида тайинли жойга қўйилади. Яхши бола юз-қўлларини ва тишларини ҳар куни бир неча марта ювади. Тиш чўткани ишлатиб бўлиб, яна ювиб қўйиш керак. Сочиқни ҳам тез-тез ювиш лозим. Агар тез-тез ювиб турилмаса, у ҳидланиб қолади.

2. Кўрпа-ёстиқ ва чойшаб. Уйқуга ётилганда юз кўрпа-ёстиқ ва чойшабларга тегиб туради. Чойшабни ва ёстиқ жилдларини ўз вақтида ювиб турилади. Агар улар тоза бўлса, нафас олганда ҳаво ичга тоза ҳолда киради. Китоб ва ўйинчоқларни кўрпа, ёстиқ ва чойшаблар орасига қўйиш дуруст эмас. Кийимлар ҳам улардан алоҳида туриши керак. Одобли бола уйқудан тургандан кейин кўрпа-тўшакларини йиғиштириб, уларни чиройли қилиб тахлаб қўяди.

3. Каравот, стол-стуллар. Ҳар бир бола ўзи ётадиган каравот чанглари артиб туришга одатланиши керак. Кўп болаларга уйда дарс қилишлари учун алоҳида стол-стуллар ажратиб берилган. Яхши болалар ўз стол-стулларини артиб туради, улар

устига ҳар хил бўёқлар билан чизмайдилар. Столнинг устини доимо тартибли тутадилар. Унинг устига чиқиб ўйнамайдилар. Дарс тайёрлайдиган столда овқат емайдилар.

## **Техник жиҳозлар ва ўйинчоқлар**

1. Компьютер, диск, магнитофон, плеер, телефонлар. Баъзи болаларнинг оталари “болам тезроқ ва кўпроқ илм олсин” деб қиммат турадиган замонавий аппаратларни олиб беришади. Бундай аппаратларни эҳтиёт қилинмаса, тезда бузилиб, ишдан чиқиб қолиши мумкин. Шунинг учун уларни қадрлаш керак. Компьютер каби техника асбобларни ишлатиб бўлгач, албатта токдан ўчирилади. Эртасига ёққанда яхши ишлайди. Аппаратлар устини тез-тез артиб туриш керак. Артганда спирт ёки махсус модда ишлатилади. Шунда уларга чанг тушмайди. Аппаратда чанглари йиғилиб қолса, у бузилиб қолиши мумкин.

2. Ўйинчоқлар. Бошланғич синфда ўқиётган баъзи болаларга ота-онаси ўйинчоқ олиб беради. Шу ўйинчоқларни уйда қўйиладиган алоҳида жой бўлиши керак. Баъзи болалар ўйинчоқларини кийимлари ичига ташлаб қўяди ёки китобдафтарлар билан аралаш-қуралаш қилиб ташлайди. Бунақада ўйинчоқлар кирланади ёки синади. Китоб дафтарлар ҳам ўйинчоқ тегиб титилиб қолади. Ўйинчоқларни ҳам тез-тез артиб туриш керак. Уларни отиб юбориш ва синдириш дуруст эмас. Чунки ота-онаси унга пешана тери билан топадиган иш ҳақи ҳисобидан сотиб олган. Шунинг учун уни қадрлаб, авайлаб фойдаланиш керак. Дарс пайтида ўйинчоқ ўйнаш нотўғри. Балки дарсини тўлиқ тайёрлаб бўлгач, бироз оз ўйнаб, чарчоғини кетказиш бола учун фойдалидир.

---

---

## УЙ ВА ХОНАЛАРНИ ОЗОДА САҚЛАШ

### Роҳат ва тарбия маскани

**Б**олалар ҳар куни мактабга боришса, катталар ишга йўлишади. Мактаб ва ишдан бўшагандан кейин ҳамма уйга қайтиб келади. Ҳамма ўз уйини жуда яхши кўради. Чунки катта одам ҳам, кичкина бола ҳам бошқа ердан кўра ўз уйида ўзини эркинроқ ҳис этади. Уй роҳат маскани. Одам ўз уйида бўлганда бемалол дам олади, ухлаб, хордиқ чиқаради. Эртанги кун учун куч-қувват тўплайди. Инсон ўз уйида ҳордиқ чиқариб, чарчоғини унутади. Яна айтиш мумкинки, уй ўзига хос тарбия маскани. Ота-оналар уйда болаларига чиройли тарбия бериб, уларга одоб-ахлоқни ўргатадилар. Болалар ҳам уйда ўзларини эркин ҳис этиб, дарс қилади, китоб ўқийди, баъзи ҳолларда уй ишларида катталарга қарашади. Шундай қилиб, ҳар бир инсон умрининг кўп қисми уйда ўтади. Уй осойишталиги бебаҳо неъмат. Бундай неъмат қадрига етиб, уни асраб-авайлаш керак. Ақлли ва иймонли кишилар уйи ва хоналарини тоза тутиб, унга кир-чирни яқинлаштирмайди. Чунки озода ва сариштали ҳовли-жойда барака ва роҳат бўлади.

### Меҳмонхона

**Ў**збек хонадонларида энг яхши хоналардан бирини ташриф буюрадиган меҳмон учун алоҳида жиҳозлаб, безаб қўйилади. Меҳмонхона чиройли ва озода бўлиши лозим. Нима учун? Бунинг иккита сабаби бор.

Бирор меҳмон келиб қолса, унинг олдида хижолат бўлмайсиз. Қолаверса, саранжом-сариштали ва поки-

за уй меҳмон кўнглини кўтаради ва бемалол дам олади. Меҳмонхонанинг бу тариқа покиза ва чиройли бўлиши меҳмон ҳурмати учун қилинади. Меҳмонхонага чиройли гилам ва палос солинади. Замонавий меҳмонхоналарда диван-кресло ва стол-стуллар қўйиш одат тусини олган. Ёки юмшоқ кўрпачалар тўшаб қўйилади. Айрим меҳмонхоналарда китоб жавонига турли китоблар териб қўйилганини кўрамиз. Баъзи ҳолларда деворга дарахтлар ва гуллар, тоғлар ва дарёлар каби чиройли тасвирлар билан безатилади. Аммо уйга жонли ҳайвон ёки жонзотлар суратини осиш ёки рассомга чиздириш асло жоиз эмас. Иймон-эътиқодли кишилар ўз меҳмонхонаси деворига кўзмунчоқ, исириқ ва тумор каби бачкана нарсаларни илиб қўймайди. Меҳмонхонада ўйинчоқлар ва кийимлар ҳам турмайди. Одатда уйни саришта тутиш ва жиҳозлашга аёллар ва қизлар кўпроқ эътибор берадилар. Улар деразаларга қандай парда осишдан тортиб, тувакларда қайси гулларни ўстириш лозимлигини яхши биладилар.

Аммо ўғил болалар ҳамма ишни оналари ва сингилларига ташлаб қўйиб, бир чеккада қараб турмайдилар. Улар ҳам уй ишларига қарашиб юборишлари керак.

## **Ётоқхона ва дарсхона**

**О**та-оналар мактабда ўқийдиган болаларига уйда алоҳида хона ажратиб, керакли шарт-шароитни яратиб берадилар. Бундай алоҳида хонани ётоқхона ва дарсхона, деб айтилади. Ёки болалар хонаси, деб аталиши ҳам мумкин. Бу хона бир ёки бир неча бола учун ажратилади. Бундай хонада бола дарс қилади, ўйинчоқ ўйнайди, ухлаб дам олади. Шундай хонаси бор болалар ўз хоналарини доимо озода ва саришта тутишлари керак. Олдин айтганимиздек, хона озода ва тоза бўлиши учун бир шартни бажариш зарур. Бу шарт тартибдир. Тартиб ҳар бир нарсани ўз ўрнига қўйишдир. Болаларга ажратилган бундай хонада фақат болаларга тегишли нарсалар туриши керак. Болалар ишлатмайдиган нарсаларни бу хонадан олиб чиқиш лозим.

Болалар хонасида нималар бўлиши керак? Бу хонада каравот, кийим шкафи, стол-стул ва китоб жавони бўлади. Ҳозирги вақтда яна ўйинчоқлар қутиси ёки компьютер туриши мумкин. Деворга илинадиган нарсалар – дарс жадвали, календар, соат, доска, харита ва жонсиз нарсаларнинг сурати бўлиши ҳам жоиздир. Жавонда турадиган китоблар, мактаб дарсликлари, дафтарлар, кундалик дафтар, ручкалар, қаламлар, қоғозлар ҳаммаси тартибли равишда тахлаб қўйилади. Уларни тез-тез текшириб, артиб туриш керак. Стол устида компьютер, стол лампаси, дераза тоқчасида анвойи гуллар туради. Китоб-дафтар турадиган жавон алоҳида, ўйинчоқлар турадиган шкаф ёки қути алоҳида бўлиши керак. Хонага қўйилган нарсалар, расмлар, ўйинчоқлар боланинг ёши ва дарсларига мос бўлиши керак.

Бола ётадиган ўриндаги чойшаб ва кўрпа-ёстиқлар тозалигига эътибор бериш керак. Каравот ва стол-стулларни тез-тез артиб туриш керак. Хонани ҳар куни йиғиштириш ва албатта шамоллатиш лозим. Бу ишларни ўзи қила олмаса, унга ота-онаси ёки опа-акалари ёрдам беради. Агар хонани ва ундаги нарсаларни тозалаб турилмаса ёки хонада кераксиз нарсалар сочилиб ётаверса, нима бўлади? Бундай уйда яшайдиган бола дарсларини яхши тайёрлай олмай қолади. Кечаси ухлаганда тушига ҳар хил нарсалар кириб чиқади. Чунки шайтон ва жинлар кир-чир ва тартибсиз жойларга келади. У тозалikka риоя қилмайдиган хонадонга осонгина кириб олади ва унда яшайдиганларни вас-васа қилади.

## Ошхона ва омбор

**О**шхона – овқат тайёрланиб, тановул қилинадиган хона. Бу хонада ҳар куни овқат пиширилади ва ейилади. Шунинг учун ошхона жуда ҳам озода бўлиши керак. Бу жойни бир кунда бир неча марта тозалаб туриш лозим. Ошхонадаги идишлар ва жиҳозларнинг ҳаммаси чиннидек тоза бўлиши зарур. Уларни ювиб бўлингандан кейин қоғоз ёки сочиқ билан қуритилади. Шундан кейин турига қараб, ўз жойига

қўйилади. Қошиқ-санчқилар ва пичоқлар алоҳида, тарелка ва коса каби идишлар алоҳида туради. Стол устида ёки сув жўмраги ёнида идиш қолиб кетмаслиги керак. Баъзиларнинг ошхонасида идишлар ва нарсалар столнинг устида кечгача ювилмасдан сочилиб ётади. Бу тўғри эмас. Баъзи одамлар ўз ошхонасини чиннидек тоза қилиб қўяди. У ерга кирилса, кўзингизга биронта ортиқча нарса кўринмайди. Ҳамма нарса дид билан ўз жойига қўйилган бўлади. Бу қандай яхши! Ҳар сафар овқат пиширгандан сўнг газ ўчоқ ёки плиталар устини артиб қўйилади. Чунки унга сув ёки овқат қолдиғи тўкилган бўлади.

Ошхонада қўлни ва идишларни артадиган алоҳида сочиқлар ва қоғозлар туриши керак. Озиқ-овқат турадиган ва сув солинадиган идишларнинг усти доимо ёпиқ туриши керак. Омбор – кейинроқишлатиладиган озуқа ёки бошқа маҳсулотларни ғамлаб қўйиладиган хона. Омборхонада кўпроқ хом озиқ-овқатлар ҳам туради. Омборхона ҳам ошхона каби озода тутилиши лозим. У жойнинг қуруқ ва қоронғироқ бўлгани яхши. Омборхонада турган озуқаларни текшириб турилади, агар ачиганлари бўлса, дарҳол чиқинди идишга ташлаб юборилади. Омборда сичқон ва зараркунандаларга қарши дорилар қўйилади.

## **Ҳовли, йўлак ва ҳаммом**

**Ҳ**овли ва йўлак одам юрадиган ва кўпчилик кўзи тушадиган уй саҳни. Ҳовли ва йўлаклар доимо тозаланиб, супурилган бўлиши керак. Ҳовли саҳнига мевали ва манзарали дарахтлар ва чиройли муаттар гуллар экилади. Дарахтлар ва ўсимликлар ҳавони зарарли газлардан тозалаши инobatга олиниб, уларни кўпайтириш ва чиройли парвариш қилиш одамларга фойда келтиради. Баъзилар ўз уйида мол, қўй ёки товуқ боқади. Уларга махсус молхона ёки товуқхона қурилади. Бунини ёрдамчи хўжалик, дейилади. У жойлар ҳам тез-тез тозалаб турилиши керак. Агар шундай қилинмаса, молхонадан ҳавога сассиқ ҳид кўтарилиб, қўни-қўшниларга озор етади. Қўшннига озор бериш гуноҳ.

Ҳаммом – инсон соғлиғини сақлаш учун ниҳоятда муҳим хона. У ерни ҳам ювиниб-чўмилгандан кейин тозалаб, шамоллатиб турилади. Ҳаммомда учта асосий жой бор: юз-қўл ювадиган ер (“умивальник”); ҳожат ушатадиган жой (“унитаз”); чўмиладиган ер (ванна ёки душ). Бу жойлар доимо оппоқ ва озода ҳолда туриши лозим. Хушбўй нарса сепиб ёки ойнани очиб, ёмон ҳидларни кетказиш зарур. Уй эгаси қай даражада озодалигини унинг ҳаммомидан ҳам билса бўлади.

Азиз болалар, сизлар “ҳожатхона одоблари”, деган дарсда кўп нарсаларни ўргандингиз. Ана шу қоидаларга, албатта амал қилиш керак. Баъзилар ҳаммомга турли кийим ва сочиқларни қаторлаштириб, илиб қўйиши дуруст эмас. Унча зарур бўлмаган кийимларни кўз тушмайдиган ерга тахлаб қўйиш керак. Яна баъзи ҳаммомларда эски чўткалар, соч оладиган асбоблар чанг босиб ётади. Кераксиз нарсаларни сақлаб юриш тўғри эмас. Яроқсиз бўлиб қолган нарсаларни чиқинди билан олиб чиқиб ташлаш керак.

## Кўшнисини ўйлаган Зокир

*(Ибратли ҳикоя)*

**З**окир яхши бола. Отаси бой киши, унга ҳамма нарса-ни муҳайё қилиб қўйган. Афсуски, шундай қулайлик бўла туриб, Зокир камбағал ва йўқсил кишилар қандай ҳаёт кечириши ҳақида ҳеч нарса билмайди. Бир куни стадионга кетаётган йўлда Зокирни бир ит қувлаб қолди. У итдан қочиб бир тор кўчага кириб қолди. Шу пайт бир тошга қоқилиб ерга учиб тушди. Кўзини очганида жароҳатларини боғлаб қўяётган ва уни парвариш қилаётган аёлни ва ўзига тенгдош болани кўрди. Муҳаммад билан онаси Зокирни итдан қутқариб, уни уйларига олиб киришди. Зокир уларга миннатдорлик билдирди. Улар яшаб турган уйлари шу даражада оддий ва кўримсиз эканидан ажабланди. Кечқурун уларникида қолди. Зокирнинг томоғидан овқат ўтмади. У оддий таомни ейишга қийналиб, оғзига олган луқмаларни юта

олмади. Кейинги куни онаси тайёрлаган овқатни кўтариб Муҳаммаднинг уйига борди ва таомини ўша ерда улар билан бирга баҳам кўрди. Демак, яхши кишилар ўзидаги бор нарсаларни қўшнилари билан баҳам кўришлари керак. Зеро, ҳадиси шарифда “Кимки ўзи тўқ бўлиб ён қўшнисиси оч ҳолда эканини билиб туриб тунни ўтказса, у менга имон келтирмабди”, дейилган.

## Ўқувчининг уйидаги одоби

Эй фарзанд, уйинг сен учун энг азиз макондир. Сен унда улғайиб, вояга етасан. Ота-онанг меҳр-муҳаббатини шу жойда кўрасан, улар сени севиб-ардоқлашади, сени яхши кўришади ва яхши инсон бўлишингни хоҳлаб, керакли шарт-шароитни муҳайё этишади. Сен у ерда ухлайсан, ўйнайсан, дам оласан, овқат ейсан ва чой ичасан. Шундай экан, сен у ерда чиройли ахлоқ ва гўзал одоб билан қуйидагиларга амал қилиб яшашинг керак:

1. Мактабдан қайтганингда, ухлашдан олдин ва уйқудан турганингда оила аъзоларингга салом бер.

2. Ота-онангга итоат қил, ўзингдан ёши катта акаларинг, опаларинг ва бошқа қариндошларингни ҳурмат қил ва ўзингдан кичкиналарга меҳрибон бўл.

3. Агар уйда хизматкорлар бўлса, уриб сўкиш билан уларга озор берма. Агар улардан бирон нарса сўрамоқчи бўлсанг, мулоимлик билан сўра.

4. Уй жиҳозларини, электр қўнғироқларни ва сув жўмрақларини беҳуда ўйнама, девор, ўриндиқ ва кўрпачаларни ифлос қилма. Уларга бўр ёки қалам билан чизма. Агар уйда боғ бўлса, дарахт шохлари ва гулларни синдирма.

5. Копток тепиб, кўп бақириб ёки югириб уйдагиларга ҳам, қўни-қўшниларга ҳам озор берма. Уйдаги нарсаларга зарар келтирадиган ўйинларни уй ичида ўйнама. Мактабдан қайтганингда кийимларингни илгакка осиб қўй, қидириб вақтингни бекор кетказмаслигинг учун китобларингни ўзинг билладиган жойга қўй.

6. Дарсларингни тайёрлаш учун алоҳида вақт ажрат ва ўша вақтда бошқа нарсага чалғима.

7. Қўшниларинг ва уларнинг болаларини ранжитма. Уларни кўрганингда салом бер, мулоимлик ва одоб билан муомала қил.

8. Агар бирон қариндошинг ёки меҳмон ота-онангни зиёрат қилиб келса ва сен унга салом бермоқчи бўлсанг, юзқўлларингни ва кийимингни тозалаб, одоб билан унинг олди-га бор.

9. Товуқ, қуён, мушук ва шуларга ўхшаш уй ҳайвонларига озор берма.

## Ўқувчининг мактабдаги одоби

Эй фарзанд, мактаб сенинг иккинчи уйинг. Сен у жойда таълим-тарбия оласан, ўқувчи дўстларинг ва ўқитувчиларинг билан бир оиладек яшайсан. Сен мактабда яхши ўқишинг ва доим хурсанд ҳолда юришинг учун қуйидаги насиҳатларга амал қилишинг керак:

1. Уйқудан эрта тур. Шунда нонушта қилиш, тоза кийимларингни кийиш, китоб ва ўқув қуроқларингни олишга, шунингдек, ўз вақтида мактабга боришга улгурасан.

2. Дўстларинг билан самимий кўриш. Биринчи бўлиб уларга салом бер ва ҳар бирини ўз исмлари билан чақир, уларга лақаб қўйма. Мактабда ҳамма вақт ўз ишинг билан машғул бўл. Умрингни ва олтиндан ҳам қиммат вақтингни беҳуда ўтказма. Бирон ишни баҳона қилиб мактабдан кўчага чиқиб кетишни ўйлама, кераксиз сўзларни гапиришдан тийил.

3. Сафда турганингда ва синфга кетаётганингда шовқин қилиб гапирма.

4. Ўқитувчи синфга кирганда унга салом бер. Кейин жим қулоқ солиб ўтир.

5. Савол ёки жавоб бермоқчи бўлсанг, ўнг қўлингни кўтар. Агар ўқитувчи сенга рухсат берса, ўрнингдан туриб жавоб бер.

6. Овозингни баланд кўтариб шовқин қилма. Ҳар бир дарс

оралиғидаги қисқа танаффусда синфдан чиқиб кетиб қолма.

7. Катта танаффусда эса ўртоқларинг билан соғлигингга ва ахлоқингга зарар бермайдиган ўйинларни ўйна. Хатарли ўйинларни ўйнама. Овозингни баланд кўтариб бақирма. Бирон кишини сўкма ёки у ёмон кўрадиган лақаб билан чақирма.

Мактабда ўзингдан катталарга ҳурматда, кичикларга эса иззатда бўл. Катталарни фақат улардан кўрққанинг учун ҳурмат қилма. Балки ёши сендан улуглиги, илми ва тажрибаси кўпроқлиги сабаб уларга ҳурмат бажо келтир. Кичик ёшдаги ўқувчиларга зўравонлик қилишдан сақлан. Чунки уларга зиён келтириш одобли ва мард болаларнинг иши эмас.

8. Сенга ёрдам берган ўртоқларингга ва мактаб ишчиларига раҳмат айт. Чунки бу одобинг гўзаллигига далолат қилади ва сенга нисбатан меҳр-муҳаббатини оширади.

9. Ўқув қуроқларингни эҳтиёт қил, уларни тоза тут ва китоб жавонингга тартиб билан қўй. Шунда керак пайтда уларни олишинг осон бўлади.

Синфдошларингга тегишли ўқув қуроқлари ва бошқа нарсаларга сўрамасдан тегма, уларнинг жиҳоз ва буюмларини титма. Зеро, бу ўғрилиқка йўл очиши мумкин. Бирон нарса керак бўлиб қолса, уни эгасидан сўраб ол ва ишлатиб бўлишинг билан дарров қайтариб бер. Бирон нарсани қайтариб беришга олиб, ундан кейин ўзингникидек фойдаланиб юришдан жуда эҳтиёт бўл!

10. Мактабни ва ундаги жиҳозларни худди ўз уйингни ва ундаги жиҳозларни эҳтиёт қилганингдек эҳтиёт қил. Деворларга чизиб-ёзма, сув жўмрақларини очиқ қолдирма, дераза ойналарини синдирма ва партани қалам билан бўйма.

11. Сенга берилган ҳар бир топшириқни ўз вақтида бажар. Бугунги ишни эртага қолдирма. Чунки ҳар бир кунда қилинадиган ишлар бор. Бирини кейинги кунга қолдирсанг, барча ишларинг орқага сурилиб кетаверади.

12. Мактабдан одамлар сендан рози бўлган ҳолда қайтгин. Шунда Аллоҳ сендан рози бўлади ва сенга ҳаётингда саломатлик ва баракалар беради.

Мактабдан чиқиб тўғри уйга бор. Одобсиз болаларга ўхшаб ўқиш тугаганидан кейин турли ўйинлар ўйнаб, кўча-кўйларда сандироқлаб, тентираб юрма.

Мактабдан қайтгач, китоб-дафтар ва керакли нарсаларингни тартиб билан аниқ жойга қўй. Уларни дуч келган жойга ташлаб кетма. Шунда мактабга кетаётганда ёки дарс тайёрламоқчи бўлганигда, “дафтарим қани, китобимни ким олди”, деб отананг ёки ака-укаларингдан сўраб безор қилмайсан. Мактабдан келгач, овқатланиб, бироз хордиқ чиқаргач, уйга берилган вазифаларни бажар, машқларни бажар ва ўз устингда тинмай меҳнат қил. Фақат мактаб дарслари билангина чекланиб қолма. Қўшимча адабиётлар ва бадиий асарлар мутолаасига ҳам вақт ажрат. Зеро, булар сенинг дунёқарашинг кенгайиши ва билиминг кўпайишига сабаб бўлади.

Эй фарзанд, шуни унутмаки, одоб боланинг энг чиройли либосидир. Қара, агар мактабдаги бирон ўртоғинг чиройли кийимлар кийиб олган бўлсаю, аммо ўзи дангаса, ишёқмас, ҳамма билан урушиб юрадиган, сўкинадиган одобсиз бўлса, унинг кийган кийимига ким эътибор беради? Либоси учун ким уни яхши бола дея олади? Аксинча, бирон бола ўртача кийим кийган бўлсаю, аммо ўзи аълочи, одобли ва ҳаммага ҳурмат билан муомалада бўлса, унинг кийими жуда чиройли бўлмаса ҳам, барча уни яхши ва одобли ўқувчи дея тилга олади. Демак, энг биринчи ўринда мактабда ҳам, умуман ҳар қандай жойда одобли бўлишга ҳаракат қилиш керак.

## **Ўқимаган боланинг оқибати**

*(Ибратли ҳикоя)*

**Б**ир ўқувчи мактабга кеч қолиб келадиган одат чиқарди. Ўқитувчи эса куннинг охирида уни қамаб қўйиб жазолар эди. Дарсга кўп кеч қолавергач, уни ҳайдаб юборадиган бўлди. Натижада у уйда ўқиганини тушунмайдиган бўлиб қолди. Чунки у уй вазифаси шарҳини ўқитувчисидан эшитмасди. Синфдошларининг биронтасидан сўраса, унга жавоб

беришмас эди. Чунки у ўқувчилар ва ўқитувчилар орасида одобсизлиги билан танилган эди. Кетма-кет икки марта имтиҳондан йиқилгач, мактабдан ҳайдалди. Ҳар сафар отаси уни мактабга олиб келиб қўйса, ахлоқи ёмонлиги ва дарсларга яхши қатнамагани сабабли уни ҳайдаб юбораверишди. Тўсатдан отаси вафот этиб, у бутунлай мактабдан узилди. Бир ўзи қолиб, ёмон болаларга қўшилди ва уларнинг йўлига кириб кетди. Онаси бир ўзи тарбиялай олмагани учун уни ўз ҳолига ташлаб қўйди. Натижада ўзига егулик ҳам топа олмай қийналди ва кўчаларда оёқ кийимларни мойлаб кун кечиришга мажбур бўлди. Ҳар сафар мактабни аъло баҳоларга битирган синфдошларидан биронтасини кўриб қолса, уларга ҳавас билан қараб, вақтини беҳуда кетказганига афсусланади.

### **Кўчада юриш одоби**

Эй фарзанд, кўчада турли одамлар ҳар хил ишлар билан юради. Баъзилари пиёда, баъзиси машинага минган, бири шошилган ва бошқаси шошмасдан секин кетаётган, баъзилари катта ёшли бўлса, бошқаси кичкина. Агар сен уларнинг орасида юрсанг, ўзингни ва бошқаларни йўл озорларидан сақла. Бунинг учун сен қуйидаги насиҳатларга қулоқ солишинг керак:

1. Тиқилинч кўчада кетаётганингда пиёдалар йўлакчасидан юр.
2. Агар бирон дўстинг ёки қариндошингни кўриб қолсанг ва у билан кўришмоқчи бўлсанг, йўлдан четроққа ўтиб кўриш ва йўл ўртасида у билан узоқ турма.
3. Агар кўчада ўртоқларинг билан кетаётган бўлсанг, энига бир саф бўлиб кўчани тўлдириб олманглар, чунки йўл ёлғиз сизлар учун эмас.
4. Агар бир ожиз ёки заиф киши йўлдан ўтказиб қўйишни сўраса, дарҳол унга ёрдам бер. Бунинг савоби жуда катта. Бу бечора билан юришга уялма.
5. Кўчада кетаётганингда китоб ўқиш билан машғул бўлма, ён-атрофга кўп аланглама. Тижорат дўконлари ёки ўйингоҳлар олдида кўп туриб қолма.

6. Юрганинга шошилиб тез ҳам юрма, жуда секин ҳам юрма, ўртача юргин ва доимо олдинга қара.

7. Машинага ёки бирон-бир уловга минган бўлсанг ҳам йўлда кетаётганинга овқат ейишинг одобдан эмас.

8. Йўлда ётган тошни оёғинг билан тепма ва сотув дўконлари эшикларига осиб қўйилган молларни ўйнама.

9. Агар сен велосипед ёки машинада бўлсанг, кўчанинг ўнг томонидан юр.

10. Юриб кетаётган трамвайга минишга ёки ундан тушишга уринма.

11. Агар йўлдан адашиб қолсанг ёки ўртоғинг яшайдиган жойни билмасанг, одоб билан ён-атрофдагилардан сўра.

12. Агар бирон кишига билмасдан озор етказиб қўйсанг, масалан, туртилиб кетсанг ёки йўловчи қўлидан бирон нарса ни тушириб юборсанг ёки унинг оёқ кийимини босиб олсанг, мулоимлик билан кечирим сўра.

13. Ўзинг танимайдиган одамнинг юзига узоқ тикилиб турма ва ногиронларни масхара қилма.

## Ҳақиқий паҳлавон ким?

*(Ибратли ҳикоя)*

**Х**олид кучли, жуда қўрқмас бола. Стулни букмасдан туриб, бир қўлида кўтара оладиган кучи бор. Мактабда спортнинг кураш тури билан шуғулланарди. Ҳеч ким уни мағлуб қила олмаган. У билан энг кўп курашган Нуриддин деган бола эди.

Бир куни икковлари мактаб боғида жанжаллашиб, уришиб қолишди. Курашда Нуриддин енгилди. Синфга кирганида эса у Холиднинг китобини йиртиб, яроқсиз ҳолга келтирди. Бу ишни кўрган Холиднинг жаҳли чиқиб кетди, ўртоғига ташланиб, унинг юзига мушт туширди. Натижада Нуриддиннинг бурни қонаб, кийимлари қонга беланди. Синф ҳам ифлосланди. Бу ҳодисадан бутун синф хафа бўлди. Холиднинг бу ишнинг оқлаб бўлмайдигани. Чунки бир ҳадиси шарифда: "Рақибини

енгган паҳлавон эмас, балки ғазаб келганида ўзини босиб тура олган ҳақиқий паҳлавондир”, дейилган.

## **Фарзанд ота-онаси учун нима қилиши керак?**

**Э**й азиз фарзанд, ота-онанг сенга энг яқин, сени энг кўп яхши кўрадиган ва сенга жуда меҳрибон инсонлардир. Улар сенинг ҳаётга келишинг сабабчиларидир. Сенга ғамхўрлик қилиш, тарбиялаш ва сени барча озорлардан сақлашда уларнинг жуда ҳам катта хизматлари бор. Шундай экан, уларнинг фазилатларини билиб олиб, ота-онангни ҳурмат қилишинг керак.

### **Она фазилати**

1. Онанг сени тўққиз ой қорнида кўтариб, шу вақт орасида кўп оғриқ ва қийинчиликларни бошидан ўтказган.

2. У сенинг жисминг ва кийимларингнинг тозалигига эътибор берар эди. Сени эмизганда тепангда узун тунларни бедор ўтказар эди.

3. У сенга қандай ейиш, ичиш, юриш ва ўйнашни ўргатган, сен ўшанда буларнинг биронтасига кучи етмайдиган бир ожиз бола эдинг. Сенга оғриқ берган нарса уни оғритар эди, сени хурсанд қилган нарса уни хурсанд қилар эди. Демак, сен онанг билан бир бутун танасан.

### **Ота фазилати**

1. Отанг ҳар куни кўчага чиқиб, қийналиб меҳнат қилиб, сенга керакли таом, кийим, ўйинчоқ ва бошқа нарсаларни сотиб олиб келар эди.

2. Сен улғайгач, у сени мактабга юборди. Таълим олишинг учун пул топиб, сарфлади, сени одам бўлсин, катта бўлганида қийналмасин, деб изтироб чекди.

3. Агар касал бўлсанг, сени даволаш учун докторга олиб бориб, соғайишинг учун дори-дармон олиб келар эди. Демак, отанг сен учун таянчдир.

## Сен ота-онангга қандай яхшилик қила оласан?

1. Эй фарзанд! Ота-онангга итоат қил, яхши кўр ва насиҳатларига амал қил.

2. Улар олдида одоб билан ўтир, сенинг ҳузу-рингга келсалар, ўрнингдан тур ва уларнинг овозидан овозингни баланд кўтарма.

3. Ота-онанг қувватли вақтларида улар хурсанд бўладиган ишларни қил. Агар қувватлари кетиб ишга яроқсиз бўлиб қолсалар, зиммангдаги ҳақларини адо этиш учун муҳтож бўладиган барча нарсаларда уларга ёрдам бер.

4. Улар сенга қаттиқлик қилсалар, уларга қўпол гапирма. Чунки фақат сенинг фойдангни хоҳлашади.

5. Эрталаб турганингда ва кечқурун ётишингдан олдин, уларни кўрганингда салом бер.

6. Уларни ғазаблантирадиган амаллардан йироқ бўл. Кўпроқ умр кўришларини яхши кўр ва шуни орзу қил. Чунки улар ҳам сенинг саломат бўлишингни ва умринг узун бўлишини орзу қилардилар.

7. Улар бирон иш буюрганларида зинҳор “уф”, дема.

8. Чақирганларида “лаббай”, деб тезда ҳузурларига етиб бор.

9. Уларга озор етишига сабабчи бўлма. Яъни, болалар билан уришма ва уларнинг ота-оналарини сўкма. Акс ҳолда ўша ёмон болалар ҳам сенинг ота-онангни сўкадилар.

### Болалар луғати:

**Лаббай** – бирон чақирганда бериладиган жавоб (аслида “лаббай” сўзи “мана, ҳузурингдаман” маъносини англатади).

**Уф** – бирон нарсадан шикоят ва ранжишни ифодалайди (аслида “уф” сўзи “сендан безорман”, “жонимга тегдинг”, маъносини англатади. Шу сабаб бу сўзни зинҳор тилга олмаслик керак. Айниқса ота-онамиз олдида “уф” демаслигимиз лозим).



## Ота-онага яхшилик қилиш

Э й фарзанд, атрофингга қара ва ота-оналарнинг ўз фарзандларига қилган ишлари ҳақида ўйлаб кўр. Ана шунда ота-онанг сени тарбиялаш ва касал бўлганингда даволатишда бошларидан кечирган қийинчиликларни билиб оласан.

Онанг сени тўққиз ой қорнида кўтарган вақтида қанча-қанча оғриқларни тортиб, қанча-қанча машаққатларни бошидан ўтказди. Сени эмизиш, ювиб тараш, иссиқ-совуқдан сени ҳимоя қилишда у бечора кеча ва кундузларни қийинчиликда ўтказди.

Сен улғайгач, сенга қандай эмаклаш, қандай юриш, қандай ейиш ва ичиш, қандай гапириш, барча-барчасини ўргатди. У ҳар куни сен учун таом ва чой тайёрлайди. Кийимларингни ювиб, ётишинг учун жой солади. У сени кўриб кўзи қувонади, қалби шодланиб орзу-умидларга чўмади.

Отанг эса ишлаб Аллоҳ берган ризқни топиш учун ҳар куни уйдан чиқиб кетади. Сенинг роҳатингни ўйлаб қийналади, меҳнат қилади. Сенинг ейишинг, ичишинг, кийинишинг, турар жойинг ва таълим олишинг учун кўпроқ пул топишга ҳаракат қилади. У сени яхши кўради ва сени ҳаётингда ютуқларга эришиб, муваффақият қозониб яшашингни кўришидан ҳам кўпроқ бирон нарсани яхши кўрмайди. Шунинг учун сен ота-онангга итоат этиб, уларга яхшилик қилишинг керак.

Ота-онага яхшилик қилишнинг аввали уларга итоатли бўлишдир. Чунки улар болаларини зарарли нарсага буюрмайди. Агар ота-онанг касал бўлиб қолсалар, уларни давола, агар ожизланиб камбағал бўлиб қолсалар, уларга пулдан ёрдам қил. Одамлар ота-онангни сўкмасин десанг, сен уларнинг ота-оналарини сўкма. Уларга мулойимлик билан гапир. Уларнинг сўзидан сиқилма. Агар тирик бўлишса, уларга узоқ умр сўраб, вафот этган бўлсалар, раҳмат сўраб уларнинг ҳаққига дуо қил. Бу тарбия қилганликлари ва ёшлигингда меҳрибон бўлганликлари эвазига сендан уларга мукофот бўлади.

## Фойдали насиҳатлар



1. Ўзинг ҳам, молинг ҳам отангникидир.
2. “Ота-онасини ҳурмат қилган кишининг умри узун бўлади”.
3. “Ҳақиқий фарзанд ҳар бир соҳада ўз отасининг ҳукмига бўйсунди”.
4. Ўғил доно бўлса, ота роҳат топибди.
5. Отанинг хатоси учун танбеҳ берувчи бўлма.

## Ота-она ўрнини ҳеч ким босолмайди

**О**та-она учун фарзандининг чиройли хулқи ва одоби муҳимдир. Одоби боланинг ота-онаси камбағал бўлса ҳам ҳеч айб эмас. Чунки ҳар бир нарса Яратганнинг хоҳиш-иродасига боғлиқ. Ота-онасининг фақирлигини айб санаш, буни ўзларига айтиб, тақдирдан нолиш жуда катта хатодир.

Эй фарзанд, сенинг ота-онанг ҳаёт экан, соғ-саломат экан, уларнинг қадрига ет, яшаб турганини ғанимат бил. Шунинг унутмаки, ота-онанинг камбағаллиги айб эмас. Аслида фарзанднинг одобсизлиги ниҳоятда катта айбдир. Одобсиз боланинг ота-онаси бой, мартабали ёки олим бўлса ҳам одамлар эътиборида бўлмайди. Ундай бола ота-она шаънига иснод келтиради. Фарзанди туфайли обрўъ-эътибордан қолган ота-она касалликка чалинади, вақтидан эрта қарийди, умри қисқаради.

Одоби боланинг ота-онаси фақир ва камбағал бўлса ҳам боласи туфайли қадрли ва ҳурматли бўлади. Эл-юрт орасида ҳурматда, иззатда бўлган ота-онанинг соғлиғи яхши, руҳи тетик бўлади. Тенгдошларига нисбатан ёш кўринади, умри узаяди. Шунинг учун сен одоби ва яхши бола бўлишинг керак. Шунда ота-онангни ҳурмат этиб, уларни хурсанд қилган ва қадрларига етган бўласан. Зеро, ота-онанг ўрнини ҳеч ким босолмайди.

## Фарзанд ота-онадан доим қарздор

**А**зиз болажонлар, шуни билингларки, атрофингиздаги болалар, ўрта ва катта ёшдаги кишилар марҳаматли ва шафқатли бўлишлари мумкин. Аммо ҳеч бир киши сизларга ота-онангиздек садоқатли бўлолмайди, ҳеч ким ота-онангиздек хизмат йўлида машаққат чекмаган. Ота-онангиз ҳамиша сизларнинг баркамол ва солиҳ бўлишингизни хоҳлайдилар.

Ота-онангиз сизларни парвариш қилишда иссиқ-совуққа чалинтирмай, соғ-саломат, одобли ва илмли бўлишингизда чеккан машаққатларини, тортган кулфатларини, ўзи емаса ҳам сизларга едириб-ичирганини унутманг. Ҳамиша уларнинг розилиги йўлида хизмат ва ҳурматларини жойига қўйинг. Шуни унутмангки, ота-онангизнинг сизлардан умиди катта. Улар сизларни қадрли ва ҳурматли, улуғ кишилар бўлишингизни ҳамиша умид билан кутиб турадилар. Шундай экан, фурсатни қўлдан бой берманг. Ҳар соат ва кунни ғанимат билиб, ота-онангиз кўнглини кўтариш, хурсанд қилиш ҳаракатида бўлинг. Заиф ва нимжон вақтингизда ота-онангиз тарбиялари туфайли сизлар одамга айландингиз ва ўсиб вояга етдингиз. Шундай экан, ота-онага бунинг эвазига доим яхшилик қилиб, уларнинг дуоларини олиш керак.

Азиз болалар, ота-она дийдорини ғанимат билинг. Бугун ота-онамиз олдимизда, белимизга қувват, ғам ва хурсандчилигимизга шерик бўлиб туришибди. Шундай экан, уларни қадрига етиш керак

## Фарзанд онанинг бир бўлагидир!

**О**наларимиз бизларни вояга етказиш учун меҳру муруватларини аямаган, оромидан кечиб, кечалари ухламай тарбиямиз билан машғул бўлдилар. Хафа бўлсак ёки кўнглимиз бир нарсадан ранжиб қолса, атрофимизда парвона бўлган, тобимиз қочиб қолса, ҳузур-ҳаловатини йўқотган ҳам онадир.

Она биз учун боғбондир. У доим бизни парвариш қилиш пайида бўлади. Буни тушунган ҳар қандай бола ўз онаси ҳурматиани барча нарсадан устун қўяди. Ақлли фарзанд бир дақиқа бўлса ҳам она меҳрини эсдан чиқармайди, кичикроқ бўлса ҳам ишга қўл урганида онани бундан хабардор қилиб, унинг розилигини олади. Айтган сўзларига қулоқ солиб, маслаҳатларига амал қилади, ҳар вақт онани миннатдор қилишга интилади. Биз онамизнинг бир бўлагимиз, агар бирон аъзомиз оғриси, онамизнинг тани оғрийди, агар биз хурсанд бўлсак, онамиз ҳам хурсанд бўлади. Шундай экан, доим онамизга эътиборли бўлайлик, уларни қаровсиз қолдирмайлик, ҳамиша ҳолидан хабар олиб турайлик.

## Бойиш “йўли”ни топган бола

*(Ибратли ҳикоя)*

**Б**ир бола отасидан бир нарсага пул олиб, вақтидан олдин ишлатиб қўйди. Яқинда таътил бошланади. Маза қилолмайди. Йўлини топиш керак. Қўлига тушган журналда ҳар бир хизмат учун ҳақ тўланиши лозимлигини ўқиб, кўзлари чарақлаб кетди. Бу мантиққа кўра, оиласи учун қилган ишларининг ҳар бирига ҳақ олиши керак! Дўкондан нон олиб келишни 1000 сўмга, онаси билан бозорга бориб келишни 2000 сўмга баҳоласа, қимматга тушмайдигандек эди. Худди шундай қилди. Бир вараққа ой давомида бажарган ишларини ёзиб нарх қўйди. Умумий сумма 250.000 сўмни ташкил қилди. Хатни секингина онасининг ёнига солиб қўйди. Бойиш йўлини топганидан боши осмонда эди унинг!

Эрталаб дарс столи устидан 250.000 сўм пул ва бир хат топди: “Ўлим билан олишиб сени дунёга келтирганим, йиллар бўйи устингни тоза тутганим, минг бир азоб билан ўстираётганимнинг ҳаққи – фақат севгинг ва ёноғингдан олганим биргина ўпичдир! Ишлаб топган пулингни ўйнаб-кулиб ишлат, болажоним!..”

## Ота-онага қандай муносабатда бўлиш керак?

**Ф**арзандлар ота-онага итоат этиб, ҳар бир фурсатни розиликларини олиш учун ғанимат билмоғи керак. Боланинг бахт-саодатга эришиши, ютуқ ва муваффақият қозониши ота-онанинг хурсандчилиги ва розили туфайли ҳосил бўлади. Болалар ота-онасини ҳурмат қилиш қаторида уларни шарманда қилмасликлари ва номларини булғамасликлари керак. Ота-онанинг сўзларига ишонмаган, улардан ўзини ақлли ва ишбилармон ҳисоблаган болалар ҳаётда қийналиб қолади ва кўп қийинчиликларга дучор бўлади. Чунки ишончсизлик одамда алдов ва ёлғончиликни пайдо қилади. Ёлғончилик ва иккиюзламачилик эса барча ёмон ишларга сабаб бўлади.

Аслида ҳар қандай одамга ёлғон гапириш катта жиноят, оғир гуноҳдир. Аммо ота-онани алдаш жуда катта гуноҳ саналади. Ота-онасига билдирмай бирон ёмон ишни қилиш ота-онага нисбатан ҳурматсизлик, уларни ҳақоратлаш билан тенгдир. Аслида болалар қийин ҳолатга тушганларида ростини айтиб, ота-оналарини бундан хабардор қилсалар, ота-она ўзларининг ақли ва тажрибаси билан бу қийин ҳолатдан чиқиш йўллари кўрсатиб берадилар. Демак, ҳар бир бола ўз ота-онасини қилаётган иши ва ҳолатидан хабардор қилиши баробарида унинг насиҳати ва маслаҳатларига қулоқ тутиши ва амал қилиши керак.

## Ака-ука ва опа-сингилларимиз олдидаги вазифаларимиз

**А**зиз болалар, сиз ака-ука ва опа-сингилларингизни ҳаммадан кўра кўпроқ яхши кўриб, эҳтиром қилишингиз керак. Зеро, сизлар бир ота-онадан туғилгансиз ва энг яқин қариндош ҳисобланасиз. Ўзаро муносабат масаласида сизларнинг орангиздан қил ҳам ўта олмаслиги керак. Кўчадаги дўстлар бир куни келиб сизни ташлаб кетиши

эҳтимоли бор. Аммо ўз жигарингиз яхши кунда ҳам, ёмон кунда ҳам асло сизни ташлаб кетмайди. Чунки сизларни ота-она боғлаб туради, сизлар ўзаро ака-ука ва опа-сингилсизлар. Сизларнинг алоқа ва муносабатингиз узилмас ришта билан боғланган, бирон манфаат устида қурилмаган. Шундай экан, азиз фарзандлар, бир-бирингизга меҳрибон бўлинглар, ҳурмат билан муомала қилинглар. Буни кўрган ота-онангиз ҳам хурсанд бўлади. Ака-ука ва опа-сингилларига ҳурмат кўрсатадиган болани бошқа одамлар ҳам яхши кўради.

### **Кичикнинг ўзидан каттани ҳурмат қилиши ва каттанинг ўзидан кичикка меҳрибонлиги**

**Э**й фарзанд, ўзингдан ёши катта кишиларни ҳурмат қил ва ўзингдан кичикларга меҳрибон бўл. Шундай қилсанг, қариганингда сенга меҳрибонлик қиладиган ва ожиз бўлиб қолганингда сенга раҳм қиладиган кишиларни учратасан. Кичикнинг ўзидан каттани ҳурмат қилиши ва каттанинг ўзидан кичикка меҳрибонлик қилиши гўзал ахлоқлардан биридир.

Кичикнинг ўзидан каттага ҳурмати қуйидаги насиҳатларга амал қилиш орқали бўлади:

1. Автобус, троллейбус ёки трамвайда тик туришга ожиз кишини кўрсанг, сендан даражаси паст бўлса ҳам ўрнингдан туриб унга жой бер.

2. Сен танийдиган ёши улуғ кишиларни учратиб қолсанг, биринчи бўлиб салом бер.

3. Акаларингни ва сендан катта биродарларингни ҳурмат қил. Шунда улар сенга меҳрибон бўлишади ва сени яхши кўрадилар. Агар сенга яхшилик қилсалар, уларга раҳмат айтишни унутма.

4. Агар уйда хизматкорлар бўлса, уларга юмшоқ гапир, қўполлик қилма. Ота-оналарини ҳақорат қилма ва уларни урма. Чунки улар ҳам сенга ўхшаган одам.

5. Жамоат жойларига киришда ёки чиқишда чиройли дидли ва одобли бўлишга ҳаракат қил. Кексалар ва аёллар билан тиқилишма, йўл бўшагунча биров кутиб тур.

## Каттанинг ўзидан кичикка меҳрибонлиги

1. Ўзингдан кичик укаларинг ва сингилларингга меҳрибон бўл. Ҳолва ёки ўйинчоқларни улар билан баҳам кўр, қизганиб ўзингни қилиб олма. Уларнинг жаҳлини чиқарма, улар билан жанжаллашма.

2. Кичкина укаларингни қўрқинчли ва бўлмағур ҳикоялар билан қўрқитма.

3. Агар кичик укаларингнинг дарсларига ёрдам беришга кучинг етса, ёрдам бер.

## Ҳикоя

**И**смоил одобли ўқувчи. У ўзидан кичик укалари ва сингилларини яхши кўради. Ҳар доим бирга ўйнайди, бирон нарсасини қизганмайди, меҳрибонлик қилиб, уларни хурсанд қилади. Ёши катта бўлишига қарамасдан, уларни ўзига яқин тутади ва худди тенгқуридек муомала қилади. Кунларнинг бирида синглиси кўғирчоғи билан кичкина аравага ўтириб, ундан боғда сайр қилдиришни сўради. У рози бўлиб аравани торта бошлади. Бундан синглиси жуда хурсанд бўлди, ўзи ҳам хурсанд бўлди. Онаси бу ҳолни кўриб унга:

– Эй Исмоил, синглинг хурсанд бўладиган ишни қилишинг жуда яхши. Бу аканинг вазифасидир, – деди.

## Бахил савдогарнинг оқибати

(Ибратли ҳикоя)

**К**адимги замонда ёмон феълли хасис савдогар бозорда айланиб юриб, саккиз юз тилла тангаси бор ҳамёнини йўқотиб қўйди. Ҳар томонга зир югуриб, ҳамёнини сўраб-суриштирди, лекин ҳеч кимдан дарагини эшитмади. Шунда у ким ҳамёнимни қайтариб берса, унга юз тилла мукофот беришини эълон қилиш учун бозорга жарчи юборди. Йўқолган бу ҳамённи Вали исмли бир этикдўз топиб олганди. У ниҳоятда ҳалол киши эди.

Эгаси топилгунча ҳамённи сақлаб қўйишга қарор қилди. Жарчининг гапи рост эканига ишонч ҳосил қилгач, савдогарнинг олдига бориб унга ҳамённи топширди. Савдогар бахил, ёлғончи ва бировга яхшилиқни раво кўрмайдиган ярамас одам эди. У йўқолган ҳамёни топилганига қанчалик хурсанд бўлмасин, буни билдирмади. Дарҳол ҳамёнини очиб санаб кўргач, бечора этикдўзга тухмат қилиб шундай деди: “Шундоқ ҳам оладиган пулингни аллақачон олиб бўлибсан!”. Вали этикдўз савдогарга шундай дебди: “Оғзингизга қараб гапиринг! Мен фақир кишиман, аммо ёлғончи, ўғри эмасман! Ваъда қилган пулингизни беролмасангиз, мени ўғирликда айбламанг”.

Нопок савдогар Вали этикдўзга тухмат қилиб, ҳатто иккови маҳкамага (қозихонага) боришди. Икки томон сўзини эшитган қози савдогарнинг алдаётганини сезди ва уни қаттиқ жазоламоқчи бўлди. Қози ғазабини билдирмай ўз қарорини эълон қилиб деди: “Савдогар ҳамёнидан юз олтин танга олганини даъво қиляпти, этикдўз эса ҳамёндан ҳеч нарса олмаганман, деб айтаяпти. Мен ҳар иккисининг сўзига ишонаман, икковининг ҳам гапи рост. Шунинг учун этикдўз топиб олган бу ҳамён бошқа одамники, ҳамён то эгаси чиққунича маҳкамада туриб туради”. Бахил савдогар этикдўзга қилган ишидан афсусланди, аммо энди кеч эди...

## Устоз отангдек улўғ!

**А**зиз болалар! Устозни ҳурмат қилиш сизнинг бурчингиздир. Баъзи китобларда устознинг ҳаққи ота-она ҳаққидан кейин туриши айтилган. Чунки ота-онангиз дунёга келишингизга сабабчи бўлса, устозингиз, қадрли муаллимингиз оқ-қорани танитади, ўқиш, ёзиш ва фикрлашга ўргатади. Шундай экан, болалар, устозни ҳурмат қилиш ва унга миннатдорлик изҳор қилишимиз лозим.

Устозга ҳурмат билан муомалада бўлиш қаторида ундан ҳол-авҳол сўраш, бирон иш буюрса, дарҳол бажариш лозим.

Шунингдек, камтарона муносабатда бўламиз, ҳеч қачон устоздан ўзимизни катта тутмаймиз. Чунки унинг ёши, илми ва тажрибаси ҳам бизникидан кўпроқ. Шундай экан, уни беҳурмат қилмаслик ва устозлик ҳаққини адо қилиш талаб этилади.

Ота-онамизга қилган яхшиликларни албатта устозимизга ҳам қилишимиз керак. Бундан ташқари, уларга яхшилик сўраб дуо қилишимиз, дуоларини олишимиз ва айтганларини безътибор қолдирмай адо этишимиз лозим. Баъзи ёмон болалар устозларини хафа қиладилар, айтганларини вақтида бажармайди, дарсда ўртоқлари билан гаплашиб ўтириб, муаллим сўзига қулоқ тутмайди. Азиз болалар, унутмангки, устозини хафа қилган ва уни ранжитган болалар ҳаётда яхшилик ҳам, барака ҳам топмайди. Зеро, биз устозимизни ҳурмат қилиб, ундан кўп билимларни олсак, ҳаётда қоқилмаймиз. Устозимиз биз учун маърифат зиёсидир. Устоз қадри катта ҳаёт бошлаб, бирон касб бошини тутиб, яшай бошлагандан кейин билинади. Ана ўшанда мактаб даврида билим олмагани, агар билим олганида, устозининг панд-насиҳатларига қулоқ тутганида, яхшироқ ишларда ишлаб, яхшироқ пул топиши мумкинлигига афсусланади. Аммо энди кеч бўлганини, ҳаётни орқага қайтариб бўлмаслигини билиб, ўзидан-ўзи хафа бўлади.

Эй фарзанд, сенга илм ўргатаётган устоз меҳрини қозониш учун қуйидагиларга амал қилишинг керак:

1. Устозингдан олдинда юрма.
2. Устозинг ўрнига ўтирма.
3. Устозинг олдида рухсатсиз гапирма.
4. Малол келадиган бўлса, дарс вақтида кўп савол берма.
5. Дасрга кеч келма.
6. Устозингни безовта қилма.

Ҳикоя қилинишича, Имом Бухорий бобомиз бир муддат Маккаи мукаррамада дарс олишига тўғри келади. Бир зиёратчи у зотнинг Бухорои шарифдаги бир устозидан салом ва мактуб келтирганида устоз юртидан келганини билиб, у билан қучоқ очиб кўришади ва унга ҳурмат бажо келтиради. Сўнг салом хабарини эшитганида, Бухорои шариф томонга юзла-

ниб, саломга алик олиб, устози ҳақиға дуо қилади. Кейин мак-тубни икки қўллаб олиб, эҳтиром билан хатни ўқийди.

Қаранг болалар, қандай ибратли воқеа?! Демак, устоз ўзидан узоқ жойда бўлса ҳам унинг ҳузурида тургандек ҳурмат бажо келтириш ва уни доим эъзозлаш лозим экан.

## Ҳикмат

**Б**ир ҳақимдан:  
– Нима учун устозингни отангдан ҳам яхши кўра-сан? – деб сўралди.

– Устоз абадий тириклигимнинг сабабчиси, отам эса ўткинчи ҳаётимнинг сабабчисидир! – деб жавоб қилди у.

## Одамларни ҳурмат қилиш

**К**уйидаги одобларга риоя қилиш одамларни ҳурмат қилиш жумласидандир:

1. Саломни ошкора бер, кўришганда табассум қилиб, очиқ чеҳрали бўл. Чунки юзни буриштириш ва кибр одамларда сенга нисбатан нафратни пайдо қилади.

2. Ўзингга яхши кўрган нарсани одамларга ҳам яхши кўр ва ўзингга раво кўрмаган нарсани одамларга ҳам раво кўрма. Ўзига ёққан нарсани ўзгалардан қизганиш ва ёқтирмаган нарсани бировларга бериш одобли болалар иши эмас.

Агар автобус ёки трамвайда ўтирган бўлсанг, ўзингга етарли жойдан ошиғини банд қилма. Чунки бошқа одамнинг ўтиришига халақит берасан. Унутма, жамоат транспорти ёлғиз сеники эмас, унда бошқа одамларнинг ҳам ҳақи бор.

3. Сенга гапираётган одамга овозингни баланд кўтарма. Агар улар ота-онанг, ўқитувчинг каби сендан ёши улуг ва мартабали киши бўлса, сенга гапираётган пайтда унинг сўзини бўлма.

4. Ўзинг ёки машинанг овози ёки уни тез ҳайдаш билан одамларни безовта қилма. Чунки йўлда ёш болалар, заифа аёллар ва қариялар бор. Сенинг бу қилигинг уларга озор беради.

5. Камбағални камбағаллиги учун таҳқирлама, бечораҳол, ногирон ёки баданида бирон айби бор кишиларни масхара қилма. Балки ўша одам учраган касалликдан сени саломат қилгани учун Аллоҳга шукр қил.

6. Бирон кишини у ёмон кўрадиган лақаб билан чақирма. Дўстларинг ва тенгдошларингга лақаблар тўқима. Чунки бу уларнинг дилига озор етказди.

### ***Болалар луғати***



**Ҳурмат** – иззат, эҳтиром, сийлаш, қадрлаш; обрў-эътибор.

**Таҳқирлаш** – нафратланиш, жинканиш, менсимаслик, ҳақорат, камситиш, хўрлаш.

**Заифа** – 1. Кучсиз, ожиза аёл. 2. Хотин, рафиқа, аёл.

### **Нақадар ёмон иш**

*(Ибратли ҳикоя)*

**А** булҳасан ривоят қилади: “Биз Набий алайҳиссалом ҳузурларида ўтирган эдик. Даврадан кимдир туриб кетди, бироқ оёқ кийимини унутиб қолдирди. Даврадагилардан бири унинг оёқ кийими устига ўтириб олди. Ҳалиги киши бир оздан кейин қайтиб келиб, оёқ кийимини сўради:

– Биз кўрмадик, – дейишди. Пойафзал эгаси безовталаниб қолди. Сўнг унинг оёқ кийими устига ўтирган киши:

– Мана оёқ кийиминг, – деди.

Шунда Пайғамбар алайҳиссалом:

– Мусулмон кишини безовта қилиш нақадар ёмон иш! – дедилар.

– Мен ҳазиллашдим, – деди у киши.

Расули Акрам яна ўша гапларини такрорладилар.

## Одамларнинг ҳурмати нима билан ўлчанади?

**Д**унёдаги барча одамлар ирқи, ранги, кўриниши ва кийимидан қатъи назар тенг ҳуқуқлидир. Бири бошқасидан асло устун эмас. Аммо улар ичида эътиқоди кучли, илми, одоб-ахлоқдилари ҳурматга сазовордирлар.

Инсон қадр-қиймати ҳеч қачон мол-дунё билангина ўлчанмаслиги керак. Чунки бойлик доимий эмас, киши ўзи хоҳламаган тарзда мол-мулкидан айрилиб қолиши мумкин. Яна бойлик ёмон ва ёвуз одамларга ҳам берилиши мумкин. Шунинг учун фақат бойлигини эътиборда тутиб, бирон инсонни яхши деб айта олмаймиз. Аммо ўзи одобли, диёнатли бўла туриб, бой ва сахий бўлса, бу жуда яхши.

Инсон қадри яна ташқи кўриниш, чиройга қараб белги-ланмайди. Биламизки, ташқи кўриниш ёш ўтган сари ўзгариб боради. Ёшлигида чиройли бўлган одам қариганида қадри тушиб қолиши керакми? Йўқ, ким ёшлигида ҳам, қариганида ҳам одоб-ахлоқли бўлса, эътиқодини мустаҳкам сақласа, ўша киши энг ҳурматли одамдир. Агар унинг бойлиги ва чиройи бўлмаса ҳам. Бироқ кимнинг бойлиги, чиройи, ҳашаматли уйлари ва фарзандлари бўлсаю, ўзи ёмон, қўпол муомалали ва пасткаш бўлса, ҳеч қачон уни яхши инсон дея олмаймиз. Бундай одамларга бойлиги ва чиройини деб яхши муомалада бўлинади, агар ўша нарсалар ундан кетса, у ҳурматини ҳам йўқотади.

Хулоса шуки, азиз болажонлар, инсон қадри бойлик, чирой ва насл-насаб билан белгиланади, дейдиганлар қаттиқ адашади ва у фикри бузуқ одам. Балки ким эътиқодли, одоб-ахлоқли ва илми бўлса, инсонлардан яхшилигини аямаса, ўша энг яхши ва энг ҳурматлидир.

## Чиройли муомала - бола зийнати

**А**зиз болажонлар, чиройли муомала нималигини биласизларми? Чиройли муомала сабр-тоқат, одоб ва юмшоқлик билан муомала қилиш, биров ёмонлик қилса, кечириб, яхшилик қилса, унга раҳмат айтиш ва уларга ёрдам бериб,

зарарни кетказишга ҳаракат қилишдир. Чиройли муомала ҳам сўз, ҳам амал билан бўлади.

Қуйидагилар гўзал муомала жумласидандир:

1. Тижоратчилар билан муомала қилганда омонатли бўлиш. Яъни, ёлғон гапирмаслик, хиёнат қилмаслик ва уларга очиқ чехра билан муомала қилишдир.

2. Ҳунарманд одамлар олган буюртмаларни пухта қилиши ва ваъда қилинган вақтга риоя этиши керак.

3. Табиб касалларга мулойим муомалада бўлиб, уларга ғамхўрлик қилсин.

4. Бажариш вақти етганда ҳар ким ўз зиммасидаги бурчни кечиктирмасдан бажарсин, чунки бу нарса одамлар кўз олдида унинг қадрини кўтаради.

5. Ўқувчи мактабда ўртоқларига нисбатан одобли бўлиши, ўзини катта тутмаслиги ва биронтасига озор етказмаслиги керак.

6. Ҳар бир инсон қўшнисига нисбатан одобли бўлиши, уни ҳурмат қилиши, касал бўлса, уни бориб кўриши, агар кўринмай қолса, ҳолидан хабар олиши, ундан бирон нарсани қарз олган бўлса, уни ўз вақтида қайтариб бериб, бу яхшилиги эвазига унга раҳмат айтиши керак.

7. Фикрига қарши чиққан одам билан юмшоқлик ва мулойимлик ила мунозара қилсин. Чунки бу нарса унинг қалбини юмшатади.

8. Сен ёмонликни яхшилик билан даф қил. Чунки бу нарса душманингни дўстга айлантиради.

Ҳадиси шарифларнинг бирида: “Сизларнинг менга энг суюкливоғингиз энг ахлоқи гўзалроғингиздир”, - дейилган.

## Насиҳатлар

1. Қўлингдан яхшилик келмаса, ёмонлик қилишдан ҳам тийил.

2. Агар яхши гапинг бўлмаса, тилингни бўҳтон ва ғийбат билан булғама.

3. Яхшилик йўлида чекилган меҳнат ерда қолмайди.

4. Бирор кимсага катта яхшилик қилган бўлсанг ҳам, уни кичик деб бил, биров сенга яхшилик қилган бўлса, уни катта деб бил.

## Олим бўлган чўпон

(Ибратли ҳикоя)

Эй фарзанд, сен панду насиҳатларга қулоқ солсанг ва улардан ибрат олсанг, яхшилаб амал қилсанг, дилинг доимо шод бўлади, кундан-кунга ўсаверасан.

Айтишларича, Луқмони ҳақимниқига бир гуруҳ кишилар меҳмон бўлиб келишди. Ундан ҳикматга оид нарсалар ҳақида сўрашди. Шунда келганлардан бири:

– Эй ҳақим, сен фалон жойда чўпонлик қилган киши эмасмисан? – деб сўраб қолди.

– Ҳа, ўша чўпонман, – деб жавоб берди Луқмон, – ҳозир кўриб турибсанки, ҳақимман.

– Бу даражага қандай эришдинг? – сўради у.

Луқмони ҳақим унга:

– Тўғри сўзлаш, одамларга яхшилик қилиш, омонатга хиёнат қилмаслик, ёлғон сўзламаслик, беҳуда гапирмаслик, мусибат ва қийинчиликларга мардона чидаш ва ўзини камтар тутиш туфайли! – деб жавоб берди.

## Зиёрат қилиш одоби

Муҳаббатни оширадиган ва дўстликни мустаҳкамлайдиган сабаблардан бири байрамлар, дам олиш кунларида, сафарга бормоқчи бўлганда ёки сафардан келганда, касал бўлганда ўзаро бир-бирини қутлаб, зиёрат қилиб туришдир.

Зиёрат қилишда рияз қилинадиган бир қанча одоблари бор. Жумладан:

1. Зиёрат қилиш учун муносиб вақт танлагин. Бу ухлаш, овқатланиш ёки бошқа иш билан машғул бўлинадиган вақт бўлмасин.

2. Бориши ҳақида олдиндан хабар бериш (бу асло ман-манликка кирмайди, “мени муносиб кутишга ҳаракат қилинглар”, деган маънони англамайди. Балки уларни олдиндан огоҳлантирилса, мезбонлар ноқулай аҳволга тушиб қолмайдилар).

3. Агар зиёрат учун маълум вақт тайин этилса, унга риоя қил. Ундан эрта ҳам, кеч ҳам борма.

4. Агар бирон уйга кирмоқчи бўлсанг, олдин уй эгасидан рухсат сўра. Агар уй эгаси сенга энг яқин киши бўлса ҳам.

5. Уйга кираётганда сени қарши олаётган кишига салом бер.

6. Уйга кираётганигда йўлингда дуч келган нарсалардан кўзингни ерга қаратиб ўтгин. Ўтирган пайтингда уй жиҳозлари ёки деразаларига аланглаб кўп қарама. Шунингдек, ўзингга лозим кўрилган жойда ўтир.

7. Гапираётганигда ўрта овоз билан гапир. Фойдали сўзлар билан чеклан.

8. Олдингга қўйилган овқатни ёмонлама.

9. Уй эгасининг хурсандлиги ёки ташвишига шерик бўл. Хурсанд вақтларида табриклар, ташвиш чекаётганида унга далда бўл.

10. Узоқ ўтирма. Чунки уй эгасининг бошқалар билан ҳам ваъдаси ёки қиладиган ишлари бордир.

11. Касал кўришга борганинда ҳам узоқ ўтирма ёки кўп гапириб уни қийнаб қўйма. Унинг олдида фақат хурсанд ва хотиржам қиладиган сўзларни гапир.

12. Ўзингдан зериктириб қўядиган даражада кўп зиёрат қилма. Ёки бутунлай алоқани узиб қўядиган даражада зиёратни камайтириб юборма.

13. Сени зиёрат қилишга келган кишининг юзига очиқ табассумли бўл. Унинг олдида меҳмонларга аталган нарсалардан қўй ва кетаётганида уни эшиккача кузатиб чиқ.

14. Зиммангдаги вазифани бажариш ва орадаги дўстликни сақлаб қолиш учун зиёрат қилган кишини сен ҳам зиёрат қилиб тур.

## Болалар луғати



**Зиёрат** – ташриф, табаррук жойларга сафар қилиш, яқин кишиларни ва ёши улуғ кексаларнинг ҳолидан хабар олиш.

**Далда бўлиш** – руҳиятни кўтариш, куч-қувват ва ғайрат бағишлаш; ёрдам, ҳимоя.

**Зиммадаги вазифа** – ўзига юклатилган вазифа.

## Ҳикмат

**Б**ирор жойга борганда ортиқча эзмаланиб узоқ ўтирмаслик ва ўтиришда эса фақат керакли сўзларни гапириш одамнинг қадрү қийматини оширади.

## Яхшиликнинг мукофоти

*(Ибратли ҳикоя)*

**Ч**ўпон Аҳмад тоғанинг ғам-ташвишлари кўп эди. У урушнинг оғир йилларини сира унута олмайди. Чунки худди шу йилларда ўзининг қадрдонларини йўқотган эди. Турмуш ўртоғи вафот этиб, ўғли дараксиз кетган, шаҳардаги ишидан ажрагандан кейин қишлоқда чўпон бўлиб ишлаётган эди. Бир куни йўл четида қўйларини боқиб турганида бир касалманд йигитни шаҳарга кузатаётган одамларни кўриб қолди. Афти-башарасидан унинг камбағаллиги билиниб, калта камзулда совуқдан қалтираб турарди. Шунда чўпон Аҳмад тоға неча йиллардан бери устидан ечмаган чакмонини унга кийгизиб қўйди.

Касалхона йўлакчасида шифокор ташхисини кутиб турган касалманд йигит бир кишининг елкасига қўлини қўйиб «ота» деб чақирганини сизди. Касалманд йигит бундан ажабланди ва бошини кўтариб унга қаради. Дастлаб «ота» деб чақирган бу йигитни танимади. Йигит ҳам ҳайрон бўлди ва ундан узр сўраб шундай деди: «Сиз кийган бу чакмон мен неча йиллардан бери кўрмаган отамнинг чакмонига ўхшар экан, мен сизни отам деб ўйлабман, кечирасиз».

Касалмандйигит ундан: «Отангиз ким эдилар?» деб сўради ва бироз гаплашиб ўтиргандан кейин билдики, у чакмонини берган чўпон Аҳмад тоғанинг ўғли экан. Шунда унга: «Чиндан ҳам бу чакмон отангизники, сиз адашмадингиз», деди. Шифокор кўригидан ўтгандан сўнг касалманд йигит чўпон Аҳмад тоғанинг шифохонада шифокор ёрдамчиси бўлиб ишлайдиган ўғли билан қишлоққа қайтди. Шундай қилиб, чўпон Аҳмад тоғанинг яхшилиги ўғлининг топилишига сабаб бўлди.

### **Уйимизга меҳмон келганда...**

Э й азиз фарзанд, агар уйингга меҳмон келса, “хуш келибсиз”, деб уни очиқ чеҳра билан кутиб ол. Меҳмонни очиқ юз билан кутиб олиш катта зиёфат билан баробардир.

Меҳмондорчилик одобларидан бири шуки, меҳмон олдига кирганда, чиқаётганда ёки таом ейилаётганда очиқ юзли, ширин сўзли ва хушфеъл бўлиш лозим. Меҳмонлар олдида бирон кишига қаттиқ гапирилмайди ва бировга танбеҳ берилмайди. Чунки меҳмон буни ўзига оғир олиб, мезбон мендан хафа бўлдимикан, деган хаёлга бориши мумкин.

Азиз болажонлар, агар уйимизга меҳмон келса, ота-онамизга ёрдамлашишимиз, меҳмон кутишга кўмаклашиб юборишимиз керак. Зеро, одобли болалар доим ота-оналарига кўмаклашадилар.

Меҳмон келганида болалар катталар билан саломлашгач, бошқа хонага чиқиб ўртоқлари билан ўйнайдилар, меҳмонлар гап-сўзига ўзлари изн бермагунча қулоқ солмайдилар. Меҳмон келганида дастурхонга қўйилган қанд-қурс ва бошқа қуруқ меваларга қўл узатишдан сақланиш керак. Беодоб болалар дастурхонга берухсат қўл узатиб, у-бу нарсани қўлига олиб, уйидагиларни хижолатга қўяди. Одобли болалар меҳмонлар билан саломлашиб бўлгач, дарҳол бошқа хонага чиқиб, бирон хизматга чақирилса, хизматни илдам бажаради. Меҳмонлар кетаётганида улар билан одоб ила хайралашилади, “Яна келиб туринглар”, “Яхши етиб олинглар”, деб уларга яхшилик тилайди.

## Сахий Абу Ҳанифа

(Ибратли ҳикоя)

**И**мом Аъзамнинг Куфада яшайдиган уйи баланд эди. Муҳташам саройларни эста соларди. Бир куни у зотнинг ҳузурига бир киши келиб:

– Эй имом, ўзингиз олим бўлсангиз-у, яна дунё дабдабасига берилишингиз қандай бўлади? – деди.

– Уйимни ҳамманинг уйидан баланд қурдирганимга келсак, Куфага келган камбағаллар биринчи менинг уйимга кўзлари тушиб, ҳаммадан бой одам экан, деб ўйлашлари ва тўғри меникига меҳмон бўлишлари учундир, – дебди улуғ имом.

Савол берувчи имомнинг донолигига тан берибди, ҳурмат билан унга таъзим қилибди ва шогирд тушибди.

## Рухсат сўраш одоби

**А**зиз болалар, бирон жойга боришдан олдин ота-онадан рухсат сўраш керак. Уларнинг рухсатисиз ёки айтмасдан кетиб қолиш дуруст эмас. Чунки ота-онамиз бизлардан хавотир олишади. Яна улар биз билмаган нарсаларни биладилар. Агар биз борадиган жой хатарли бўлса, у ерга боришдан қайтаришади. Шунинг учун ҳар доим уларнинг рухсати билан кўчага чиқиш керак. Ўз уйимиздан бошқа уйларга, ҳатто қўни-қўшни ёки қариндошлар уйига киришдан олдин ҳам албатта рухсат сўраш керак. Эшик тирқишидан мўралаш ёки чақирмасдан тўғри уйга бостириб бориш одобсизликдир. Ташқарида чақиргач, олдига одам чиқишини кутиб турилади. Агар рухсат берилса, ичкарига кирилади. Шунингдек, ота-онамиз ўз уйларида бўлган вақтларида ҳам олдиларига киришдан аввал “Ота ёки она, кирсам майлими”, деб рухсат сўраш керак. Рухсат олмасдан тўғридан-тўғри олдиларига кириб бориш одоби болага ярашмайди.

Бундан ташқари, оила даврасида катта ёшлилар суҳбатлашаётганларида бирон фикр айтмоқчи бўлсанг, олдин

“Мен ҳам гапирсам бўладими?” деб руҳсат сўраб, руҳсат бўлса, гапириш керак. Аммо катталар сўзини бўлиш ё уларнинг суҳбатига изнсиз аралашиш асло тўғри эмас.

### **Болалар луғати**



**Руҳсат сўраш** – изн сўраш, бирон ишни қилиш учун розилик олиш.

**Мўралаш** – тўсиқ, тирқиш ёки тешик орқали ичкарига қараш.

### **Ожиз одамларга меҳрибонлик қилиш**

**Э**й фарзанд, Аллоҳ куч-қувват ва тан-соғлик ато этган ёки мол-дунё ва шон-шуҳрат берган кишилар мана шу неъматлар эвазига шукр бажо қилишлари учун ожиз ва заиф кишиларга ёрдам бериш лозим. Шунини унутма:

1. Агар ота-онанг ёшлари улғайиб, сенга муҳтож бўлиб қолсалар, уларга меҳрибонлик кўрсат ва эҳтиёжларини қондирадиган даражада уларга пул бериб тур. Чунки улар ҳам сенинг бахтли бўлишинг учун ўзларини кўп ҳаёт лаззатларидан маҳрум этганлар.

2. Агар одамлар кўп чиққан автобусда бўлсанг ва бирон кекса, касал, заиф кимса ёки бир аёл ўтиришга жой топа олмаса, сен ўтирган бўлсанг, дарҳол ўрнингдан туриб уларга жой бер.

3. Агар сенинг хизматкоринг бўлса, унга тоқатидан ортиқ иш юклама, ҳақоратлаб ва хорлаб унга озор берма, уни етарли овқат ейишидан маҳрум этма ва уни уриб азоблама.

4. Агар уйда уй ҳайвонлари бўлса, уларни қийнама, етарли таом ва сувини бер.

## Ожизларга меҳрибонлик олийжанобликдир

1. Агар оиласи ва бола-чақаси таъминотига қийналиб турган камбағал одамни кўрсанг, унга ёрдам қўлини чўзишинг ва болалар тарбиясида унга кўмаклашишинг керак. Чунки болалари яхши тарбия олмаса, улар бировлар молини ўғирлайдиган ўғри ва жинойтчига айланиши мумкин.

2. Агар сен келажақда бир оиланинг бошлиғи (отаси) вафот этиб, боқувчиси йўқотганини ва илгари азиз бўлиб, кейин хорланиб қолганини билсанг, қўлингдан келганича уларга ёрдам беришинг керак.

3. Агар сен бир одамнинг чўкаётганини ёки ёнгин ичида қолганини ёки унга бир ваҳший ҳайвон ҳужум қилаётганини эшитсанг ва ёрдам беришга қодир бўлсанг, эвазига ҳеч қандай мукофот ва раҳмат кутиб ўтирмай унга ёрдамга шошилишинг керак.

## Садоқатли хизматкор мукофоти

*(Ибратли ҳикоя)*

**Б**ир бойнинг ўттиз йилдан кўпроқ хизматини қилган бир хизматчиси бор эди. Ниҳоят, бу хизматчи ёши улғайиб, хизматга ярамай қолди. Шунда бойнинг болаларидан бири деди:

– Эй ота, нима учун мана бу фойдаси тегмайдиган кучсиз хизматчини бўшатиб, ўрнига бақувват хизматчини олиб келмаймиз?

– Эй ўғлим, бу одам ёш ва бақувват вақтидан бери бизга садоқат билан хизмат қилиб келди. У ёшлигингизда сизларни елкасида кўтариб, улғайгунингизча сизларга келган озорларни қайтарарди. Мана энди қуввати кетиб, кучдан қолганида уни ҳайдаб юбориш одамгарчиликдан эмас. Мен яқинда унинг ишини бажарадиган қувватли хизматкор олиб келаман. У эса боғдаги ҳужрасида яшайверади. Энди бизга омонат ва ихлос

билан хизмат қилгани эвазига уни тақдирлаш учун бирон иш қилишга мажбур қилмайман, – деди отаси ўғлига.

### **Болалар луғати**



**Садоқат** – дўстлик, бирдамлик, самимийлик ва вафодорлик.

**Мукофот** – тақдирлаш, рағбатлантириш, совға, тортиқ.

**Озор** – азият, зарар, ҳақорат, азоб, жабр.

### **Дўст танлаш ва уларни ҳурмат қилиш**

Эй фарзанд, сен ўзинг учун яхши дўст танла. Зеро, сен қандай бўлсанг, дўстинг ҳам шундай бўлади. Аксинча, дўстинг қандай бўлса, сен ҳам унга ўхшайсан. Шу сабаб яхши ва одобли болалар билан дўстлашиш керак. Дўстликни мустаҳкамлаш, унинг узоқ давом этиши учун эса дўстлар бир-бирига содиқ, ҳурмат кўрсатувчи ва бир-бирининг сирини сақловчи, душманлардан ҳимоя қилувчи бўлади. Дўстлар хурсандчилик кунларида ҳам, хафалик кунларида ҳам доим бирга бўладилар. Фақат хурсандчилик кунларида атрофида айланиб, қийин вақтларда бир-бирларини тарк этиш ҳақиқий дўстлик эмас. Дўстнинг қандайлиги қийин ва оғир вақтларда билинади.

Эй фарзанд! Сен дўстинг билан тенг бўл, ҳеч қачон ўзингни ундан баланд қўйма, доим камтарин бўл, ўзингга раво кўрган нарсани унга ҳам илин. Яъни, ўзинг яхши кўрадиган нарсани дўстингга ҳам бер. Ўзинг ёқтирмайдиган нарсани унга берма! Кўп ёру биродарлар, ҳақиқий дўстлар орттир. Чунки уларнинг одамга фойдаси кўп. Чин дўст таянчдир. Кимнинг таянчи бўлса, ўша бақувват ҳисобланади. Бақувват кишининг бахт ва давлати мустаҳкам бўлади. Ўзига дўст топа олмаган киши одамларнинг энг ожизидир. Бундан ҳам ожизи эса олдинига бирон дўст топади-ю, кейин уни ҳам йўқотиб қўяди. Сен доим ёмон иш

қиладиган, сўзида турмайдиган ва ваъдасини бажармайдиган одамни дўст тутма. Чунки у арзимас нарсани деб сенга хиёнат қилади. Сен яна ёлғончи билан дўст тутинма. У мисоли саробдир: яқин нарсани узоқ, узоқ нарсани яқин қилиб кўрсатади.

Яна бир маслаҳатим шуки, аҳмоқ билан дўст тутинма! Чунки у доим сенга фойда ўрнига зарар келтиради. Шундай экан дўст танлашда шошилма, энг яхши, покиза ва қалби офтобдек ва одоб-ахлоқли болаларни ўзингга дўст қилиб танла.

### **Фойдали насиҳатлар**



1. УмарибнХаттобшундайдеди: “Инсонларга чиройли дўст бўлиш ақлнинг ярмидир. Билмаганини чиройли тарзда сўраш илмнинг ярмидир. Чиройли тадбир қилиш ҳаётдаги бахтнинг ярмидир”.

2. Одамнинг дўсти кўп бўлса, душмани кам бўлади.

3. Дўсти кўп кишининг юраги тоғдек.

4. Чин дўстликка қилич ҳам бас келолмас.

5. Сохта дўст – очиқ душмандан ёмон.

6. Модомики, менинг дўстим душманим билан кўп ўтирган экан, мен уни ҳеч дўст деб билмайман. Чиндан ҳам заҳар аралашган шакардан сақланиш керак, илонга қўнган паишадан эса қочмоқ керак.

7. Ҳар нарсанинг янгиси, аммо дўстнинг эскиси яхши.

8. Ҳар кимнинг дўст ёки душманлиги оғир кунларда билинади.

9. Бир ҳақим шундай дейди: «Дўстинг берган маслаҳат туфайли иш тутсанг-у, бироқ натижа ёмон бўлиб чиқса, сен дўстингни маломат қилма, унга: “Сен айтгандек қиламан, деб ишим чаппасига кетди, нега сенга маслаҳат солдим-а!» демагин. Чунки яна иш юзасидан унга маслаҳат солсанг, маслаҳати тўғри бўлса-да, оқибати ёмон бўлишидан қўрқиб, сенга айтмайди.

10. Синалмаган дўст ва синалмаган душманга ишониш катта хатодир.

## Жамият олдидаги вазифалар

**М**аълумки, одамлар жамоат бўлиб яшайди. Шундай экан, уларнинг бир-бирлари олдида вазифа ва мажбуриятлари бор. Жамият аъзолари ўртасидаги муносабат қоидаларига риоя қилинганида жамиятда тартиб бўлади, одамлар тинч-хотиржам ва бахтли ҳаёт кечирадилар.

Биринчи навбатда ҳар бир инсон ҳурмат-эҳтиромга лойиқ эканини билиб олишимиз керак. Инсон зотини камситиш, жонини хатарга қўйиш, мулкани топташ ва иззат-обрўсини тўқиш асло мумкин эмас. Агар ким шундай қилса, катта жиноятга қўл урган билан баробардир. Ҳар қандай жамиятда ўғрилиқ қилган, одамлар мулкани ноҳақ тортиб олган ва алдаган қаттиқ қораланади. Бу нарсага муқаддас динимиз Исломда ҳам қаттиқ эътибор берилган. Динимизда ўғрилиқ ва одамлар шаънини оёқ ости қилиш ҳаром ишлардан экани таъкидланган.

Ҳурматли фарзандлар, жамият олдидаги вазифаларни санаб ўтар эканмиз, беихтиёр “давлат мулки” деган тушунча ёдимизга келади. Давлат мулки бу миллат мулкидир. Унда барчанинг ҳақи бор. Шу сабаб одобли болалар давлат мулкани ўғирлаши, унга зарар бериши керак эмас, балки уни ўз мулкидек қўриқлаши лозим. Сен мактабдаги ўқув жиҳозларини, парта ва дарсликларни қанчалик авайлаб-асрасанг, давлат мулкани сақлаган, ўзингга ва жамиятга фойда келтирган бўласан.

### Болалар луғати



**Жамият** – бирлашма, ташкилот; кишилар жамоаси (“жамият” ва “жамоат” сўзлари бир-бирига яқин маънони англатади).

**Жиноят** – айб, гуноҳ, жинойи иш, ёмон оқибатларга олиб борувчи зарарли хатти-ҳаракат.

**Шаънини оёқ ости қилиш** – ҳурматини топташ, обрўсини тўқиш.

## Жонзотларга шафқатли бўлиш

Эй фарзанд, одобли боланинг қалби инсонларга ва жамики жонзотларга нисбатан меҳр-шафқатга тўла бўлади, биронтанинг кўнглига озор етказмайди, ҳайвонларга зарар бермайди. Ҳайвонларда инсон учун фойда кўп. Мол гўштини ейлади, сутини ичилади, териси ва жунидан кийимлар тикилади, бир жойдан бошқа жойга боришда унга минилади. У деҳқонга беминнат дастёр ва ёрдамчидир: ерини ҳайдаб беради, суғориш чархпалақларини айлантиради ва оғир юқларини манзилга етказди ва йиғилган ҳосилини уйга ташиб келтиради. Шунинг учун биз жонзотларга меҳрибон бўлиб, мулойимлик билан муомала қилишимиз керак. Чунки улар ҳам ҳис қилади, агар урилса, жони оғрийди. Лекин буни гапира олмайди. Баъзи нодон ва жоҳил одамлар от-уловини юришдан бош тортса, бошига калтак билан уради. Бу эса уларнинг ҳақини поймол қилишга киради. Инсон қалбидаги меҳр-муҳаббат унинг имон-эътиқодига боғлиқ. Имони кучли одам барча тирик жонзотларга меҳр-шафқатли бўлиши табиийдир. Кўнглида кири бор ёмон кимсалар ҳайвонларга шафқат нималигини унутади, уларни бекордан-бекор қийнайдилар, урадилар ва ҳақоратлайдилар.

Пайғамбаримиз алайҳиссалом айтадилар: “Бир одам йўлда кетаётганида жуда чанқабди, ниҳоят бир қудуқни кўриб, унинг олдида бориб, ундан сув олиб ичиб чанқоғини қондирибди. Шу пайт бир ит тилини чиқариб, чанқоқликдан намли тупроқни ялаётган экан. У одамнинг раҳми келиб: “Бу ит ҳам менга ўхшаб чанқабди”, деб қудуққа тушиб, маҳсисига сув тўлдириб итга ичирибди. Унинг бу ишидан Аллоҳ рози бўлибди ва уни кечирибди”.

Ҳайвонлар инсонлар фойдаланишлари учун яратилган. Ҳар бир ҳайвондан бирон ишда фойдаланилиб, уни тоқати кўтармайдиган юмушларни қилишга мажбурланмайди. Ҳайвонларни вақтида едириб, ичиришга эътибор бериш, уларни оч-наҳор ва сувсиз ташлаб қўймаслик ке-

рак. Шунингдек, уларни кучлари етмайдиган ишларга мажбурлаш, калтаклаш, юзларига уриш, исканжага олиш, сўкиб-ҳақоратлаш, оч ва сувсиз ҳолда қолдириш гуноҳдир. Қушларнинг уясини бузиш, полапонини олиб қўйиб, онасини чирқиллатиш ҳам яхши эмас. Ҳайвон зоти бизнинг фойдамизга яратилган экан, фойдаланишдан бошқа мақсадларда уларни эрмак учун қатл этиш, шунчаки ўйин қилиб бирон нарса билан пойлаб, уларга озор бериш яхши иш эмас. Ёмон болалар тош ва таёққа ўхшаш нарсалар билан чумчуқ ва кабутарларга шикаст етказди ёки бир оёғини боғлаб осмонга учириб ўйнайди. Азиз болалар, унутмайликки, бу ишнинг жавоби ва масъулияти бор. Бир қушни ўлдирган бола бир куни бу қилмиши учун албатта жавоб беради. Шундай экан, ҳайвон ва қушларга зарар келтирмаслик ва уларга нисбатан меҳрибон бўлиш керак.

Қўйидагилар жонзотларга мулоимлик қилиш жумласидандир:

1. Унга етарли озуқа бериши.
2. Озуқаси, танаси ва жойлари тозалигига эътибор бериш.
3. Устига оғир юкларни юклаш ва дам бермасдан тўхтовсиз ишлатиш каби тоқатидан ошиғини унга мажбурламаслик.
4. Уни уриб, ўйнаб, боласидан ажратиб олмаслик.
5. Етарли миқдорда дам бериш ва касал бўлса даволатиш.

## **Мушукка озор берган бола**

*(Ҳикоя)*

**Б**ир бола уйига келганда у ерда ухлаб ётган мушукни кўриб эшикни беркитди. Шунчаки ўз кўнглини хушлаш ва эрмак учун мушукнинг орқасидан қувиб қўлидаги калтак билан уни ура бошлади. Мушук эса бир жойдан бошқа жойга сакрар, жонини қутқариш учун ҳар тарафга қочарди. Натижада у хонадаги чинни идишлардан бирини ерга тушириб, уни синдирди. Бундан бола бадтар ғазабланиб, мушукни беаёв ура бошлади. Мушукнинг жони оғриб, бутун кучини

тўплаб, боланинг ўзига чанг солди ва унинг юзини юмдалаб олди. Буни кутмаган бола эшикка қараб қочди ва ёрдам сўраб бақира бошлади. Мушук эса фурсатни бой бермай уйдан қочиб кетди. Шу билан боланинг юзи бир умр тиртиқ бўлиб қолди.

## Навоий бобомиз ибрати

(Ибратли ҳикоя)

**Н**авоий бобомизнинг ҳар кунги одатлари шу эдики, аср намозини адо этгандан кейин намозда бўлмаганларни сўраб-суриштирар, бетоб бўлганлар ёки ҳожатмандлар бўлса, улардан ҳол-аҳвол сўрар, уларга беҳад меҳрибонликлар кўрсатарди.

Бир куни бу одатига хилоф равишда намоздан кейин тезлик билан ўз боғлари томонга қараб кетди ва бирор жойда тўхтамади. Одамлар бундан ҳайрон бўлдилар.

Ҳазрат Навоий бу ҳолни шундай изоҳлади:

– Мен масжидга келаётганимда, фалон жойда таҳорат олган эдим. Намозда турганимда елкамда бир чумоли ўрмалаётганини кўрдим. Билдимки, таҳорат олган жойимда у менга илашган экан. Мабодо у менинг елкамдан тушиб, озор топса ва инига йўл тополмаса, шу сабабдан уволига қоларман, деб қўрқдим. Шунинг учун намоздан кейин тезлик билан таҳорат олган жойга бориб, уни ини олдига қўйдим, озор етказиш ташвишидан қутулдим. Ҳазратнинг хизматидагилар бу ҳикояни эшитгандан кейин қай даражада жонзотларга раҳмдил эканидан ҳайратландилар ва дуога қўл очдилар (Хондамир, “Макоримул ахлоқ”).

**Ёдда сақланг:** Алишер Навоий – ўзбек мумтоз адабиётининг асосчиси, адабий тилимизни камолига етказган улуғ шоир ва мутафаккир.

## Меҳрибон Ҳасан

(Ибратли ҳикоя)

**К**иш кунларидан бирида Ҳасан нон сотиб олиш учун нонвойхонага борди. Уйига қайтиб келаётганида йўлда озгин бир итни кўрди. Гўё унинг қўлидаги нондан бир бўлак беришини ўтиниб сўраётгандек туюлди. Бу бечора ит ҳолига ачинган Ҳасан ўзига-ўзи: “Агар бу итга нонлардан бирини берсам, онам қаттиқ уришади”, деди. Аммо Ҳасан ўйлаб ўтирмасдан итга ёрдам беришга қарор қилди. Саватини қорга қўйди-да, бир бўлак нонни олиб майдалаб ит олдига ташлади. Нонвойхонадан чиқиб бу ердан ўтиб кетаётган бир киши Ҳасаннинг гапини эшитиб қолди. Ўзидаги бир бўлак нонни секин, билдирмасдан Ҳасаннинг саватига солиб қўйди. Ҳасан уйига келганида саватидаги нон камаймаганини кўриб ҳайрон бўлди. Агар Ҳасан мана бу ҳадисни билганида, бу воқеанинг моҳиятини яхшилаб тушуниб олган бўлар эди: “Кишининг молу дунёси қилинган садақадан камаймайди”.

## Мушукка айланган шер

(Ибратли ҳикоя)

**Б**ир замонлар бир шаҳарда жинойтчиларни ваҳшийларча жазолаш усули жорий этилган экан. Шаҳар ҳокими жинойтчиларни оч қолган шерлар олдига ташлашни буюрар экан. Одамлар йиғилиб, шу жазонинг қандай ижро этилишини кўриш учун шер ётган қафас олдига келишар экан. Бир куни эгасидан қочиб кетган қулни жазолагани олиб келишибди. Бечора қулни ўн кун оч қолдирилган бир шер олдига келтиришибди. Уни кўрган шер тўсатдан тўхтаб қолибди. Кейин қулнинг ёнига келиб унинг қўлларини ялай бошлабди, унга сўйкалиб эркаланибди.

Йиғилганлар буни кўриб ҳайрон бўлишибди ва қулдан шер нима учун унга ҳужум қилмаганини сўрашибди. Шунда қул жазо бераётган кишиларга ва одамларга қараб шундай дебди:

“Анча аввал мен бу шерга ўрмонда йўлиқиб қолдим. Оёғига учли, катта бир тикан кириб қолиб, уни роса азоблаётган экан. Мен унга ёрдам бердим, шу тиканни олиб ташладим, шундан бери биз дўст бўлиб қолганмиз”.

Одамларга қўлнинг бу ҳикояси жудаям таъсир қилди. Улар қўл билан шерни биргаликда озод қилдилар. Қизиғи шундаки, шер қўлга ҳудди унинг мушугидек эргашиб келар эди.

## Саломлашиш одоби

Эй фарзанд, барча инсонлар наздида мақбул саналган одоблардан бири саломлашишдир. Чунки саломлашиш қалбларда хурсандчилик, хотиржамлик ва муҳаббатни пайдо қилади. Салом ҳар қандай офат, бало ва ёмонликлардан узоқ бўлиш маъносидадир. Демак, салом берган киши бошқаларнинг ёмонликлардан узоқ бўлишини тилаган ва унга яхшилик сўраб дуо қилган бўлади. Эй фарзанд! Сен одамларни неча марта кўрсанг ҳам, улар билан саломлашишни ўзингга одат қилиб ол ва қўйидагиларга риоя қил:

1. Ухлашдан олдин, уйқудан турганда, уйдан чиқаётганда ва уйга кираётганда ота-онангга ва оила аъзоларингга салом бер ва уларнинг муҳаббатини қозон.

2. Агар уйда хизматчи бўлса, унга салом бер. Агар сендан олдин салом берса, унга алик ол. Шундай қилсанг, у сени яхши кўриб, ихлос билан хизмат қилади.

3. Дуч келган маҳалладошингга салом бер ва очиқ юзли бўл, уларнинг ҳурматига ва қийинчилик вақтларида меҳр-муҳаббатига сазовор бўласан.

4. Агар бир мажлисга кирсанг, ўтирганларга салом бер. Уларнинг ҳар бири билан қўл бериб кўришма. Фақат уй соҳиби ёки мажлис бошлиғи билан кўришсанг кифоя. Кейин ўзингга муносиб жойга бориб ўтир.

5. Мактабда ўртоқларингга салом бер, уларни ҳурмат қил, улардан ўзингни катта олма ва мактаб раҳбари ва устозларингга ҳар сафар кўрганингга табассум ва чиройли одоб билан салом бер. Агар шундай қилсанг, улар тарафидан эътибор топасан.

6. Агар сенга биров салом берса, унга ундан ҳам гўзалроқ ёки ўшанга ўхшатиб жавоб бер.

7. Кичик каттага, турган ўтирганга ва уловда кетаётган пиёда одамга салом бериши одобдандир.

8. Овқат еяётган ва шу каби бирон иш билан машғул бўлган одамларга салом берма.

9. Ота-онангдан бошқа бирон кишининг қўлини ўпма.

Баъзи болалар “ассому алайкум”, деб чала салом берадилар. Болалар, шуни билингларки, “ассалому алайкум”, дегани “сизга тинчлик ва саломатлик тилайман” маъносини англатади. “Ассому алайкум” эса “сизга ўлим бўлсин”, деганидир. Албатта биз ўзимиз яхши кўрган инсонларга фақат яхшилик тилаймиз. Шундайми? Демак, саломни тўлиқ ва тўғри беришимиз керак. Яна “ассалом” дейиш ҳам етарли эмас. “Ассалом” тинчлик-саломатликдир. Аммо саломнинг ортидан “алайкум” қўшилмаса, бу тилак кимга билдирилаётгани маълум бўлмай қолади.

Азиз болалар, яна бир нарсани билиб олингларки, агар биронтаси сизларга чала салом берса ёки сизлар тушунмайдиган бирон тилакни билдирса, уларга “ва алайкум”, деб жавоб қайтарилади. Бу “сизга ҳам шуни тилайман” деганидир. Шунда у сизга саломатлик тиласа, сиз ҳам унга саломатлик тилаган бўласиз. Агар душманлик маъносида бирон сўз айтган бўлса, унга муносиб жавоб қайтарган бўласиз.

## Ҳикмат

**С**алом бериш одам учун омонлик демакдир. Салом берилса, жон ундан омонлик топади.

## Ҳақиқий дўстлик қадри

*(Ибратли ҳикоя)*

**А**ҳмад одобли ўқувчи. Бир куни у иситмалаб касал бўлиб қолди. Тузалгунигача ўрнидан туролмай ётди. Мактабдошлари ва қўшнилари уни кўриш учун келиб, соғайиб

кетишини талаб дуо қилишди. Отаси кўриш учун уйга келганлар ёки телефон орқали сўраганларнинг кўплигидан таажжубланиб, уларнинг биридан сўради:

– Сен Аҳмаднинг дўстимсан, сен уни яхши кўрасанми?

– Ҳа! – деб жавоб берди у.

– Сенга унинг қайси бир хулқи ёқади?

– Унинг юзидан ҳамиша табассум аримайди, дўстлари билан чиройли одоб билан кўришади, биринчи бўлиб уларга салом беради, саломига мулојимлик билан жавоб қайтаради, кўринмай қолган кишилар ҳақида сўрайди ва касалларни бориб кўради.

Шундан кейин отаси ўғли ўз одоби ва мулојимлиги билан одамлар меҳрини қозонганини билди.

## **Сўзлашиш ва муомала одоби**

**Э**й фарзанд, сен ўз юмушларингни бажаришда одамлар билан муомала қиласан. Бунинг учун сенга тил берилган. Сен тил билан бошқа жонзотлардан афзалдирсан. Шунинг учун сен чиройли дид-фаросатга риоя қилган ҳолда ва тўла одоб билан тилингни фақат фойдали нарсаларга ишлатишинг керак.

Бунинг учун қуйидагиларга риоя қилишинг лозим:

1. Агар бир одамга гапирсанг, ўртача овоз билан гапир, яъни сен билан гаплашаётган одам ранжиб қолмаслиги учун овозингни жуда баланд ҳам, паст ҳам қилма.

2. Ҳар бир киши билан даражасига қараб гап-лашишга одатлан, ота-онанг, устозларинг ва бошлиқларинг билан гаплашганда тўла одобга риоя қил. Кичик укаларинг, уйдаги хизматчилар каби сен билан даражаси баробар кишиларга нисбатан юмшоқ ва мулојим бўлишга ҳаракат қил.

3. Чиройли, осон, мақсадни аниқ ифода этувчи сўзларни танла ва одамларга сўзингдан малол етмаслиги учун кўп такрор қилма.

4. Шошилмай гапир, қўлинг ва бошинг билан кўп ишора қилма. Сўзингни тинглашга мажбур қилиш учун сен гаплашаётган одамнинг бирон аъзосини ушлаб олма.

5. Ўзинг ҳақингда ва ўзингдаги фазилатлар ҳақида гапирма. Чунки одамлар ўзини мақтаган кишини ёмон кўрадилар.

6. Сергап бўлма ва сўзни фақат ўзингники қилиб олма. Чунки суҳбатдошинг сенга жавоб қайтара олмаслиги мумкин.

7. Сенга гапираётган одамни қўйиб бошқаси билан гаплашишга ёки китоб ва журнал ўқишга чалғиб кетма, сўзини тамомлашдан олдин суҳбатдошинг сўзини бўлма.

8. Агар суҳбатдошинг сўзидан бирон нотўғри нарсани топсанг, ёлғончига чиқариб ёки эътироз билдириб, уни хижолат қилма. Чунки у озорланади ва сени ёмон кўриб қолади.

9. Агар биров сен биладиган бирон ҳикоятни гапираётган бўлса, сўзини бўлиб қўймаслигинг учун ҳикояни билишингни айтиб, уни хижолат қилма. Билсанг ҳам сабр билан тингла.

10. Агар бир гуруҳ одамлар ўзларига тегишли мавзуда гаплашаётган бўлишса, уларнинг гапига қўшилма. Фақат ўзлари сени суҳбатга таклиф қилишсагина, уларга бориб қўшил.

11. Жамоат жойларда баланд овозда гапирилмайди.

“Махзанул-улум” китобида сўзлашиш одоби ҳақида шундай дейилган: “Сўзлашиш одоби шундайки, сўзни кам сўзласин, чунки лақмалик тентакликнинг белгиларидан биридир. Киши айтмоқчи бўлган гапини ақл тарозисида ўлчамай туриб гапириши номақбулдир. Ҳакимлар: “Кўп ўйла, сўнг сўзла”, дейишган. Эҳтиёж пайдо бўлмасдан бир марта айтилган сўзни такрор гапирмасин. Бирор киши бирон воқеани баён қилишга киришса, эшитувчининг бундан хабари бўлса-да, хабардорлигини ундан яширсин. Чунки гапирувчи хижолат чекиши мумкин. Ўзга кишидан сўралса, саволга жавоб бермасин. Агар савол кўпчиликка берилган бўлса, у мазкур саволга жавоб беришга қодир бўлса ҳам, ҳаммадан олдин жавоб беришга шошилмасин. Бирон киши жавоб берса, қониқарли бўлмаса ёки қўшимча қилишга қодир бўлса, оҳиста жавобини айтсин. Ўтиришда бўлаётган музокара ва мунозарага дахли бўлмаган ҳолда аралашмасин. Катталарга кинояли сўз айтмасин. Тушунилиши қийин бўлган сўзни мисоллар билан изоҳласин. Баҳс-мунозарада чегарадан ташқарига чиқмасин. Ҳар бир кишига у тушуна оладиган даражада сўзласин”.

## Болалар луғати



**Муомала** – муносабат, алоқа, сўзлашув.

**Номақбул** – қабул қилинмайдиган, тўғри бўлмаган, номаъқул, нотўғри, хато.

**Баҳс-мунозара** – муҳокама, мунозара, тортишув; мусобақа, беллашув.

## Фойдали насиҳатлар



1. Мулойимлик ризқ сари етакловчи калитдир.

2. Болалар ўз оталаридан мерос қилиб оладиган уч афзал нарса бор: хушмуомалалик, одоб ва садоқат.

3. Ҳақимларнинг айтишича, хушмуомалаликнинг ўн та белгиси бор. Булар: инсоф, ақл, илм, бағрикенглик, олийжаноблик, кўркам феъл, яхшилик, сабр, шукр, мулойимлик.

4. Хайрли ва савобли ишлар инсонни турли ҳалокатлардан асрайди.

5. Тили ширин одамнинг дўсти кўп бўлади.

6. Ўзингдан улуғлар сенга раҳм қилишини хоҳласанг, ўзингдан пастларга раҳм қил.

7. Ҳақимлардан бири деди:

– Қадимий ҳикматларда айтилишича, инсон ўз яратилиш хосияти билан ҳайвонлардан афзал бўлди. Унга бир огизу, икки қулоқ берилган. Шунинг учун у бир марта гапириши ва кўп марта эшитиши керак.

8. Ўйлаб сўзлаган кишининг сўзи тўғридир, ўринсиз кўп вайсаган тил шафқатсиз ёвдир.

9. Айтилган сўз отилган ўқдир, айтилгандан кейин уни қайтариб бўлмайди. Кўп сўзда кўп хато бўлади. Бирон жойга қадалган найзани чиқариб олса бўлади, аммо дилга қадалган сўз захрини чиқариб бўлмайди.

10. Сўзловчи баъзида адашади ва хато қилади, тинглаб турган заковатли киши уни тузатади ва тўғрилайди.

11. Сувнинг мазаси муз билан, ошнинг мазаси туз билан, одам яхшилиги сўз биландир.

12. Одам ўз фикрини тили орқали ифодалайди, тилдан чиққан сўзлари яхши бўлса, у эътибор топади.

## Турли ҳолатларга қандай муносабат билдириш ҳақида

**А**зиз болалар, қуйидагиларни ёдда сақланг:

1. Таниш киши билан учрашганда: “Ассалому алайкум!” дейилади. Шунингдек:

2. Гап бошлашдан аввал: аҳволларингиз яхшими, соғмисиз!

3. Бирон ишни бошлаган кишига: сизга омад тилайман!

4. Янги кийим сотиб олганга: харидингиз баракали бўлсин, яхши кунларга кийинг!

5. Янги уйга кўчиб борганларга: янги уйингиз қутлуғ бўлсин, шу уйда хотиржам яшанг!

6. Кириб келган одамга: хуш келибсиз!

7. Меҳмон келганда: хуш келибсизлар, марҳамат, кириңг!

8. Машинага чиққан одамга: йўлингиз бехатар бўлсин!

9. Ёрдам берган кишига: катта раҳмат!

10. Яхшилиқ қилганга: раҳмат, икки дунё саодатига эришинг!

11. Бирон нарса берган кишига: раҳмат, сизга кўпайтириб берсин!

12. Овқат еяётганда: ёқимли иштаҳа, олинглар, ош бўлсин!

13. Овқат еб бўлгандан сўнг: алҳамдулиллаҳ!

14. Овқат еб бўлгач, мезбонга: катта раҳмат, овқатингиз ширин бўлибди!

15. Беморга: тез соғайиб кетишингизни хоҳлайман.

16. Хавф-хатарни бошидан кечирган кишига: қайғуларингиз орда қолсин!

17. Яхши хабар эшитганда: Ўзига шукр!

18. Ёмон хабар эшитганда: Аллоҳ асрасин!

19. Чақириққа (телефонга) жавоб беришда: ассалому алайкум, қулоғим сизда, эшитаман (ёки лаббай).

20. Уйқуга кетишдан олдин ота-она ва яқинларга: хайрли тун, яхши ётиб турунлар!

21. Хайрлашиш вақтида: хайр, яхши қолинг, яна учрашгунча омон бўлинг!

## **Ақлли боланинг жавоби**

*(Ибратли ҳикоя)*

**П**одшоҳлардан бири ўз вазириникига меҳмонга борибди. Вазирнинг одобли, сўзи чиройли ўғли бор эди. Подшоҳ ўтиргач, ўша болани ёнига ўтказиб ундан сўрабди:

– Менинг уйим чиройлими ёки отангникими?

– Қачон подшоҳ отамнинг уйида бўлса, албатта отамнинг уйи чиройли! – деб жавоб берибди.

Кейин подшоҳ бармоғидаги қимматбаҳо узукни кўрсатиб ундан сўрабди:

– Бу узукдан ҳам чиройлигини кўрганмисан?

– Ҳа! Узук тақилган қўл узукдан чиройли, – дебди бола.

Подшоҳ унинг ҳозиржавоблигидан таажжубланиб яна сўрабди:

– Мендан кейин подшоҳ бўлишни истайсанми?

– Подшоҳнинг ўғли мендан кўра подшоҳликка ҳақлироқ, – дебди бола.

Бу жавобдан подшоҳнинг шодлиги янада ошиб, вазирнинг ўғлига берган тарбиясидан мамнун бўлибди.

## **Жамоат жойларда одобсизлик саналган ишлар**

**Х**урматли болалар, одамлар кўп жойларда қуйидагиларни қилиш одобсизлик саналади. Уларни ёдингизда тутинг ва улардан узоқ бўлинг:

1. Жамоат жойларда овозини баланд кўтариб гапириш.

2. Теварак-атроф тозалигига беэътибор бўлиш.

3. Меъёридан ортиқ ҳазил-мутойиба қилиш.

4. Одамлар орасида тишини тозалаш, қўлини оғзига уриш.

5. Оғзини катта очиб эснаш (эснаганда оғиз ўнг қўл билан беркитилади).

6. Жамоат орасида фақат ўз манфаати учун иш юритиш, кўпчиликни ўйламаслик.

7. Кўпчилик ичида бир одамни ёмонлаб, унинг айбларини очиш (аслида бирон кишининг айби кўринса, унинг ўзини четга чақириб, мулойимлик билан хатоси тушунтирилади. Агар одамлар орасида айтилса, у бундан ноқулай ҳолатга тушиб, сизга душман бўлиб қолиши мумкин).

8. Кўпчилик орасида ўзини мақташ.

## **Тилни бефойда сўзлардан тийиш**

**Э**й фарзанд, сен тилингни эҳтиёт қил, фақат фойдали гапларни гапир, беҳуда сўзлардан йироқ бўл. Шунда одамлар орасида суюкли бўласан.

Одамлар ичида суюкли бўлиб яшашинг учун қуйидаги насиҳатларга амал қилишинг керак:

1. Доим тўғри сўзлашга одатлан. Чунки одамлар ёлғончи деб танилган кимсалар билан муомала қилишни ва уларнинг сўзига қулоқ солишни хоҳламайдилар.

2. Агар сендан кичикроқ бўлса ҳам, одамларга гапирганда уларни ҳурмат қилишга одатлан. Чунки ўзингдан обрўси паст кишиларни камситишга тилинг ўрганиб қолса, ўзингдан улуғ кишиларга нисбатан ҳам одобинг ёмонлашади.

3. Дўстларингни сўкма, ҳақорат қилма ва уларни ёмон кўрадиган лақаблар билан чақирма. Чунки бу қабих сўзлар тарбиянг ёмонлигига ишорадир.

4. Бирон кишини ўзи йўқлигида у эшитишни хоҳламайдиган гап-сўз билан эслама. Чунки ким одамларнинг айбини қидирса, одамлар ҳам унинг айбини қидирадилар.

5. Адоват солиш учун одамлар ўртасида ёмон гаплар тарқатадиган чақимчи бўлма.

6. Шарманда қилиб, айбларини ҳаммага ёйишни хоҳлаб одамларнинг сирларини фош этма.

7. Пайғамбаримиз алайҳиссаломнинг ушбу сўзлари доим

қулоғингда турсин: “Ким Аллоҳга ва охират кунига иймон келтирган бўлса, яхши сўз гапирсин ёки жим турсин”.

Азиз фарзандлар, билингки, донолар шундай дейдилар:

– тилингни тий, сўзингни қисқа қил, бу тил тийилса, ўзинг ҳам ёмонликдан сақланасан.

– одам гапириши учун аввал унга савол берилган бўлиши керак. Агар сўралмаса, гапирмаслик керак.

– ҳикматнинг белгиси сукутдир ва эҳтиёжга яраша сўзлашдир.

– оз демак ҳикматга боис ва оз емак сиҳҳатга боис.

– тилингга жуда эҳтиёт бўлгин, бошинг омон сақланади, сўзингни қисқа қил, ёшинг узаяди.

– дунёда тилни сақлаш охиратдаги пушаймонликдан енгилроқдир.

### ***Болалар луғати***

**Беҳуда** – фойдасиз, маъносиз, бекор; амалга ошмайдиган, хомхаёл, пуч; ўринсиз, ноҳақ.

**Шарманда қилиш** – уятли ҳолатга қўйиш, уялтириш.

**Фош қилиш** – ошкор қилиш, маълум қилиш, одамларга билдириш.

### **Ҳикматлар**

1. Эй фарзанд, дунёда омон бўлай десанг, сергап бўлма, зарурат туғилса гапир, бўлмаса жимликни ихтиёр қил. Энг ёқимли хислат тилни сақлай билишдир.

2. Сергаплик ўз душманингдир, чунки у сенинг айбларингни ошкор этади, душманингни эса жойидан қўзғатади (Буни Муҳаммад Зеҳний шундай изоҳлайди: “Кўп гапиришдан сақлан, чунки кўп гапирсанг, яширин сирларинг ва камчиликларинг ўз-ўзидан очилиб қолади, жим ётган душманларинг эса хатойингдан фойдаланиб қоладилар”).

3. Гапиришдан кўра эшитишда фойда кўп, чунки эшитувчи ўзгалар гапидан ибратли сўз дурларини териб олади, билма-

ганларини ўрганади, ҳаётнинг яхши-ёмон нарсалари ҳақида тажриба ҳосил қилади.

4. Лукмони ҳакимдан:

– Беморга нима едирайлик? – деб сўрабдилар.

– Аччиқ сўздан бошқа нима едирсангиз едираверинглар, – дебди ҳаким.

## Тилини тиймаган бола

*(Ибратли ҳикоя)*

Рамзий ҳали ёш бола. Ҳар куни далада ишлайдиган отасига тушлик олиб боради. Бир куни олисдаги қоялар бағрида ноаниқ бир нарсани кўрди. Шунда Рамзий кўтарилиб турган тошни ўзига ўхшаган бир бола деб ўйлаб, “бу ёққа кел”, деб бақирди. Қоялардаги тошлар орасидан ҳам “бу ёққа кел”, деган акс садо эшитилди. Рамзий акс-садо нима эканини билмасди. Шунинг учун тепаликда бир бола тошлар панасига беркиниб, мени масхара қилапти, деб ўйлади. Рамзий яна шундай деб бақира бошлади: “Менга ўзингни кўрсат, бўлмаса афсусланиб қоласан!” Ҳалиги товуш ҳам “менга ўзингни кўрсат, бўлмаса афсусланиб қоласан!” деб жавоб қайтарди.

Бутун вужудини ғазаб эгаллаган Рамзий яна бор кучи билан бақира бошлади: “Чиқ бу ёққа, қўрқоқ!” Яна худди шу сўзларни эшитгач чарчагунича тепаликка қараб чиқди. Тепаликда ҳеч кимни кўрмаган Рамзий бу мағрур бола бошқа жойда беркиниб турибди деб ўйлади. Ўша лаҳзада у бу болани тутиб олса, бошлаб адабини бериши мумкинлиги, бу қўрқоқ болада унга кўриниш учун журъат қилмаётганини ўйлаб, тилига келган сўзларни айтиб қояларга тирмаша бошлади.

Бирдан отасининг қорни қаттиқ очиб, пойлаб тургани Рамзийнинг эсига тушиб қолди. Ахийри бу болани қидиришдан воз кечди. Далага етиб келганида отасига нима бўлганини айтиб берди. Отаси унга бир ҳикматли гапни эслатди: “Кимки фақат ўзи рози бўлган нарсаларни гапирса, ўзи норози бўладиган нарсаларни эшитади”.

## Сир сақлаш

**А**зиз болалар қуйидаги насиҳатларни яхшилаб эслаб қолинглар:

1. Сир сақлаш бировга сир айтиб пушаймон бўлишдан яхши.

2. Бировнинг сирини очган киши сенинг сирингни ҳам бошқаларга етказди.

3. Сухбатдош сирини фош қилиш энг ёмон айбдир.

Азиз фарзандим, маслаҳатим шуки, сенинг айбингдан хабар топиб, уни бировларга ошкор қилмайдиган, сенга яхшилик қилса, уни таъна қилмайдиган, унга яхшилик қилсанг, асло унутмайдиган болалар билан дўст тутин, шундай дўстни ардоқла, уни қадрла. Сир сақлай олмайдиган дўст бир куни сенга зарар келтириб қўяди.

### Фойдали насиҳатлар



1. Дўстим, деб ишониб ҳар кимга сир айтма, эҳтиёт бўл.

2. Сирингни асло бировга айтма, чунки сенга ўзингдан бошқа жонкуяр йўқ.

3. Сиринг ичингда экан, у сенинг асирингдир, сендан ташқарига чиқса, сен унга асир бўласан.

4. Ўттиз икки тиш орасидан чиқишига муваффақ бўлган сир ўттиз икки маҳаллага тарқалади.

5. Кўп кишилар борки, улар ўз сирларини сақлай олмасликлари туфайли ҳалокатга дучор бўладилар.

6. Киши сўзига қулоқ тут, аммо дарров унга ишона қолма, юрак сирингни очма, яшириб махфий тут.

### Бировларни ёмонламаслик

**А**зиз болалар, шуни билингки, бировларни ёмонлаш, улар ҳақида турли гап-сўзларни тарқатиш ғийбат бўлади. Ғийбат асл инсоний фазилатларга тескаридир, одоб-

ахлоқли бола бировларни ёмонлаш ва одамлар ҳақида нолойиқ сўз айтишдан сақланади. Гарчи бир одам ҳақиқатда ёмон бўлса, уни беҳуда тилга олавериш, айбини ошкор қилиш яхши эмас. Балки кишининг айбини ёлғиз ўзига айтиб, тузатишга ҳаракат қилиш яхшидир. Кўнгли қора одамлар киши айбини ҳамманинг ўртасида гапириб, бировни уялтиришни хоҳлайдилар. Қалби пок инсонлар эса ўзига ўхшаган инсонлар ҳақида ёмон гапларни тарқатмайдилар.

### **Болалар луғати**



**Ғийбат** – бировни камситиш, айблаш ва одамлар камчилигини ошкор этиш.

**Тухмат** (бўхтон) – бировни ёлғондан айблаш ва айбсиз одамга камчиликлар хос эканини даъво қилиш.

Изоҳ: ғийбат ва тухмат орасидаги фарқ шуки, одамларда бор камчиликларни улар йўқ вақтларда айтиш ғийбатдир. Масалан, бир одамнинг ранги қора бўлса ёки оёғи чўлоқ бўлса, уни ўзи йўқ вақтда “қора”, ёки “чўлоқ” дейиш ғийбатдир.

Одамларда йўқ камчиликларни ёлғондан уларга тегишли эканини даъво қилиш тухматдир. Масалан, биров ўғрилиқ қилмаса ҳам уни “ўғри”, дейиш тухмат бўлади.

Болалар, унутманг, ғийбат ва тухмат жуда ёмон одат бўлиб, иккиси ҳам катта гуноҳдир!

Азиз болалар, қуйидаги ҳикояни ўқиб чиқсангиз, ғийбатнинг қанчалик ёмон эканини билиб оласизлар.

### **Ғийбат эвазига қилинган яхшилик**

*(Ибратли ҳикоя)*

**Х**асан Басрийга: “Бир киши сизни ғийбат қилди”, деб айтдилар. Ҳасан дарҳол ғийбат қилган кишига бир идишда хурмо юборди. У киши хурмони олгач, ўша заҳоти Ҳасаннинг олдига келиб, ундан: “Мен сизни ғийбат қилган

эдим, сиз эса менга хурмо юборибсиз, сабаби нима?” деб сўрабди. Шунда Ҳасан Басрий унга: “Сен менга яхшилик юборган экансан, мен эвазига хурмо юбордим!” деб жавоб қилибди.

Бундан маълум бўладики, ғийбат қилинган одам ғийбатчига тўғри йўлни кўрсатиши керак, аммо ғийбат сўз ғийбатчига зарар етказди, унинг қилган ишларининг савоби бошқа одамга ўтади ва одамлар олдида ғийбатчининг юзи қора бўлади.

### **Чақимчилик иллоти**

**Х**урматли болажонлар, чақимчилик ҳам жуда ёмон одатдир. Бирон ерда эшитган гапини тезда бошқа жойга бориб айтиш, одамлар ўртасига жанжал ва низо уруғларини сочиш чақимчиликдир. Қалби тоза инсон бировдан эшитган гапини бировга айтмайди, жимлик ва сукут сақлашни ихтиёр этади. Агар биров унга гап ташиб келса, унга чиройли насиҳат қилиб, уни бу қилиғидан қайтаради. Одобли бола ўзи чақимчилик қилмаслиги билан бир қаторда бошқаларни ҳам бу ёмон ишдан қайтаради.

Болалар, шуни ёдда сақланглар: энг ёвуз ва ярамас одам шундай одамки, ўзгаларнинг айбини топишга интилади, гап ташиб, дўстларни бир-биридан айиради.

### **Саккиз хил таом ва бир оғиз ғийбат**

*(Ибратли ҳикоя)*

**Б**ир киши Ҳасан Басрийнинг ҳузурига келиб, “фалончи Б сен ҳақингда номаъқул гапларни гапирди”, дебди.

– Қачон?

– Бугун.

– Қаерда?

– Уйида.

– Унинг уйида нима қилаётган эдинг?

– Зиёфатга борган эдим.

– Зиёфатда нима единг?

Ҳалиги одам саккиз хил таомнинг номини санабди. Шунда Ҳасан Басрий:

– Ўша одамнинг саккиз хил таоми қорнингга сиғдию, бир оғиз сўзи сиғмадими? Тур, кет бу ердан! – деди ва ғийбатчини олдидан қувиб чиқарди.

## **Мақтанчоқ бўлманг!**

Инсон учун энг катта камчилик мақтанчоқлик қилиш ва ўз айбини кўра олмаслигидир. Зеро, ҳар қандай одам хато-камчиликдан холи бўлмайди. Шундай экан, азиз фарзандим, сен зинҳор мақтанчоқ бўлма, жуда зўр ишларни қилсанг ҳам кеккайма, ўзингни мақтама, сени бошқалар мақтасин. Ақлли бола ўзини мақтамайди. Нодон болалар эса биров улар қилган ишларни тан олмасалар ҳам, доим ўзини мақташга ҳаракат қилади. Агар сен яхши, билимли ва одобли бола бўлсанг, инсонлар сенинг қандай эканингни билишади, мақтанишга ва ўзингни кўз-кўз қилишга ҳожат қолмайди. Демак, ҳаётда камтар ва холис бўлиш инсонни юқори мартабаларни эгаллашига сабаб бўлади. Зеро, доно халқимиз бежизга “камтарга камол, манманга завол”, деб айтмаган.

## ***Болалар луғати***

**Мақтанчоқ одам** – ўзини-ўзи мақтайдиган, мақтанишни яхши кўрадиган киши.

**Камтар одам** – мақтанишни истамайдиган, ўзини бошқалардан паст оладиган, мағрурланмайдиган киши.

**Холис одам** – самимий, қалби тоза, беғараз, кўнглида кири йўқ, яхшиликни бирон таъмасиз амалга оширувчи киши.

## **Ҳикмат**

**Б**аъзи ҳакимларнинг айтишича, тўрт нарса хунук, лекин Бяна тўрт нарса борки, ундан хунукроқдир:

1. Ёшларнинг гуноҳ қилишлари хунук, лекин қариларники бундан ҳам хунукроқдир;
2. Жоҳилларнинг дунё билан машғуллиги хунук, олимларники бундан ҳам хунукроқдир;
3. Барча инсонларнинг дангасаликлари хунук, олим ва талабаларники бундан ҳам хунукроқдир;
4. Бойларнинг мақтанчоқлиги хунук, аммо камбағалларники бундан ҳам хунукроқдир.

## **Баҳоуддин Нақшбанднинг каромати**

*(Ибратли ҳикоя)*

**М**уридлари ҳазрат Баҳоуддин Нақшбанддан каромат кўрсатишни сўрашибди. Ҳазрат ўринларидан турибди-да, енгил-енгил беш-олти қадам юриб, яна жойларига ўтирибди. Муридлар ҳайрон бўлиб қарашибди. Шунда ҳазрат Нақшбанд шундай дебди:

– Икки елкамда тоғдай-тоғдай гуноҳларни кўтариб, қушдай енгил юришимнинг ўзи каромат эмасми?

### **Болалар луғати**



**Каромат** – ноодатий ҳодиса (каромат мўъжиза эмас. Зеро, мўъжизани фақат пайғамбарлар кўрсатишган. Валийлар эса каромат кўрсатишади).

**Ҳазрат** – жаноб, ҳурматли (бирон кишини ҳурматлаш маъносида унинг исми олдидан ёки исми ўрнига ишлатилади).

**Мурид** – издош, эргашувчи, шогирд.

### **Ўйнаш одоби**

**Э**й фарзанд, ҳар бир инсон маълум вақтини спорт билан шуғулланиш ва ўйин ўйнашга сарфлаши керак. Бу унинг ишга бўлган ғайратини оширади, танасини бақувват қилади, ақлий қобилият ва иш унумдорлигини оширади.

Спорт билан шуғулланиш болаларни дангаса ва танбал бўлишдан сақлайди.

Спорт ўйинлари ўқувчиларнинг соғлиги ва ахлоқига кўп фойда беради. Таълим-тарбия вазирлиги спорт ва спорт ишларига алоҳида эътибор бериб, дарслик программаларида спорт ўйинлари учун ўқув соатлари ажратилган. Бу вазирлик томонидан бу соҳани ўргатадиган ўқитувчилар тайинланиб, ҳар йили мусобақалар уюштирилади ва унда ютиб чиққанлар учун мукофотлар белгиланади. Лекин ўйинларнинг фойдаси фақат қуйидаги одобларга риоя қилгандагина бўлади.

1. Ўйнамоқчи бўлган бола ўйин вақтида ўртоқлари билан гўзал одобларга риоя қилган ҳолда ўйнаши керак.

2. Ўйин вақтида ҳазиллашиб ёмон сўзлар ва уятсиз гапларни айтмасин. Чунки ким ўйин вақтида тилини ёмон сўзларга ўргатиб қўйса, жиддий турган вақтларида ҳам ёмон сўзларни тилга оладиган бўлиб қолади.

3. Агар икки гуруҳ ўйнаётган бўлса, бири ютиб чиқса, унисини мазаҳ қилиши ва устидан кулиши учун бири бошқасини ўзига душман санамасин.

4. Ўйнаётганлардан бири бошқасига озор бериш, уни уриш, кийимини йиртиш ёки ерга йиқитишга ҳаракат қилмасин. Чунки ўйновчи арзимас деб санаётган бу ишлар баъзида ўта ачинарли натижалар билан тугайди.

5. Футбол ва баскетбол каби одатий ўйинларни ўйнасин.

6. Ҳар бир ўйинда ўзининг ва ўзи билан ўйнаётган болаларнинг кийимларини йиртиш ва кир қилиб қўйишдан эҳтиёт бўлсин.

7. Овқат егандан кейин дарҳол ўйнамасин. Чунки бу нарса ошқозонга зарар қилиб, жисмни қийнаб қўяди.

8. Болалар ўйинларни меъёрида ўйнасинлар. Чунки чарчаб қолиб мактаб вазифаларини тайёрлашга куч топа олмасликлари мумкин.

9. Қурол-аслаҳа ёки гугурт каби уй жиҳозларига талафот етказадиган, копток каби дераза ойналарини ва чироқларни синдирадиган нарсаларни ўйнамасин.

10. Ўйин учун муносиб вақт танласин ва одамлар дам оладиган ёки ухлайдиган, масалан пешин вақтига ўхшаган вақтларда ўйнамасин.

11. Шунингдек, ўйин учун муносиб жой ҳам танласин. Одамлар ва машиналар ўтадиган кўчаларда ўйнамасин. Боғлар ва оқар сувларга яқин, баҳаво жойлар ўйин учун энг яхши жойлардир.

## Ҳикоя

**Б**ир бола серқатнов катта кўчада ўйнашга одатланган эди. Бир куни у ўйнаётган тўп учиб, тез келаётган машина ҳайдовчисининг юзига тегди. Машина йўлдан чиқиб, пиёдалар йўлакчасига ўтиб, бир дарахтга урилиб, олди пачоқ бўлди. Тезда милиционер етиб келиб, ўйнаётган болаларни тутиб милиция бўлимига олиб борди. Кейин маҳкама машинага етган талафот учун боланинг отасига жарима тўлашга ҳукм чиқарди.

## Вақтни тежаш ва умр қадрига етиш

**А**ҳмад тиришқоқ ўқувчи. Отаси вафот этиб, ҳатто унга мактабни битириб олишига ёрдам берадиган ҳеч нарса қолдирмай кетди. У ўқишини ташлаб, бир савдогарга ишчи бўлиб ёлланди. Бўш вақтларида кечки мактабга қатнаб, таълим оларди. У қанча қийналса ҳам, ниҳоят ҳуқуқшунослик шаҳодатномасини қўлга киритди. Шундан кейин у савдогар хизматидан бўшаб, ҳимоячи-адвокат бўлиб ишлай бошлади. У тиришқоқлиги ва вақтини зое кеткизмагани боис ҳеч қанча ўтмасдан обрўси кўтарилиб, номи ҳамма ёққа овоза бўлди.

Бу йигит вақтнинг қадрини билиб, ундан унумли фойдалангани учун катта ютуқларга эришди. Агар бўш вақтини ўйин-кулгига сарфлаганида, ҳеч ким уни танимасди ва камбағал ҳолда ҳаёт кечирган бўларди.

Сафар қилмоқчи бўлган киши поезднинг кетиш вақтига рия қилмаса, кейинги поезд келишини кутиб вақти бекор

кетади. Деҳқон ўз вақтида ерига экинни экмаса, қўшнилари ҳосилни йиғиштираётганларини кўрганда пушаймон бўлади.

Мана шундан кўряпсанки, вақтни тежаш дегани уни фойдали ўринларга сарфлаш демакдир. Яъни, сен вақтингни тартибга солишинг ва ундан унумли фойдаланишинг керак. Сен пулдан кўра кўпроқ вақтингни қизғанишинг керак. Чунки ўтган озгина умр ҳеч қачон қайтиб келмайди.

Азиз болалар, сизлар вақтингизни тежаб, уни фойдали ишларга сарфлашга, умрни беҳуда кетказмасликка ҳаракат қилинг. Телевизорда бериладиган кино ва мультфилмлар сизни дарс қилиш ва бошқа фойдали ишлардан чалғитиб қўймасин. Асло телевизорга қарам бўлиб қолманг. Зеро, вақтини фойдали ишларга сарфлаган болалар келажақда, албатта, катта ютуқларга эришадилар.

Ҳадиси шарифларнинг бирида шундай тавсия қилинган: “Беш нарсадан олдин беш нарсанинг қадрига ет:

1. Қариликдан олдин ёшликни;
2. Касалликдан олдин соғлиқни;
3. Камбағал бўлиб қолишдан олдин бойликни;
4. Машғул бўлиб қолишдан олдин бўш вақтни;
5. Ўлимдан олдин тирикликни (қадрига ет)”.

Қуйидагилар ҳам вақтни тежаш доирасига киради:

1. Ҳар бир ишни ўз вақтида қил. Чунки ким бир ишни бошқа вақтга қолдирса, унинг ишлари кўпайиб кетади. Натижада уларни пухта қилолмайди.

2. Ҳар бир амал учун алоҳида вақт белгилашинг керак бўлади. Чунки вақтнинг ишсиз ўтиши умр-нинг бефойда кетишидир.

3. Ўйнаш ва дам олиш учун алоҳида вақт ажрат. Чунки бир кунда бир соат ўйнаш ғайрат-шижоатни янгилайди ва ишлашга қувватни зиёда қилади.

4. Уйда бефойда ишлар билан шуғулланиб ёки кўчада болалар билан бекорчи гапларни гаплашиб ёзги таътилни бекор ўтказма. Балки унда ҳам ҳайвонот боғи ёки музейга бориш, футбол ўйнаш ёки одоб-ахлоққа ва ақл-заковатга фойдали

китобларни, газета ва журналларни ўқиш сингари ишлар билан машғул бўл.

5. Компютердан ўз ўрнида фойдалан, кўп вақтингни компютер ўйинларини ўйнаб ўтказма.

Болалар, унутмангки, ким вақтини зое кеткизса, бу вақт унинг зарарига ишлайди.

### **Болалар луғати**



**Тиришқоқ** – ҳаракатчан, астойдил ҳаракат қиладиган, уddaбурон, ғайратли ва шижоатли (дан-гасанинг тескариси).

**Беҳуда кетказиш** – бекор кетказиш, ўринсиз сарфлаш (вақт, пул ва бошқа нарсаларни).

**Пухта бажариш** – бирон ишни ўйлаб, мукаммал ҳолда бажариш (“пухта” сўзи “пишиқ”, “тажрибали”, “моҳир”, “мустаҳкам”, “асосли” каби маъноларни англатади).

### **Мақоллар**

1. Вақт ғанимат, ўтса надомат.
2. Вақтинг кетди, бахтинг кетди.
3. Гап кўп – умр оз.
4. Ёзда ишламаган қишда кесак ер.
5. Йўқотилган олтин топилар, йўқотилган вақт топилмас.
6. Ўтган вақт йўқолган олтиндан қиммат.

### **Ҳикмат**

Абу Бакр Сиддиқдан шундай ривоят қилинади: “Уч нарса-ни уч нарса билан топиб бўлмайди:

1. Бойликни орзу билан топиб бўлмайди;
2. Ёшлиқни бўяниш билан топиб бўлмайди;
3. Соғлиқни дори-дармон билан топиб бўлмайди”.

## Ёшлик қадрига етиш

**А**зиз болалар, ёшлик даври ғаниматдир. У жуда тез ўтиб кетади. Яқиндагина мактабда ўқиб юрган болалар кўз очиб юмгунча улғайиб, турли соҳаларада ишлайдилар. Хуллас, билган кишига вақт сувдек оқиб ўтиб кетади. Шу сабаб ёшликни қадрига етиш, уни фойдали ишлар ва машғулотлар билан ўтказиш керак. Жумладан, илм ва одобни, бирон касб-хунарни ўрганиш ҳар бир бола учун муҳимдир. Тўғри, болаларни вақти-вақти билан ўртоқлари билан ўйнашдан қайтарилмайди. Аммо болаликнинг ҳамма вақтини ўйинкулгу билан ўтказиш тўғри эмас. Балки болалик чоғида илм олиш қай даражада аҳамиятли эканини тушуниб етсак, ёшимиз улғайганида унинг мевасини кўрамиз. Ривоятларда келишича, табобат илмининг катта олими Абу Али ибн Сино 18 ёшига қадар жуда кўп илмларни эгаллаб, 20-25 ёшларида етук олимлик мақомини эгаллаган эди. Кўрдингизми, болалар, ҳар бир бола ёшлигини ғанимат билиб, бу вақтлардан унумли фойдаланса, катта бўлганида эгаллаган илми ўзига жуда кўп фойда келтиради.

### Фойдали насиҳатлар



1. Ёшлик тошқин сув, сугориладиган экинзорингизни сугориб қолмасангиз ўтиб кетади. Кейин кексаликнинг кўзойнагини тақиб, игна билан қудуқ қазишдан иш чиқмайди.

2. Сизларда ёшлик куч-қуввати бор экан, уни зое кетказмасдан бурчингизни бажаришга сарфланг.

3. Ёшлик софлигини сақлаб қолишнинг энг яхши йўли – ёмон хислатларга кўнгилдан ўрин бермаслик, болаликни сақлаб қолиш. Болалик софлигини сақлаб қолган кишилар дунёда энг бахтлидир.

## Кундалик ишларни тартибга солиш

**И**шларни, дам олиш ва бошқа зарурий юмушларни бажариш вақтларини тартибга келтириш юксалишнинг энг улуғ дастуридир. Тартибсиз ва пала-партиш ишларда доим камчилик бўлади. Бу инсоннинг қолақликка қараб кетишига, ишларидан унум ва барака кўтарилишига сабаб бўлади. Айниқса, ҳозирги тезкор замонда ҳар бир ишни ўз вақтида бажариш, дам олиш ва бошқа керакли юмушларга ҳам вақт ажрата билиш талаб этилади.

Тартибли яшаш инсон умрини баракали қилади. Вақт қадрини билмаган бола ўз қадрини ҳам йўқотади. Вақтнинг беш дақиқаси ҳам катта аҳамиятга эга. Чунки шу беш дақиқалар йиғилса, соатларга, соатлар кунларга, кунлар ҳафтага, ҳафтага ойларга, ойлар эса йилларга айланади. Умримиз йиллардан иборат. Шундай экан, умримизнинг кичик бўлагини ҳам беҳуда ишларга сарфламаслигимиз лозим.

### *Болалар луғати*



**Тартибга солиш** – тартибли ҳолга келтириш.

**Зарурий юмуш** – керакли ва муҳим иш.

**Пала-партиш** – тартибсиз, бетартиб, чала-чулпа, ўйламай-нетмай қилинган иш.

### **Тежамкорлик**

**А**лига отасидан катта бойлик мерос бўлиб қолди. Шу бойлик эвазига Али ва унинг оиласи отасидан кейин ҳам яхши яшай бошлади. Лекин у ўзини кўрсатишга ва бойларга ўхшашга ҳаракат қиларди. Шунинг учун у қимматбаҳо машина сотиб олди, чиройли қасрдек ҳовлида яшашни истаб қолди, ўйин-кулгуларга берилиб кетди. Натижада қиримидан кўра кўпроқ пул сарфлай бошлади.

Пули қолмагач, баъзи банклардан қарз олишга ўтди. Ҳатто бўйнидаги қарзлари кўпайиб, қўл остидаги мол-мулкни бирма-

бир сота бошлади. Ниҳоят, унинг қўлида ҳеч нарса қолмади. Шу тариқа Али пулни беҳуда сарфлаш туфайли оиласи қийин аҳволга тушиб қолди.

Бунга иш оқибатини ўйламаган, замоннинг ўзгариб туришини ва ҳаётда кутилмаган ҳодисалар рўй беришини ҳисобга ола билмаган оила бошлиғи сабабчи бўлди. Натижада уни ўйламай қилган иши хорлик ва камбағалликка йўлиқтирди. Агар сарф-ҳаражатни камайтириб, бошқалардан қарз олмаганида ўзи ҳам, оиласи ҳам қийналиб қолмасди.

Азиз болалар, тежамкорлик пул сарфлашда ўртамиёна бўлишдир. Яъни, ҳаётда кутилмаган ҳодисаларини ҳисобга олмасдан қўлидаги пулларнинг ҳаммасини сарфлаб юбормасин, ўзи ва оиласига сарфлашда жуда бахиллик ҳам қилмасин. Молдунё йиғишга берилиб уларни таом, кийим, турар жой ва даволанишларига керакли нарсалардан маҳрум қилмасин. Агар шундай қилса, оиласи уни ёмон кўриб қолади.

Тежамкор одам пулини керагидан ортиқча нарсаларга сарфламайди. Ўн сўмга олинадиган нарса учун ҳовлиқиб, юз сўм сарфламайди. Пулни фақат керакли нарсаларгагина сарфлайди. Ҳар бир ишда ўртача йўл тутади. Агар ўн сўмга олиш мумкин бўлган нарсага юз сўм ишлатаверса, бир куни пушаймон бўлади. Чунки ҳаётда тежамкорлик нималигини билмайдиганлар муҳтожликка тушиб қоладилар. Исрофгарлик пулдан баракани кетказди. Шунини унутманг, азиз болалар.

Қуйидагиларга амал қилиш тежамкор бўлишга ёрдам беради:

1. Ҳаражатнинг ҳар бири учун ўзингга муносиб миқдор белгила.

2. Мусибатлар пайтида сарфлаш учун киримнинг муайян қисмини жамғариб қўйишга эътибор бер.

3. Ортиқча дабдаларга сарф-ҳаражатни кўпайтириб юборма. Масалан, қимматроқ машина сотиб олиш, ўйингоҳларни кўп зиёрат қилиш, янги чиққан кийим ва бошқа шу каби нарсаларга пулни бекорга сарфлаш демакдир.

4. Сендан пули кўп бойларга ўхшашга интилма. Чунки Аллоҳ инсонларни турли хил тоифа ва табақаларда яратган. Ҳамма бир хил бой ёки камбағал бўлмайди. Кимдир бой, кимдир ўртаҳол, яна кимдир камбағал бўлади. Сен ўзингдаги мавжуд нарсаларга шуқр қил ва улардан тежамкорлик билан фойдалан.

5. Сенга берилган неъматлар қадрини билишинг учун ҳаётда сендан даражаси пастроқ одамларга назар сол.

6. Имкон қадар бировдан қарз олма. Чунки қарз олишга ўрганиб қолган киши ўзига камбағаллик ва ғам-ташвиш эшикларини очган бўлади.

7. Ўзингдаги ортиқча пулларни ишлатиб юборишдан қўрқсанг, биронта омонатдор кишига бериб қўй. Чунки пулнинг қўлингга яқин бўлиши ундан фойдаланишни сенга осон қилади.

Ҳикматда айтилишича, ким маслаҳатлашиб иш тутса, ҳеч қачон пушаймон бўлмайди. Ким тежамкорлик билан ўртача йўл тутса, ҳеч вақт камбағал бўлмайди.

Азиз болалар, бу маслаҳатлар сизларга келажақда жуда асқотади. Шу сабаб уларни ёдда тутинг.

### ***Болалар луғати***



**Тежамкорлик** – тежам билан иш тутиш, исроф қилмаслик.

**Сарф-ҳаражат** – ишлатиладиган пул, маблағ.

**Исрофгарчилик** – исроф қилиш, исрофга йўл қўйиш, беҳуда сарфлаш, увол қилиш.

### **Исрофдан сақланинг!**

Азиз болалар, исроф тежамкорликнинг зиддидир. Исрофгарлик ақлга зид ишдир. Исроф деганда кераксиз нарсаларга беҳуда пул сарфлаш тушунилади. Исрофгарликнинг охири ҳалокат ва зиён. Исрофчи одам қанчалик бой бўлмасин, барибир оқибатда камбағалга айланади. Чунки исрофчи учун ҳар

нарсанинг эшиги очиқ бўлади. Бу эшиқдан камбағаллик ва муҳтожлик ҳам кириб келади.

Болажонлар, ота-оналаримизнинг эртадан кечгача ишлаб пул топишларига эътибор қаратайлик. Уларга бу иш осон эмас. Шундай экан, улар топган пулни қадрлайлик, пулни беҳуда нарсаларга сарфламайлик. Шунда ота-онамиз биздан хурсанд бўлишади.

Қандай пул топиш ва уни қаерга ишлатиш борасида муқаддас Ислом динимиз таълимотларида керакли кўрсатмалар берилган. Аввало, пул ҳалол йўл билан топилиши керак. Бировларни норози қилиб топилган пул, масалан ўғрилик қилиб топилган пул ҳалол эмас. Шундан кейин ҳалол йўл билан топилган пулни ҳалол ишларга, эзгулик йўлига сарфлаш керак. Ҳалолдан топиб гуноҳ ишларга, ёмонлик йўлига сарфлаш ҳам нотўғри.

Энди яна бир нарсага эътибор қаратайлик, пули бўла туриб уни керакли нарсаларга сарфламаслик бахилликдир. Зеро, қўлидаги пулни оила аъзоларига, камбағал ва муҳтож кишиларга, хайрия ишларига сарфламаётган киши айни бахилдир. Бундай кишининг пули борлигидан нима фойда бор? Зарур бўлганида ҳам пулни сарфламай, фақат кўпайтириш пайида бўлишдан фойда йўқ. Бунинг акси-чи, пул топиб, уни кераксиз нарсаларга сарфлаб юбориш ҳам асло тўғри эмас. Ушбу ҳолатларнинг ҳар иккиси ҳам хатодир. Энг тўғриси ўртача йўл тутишдир. Яъни, оила аъзолари ва камбағалларга керакли даражада сарф қилиш ва ортиқча сарф-харажатдан тийилиш инсонни комиллик даражасига олиб чиқади. Ким ўртача йўлни тутса, камбағалликдан ҳам, исрофгарчиликдан ҳам сақланади.

Жуда кўп кишилар исроф аслида нима эканини билмаганлари учун неъматларни исроф қиладилар. Баъзилар фақат пул тўланадиган нарсаларни тежаш керак, деб тушунадиган ва текин ёки арзон неъматларни хоҳлаганча ишлатаверадилар. Бу нотўғри. Чунки неъматларнинг қадри инсонлар наздидаги қадри билан эмас, балки Яратган Аллоҳ даргоҳидаги қадри билан ўлчанади. Мана бир мисол, сувни олайлик. Кўпчилик одамлар анҳор тўла сув, уни хоҳлаганингча ишлатаверасан, деб ту-

шунадилар. Аслида ичимлик суви энг қадрли ва бебаҳо неъматдир. Дунёдаги аксар одамлар бунга амал қилмаётганлари боис ҳозирда ичимлик суви муаммо даражасига чиқиб бормоқда. Баъзи мамлакатларда ичимлик суви жуда қимматбаҳо нарсага айланиб улгурди. Шундай экан, биз ҳар бир неъмат қадрига етишимиз керак.

### **Болалар луғати**



бўлиш.

**Эзгулик йўли** – яхшиликка йўлловчи йўл.

**Хайрия ишлари** – саховат, эҳсон, муҳтожларга ёрдам қилиш.

**Қадрига етиш** – аҳамият бериш, эъзозлаш, бирон нарса ёки кимсанинг ҳурматига яраша муомалада

### **Фойдали насиҳатлар**



1. Шамини кундузи ёндирган одамнинг тунни қоронғу бўлади.

2. Пулини беҳуда исроф қилган одам оғир кунларда хор-зор бўлади.

3. Муҳтож бўлмаганга садақа бериш исроф ҳисобланади.

4. Вакиллари исроф касаллигига йўлиққан миллат шубҳа йўқки, бало ва ҳалокатга учрайди. Агар дунё тарихига назар солсангиз, дунёдаги қавмларнинг нобуд бўлиши сабабларидан бири шу исрофгарликдир.

### **Бахилликдан узоқ бўлинг!**

**Х**урматли болажонлар, юқорида неъматлардан тежамкорлик билан фойдаланиш лозимлиги ва исрофдан сақланиш кераклиги айтилди. Баъзи инсонлар тежамкорликни бахиллик ва исрофни сахийлик, деб тушунадилар. Бу нотўғри тушунчадир. Чунки тежамкорлик ҳеч қачон бахиллик санал-

майди. Тежамкор беҳуда сарф-харажатдан сақланувчи, фақат энг керакли нарсалар учун пул ва бошқа нарсаларни ишлатувчи кишидир. Бахил эса энг керакли жойларга ҳам пул ишлатишни хоҳламайди. Тежамкорлик мақталган хислатдир. Бахиллик эса қораланади. Болалар, мана шу фарқни яхши ажратиб олинглар.

Яна бошқа одамлар исрофни сахийлик билан чалкаштириб юборадилар. Исроф неъматларни беҳуда сарфлашдан иборат бўлиб, албатта бу қораланган хислатдир. Сахийлик эса бағрикенглик бўлиб, пулни лозим бўлган миқдордан бироз кўпроқ сарфлашни билдиради. Шунингдек, қарз олган одам қарзини тўлашга қийналиб қолганда ҳам унинг муддатини узайтириш ё бўлмаса, қарздан кечиб юбориш ҳам сахийликка киради. Сахийлик зинҳор исроф эмас.

### **Болалар луғати**



**Хислат** – сифат, хусусият, фазилат.

**Бахил** – зикна, хасис, бировга нарсасини бермайдиган.

**Сахий** – қўли очиқ, саховатли, ҳимматли, ҳеч кимдан нарсасини аямайдиган.

### **Фойдали насиҳатлар**



1. *Уч нарсадан уч нарсани топса бўлади: сабрдан нажот, саховатдан улуглик ва адолатдан галаба (Хожа Аҳрор Валий).*

2. *Ҳар ганийки, тириклигида эҳсонидан кўнгулларни шод қилмагай, ўлганидан сўнг ани кимса дуо ила ёд қилмагай (Алишер Навоий).*

3. *Саховат шундай бир буюк сифатки, уни доим мақтов билан эслайдилар.*

4. *Сахий одам халққа дунёни сувдек оқизиб улашса, халқ унинг те-варацига сувдек оқиб, йигилиб келади.*

5. *Юмишмас кўнгилни сахий юмишатади, етиб бўлмас муродга сахий киши эриша олади.*

6. Одамлар муҳаббатини ўзинга жалб қилмоқчи бўлсанг, сахий бўл, саховат сени севикли қилади.

7. Сахийлик жуда яхши хислат, уни ҳеч қўймаслик керак, лекин ўзганинг моли билан сахийлик қилмаслик керак.

## Тўртга бўлинган олма

(Ибратли ҳикоя)

**Қ**ор аскарлари асирга тушган шайх Шомил устидан кулиш учун бир неча кун унга на бир бурда нон ва на бир қултум сув берибдилар. Сўнг қип-қизил чиройли олмани олдиларига қўйишибди. Уларнинг ўйлашича, оч ва ташна шайх Шомил олмага ташланиб, очофатларча ейиши, улар эса уни масхара қилиб кулишлари керак эди. Аммо орадан яна бир неча кун ўтибди ҳамки, шайх Шомил олмага қўл урмай, уни томоша қилиб ўтираверибди. Бу ҳолдан ҳайратга тушган уч рус аскари олмани нега емаётганини сўрашибди:

– Менга бир пичоқ келтирсангиз, – дебди шайх. Аксарлар пичоқ келтиришибди. Шайх Шомил олмани қўлига олиб тўрт қисмга бўлибди. Уч қисмини уч аскарга бериб, энг кичик бўлагини ўзига олибди...

## Бахиллик оқибати

(Ибратли қисса)

**Б**ир солиҳ кишининг мевазор боғи бор эди. У боғнинг ҳосилга кириб, мева беришини кутар, мевалар пишганидан кейин, камбағалларни чақириб, мевалардан узиб, уларга улашар эди. Шу тариқа унинг боғига барака кирди. Боғ мўл-кўл ҳосил берар эди. Ҳар гал боғдаги мевалардан камбағалларга кўпроқ бергани сайин ҳосил ҳам йилдан-йилга кўпайиб бераверарди. Солиҳ киши қилаётган ишидан мамнун бўлиб, вақт-соати келиб вафот этди. Боғ унинг ўғилларига мерос бўлиб қолди. Аммо улар:

– Боғимиз меваларини камбағалларга нима учун берар

эканмиз? Бу йилдан бошлаб, унинг меваларини ҳеч кимга бермаймиз, – дедилар. Уларнинг ичида ақлли ва солиҳ фарзанд бор эди. У акаларига:

– Аллоҳдан қўрқинглар! Отамизнинг яхши одатини тўхтатиб қўйманглар, – деди. Қолганлари эса:

– Йўқ, булар бизнинг ҳаққимиз, анави текинхўрлар ҳаққи эмас. Агар улар озгина олишса ҳам, насибамиз камайиб қолади. Худо ҳаққи, бу йил ҳеч кимга ҳеч нарса бермаймиз! – дейишди.

Шу кечаси боққа ёндирувчи бўрон ёғилди. Ҳаммаёқ куйиб, кулга айланди. Боғ эгалари бундан беҳабар ухлаб ётишарди. Улар тонг отиши билан боққа бориб, меваларни узиб олишмоқчи ва камбағал-мискинлардан буни сир тутмоқчи бўлишди. Тонг арафасида бир-бирларини имо-ишора билан билдирмай чақирдилар. Ҳеч ким сезмаслиги учун оёқ учида юриб кетишди. Бир-бирлари ортидан аста-секин оёқ учида юриб боққа қараб боришди. Боққа кираётиб бирлари:

– Худога шукр, мискинлардан биронтаси ҳам бизни пайқаб қолмади, – деди.

Лекин қайси кўз билан кўрсинларки, дарахтлар яшин ургандек куйиб, қорайиб кетган ва мевасидан асар ҳам қолмаган эди.

– Э воҳ! – деб юборишди. – Янглишдик, қоронғида адашиб бошқа боққа кириб қолдик. Бу бизнинг боғ эмас-ку?! Энди нима қиламиз!?

Шунда оқил фарзанд деди:

– Йўқ! Бу боғимизнинг худди ўзгинаси. Сизлар камбағалларни унинг ҳосилидан маҳрум қилмоқчи бўлганларингиз учун ҳам бу боғ куйдириб юборилди!

## **Ўртача бўлишни одат қилинг!**

**Б**олалар, ҳар бир ишда ўртача йўлни танлаш зарур. Зеро, ҳаддан ошиш ҳам ва ўртачадан камайтириш ҳам нуқсон саналади. Ҳар бир ишда мўътадил бўлишга интиланган одам инсоф ва адолат билан иш тутади. Масалан,

овқатланаётган бола очкўзлик қилиб кўп таом еб юборса, қорни оғриб қолиши ва яна уйқучи бўлиб қолиши мумкин. Бунинг акси бўлса-чи? Жуда кам овқат еган бола қуввати кетиб, мактабга бора олмаслиги ва бир пасда қорни очиб қолиб, илм қулоғига кирмаслиги мумкин. Шу сабаб овқатни меъёрида ейиш керак. Чунки очофатлик одамнинг моддий ва маънавий ҳолатини бузади. Буни уйқу мисолида ҳам кўриш мумкин. Кўп ухлаш болани дангаса қилиб қўяди. Кўп ухлаган боланинг қўли ишга бормайди. Чунки ҳадеб ухлайверганидан ялқовлик танасига ўрнашиб олади. Яна кўп ухлаган болалар ўз вазифаларини вақтида бажара олмайди ва устозидан танбеҳ эшитади. Агар кам ухласа-чи? Кам ухлаш ҳам болаларнинг соғлиғи ва руҳий ҳолатига таъсир кўрсатади. Одам соғлом бўлиши учун айти вақтида дам олиб, айти вақтида ўз ишларини бажариши керак. Камолотга ҳар бир ишни меъёрида қилиш билан эришилади. Бир соҳада илгарилаб кетиб, бошқа соҳаларда сусткашликка йўл қўйиш, бир ишни кўпроқ бажариб, бошқаларини пала-партиш амалга ошириш камчиликдир.

Азиз болалар, демак, овқат ейиш, ухлаш, болалар билан ўйнаш ва яна қолган барча ишларда меъёрга риоя қилиб, дангасалик ва сусткашлиқдан сақланиш лозим экан.

### *Болалар луғати*



**Мўътадиллик** – ўртача бўлиш, ўртамиёналик (Масалан, болалар бўйининг жуда узун ҳам, қисқа ҳам бўлмаслиги мўътадилликдир. Шунингдек, ҳаво жуда иссиқ ёки ўта совуқ бўлмаса, мўътадил ҳисобланади).

**Ҳаддан ошиш** – чегарадан чиқиш, меъёрни унутиш.

**Нуқсон** – камчилик, айб, хато, етишмовчилик.

**Очофатлик** – очкўзлик, ебтўймаслик, баднафслик.

**Сусткашлик** – имиллаш, бўшашганлик, ланжлик.

## Фойдали насиҳатлар



Иброҳим Наҳаъий шундай деган экан:  
“Сизлардан олдинги қавм уч нарса туфайли  
ҳалокатга учради:

1. Кўп гапирганликлари;
2. Кўп таом еганликлари;
3. Кўп ухлаганликлари”.

## Телевизорни меъёрида кўринг!

**Б**олажонлар, ҳозирги вақтда кўпчилик болалар телевизор кўриш ва компьютер ўйинларини жуда ёқтиради. Айримлари дарсдан бўшаган заҳоти уйига боришни ҳам унутиб, компьютер олдида ҳар хил ўйинларни ўйнаб кунни кеч қилади. Аммо ҳар бир ишда меъёрни сақланса, ҳаддан ошилмаса, соғлиқка зарар бўлмайди, яна бошқа ишлари ўлда-жўлда бўлиб қолмайди. Айрим қиз болалар уйга келган заҳоти уй юмушларини бажариш ва супуриб-сидириш ўрнига ҳали кечгача улгураман, деган ҳаёлда телевизор олдида ўтириб қолади ва онасидан дакки эшитади. Яхшилаб ўйлаб кўрилса, вақт олтиндан қиммат экани аён бўлади. Айрим ўғил-қизлар телевизорда беҳаё ва бачкана филмлар, бемехрлик, шафқатсизлик ва ахлоқсизликни тарғиб қилувчи мультфилмларни ота-оналаридан яширинча кўришга одатланади. Аслида буларни ҳеч бир инсон кўриши жоиз эмас. Зеро, улар инсон қалбини қотириб, маънавиятини бузади.

Шифокорлар болаларнинг телевизорни қанча муддат кўришлари мумкинлиги ҳақида керакли тавсияларни беришган.

## Болалар телевизорни қанча вақт кўришлари мумкин?

**Т**елевизорда намоёиш этиладиган кўрсатувларни томоша қилишдан олдин ва ундан кейин кўриш аъзолари текшириб кўрилганда, кўзнинг тез чарчаб-толиқиб қолгани аниқланган. Бунда биринчи навбатда кўзнинг аккомодацион аппарати чарчайди. Бу аппарат идрок қилинаётган тасвирнинг

аниқлигини таъминлайди. Кўз тез толиқиб қолмаслиги учун телевизор экранидан камида уч метр узоқликда ўтириш керак.

Бола қанча ёш бўлса, телевизор қаршисида шунча кам ўтириши керак. Жумладан, 4 ёшли болалар 15 дақиқа, мактабгача ёшдаги болалар куни билан ярим соат, 14 ёшгача бўлган мактаб ўқувчилари кўпи билан бир соат, юқори синф ўқувчилари эса икки соат телекўрсатувларни томоша қилишлари маъқул деб топилган. Айниқса, телекўрсатувларни рангли телевизорда томоша қилганда оқ-қора рангда кўрсатадиган телевизорга нисбатан кўзни унчалик зўриқтирмайди. Рангли тасвир аккомодацион аппаратдан зўриқишнинг бир қисмини олиб, кўзнинг рангли идрок этиш аппаратини стимуллайди. Шундай бўлса-да, хоҳ рангли, хоҳ оқ-қора телевизор бўлишидан қатъий назар, мутахассислар имкон қадар камроқ телевизор кўришни тавсия этадилар. Демак, ҳурматли болалар, имкон қадар камроқ телевизор кўриш, бунинг ўрнига устоз топширган уй вазифаларини тайёрлаш, бадий китоблар ўқиш, ота-онамизга кўмаклашиш ва бўш вақтимизда тенгқур болалар билан ўйнаш жуда фойдали деб айтилган.

## **Ёмон сифатларни билиб олинг!**

**А**зиз болажонлар, қуйида санаб ўтиладиган сифатлар ёмонликка сабаб бўлади. Улардан узоқ юриш керак:

1. Динни, муқаддас нарсалар ва жойларни оёқ ости қилиш.
2. Нодонлик, билимсизлик, беодоблик, жаҳолат ва зулмат.
3. Ўз номини булғаш, иснодга қолиш, бадном бўлишдан қўрқиб ҳақиқатни бекитиш, ёлғон гапириш.
4. Ўзига бино қўйиш ва ўзини ҳаммадан юқори деб ўйлаш.
5. Динга, соғлом ақлга тўғри келмайдиган ишларни, гуноҳ амалларни қилиш.
6. Хоҳ яхши, хоҳ ёмон бўлсин, бирон ишга муккадан кетиб, бошқа нарсаларни унутиб қўйиш, ҳаддидан ошиш.
7. Эътиқоди йўқ кишиларга тақлид қилиш, уларга ўхшашни орзу қилиш.
8. Иккиюзламачилик, риёкорлик, одамларга фақат моддий

имкониға қараб муомалада бўлиш, бойга мулозамат қилиб, камбағални камситиш.

9. Ҳаётда айшу ишратга ўчлик, лаззат ва роҳатни ўйлаб яшашни орзу қилиш (Зеро, ҳаёт фақат мазза қилиб яшашдангина иборат эмас).

10. Очкўз ва бахил бўлиш.

11. Кибр-ҳаво, ғурур, димоғдорлик, ўзини катта тутиш.

12. Мағрурланиб кетиш, ҳатто яхши ишлари билан ҳам мақтаниш.

13. Ҳасад, бировларнинг ютуғини кўра олмаслик, қизганчиқлик.

14. Ўзгаларнинг бахтсизлиги ва кулфатидан хурсанд бўлиш.

15. Лаганбардорлик, тилёғламалик қилиш, хушомад.

16. Қариндош ва яқинларидан узоқлашиб, уларга меҳрсиз бўлиш.

17. Қўрқоқлик қилиш, етарли даражада шижоат, ғайрат кўрсата олмаслик.

18. Ғазаб, ҳаддан ортиқча жаҳд, меъеридан ортиқ қаттиққўллик қилиш.

19. Ўз сўзи ва берган ваъдасида турмаслик, маккорлик, мунофиқлик, вафосизлик.

20. Сотқинлик, исёнчи ва фитначи бўлиш, сўзи бошқа, иши бошқа бўлиш, бировларнинг хотиржамлиги ва тинчлигини бузиш.

21. Одамлар ҳақида ёмон гумон қилиш, улар ҳақида нотўғри ўй-фикрга бориш.

22. Мол-дунёга ўчлик, бахиллик ва зикналик.

23. Яхши ишларни ва юмушларни кечиктириш, уларни ўз вақтида қилмаслик.

24. Гуноҳ ишларни яхши кўриш, таъқиқланган ишларни қилиш, одамларга азоб бериш, уларнинг дилини оғритиш.

25. Ўжарлик ва тўғри нарсаларни кўрса ёки эшитса ҳам қабул қилмаслик, ҳақиқатни инкор этиш.

26. Калтафаҳмлиқ, яхши ва ёмоннинг орасини ажрата олмаслик ёки ажрата олишга ҳаракат қилмаслик.

27. Одамларни ҳақоратлаш ва уларга ёмонлик тилаш.

28. Одамларни лақаб билан чақириш.  
 29. Сабабсиз кечирим сўраш.  
 30. Чақимчилик қилиш, бир гапни одамлар ўртасида тарқатиб, турли низо-жанжалларга сабаб бўлиш.  
 31. Қилган хато ишларига пушаймон бўлмаслик...

## Илм олиш фазилати

Эй фарзанд! Сен илм олишга интил. Зеро, илм туфайли яхши-ёмоннинг фарқини ажрата оласан. Илм билан юксак марраларни қўлга киритасан. Илмли киши ўзига нима зарар, нима фойдали эканини яхши билади. Илмли киши ютуққа қайси йўл билан эришиш йўлини билади. Демак, одам етуқлик даражасига эришиш учун илм олиши ва ўша олган илмига амал қилиши керак экан.

Ҳаётда ҳар бир нарсани очадиган калити бор. Барча ютуқ ва муваффақиятлар калити илмдир. Инсон ўз илми ва иқтидори туфайли улкан ғалабаларни қўлга киритади.

Агар илм бўлмаса, ҳайвонлардан фарқимиз қолмайди. Одам ўз илми, ақл-идроки билан ҳайвонлардан ажралиб туради. Зеро, ҳайвон ҳам овқат ейди, сув ичади ва ухлайди. Одамлар ҳам худди шундай. Орадаги фарқ: илмда, яхши-ёмонни ажрата олиш ва бир-бирига маданият билан муомала қилишдадир.

Илм олиш билан бирга одоб-ахлоқли ҳам бўлиш керак. Фақат илм эгалласа-ю, хулқи ёмон, одамлар билан жанжаллашиб юрадиган, бошқаларга озор берса, унинг эгаллаган илмидан фойда йўқ. Шунинг учун илм олиш қаторида гўзал одоблар билан сифатланишни ҳам билиш керак.

## Болалар луғати



**Илм** – билим, маълумот, билиш, идрок этиш (ҳар бир нарсанинг асл моҳиятини ўрганиш илмдир).

**Марра** – ютуқ, ғалаба.

**Ютуқ** – муваффақият, ғалаба.

## РИВОЯТ

**И**бн Аббосдан:  
– Сен қандай қилиб шунча илмга эришдинг, – деб сўрадилар.

У шундай жавоб берди:

– Савол берувчи тил, билувчи қалб ва чидамли ўқитувчи билан.

### Фойдали насиҳатлар



1. “Ёшликда заҳмат чекиб, илм ўргансанг, касб-хунар эгалласанг, қариганда роҳат топасан” (Кошифий).

2. “Ким кўп китоб ўқиса, китоб унинг зеҳнини очади, завқини оширади, сўзга чечан қилади. Китоб ёлғизликдаги энг мунис ҳамдамдир. Китоб ўтмишидан ҳам, келажакдан ҳам хабар берувчидир. Китоб инсондан ҳеч нарса тиламайди, аммо уни камолга етказиши керак. Китоб одоб-ахлоқнинг кони, билимнинг булогидир”.

3. Қизиқиш илмнинг эшигидир.

4. Диққат-эътибор илмнинг макони.

5. Билак қила олмаган ишларни илм ҳал қила олади.

6. Инсонни билим билан одоб безайди.

7. Ишлатилмаган билим бора-бора эскиради.

8. Билмаганлик айб эмас, билишга интилмаслик айб.

9. Билим шундай бойликки, уни ҳеч ким тортиб ололмайди.

10. Сен барча сўзларни билим билан сўзлагин, барча кишини билими учун улуглагин.

11. Билим билан саодат йўли очилади, шунга кўра, илмли бўл, бахт йўлини изла.

12. Заковатнинг озини оз дема, унинг фойдаси каттадир. Билимнинг озини оз дема, унинг манфаати кўпдир.

13. Билимни саралаб, сайлаб олиш учун заковатли бўлиш керак. Ишларни кўнгилдагидек битириш учун эса билимли бўлиш керак.

14. Фикр зойибдан пайдо бўлмайди. Фикр билимнинг ҳосиласидир.

15. Билим ўрган, заковат касб эт, беҳуда юрма, хайрли пайт келганида, улар сени рўшноликка чиқаради.

16. Илм одамнинг зеҳнини очади, ақлини кўпайтиради, билмаган нарсаларини билдиради, дунёда бахтли ва иззатли қилади.

17. Шавбий айтади:

– Илм бобида нимани эшитсанг ёзиб қўй, агар қогоз бўлмаса, деворга бўлса ҳам ёз. Чунки ёдлаган нарса унутилади ва ёзилган нарса эса абадий қолади.

### **Ҳеч ким олим бўлиб туғилмас**

**А**зиз болажон, сен илмни аста-секин ўзлаштириб, олимлик даражасига етасан. Бу йўлда сендан фақат сабр-қаноат талаб этилади. Ҳеч бир инсон онасидан олим бўлиб туғилмайди. Ўтмишда яшаган машҳур олимлар ҳам ёшликларидан илм ва одоб ўрганиб, комил инсон даражасига эришганлар. Шундай экан, “илм олиш жуда қийин-ку”, деб дангасалик қилма, бир кунда нимадир ўргана борсанг, натижада етук илм эгаси мақомига кўтариласан. Зеро, халқимизда “тома-тома кўл бўлур”, деган нақл бор. Ҳазрат Алишер Навоий бобомиз эса: “Оз-оз ўрганиб доно бўлур, қатра-қатра йиғилиб, дарё бўлур”, деган.

### **Доим олға қадам ташланг!**

**М**аълумки, ўсиб-улғайиб борган сари одам танаси ҳам ўзгариб боради. Шунга мувофиқ унинг онги, фикрлаш доираси, дунёқараши ҳам ўзгариб, бойиб бориши керак. Агар фақат моддий нарсаларга эътибор берилса-ю, маънавиятга етарлича аҳамият берилмаса, руҳий ҳолат издан чиқади. Шу сабаб одам ҳар куни ниманидир ўқиб-ўрганиши ва билимини тинимсиз ошириб бориши керак. Кеча билмаган нарсамизни бугун ўрганишимиз, билганларимизни янада мустаҳкамлаб, фикр доирамиз ва дунёқарашимизни

кенгайтириб боришимиз лозим. Илм-маърифат йўлида сусткашликка йўл қўйиб бўлмайди. Зеро, ўтаётган ҳар бир кунимиз ҳисобли, ҳар куннинг ўз ўрни бор. Ундан унумли фойдаланиш ҳар бир боланинг ўз ихтиёрида.

Олган билимларимиз таъсирида дунёқарашимиз шаклланиб, кенгайиб боради. Ҳаёт ҳақида қанча кўп билсак, умр мазмунини, унинг туб моҳиятини ва яшаш тарзини чуқурроқ англай бошлаймиз.

Шундай экан, ҳурматли фарзандларим, доимо билим олиш, энг гўзал одоблар билан зийнатланиш ҳаракатида бўлинг. Зеро, илм ва одоб билан жуда юксак чўққиларни забт этиш мумкин.

### ***Болалар луғати***



**Олға** – олдинга, олд томонга.

**Улғайиш** – балоғатга етиш, вояга етиш; ривожланиш, авж олиш, кучайиш, кўпайиш.

**Мувофиқ** – мос келувчи, муносиб, лойиқ, қулай.

**Дунёқараш** – тушунча, эътиқод, назар, қараш,

фикр.

**Моҳият** – ҳақиқат, бирон нарсанинг асли, туб-негизи; мазмуни.

**Яшаш тарзи** – ҳаёт тарзи, турмуш ва тирикчилик ҳолати.

**Чўққи** – 1. Тоғнинг энг баланд нуқтаси. 2. Юксак даража, ғалаба, ютуқ.

**Забт этиш** – эгаллаш, ишғол қилиш.

### **Эй инсон, илм олгин...**

*(Ибратли ҳикоя)*

**У**мар ибн Абдулғазиз амирликка сайлангач, уни табриклар учун турли тарафлардан келган вакиллар ҳузурига келишди. Зиёратчилар орасида ҳижозлик ўн-ўн бир ёшлар атрофидаги бир бола ҳам бор эди. Ўша йигитча Умарни қутлаш учун олдинга чиқди. Амирул мўминин:

– Шошилмай тур, сендан ёши улуғлар ҳам бор, – деди. Шунда бола:

– Амирул мўмининни Аллоҳ қўлласин! Инсон икки кичик аъзоси – қалби ва тили билан инсондир. Агар Аллоҳ бандасига бурро тил ва сақловчи қалб ато этган бўлса, гапиришга ҳақли эмасми? Ҳақиқатан ҳам, сиз айтгандек, гап ёшда бўлса, мажлисингизда ёши сиздан улуғроқ, гапиришга ҳақлироқ одамлар ҳам бор-ку, – деди.

Шунда амирул мўминин Умар ибн Абдульазиз боланинг сўзларидан таъсирланиб, ушбу маънодаги шеър айтди:

“Эй инсон, илм олгин, ҳеч ким олим бўлиб туғилмас, илм соҳиблари жоҳил каби бўлмас, илмсиз ёши улуғ одамнинг мажлисдаги мавқеи ҳам паст бўлар”.

## Илм олиш сирлари

**А**зиз болалар, қуйида илм олишнинг сирларини ҳамда юксак натижаларга эришишингизда ёрдам берадиган фойдали маслаҳатларни келтирамиз.

### 1. Муваффақиятга ишониш.

Олдимизга қўйган мақсадимиз, албатта биз ўйлаган ниятлар амалга ошишига аниқ ишонишимиз керак. Агар қалбда ишонч бўлса, шунга қараб ҳаракат ҳам кучли бўлади.

### 2. Сабрли бўлиш.

Ўқишда, илм олишда сабр ва хоҳиш талаб этилади. Сабр бир ишдаги тўсиқларни енгиш учун қатъиятли бўлишдир. Яхши ўқувчи унга етишади, омадни қўлга киритиш учун сабр билан ўқийди.

### 3. Иродали бўлиш

Инсон ҳаёти давомида қийинчилик ва машаққатларга дуч келганида ирода кучи жуда керак бўлади. Ўқишдан безор бўлиб, зерикканлар қўрқмасдан курашни давом эттириши керак. Бунга режали ва тартибли ишлаш орқали эришиш мумкин.

Истак ва сабр билан тартибли ўқишни амалга ошириш керак. Бу дастурнинг асоси ҳар куни тартиб билан дарс қилиш учун ўтириш ва ўқишдан ўзини олиб қочмасликдир.

#### **4. Илм олишдан роҳатланиш.**

Машқларни бажариб, масалаларни ечаётган бола қилаётган ишидан хузурланиши ва роҳатланиши керак. Ўрганишдан қанча хурсанд бўлсак, маълумотларни эслаб қолиш шунча осон бўлади.

#### **5. Ўқишга нисбатан хоҳишни уйғотиш.**

Баъзида ўқиш истаги сўнади. Бу ҳар кимда ҳам бўлиши мумкин. Аждодларимиз “бошлаш битиришнинг ярмидир”, деб бежиз айтишмаган.

Қисқаси, ўқишга киришишдан олдин хоҳиш бўлишини кутмайлик, дарсга ўтирганимизда у ўз-ўзидан пайдо бўлади.

Хоҳиш билан ўқиш учун қуйидагиларга эътибор беринг:

- масалани аниқ еча олишингизга ишонинг;
- ўқишни бошламасдан олдин мавзуга боғлиқ мақсад қўйиш;
- ўқиётган манбага ўзимизда қизиқиш уйғотиш;
- ўқиш давомида қайд этиш, тагига чизиш, хулоса чиқариш каби турли воситаларни қўллаш.

#### **6. Ўқишда танаффус зарур.**

Дарс мобайнида бироз танаффус қилиш танаффуссиз ўқишдан фойдалироқ. Дам олиб ўқиш ишни қисқа ва тез фурсатда бажаришнинг сабабидир.

Дарсга танаффус бериш бир хилликдан қочиш, кучни ошириш, янада унумли ишлашга ёрдам беради. Тинимсиз дарс қилиш зеҳни чарчатади, сабрни кетказади ва илмни қабул қилиш имкониятини камайтиради.

Лекин, дарс орасидаги танаффусни телевизор кўриш, компьютер ўйнаш, телефонда гаплашиш билан эмас, балки тоза ҳавода юриш ва жисмоний машқлар қилиш билан ўтказиш керак.

#### **7. Қизиқувчан бўлиш.**

Мавзуларни яхшилаб ўзлаштириш учун қизиқиш керак. Ҳар бир маълумотни алоҳида эътибор ва қизиқиш билан ўқисак, зеҳнда яхши сақланиб қолади. Шунингдек, бажара олмаган саволимизни китоблардан хоҳиш билан қидирсак, мақсадга мувофиқ бўлади.

Имоми Аъзамдан: “Қандай қилиб чуқур билим эгаси бўлгансиз?” деб сўрашганида, “Билмаганимни ўрганиш учун диққат билан тингладим, билганларимни қайтаришганда эса худди билмагандек мароқ билан такрорладим”, деб жавоб берган экан. Болалар шуни унутмангки, кўп ишлагандан кўра унумли ишлашга ҳаракат қилиш керак. Китоб бизга юк эмас, йўл кўрсатувчидир.

### **8. Саволларни тўғри тушуниш.**

Имтиҳонга тайёрланаётганда кўп саволларга жавоб топиш керак. Сизга берилаётган саволларни тўғри тушуниш жавоб беришни енгиллаштиради. Саволни яхши тушуниб олмаган одам унинг жавобига ҳам қийналади ёки нотўғри жавоб беради.

Унутмаслик керакки, саволни тўғри тушуниш ва ишлаётган машқ моҳиятини билиш масаланинг ярмини ечиш билан баробар.

### **9. Эътибор билан ўқиш.**

Ўқиш давомида қанча эътиборли бўлсак, эслаб қолиш қобилиятимиз шунча ошиб боради. Бунинг учун мавзуни синчиклаб ўқиш лозим. Муҳим жойларини дафтарга қайд этиш ёки рангли ручка билан чизиш такрорлаш пайтида қулайлик туғдиради.

Ўқиётган маълумотларни яхши ўзлаштириш учун қуйидагилар тавсия этилади:

- баланд овозда ўқиш;
- ўртоқлари билан савол-жавоб қилиш;
- мавзуга тегишли тестларни ечиш ва камчиликларини билиб, уларни ўрганиш.
- маълумотларни ёдлаб қолиш учун тушуниб ўқиш ҳамда амалиятда қўллаш керак.
- имтиҳон кунидан олдин охириги марта белгилаб қўйилган қайдларга ёки китобнинг муҳим жойларига қараш самара беради.

### **10. Жисмоний машқларга бепарво бўлмаслик.**

Соғлом бўлишни хоҳлайдиган ҳар бир бола жисмоний машқларни ҳар доим бажариб туриши керак. Чунки машқ орқали қон айланиши тезлашади, миямизга кислород етиб боради, мушаклар кучайиб, бўғинларнинг ҳаракатини

таъминлайди, руҳий таранглик камайиб, куч-қувват ортади. Машқ туфайли юрак, буйрак, ўпка ва томирлар кучга тўлади, томирлар кенгаяди ва эластик (эгиловчан) ҳолга келади.

Азиз болалар, бу каби машқларга бепарво бўлманг. Энг қулай машқ юриш ва зинадан чиқиб-тушиш, айниқса, футбол, сузиш, велосипед ҳайдаш, теннис, волейбол, баскетбол каби спорт турлари билан шуғулланиш лозим. Дарсдан толиққанимизда жисмоний машқлар қилиш фойдали. Бу билан дам оламиз, баданимиз ва ақлимизга куч-қувват қўшилади.

### **11. Телевизор, телефон ва компьютердан узоқ бўлиш.**

Таълим олаётган ўқувчи эътиборини жалб этадиган барча нарсадан узоқ бўлиши зарур. Ҳатто уяли алоқа воситаси ҳам халақит бергани учун уни ўчириб қўйиши керак.

Дарс вақтида бегоналар телефон қилса, ўқувчи дасрдан чалғийди ва хаёли бўлинади. Шунингдек, телевизор қаршида узоқ вақт ўтириш анча вақтимизни олади ва дарсга киришиш осон бўлмайди. Телевизор дарс қилишга тўсқинлик қилади.

Баъзи ўқувчилар дарс жараёнида телевизорга қулоқ солиб, янги маълумотларни ўзлаштиришлари нотўғри. Бундан ташқари, компьютер ўйинлари ўқувчини толиқтиради. Ундан фақат керакли ишлардагина фойдаланиш лозим.

### **12. Вақтида овқатланиш муҳим.**

Ақлий меҳнат билан шуғулланаётган ўқувчилар овқатланишга эътибор бериб кўп овқат ейишдан тийилишлари керак. Аммо мева ва сабзавотларни кўп истеъмол қилинса, соғлиққа шунча фойда келтиради. Асал, узум, ёнғоқ кабилар ақлни чархлайди, хотирани кучайтиради. Таомланишда қоринни ҳаддан зиёд тўйдирмаслик лозим. Шунингдек, жуда кам таом ейиш ҳам тўғри эмас, балки меъёрида ейиш талаб этилади. Луқмаларни яхшилаб чайнаб, ўтириб овқатланиш керак. Аммо туриб ёки юриб овқатланиш соғлиққа зарарли.

### **13. Уйқунинг аҳамияти.**

Уйқу фақат тана учун эмас, балки мия дам олиши учун ҳам муҳимдир. Вақтида ухламаган ўқувчи ишёқмас, дангаса ва ҳафсаласиз бўлиб, унинг иш унумдорлиги ҳам пасаяди. Шу

сабабли ўқувчилар уйқу соатларига эътиборли бўлиб, меъ-ёрида ва вақтида ухлаб дам олишлари керак. Аммо болалар қуйидагиларни унутманг:

– кўп ухлаган одам кўп дам олади, деб жуда вақтли ухлаш нотўғри. Мажбурий дам олиш инсонни асабий ҳолга келтиради.

– кўп ухлаган одам ҳам вақт йўқотади, ҳам дангаса бўлиб қолади.

– эрталаб вақтли уйғониб, сокин муҳитда дарс қилиш яхши натижа беради.

### **Фойдали маслаҳатлар**



1. Дарёларнинг доим денгизга қўшилиши унинг сувига таъсир қилмаганидек, амал ва лаззат ҳақиқий илм олувчига таъсир кўрсата олмаслиги керак.

2. Агар бир шогирд илм ва муаллимни яхши кўрмаса, қунт билан ўқимаса, мақсадига ета олмайди.

3. Ҳеч қачон илм ўрганиши ишида узилиши юз бермаслиги керак. Негаки, бу катта йўқотишига олиб боради.

4. Таълим олувчи узлуксиз ҳолда дарс қилиши, шериклари билан ёки ёлғиз ўзи масалаларни такрорлаб туриши лозим.

5. Бизнинг мақсадимиз ўқувчини толиқтириб қўймасликдир. Ҳадеб бир нарсани ўқийвериши зериктиради ва тоқатини тоқ қилади. Агар ўқувчи бир масаладан бошқа масалага ўтиб турса, у худди турли-туман боғ-роғларни сайр қилгандек завқланади, бир боғдан ўтар-ўтмас бошқа бир боғ бошланади. Киши уларнинг ҳаммасини кўргиси келади. Ҳар бир янги нарса кишига роҳат бағишлайди.

6. Таълим олувчи илмни ҳурмат қилиши керак, китобни ерга қўйиши ва уни ифлос қўллари билан ушлаши мумкин эмас.

7. Таълим олувчи ейиши, ичиши ва ухлаши кабиларни ҳам унутиб қўймаслиги, шунингдек, ҳашаматли ҳаётни орзу қилмаслиги керак. У инсонлар билан чиройли муомала қилиши ва ўзига тегишли бўлмаган нарсалар билан шуғулланмаслиги лозим.

## Чет тилларни ўрганиш

**А**зиз болалар, инсон энг аввало ўз она тилини яхшилаб билиб олиши керак. Она тилида гаплашишни ва тўғри ёзишни ўрганиши талаб этилади. Она тили инсон учун энг керакли ва фойдали тилдир. Она тилини ўрганиб олгач, бирон чет тилини ўрганиш мумкин. Масалан, рус, инглиз ва бошқа тилларни. Чет тилларини ўрганиш инсонга янги-янги илм эшикларини кенг очади. Чунки бошқа тилларда жуда кўплаб маълумот ва янгиликлар мавжуд. Масалан, ҳозирда интернет тармоғидаги кўп маълумотлар асосан рус ва инглиз тилларида берилган. Уларни ўқиб тушуниш учун чет тилини яхши ўзлаштириш керак. Аммо барибир ўз она тилимизни, ўзбек тилини ҳамма тиллардан кўра пухта ўрганиб боришимиз шарт.

## Ақл-идрок фазилати

**Э**й фарзанд, ақли кишилар билан маслаҳатлашсанг, унинг ақли сенга ўтади, ундан кўп нарсани ўрганасан. Киши ўз ақлига суяниб иш қилганда кўп хатоларга йўл қўйиши мумкин.

Кўйида ақл-идрок билан боғлиқ насиҳатларни келтирамиз. Уларни диққат билан ўқисанг, ақлнинг фазилати ва доно бўлиш йўллари ҳақида билимга эга бўласан.

## Фойдали насиҳатлар



1. *Ҳар нарса ақлга муҳтож, ақл эса тажрибага муҳтож. Ақл билан тажрибанинг алоқаси сув билан ернинг алоқаси кабидир. Сув билан ер ўзаро бирга бўлмаса, ерда бирон нарса униши мумкин эмас.*

2. *Кишининг ақли шараф ва улуглик асосидир. Кимнинг ақли кўп бўлса, айблари яширин ва дўстлари ундан рози бўлади.*

3. *Ақлли одам шундай кишики, қийин вазиятдан осонгина қутулиб кетади. Доно шундай одамки, қийин вазиятга асло тушмайди.*

4. Нафснинг тизгини ақлнинг қўлидадир, ақл нафс устидан ҳукм юргизиб, уни ёмон йўлдан асраб туради. Одатда, қайси нарса кўпайса, унинг қадри камайиб боради. Аммо ақл кўпайган сари унинг қадри ошаверади. Ҳамма нарсанинг чегараси ва тўхтайдиган жойи бор, аммо ақлнинг чегараси йўқ.

5. Ақлли одам ўз нуқсонлари учун узр сўрайди. Нодон одамнинг гапи кўп бўлади.

6. Сержаҳл бошда ақл бўлмайди.

7. Ақллига бир ишора етарлидир.

8. Ақлли одам аввал маслаҳатлашиб, сўнг ишга қўл уради. Аҳмоқ эса аввал ишга қўл уриб, кейин маслаҳатлашади.

9. Пулни ишлатсанг камаяди, ақлни ишлатсанг сайқал топиб кўпаяди.

10. Зийраклик бу инсондаги тез фикрлик ва ўйлаган нарсасини дарров топа олиш қобилиятидир.

11. Неъматлар ичида энг улуғи ақлдир. Шу ақл одамларни бошқа яратилганлар орасида мукаррам ва шарафли қилгандир.

12. Ҳайвонлар ўзларига келадиган зулм ва жабрларни шох, тиш, тумшуқ ва тирноқлари билан қайтарадилар. Лекин инсон ақл ва идроки билан ўзига келадиган зарар ва зулмлардан сақланади.

13. Заковатлилар тушунадилар, билимчилар биладилар. Билимли ақлчилар тилакларига етадилар.

14. Ақл эгалари кишининг дилидаги фикр ва ниятини, илм ва қувватини, қадр ва қимматини сўзлаган сўзидан биладилар.

15. Мулоҳазали бўлиш – бу инсонни саодатга олиб келувчи фазилатли фикрларни, бахт-саодат учун изланган нарсаларни тиклай олиш қобилиятидир.

16. Тафаккур этмаслик ва муҳокама қила билмаслик диний, ижтимоий ва шахсий ҳаётимизга жуда кўп зарар келтиради.

17. Ақл тарозисида тортиб кўрилмаган ҳар қандай билим асоссиздир.

## Донолар хислати

**Х**алқ ақлли кишиларни доно деб атайти. Чунки улар инсонларга фойдали ва зарур бўлган нарсаларни ўйлаб топадилар. Кўп сўзлаш билан одам доно бўлмайди. Кўп тинглаб доно бўлади ва иззат топади. Ақлли киши деб шундай кишига айтамызки, унда ўткир ақл-идрок бўлиши билан бирга фазилят ҳам бўлсин. Бундай киши ўзининг бутун қобилияти ва идрокини яхши ишларни амалга оширишга ва ёмон ишлардан ўзини тийишга қаратган бўлиши керак. Шундай одамни ақлли ва тўғри фикр юритувчи деб аташ мумкин.

Бугуннинг чорасини кўриб, эртага эҳтиёжи қолмаган киши ақлидир. Оқил одам бир масаланинг ҳар бир жиҳатини ўйлаб, тадқиқ ва тафтиш қилади, қатъий ҳукм қилишга шошилмайди, маънавий жиҳатларни ҳам тушунади. Далилсиз, ҳужжатсиз бир жумланинг қиёсини рад этиш ёки қабул қилиш аҳмоқлик ҳисобланади.

## Ўғри топилди

*(Ибратли ҳикоя)*

**А**бу Ҳанифа қўшниларида бирининг товуси ўғирланди. Қўшни имомга мурожаат этди. Имоми Аъзам:

– Буни ҳеч кимга гапирманг, – деди. Масжидга борди. Жамоат тўплангач:

– Эй қўшнисининг товусини ўғирлаган киши, товус патларини бошингга илаштириб масжидга келгани уялмадингми? – деди имом.

Шунда жамоатдан бир одам бошини пайпаслаганини кўрди. Дарҳол имом унга:

– Бориб қўшнингнинг товусини қайтариб бер, – деди. Шу тариқа ўғри топилиб, товус эгасига қайтарилди.

## Истеъдод ва қобилият

**У**луғ ватандошимиз Абулқосим Маҳмуд Замахшарий: “Хунарманду косиблар кўпдир, бироқ моҳиру қобилиятлилар оздир”, деган эди. Яъни, уста кўп, аммо ҳақиқий уста, ўзи ишининг моҳир устаси бўлган кишилар камдир. Шундай экан, эй фарзанд, сен яхши билим олиб, ўз касбинг устаси, етук мутахассис бўлиб етишсанг, доим ишинг бароридан келади ва ҳаётда қоқилмайсан. Зеро, ўз касбининг моҳир усталари доим эл ардоғида бўладилар. Бундай кишиларга талаб жуда катта.

### Ўз ҳақингни тани, бировнинг ҳақидан қўрқ!

**О**добли бола ўз ҳақини таниб, уни бировга бериб қўймайди. Яъни, сеники бўлиши керак нарса сенда бўлсин. Уни ўзгаларга бериб қўйма! Албатта бу яхши маънодадир. Сахийлик ҳам меъёрида бўлиши керак. Сенинг сахийлигинг ёки кўнгилчанлигинг ўз ҳақингни бошқалар олиб қўйишига сабаб бўлмасин! Аммо сен фақат ва фақат ўз ҳақингни ол. Сенга тегишли бўлмаган нарсаларга, ўзгалар мулкига кўз олайтирма! Ўзгалар ҳаққини ема! Масалан, олиш ва сотишда тарозидан уриб қолиш, олаётганда кўп қилиб олиш ва сотишда бир килограмм ўрнига 800-900 грамм қилиб харидорни алдаш бировнинг ҳаққини ейишдир. Бунга яна бошқа ўлчовлардан уриб қолиш, одамларни алдаб, ёмон нарсани яхши деб сотиш, ўзгаларга тегишли нарсаларни ўғрилаш каби қабих ишлар ҳам киради.

Эй фарзанд, сен буларни яхшилаб англаб ол, ҳаётда тўғри ва ҳалол яшашга одатлан. Ҳалолликда, тўғрилиқда гап кўп. Ким тўғри ва ростгўй бўлса, унинг иши унумли, ҳаёти баракали ва файзли бўлади. Ёлғон сўзлаб, бировнинг ҳаққини еб кўп фойда кўраман, деган одам хато қилади. Чунки бировнинг ҳаққи барибир буюрмайди. Шуни унутма!

## Болалар луғати



**Ҳазар қилиш** – эҳтиёт бўлиш, сақланиш, тийилиш; ёмон кўриш.

**Ҳақ** – ҳақиқат, адолат, қонун, ҳаққоний, рост, эркимконият, бирон кимса ёки нарсага тегишли улуш.

**Кўз олайтириш** – бировга тегишли нарсага ёмон ният билан қараш.

**Ўлчовдан уриб қолиш** – тарозидан ва бировнинг ҳаққидан уриб қолиш.

**Файзли** – ўзига жалб қиладиган, кўркам, истараси иссиқ; фаровон, тўкин-сочин.

## Кўйлаги ямоқ бола

*(Ибратли ҳикоя)*

**Х**азрати Умар ибн Хаттобнинг ёш ўғли кўчада болалар билан ўйнар эди. Боланинг кўйлагига ямоқ солинган бўлиб, тенгқурлари унинг устидан кулишди. “Отанг мўминлар амири бўлсаю, сен шундай йиртиқ-ямоқ кийимда юрсанг”, деб камситишди. Ҳазрати Умарнинг ўғли бундан жуда хафа бўлди. Отасининг ҳузурига бориб:

– Болалар кийимимдаги ямоқларни кўриб, устимдан кулишяпти, – деб бўлган воқеани сўзлаб берди. Шунда Умар ибн Хаттоб ўғлига:

– Хазиначига бориб, хазинадан бир кийимлик мато берар экансиз, отам маошларидан олиб ўрнига қўяр экан, дегин, – деб тайинлади.

Ўғил хазиначининг олдига бориб, мўминлар амирининг сўзларини айтди. Хазиначи унга:

– Агар отанг маош олгунларича яшаб туришларига кафолат берсалар, айтган матони бераман, – деди.

Ўғил хазиначининг ҳеч нарса бермаслигини тушунди. Отаси ҳузурига бориб, хазиначи нима деб жавоб берганини айтди. Шунда Умари Одил:

– Агар хазиначи сен айтган матони бериб юборганида эди, мен уни ўша заҳоти ишдан бўшатган бўлар эдим, – деди, сўнгра ўғлига таскин берди.

## Чироқнинг ёғи кимники?

*(Ибратли ҳикоя)*

**Х**азрати Умарнинг халифалик даврларида уйларига маккалик бир дўсти меҳмон бўлиб келди. Қоронғи кеча эди. Ҳазрати Умар уйида давлат ишлари билан машғул эди. Дўстидан узр сўраб, бироз кутиб туришини айтди. Давлат ишини битирганидан кейин, ёниб турган чироқни ўчирди ва бошқа чироқни ёқди. Дўсти бундан ҳайратланиб, сабабини суриштирди. Ҳазрати Умар шундай жавоб берди:

– Ўчирилган чироқнинг ёғи хазинаникидир, яъни давлатники. У давлат ишлари кўриляётган пайтда ёнса, менга ҳалол бўлади. Сен эса менинг ошнамсан, суҳбатимиз ҳам ўзимизга тегишли бўлади. Шу сабабли ўз пулимга олинган иккинчи чироқни ёқиб қўйдим. Давлатнинг моли хусусий ишларга қўлланилса, ёруғлик ўрнига қоронғилик ва уят бўлади.

## Шижоат ва жасорат

**Э**й азиз фарзанд! Билгинки, кимда шижоат кўп бўлса, унда хилма-хил фазилатлар бўлади. Шижоатли кишини ҳамма яхши кўради. Шижоатли киши жангда ҳам душман дилига ваҳима солиб, бошқаларни олға юришга илҳомлантиради.

Жасорат инсоннинг энг улуғ фазилатидир. Қўрқоқлик эса энг ёмон хусусиятдир. Тарихда номлари қолган улуғ инсонлар энг жасур ва мард кишилар бўлишган. Қўрқоқ одамнинг асло шарафи, ор-номуси ва қадр-қиймати бўлмайди. Бир сўз билан айтганда, қуён юракнинг тарихда яхши номи қолмайди. Шижоат инсон шарафини ва қадрини кўтаради. Қўрқоқлик эса пасткаш одамларни янада тубанлаштиради.

Инсон руҳий тарафдан қанча камолотга етса, шунча жасур бўлади. Инсоннинг шижоати ва жасорати унинг камолот даражасига боғлиқ.

Азиз болалар, тилимиздаги “матонат” сўзи ҳам “мардлик”, “жасурлик”, “шижоат” маъноларида қўлланилади. Матонат бу ҳар бир инсоннинг ўз фикрида ва сўзида саботли бўлиши, бир ишга қўл урганда уни охиригача етказиш учун маҳкам туриши ва барча ишда сабр қилишдир. Матонатсиз одам бир ишни бошлаб, бироқ салгина қийинчиликдан сўнг уни ташлаб қўяди. Бирон киши уни озроқ койиса ёки камчилигини танқид қилса, дарҳол иродаси букилади ва ишончини йўқотади, шубҳа остида қолиб, қилаётган яхши ишини ҳам чала қолдиради.

Бир йигит денгиз қирғоғида кетаётиб бир тўда одамларнинг денгизга қараб ишора қилиб: “Одам чўкяпти, ёрдам беринглар! Ёрдам беринглар!” деб бақираётганларини кўрди. Кейин улар ишора қилган тарафга қаради. У ерда бир киши гоҳ сувнинг юзига қалқиб чиқиб, гоҳ сув остига чўкиб кетарди. Ниҳоят унинг мадори қолмади. Турганлар йиғлаб, бир-бирларига қарадилар. Гўё улар бу кишини қутқариш учун ўз ҳаётини хатарга соладиган бир улуғ шижоатли одам ҳақида бир-биридан сўраётгандек эдилар.

Тўсатдан бу йигит денгизга ўқдек отилиб, сузиб кетди. Ниҳоят, чўкаётган одамнинг олдига етиб, унинг орқа томонидан сувга шўнғиди. Бир лаҳза ўтмасданоқ, иккови сув юзига қалқиб чиқди. Одамлар бу шижоатли йигитнинг ҳимматидан ҳайратланиб, чўкаётган одамнинг қутулганидан хурсанд бўлдилар. Йигит қирғоққа етиб келгач, унга раҳмат айтиш учун олдига келдилар. Чўкаётган одамни қутқариб қолган бу йигит шижоатли ҳисобланади. Чунки шижоат дегани ўз бурчини бажариш йўлида довюраклик билан хатарга қарши туришдир.

## Болалар луғати



**Шижоат** – дадиллик, ботирлик, жасурлик, мардонаворлик, интилиш.

**Жасорат** – мардлик, қўрқмаслик, қаҳрамонлик, ботирлик, довюраклик.

**Матонат** – мустаҳкамлик, қатъийлик, салобат, бардош, сабот, чидам.

## Фойдали насиҳатлар



1. Мард билан улфат бўлган муродга етади, номард билан яқин юрган киши гамдан боши чиқмайди.

2. Мард (мўмин-имонли) одамнинг ваъдаси ҳам нақд, ҳам тез бўлади.

3. Шижоат бу юракнинг қувватидир. Агар танада етарли куч бўлиб, қалбда шижоат бўлмаса, бефойдадир. Аммо тана кучсизроқ бўлса ҳам, аммо қалбда гайрат-шижоат бўлса, тананинг кучсизлиги аҳамиятсиздир.

4. Одамларнинг ботири келажакдаги ишлардан қўрқмайди.

5. Қўрқмасанг – ёв қочар.

6. Камолот ҳосил қилишдан четланган киши одамларнинг энг қўрқогидир.

7. Жаҳон аҳли шижоатникидир.

## Жасур ўғлон

(Ибратли ҳикоя)

**И**бн Қутайба ҳикоя қиладики, Умар ибн Хаттоб йўл бўйида ўйнаётган болалар олдидан ўтаётган эди. Улар орасида ёш Абдуллоҳ ибн Зубайр ҳам ўйнаётган эди. Ҳазрати Умарни кўрган заҳоти салобатидан кўрқиб, болалар ўзини четга олишди. Лекин бир болакай жойида қимирламай тураверди. Ундан бошқа ҳеч ким қолмади. Мўминлар амири унга яқин келди-да, табассум қилиб:

– Нега дўстларинг каби сен ҳам четга чиқмадинг? – деб сўради. Бола ҳазрати Умарга:

– Эй мўминлар амири, айбим йўқки, сиздан қўрқсам, йўл ҳам тор эмаски, сизга бўшатай десам, – дея мағрур жавоб қилди. Боланинг шижоатидан ҳазрати Умар хурсанд бўлди. Келажакда улуғ инсон бўлишига умид боғлади. Йиллар ўтиб, бу умид ҳақиқатга айланди. Бола улғайиб, замонанинг улуғларидан бири – саркарда Абдуллоҳ ибн Зубайр бўлиб етишди. Бу жавоб замиридаги дурдек яширин зийраклик ва гўзал топқирликка қаранг.

### **Дангасаликдан узоқ бўлинг!**

**Х**урматли болажонлар, дангасалик жуда ёмон иллатдир. Буни қуйидаги ҳикматларни ўқиш орқали билиб оласиз.

1. Бекорчилик ва айш-ишрат нодонликка олиб келади, айти вақтда касалликнинг туғилишига ҳам сабаб бўлади.

2. Аксар ялқовлар ўзлари учун фойдали ишларга дангасалик қилиб, фойдасиз ишлар орқасида умрни беҳуда ўтказадилар.

3. Ақлли кишилар бугунги ишни эртага қўядиган кишилардан юз ўгирадилар.

4. Дангасалик ҳар вақт инсонни хор қилади.

5. Меҳнатсиз кечган бир кун санаб ўтказилган йилга баробар.

6. Ҳар бир инсоннинг қадр-қиймати ўз ишини қойил қилиб бажаришади.

7. Бу дунё бир экинзордир, унда нима эксанг, шуни ўрасан.

### **Эътиборли бўлиш**

**Х**ар бир ақлли ва зукко бола атроф-муҳитга эътиборли, одамларга аҳамиятли бўлиши керак. Чунки турли ёмон ишлар эътиборсизлик оқибатида келиб чиқади. Ривоят қилинишича, Луқмони ҳақимдан сўрадилар:

– Одамларнинг энг ярамаси, энг ёмони ким?

– Одамларнинг ёмонлик қилаётганларини кўра туриб, кўрмасликка олган, бепарво ва лоқайд бўлганидир, – дея жавоб берди Луқмони ҳаким.

## Ҳар бир қўй ўз оёғидан...

(Ибратли ҳикоя)

**Х**орун ар-Рашиднинг дўсти Бухлул Доно: “Эй халойиқ! Гуноҳ ва ёмон ишлардан узоқ бўлинг!”, деб барчага насиҳат қилар экан. Баъзи одамларга бу насиҳат ёқмас экан. Шу сабаб улар Ҳорун ар-Рашидга шикоят қилиб келишибди: “Дўстингизнинг насиҳатларидан тўйиб кетдик. Биз гуноҳ иш қилсак, унга нима? Ҳар бир қўй ўз оёғидан осилади”, дейишибди.

Ҳорун ар-Рашид: “Яхши, тушунарли”, дебди ва бир қўйни сўйдириб, кўчага остириб қўйибди. Бир неча кун ўтгач, қўй сасий бошлабди. Ҳамма ёқ жуда сасиб кетибди. Халқ яна Ҳорун ар-Рашиднинг олдига келиб: “Бу қўйни бу ердан олиб ташланг. Сассиқ ҳид бизни безор қилди”, дебди. Ҳорун ар-Рашид ўрни келганида шундай дебди: “Сизга нима, ҳар бир қўй ўз оёғидан осилади”.

Одамлар шунда ўз хатоларини тушуниб, бошларини эгган ҳолда ортларига қайтишибди.

Ёмонликлар ҳам ёмон ҳидга ўхшайди. Яхши инсонлар жаҳолатга, ҳаром ишларга қаршилиқ қилиб, жасорат кўрсатмаса, дунё ёмонликларга тўлиб кетади.

## Меҳнаткашлик камолот омили

**А**зиз болалар, ҳар бир инсон ўзига мос равишда бирон иш билан машғул бўлади. Масалан, ўқувчи болалар таълим оладилар, шифокор даволайди, ҳайдовчи узоқни яқин қилади ва ҳоказо. Инсон ҳаётда ўз ўрнини топиш учун доим илм олиши ва фойдали ишлар билан шуғулланиши керак. Дангасалик, иш ёқмаслик зарарли одат бўлиб, дангаса болалар

дасрларини тайёрлашга эринадилар. Тиришқоқ болалар эса дарсларини вақтида бажариб, рўзғор ишларида ота-оналарига ёрдамлашадилар. Бу нарса уларнинг келгусида ҳаёт ташвишларини қийналмай бажаришларига замин яратади.

### **Болалар луғати**



**Дангасалик** – меҳнат қилишдан қочиш, ишёқмаслик, танбаллик, ялқовлик.

**Меҳнатсевар** (меҳнаткаш) – меҳнат қилишни яхши кўрадиган.

**Рўзғор ишлари** – оила ва хўжаликка оид ишлар.

**Замин яратиш** – бирон нарсага асос солиш, шароит ва имкон яратиш.

### **Мақоллар**

1. Ҳурмат қилсанг, ҳурмат кўрасан, меҳнат қилсанг, даврон сурасан.

2. Ҳазина ғойибдан эмас, меҳнатдан.

3. Дарахт япроғи билан гўзал, одам – меҳнати билан.

4. Бекорчидан Худо безор.

5. Гапни оз сўзла, ишни кўп кўзла.

6. Изланганга толе ёр.

7. Меҳнат, меҳнатнинг таги роҳат.

### **Омонат**

Эй фарзанд, маълум муддатга сақлаш учун берилган моддий ва маънавий нарсалар омонатдир. Ҳар бир инсон ўз мол-мулкани асраганидек ўзгаларга тегишли нарсаларни ҳам худди шундай асраб-авайлаши керак. Омонат сақлаш жамиятдаги инсонларнинг бир-бирига ишончини оширади.

Агар мактаб ҳовлисидан бирон нарса топиб олсанг, у сенинг қўлингдаги омонатдир. У сенинг мулкинг эмас. Агар сен

эгасини қидириб топиб, нарсасини унга қайтариб бериш учун мактаб директорига учрасанг, сен омонатга вафодор инсон бўласан. Шу ишингни деб сени мактаб директори, устозлар ва барча ўқувчилар яхши кўрадилар ва сени мақтайдилар. Агар эгасини қидирмасдан уни ўзингники қилиб олсанг, сен хоин бўласан. Эҳтимол эгаси тасодифан уни кўриб қолиб, сени ўғирлаб олган деб ўйлар ва одамлар орасида сени хоин-ўғри деб гап тарқатар. Мана шунда сенинг келажагинг ва шарафингга катта зарар бўлади.

Агар бирон инсон пул, зеб-зийнат ёки китоблар каби бирон нарсани сенга омонатга қўйса, у нарса бўйнингда омонат ҳисобланади. Агар сен уни эҳтиёт қилиб, соғ-саломат сақлаб берсанг, сен ишончга сазовор бўласан. Агар сен ундан бирон нарсани камайтирсанг ёки бирон жойига нуқсон етказсанг ёки эгасининг рухсатисиз уни ўз фойданга ишлатсанг ёки сўраб келса, сен уни инкор этсанг, сен одамларнинг орасида хиёнат қилувчи деб таниласан ва ҳеч ким сенга бирон нарсани омонатга қўймайди.

Ҳурматли болажонлар, омонатни фақат пул ва моддий нарсалардан иборат, деб тушунмаслигимиз лозим. Маънавий омонатлар ҳам бор. Масалан, биронта дўстимиз сирини сақлаш ҳам омонатдир. Агар бир киши сенга ўз сирини омонат деб айтса ва сен уни ҳеч кимга айтмасдан сир сақласанг, сен сир сақловчи омонатли одам бўласан. Агар сен ўша сирни одамлар орасида ёйсанг, сир сақлай олмайдиган, сенга сир айтган одамга хиёнат қилган бўласан.

Агар тарозидан урмасдан бирон нарса камайтирмай бераётган тижоратчини кўрсанг, билгинки у омонатга вафодор тижоратчидир. Ҳамма одам уни яхши кўриб, омонати билан танилади ва савдосига барака киради. Агар тарозидан уриб қолаётган бошқа бир тижоратчини кўрсанг, билгинки, у хоиндир. Албатта одамлар унинг бу қилмишини билиб, у билан олди-сотди қилмай қўядилар. Натижада моли касод бўлиб, унга нисбатан ишонч ва муҳаббат йўқолади.

Навбатчилик қилаётган аскарга ватан чегаралари омонат...

Тана аъзоларимиз биз учун омонат. Бу омонатни сақлаш учун уларни зарарли ишлардан асрашимиз керак...

Фарзандлар ота-онага омонат...

Йўловчи ҳайдовчига, ўқувчилар ўқитувчига, касаллик шифокорга, вазифалар мансабдорга омонатдир. Ҳар ким бу омонатлар ҳақида бир куни жавоб беради...

Эй фарзандим, омонат бу одамлар ҳуқуқини ҳимоя этишдир. У кўп ишларни ўз ичига олади: улар жумласидан вожиб амалларни бажариш, топширилган ишларни эгалари йўқлигида пухта қилиш, қўшни қўшнисининг сирини сақлаши, шифокор касалларнинг сирини сақлаши, инсон билмайдиган нарсаи ҳақида сўралса, “билмайман”, дейиши, тижоратчи яхши мол баҳосида пул олганида ёмон мол сотмаслиги ва агар сотиб олувчи ёши кичкина бўлса ёки нархни билмаса, молларнинг нархини кўпайтирмаслиги ва ҳоказо.

### *Болалар луғати*



**Омонат** – ишончлик, тўғрилиқ, ҳалоллик, сақлаш учун берилган нарса

**Хиёнат** – макр, ҳийла, хоинлик, вафосизлик, аҳдни бузиш, биров ишониб топширган нарса-ни суиистеъмол қилиш.

### **Ҳикоя**

**Б**ир камбағал одам бойларнинг биридан садақа сўради. Бой бир чақа бермоқчи бўлиб, сезмаган ҳолда чўнтагидан бир тилла танга чиқариб унга берди. Бу камбағал омонатга вафодор одам эди. Шунинг учун бойнинг орқасидан югуриб бориб унга деди:

– Эй хожам, сиз менга тилла танга бердингиз, эҳтимол бу янглиш бўлгандир.

Бой бу камбағал кишининг омонатдорлигидан ҳайратланиб, чўнтагидан бошқа бир тилла тангани чиқарди ва унга деди:

– Омонатдорлигинг ва тўғри сўзлигинг мукофоти учун мана бу тилла тангани ҳам ол!

## Алдоқчи Фаррух жазо олди

(Ибратли ҳикоя)

**Ж**амол амаки қўли билан айбланаётган шахсни кўрсатиб:

– Ҳоким жаноблари, мен ўтган йили сафарга кетаётиб қимматбаҳо олмос узугимни шу одамга омонат қилиб ташлаб кетганман. Энди уни қайтариб беришини сўраяпман, у эса қайтариб бермаяпти, – деди.

Ҳоким панжара ортида ўтирган айбланаётган шахс Фаррухдан сўради:

– Нима учун унинг узугини қайтариб бермадингиз?

– У алдаяпти, у менга ҳеч қандай узук бергани йўқ, – деди Фаррух.

Ҳоким Жамолга юзланиб:

– Сиз узукни бераётганингизда гувоҳ бўлган бирор кимса борми?

– Йўқ, мен унга узукни каштан дарахтини тагида берган эдим, у вақтда бизлар билан ҳеч ким йўқ эди.

Ҳоким Жамолга каштан дарахтининг шоҳидан синдириб олиб келишни буюрди.

Бир оз вақт ўтгандан сўнг ҳоким Фаррухга юзланиб шундай деди:

– У қаерга кетди, энди қачон қайтиб келаркин? Деразани олдига бориб қараб турсак, қайтиб келаётган бўлса кўриниб қолармикин?

Фаррух жойидан қимирламасдан шундай деди:

– У камида уч соатдан кейин қайтиб келади. Чунки каштан дарахти бу ердан жудаям узоқ.

Шунда ҳоким Фаррухга қараб ўшқирди:

– Сен нафақат ёлғончисан, балки яна ғирт аҳмоқсан! Агар сен узукни олмаган бўлганингда, у дарахт қаерда эканини ҳам

билмаган бўлар эдинг. Сен мана бу ҳадисни эшитмаганмисан: “Эй инсонлар! Ҳеч қачон ёлғон гапирманглар! Ёлғон ва имон ҳеч қачон бирга бўлмайди”.

Ҳоким Фаррухга бу жинояти учун оғир жазо белгилади.

## Ростгўйлик фазилати

Эй фарзандим, агар дўстингдан янги олган кийимининг нархини сўрасанг, у сенга сотиб олган нархини тўғри айтса, у тўғри сўздир. Агар нархига озгина бўлса ҳам қўшиб айтса, демак, у ёлғончидир. Агар сенга бир дўстинг ваъда қилиб ваъдасида қатъий турса, у ваъдасига содиқдир. Агар ваъдасида қатъий турмаса, у ёлғончидир.

Агар устоз бир ўқувчига уйда масала ечиб келишни топширса, у дангасалик қилиб бошқа ўқувчининг дафтаридан масала жавобини кўчириб олса ва устозига масалани ўзим ечдим, деса, у ёлғончидир. Агар мактаб директори бир ўқувчини гувоҳлик бериш учун чақирса ва у энг қадрдон дўстининг зарарига бўлса ҳам ҳақиқатни очик айтса, у тўғри сўздир. Агар гувоҳлик беришда бирон нарсани қўшса ёки камайтирса, у ёлғончидир.

Мана шу мисоллардан кўраяпсанки, тўғрилиқ сўз ёки амалнинг ҳақиқатга тўғри келишидир. Сен мактабга бормаслиқ учун ёлғондан ўзингни бетоб қилиб кўрсатишинг ёки билмайдиган нарсанг ҳақида хабар беришинг ёки ёлғон гапираётганини била туриб бировни ёлғон гапиришига индамай қараб туришинг буларнинг барчаси ёлғончиликдир.

Тўғри сўзлаш фойдаларидан бири шуки, рост сўзлаган инсон кўпчилик муҳаббатини ва ишончини қозонади. Шунинг учун ростгўй ўқувчини ота-онаси ҳам, устозлари ҳам бирдай яхши кўрадилар. Одамлар ҳар доим ростгўй тижоратчи билан олди-сотди қилишни хоҳлайди. Олдига одамлар борганлари учун тўғрисўз ҳунарманд халққа танилади. Агар ростгўйлик бўлмаганда халқнинг аҳволи бузилиб, тарих, жўгрофия ва шунга ўхшаш китобларда етиб келган хабарларга одамларнинг ишончи йўқолган бўлар эди. Ростгўйлик инсонни омо-

нат, очиқлик ва ваъдага вафо қилиш каби кўп фазилатлар билан сифатланишга чақиради.

## Ёлғончи бола

(Ибратли ҳикоя)

**И**скандария шаҳрида болалар чўмилиш учун денгизга тушдилар ва ўзлари билан олиб келган коптокни сувда ўйнай бошладилар. Улар коптокни сувга отишар ва орқасидан сузиб мусобақа ўйнардилар. Тўсатдан улардан бири сув ютиб “қутқаринг, чўкаяпман!” деди. Шунда қутқариш учун олдига етиб келганларида у кулиб:

– Мен сизларни масхара қилаётган эдим. Мен моҳир сузувчиман. Сизларнинг ичингизда сузишда менга бас келадигани йўқ, – деди. Иккинчи куни ҳам одатларига кўра сувда копток ўйнадилар. Шу маҳал кечагидек у “қутқаринглар, чўкаяпман!” деб бақирди. Болалар ўтган кунгидек бугун ҳам бизни масхара қиляпти деб ўйлаб, унинг сўзига парво қилмадилар. Натижада у сувга чўкиб, ўз ёлғонининг қурбонига айланди.

## Фойдали насиҳатлар



1. Ақл эгалари ва виждон соҳиблари ҳар вақт кўрган, қилган ва билганларининг ҳақиқатини ва тўғрисиини сўзлайдилар.

2. Ибн Хатиб айтади:

– Ёлғончиликдан сақланинг, чунки ёлғончилик фитна-фасодга (ёмон ишларга) олиб боради.

Ростлик йўлини танланг, барча яхшиликка етасиз!

3. Бир ҳаким айтади:

– Кимки ёлғончиликка ўрганса, у бошқаларни ҳам ёлғончи, деб ўйлайди.

4. Эгри дарахтнинг сояси ҳам эгри бўлади.

5. Оғиз ва тилнинг беагаи тўғри сўздир, сўзни тўғри сўзла, дилингни беа.

6. Ростгўйлик инсонни улуғлар мартабасига кўтаради.

7. Ёлгончиликдан четланиб, ростгўйлик йўлини тутган кишини бошқа одам у ёқда турсин, ҳатто ёлгончининг ўзи ҳам яхши кўриб қолади.

8. Тўғри сўз аччиқдир, уни ҳазм қилгин, кейин фойдаси тегади, хушнуд қилади.

9. Тўғри сўз киши эркин нафас олади.

## Тил ва дил бирлиги

**А**зиз болалар, шеърят мулкининг султони Амир Алишер Навоий бобомиз: “Тилинг билан кўнглингни бир тут”, деб насиҳат қилганлар. Тилшунос олим, ватандошимиз Абулқосим Замахшарий эса: “Одамнинг сиртию ботини (ичи) тўғри, саломат ва тузук бўлса, унинг зоҳири (ташқариси) ҳам соғлом бўлади”, деб айтганлар.

Бу инсонни комиликка олиб чиқувчи хислатдир. Зеро, тил ва қалбнинг бир бўлиши билан одам ростгўй ва чин инсонга айланади. Тилида бир гап, қалбида бошқа гап бўлса, у ёлгончи саналади. Дўстини тилида мақтаб, қалбдан уни ёмон кўриш иккиюзламачилиқдир. Шу сабаб бундай иллатдан сақланиш учун тил ва қалбни бир қилиш, маккорлик, айёрлик ва ёлгончиликдан сақланиш керак.

## Ваъдаси устидан чиқиш

**Э**й фарзанд, шуни билки, берилган ваъда қарз кабидир. Олинган қарзни узиш, уни вақтида қайтариш шарт бўлганидек, ваъдасига вафо қилиш ҳақиқий инсонга хос фазилатдир. Ваъдаси устидан чиқадиган болаларни “яхши бола”, “ақлли бола” дея таърифланади. Ваъда бериб, унутиб юборадиган болаларни ҳамма “субутсиз”, “ваъдабоз” деб ёмонлайди. Шунинг учун ваъдага эътиборли бўлиб, тўғри сўз бўлишга ҳаракат қилиш керак.

Яхши болалар ваъда бермасалар ҳам бирон нарсани бажаришга ҳаракат қиладилар. Минг марта ваъда бериб, унга эъ-

тибор бермай юрадиган болаларга одамлар ҳар қачон ишонмай қўяди. Одамлар назаридан қолиш жуда ёмон нарса. Ким одамлар ишончини йўқотса, ҳаётда кўп қийинчиликларга учрайди. Зеро, сен ҳали улғайиб, катта-катта ишларни амалга оширишинг керак. Бунда тўғрисиўзлик, ваъданинг устидан чиқиш каби фазилатлар сенга жуда керак. Шундай экан, ваъда берсанг, уни албатта бажар! Қила олмайдиган ишни “бажара оламан!” деб катта гапирма! Фақат кучинг етадиган ишга кириш, ваъда беришдан олдин уни ўз вақтида бажаришга ҳам эътиборли бўл!

### **Болалар луғати**



**Ваъда** – сўз бериш, бирон ишни бажариш мажбуриятини ўзига олиш.

**Ваъдаси устидан чиқиш** – ваъдасига вафо қилиш, ваъда берган ишини бажариш.

**Ваъдабоз** – қуруқ ваъдалар бериб, уни бажармайдиган ёлғончи.

**Қарз** – маълум муддат ўтгандан кейин бериш шарти билан олинган ёки берилган нарса (“ваъда қарздир”, деганда “ваъда бергандан кейин уни бажариш лозим” маъноси тушунилади).

### **Фойдали насиҳатлар**



1. “Мунофиқнинг белгиси учтадир: ёлгон сўзлаш, ваъдасининг устидан чиқмаслик ва омонатга хиёнат қилиш”.

2. Ваъда бериб бажармаслик нақадар ёмон иш, гапирмай туриб иш бажариш эса қандай чиройли!

3. Вафосизда ҳаё йўқ, ҳаёсизда вафо йўқ.

4. Айтиб қўйиб бермайдиган нарсани тилинг билан айтмагин, ваъда бериб қўйгандан сўнг ўз ваъдангдан қайтмагин.

5. Ўз ваъдасида турмаганда турли сабабларни келтирувчи кимса ҳеч қачон мард ва ҳимматли бўлолмайди.

6. Вақти-соати ўтгандан сўнг бажариладиган ваъдадан ҳеч бир яхшилик бўлмайди.

## Ишончли Муҳаммад

(Ибратли ҳикоя)

**Б**ир куни Расули Акрам алайҳиссалом Абдуллоҳ ибн Абу Ҳамса билан тайинли вақтда кўришишга ваъдалашдилар. Пайғамбаримиз алайҳиссалом у жойга кечикмай етиб келдилар. Аммо Абдуллоҳ ибн Абу Ҳамса берган сўзини унутган эди. Икки кун ўтиб, берган ваъдаси эсига тушади ва етиб борганида амин (ишончли-омонатдор) сифати билан танилган Пайғамбаримиз алайҳиссалом у ерда кутиб турганларини кўриб ҳайратланади. Шундан кейингина берган ваъдасида туриш нақадар муҳим эканини тушуниб етди.

## Сабрли бўлишни ўрганинг!

**Х**урматли болалар! Шунини яхши билиб олингки, сабрли ва вазмин бўлиш турли хатолардан сақлайди. Зеро, гуноҳ ва хатолар кўп ҳолларда шошилиш оқибатида содир этилади. Сабрли одам ҳар бир сўзини обдон ўйлаб, кейин гапирди. Бу билан у одамлар кўнглига оғир ботадиган гап-сўзлардан тийилади ва бошқа зарарлардан омон қолади.

Вазмин бўлишни унутган одам ўз омадини қўлдан бой беради. Чунки омад айнан шошилмаслик ва ақл-идрокни тўғри ишлатиш натижасида бир қарорга келишдадир. Шошилиш оқибатида чиқарилган ҳар қандай ҳукм кўп ҳолларда нотўғри бўлади. Шошиб амалга оширилган иш афсус-надоматга олиб боради. Доно халқимиз бежизга “аввал ўйла, кейин сўйла” деганган. Бунда ҳам ҳар бир гапни шошилмасдан ва ўйлаб гапирдишга чақирилмоқда. Ҳар қанақа ҳолатда ҳам сабрли ва вазмин бўлиш ва жиддий муносабат билдириш фақат ютуқ ва ғалаба келтиради. Айниқса, шошқалоқ болалар дарсларини чала-чулпа бажариб, кўп хатоларга йўл қўядилар. Уй вазифасини сабр-

тоқат ила бажарган боланинг ишидан унинг ўқитувчилари ҳам хурсанд бўлишади.

Сабр барча меҳнат ва оғирликни енгиш ва чидамли бўлишдан иборат. Ночор аҳволда бўлса ҳам ўзини бадавлат кишидек тутиш, дуч келган одамга ҳол-аҳволдан шикоят қилавермаслик, қийин ҳолатларда ҳам ўзини очиқ юзли қилиб кўрсатиш айнан сабрдир. Қаҳр-ғазаби келганда ўзини боса оладиган ва ўз нафсини тўғри йўлга бошлайдиган киши энг кучлидир.

Эй фарзанд, сен мактабда ва бошқа жойда ҳам бировнинг саволига жавоб беришга шошилма, зеро сен биладиган нарсанг ҳақида савол берилса-ю, аммо шошқалоқлик қилиб, тезроқ жавоб беришни ўйласанг, хато қилиб қўйишинг мумкин. Шу сабаб саволларга шошилмасдан, ўйлаб, фикрлаб, ҳаёлингни бир жойга жамлаб жавоб бер. Шунда марра сеники бўлади. Демак, шуни ёдда тутинг: сабрли ва вазмин бўлиш ақлнинг бошидир. Зеро, шошилиш ақлнинг нуқсонсиз ишлашига тўсқинлик қилади.

### **Болалар луғати**



**Сабрли** – чидамли, бардошли, иродали, қатъиятли,

**Вазмин** – оғир, босиқ, салобатли.

### **Фойдали насиҳатлар**



1. Айтилишича, одамларнинг бахтлироғи қуйидагилардир:

- қалби илмга ташна кишилар;
- жисми сабр қилувчи кишилар;
- қўлида бор нарсага қаноат қилувчи кишилар.

2. Сабрнинг аввали аччиқ, охири эса ширин.

3. Ёмон кунда сабр қилган одам яхши кунга тез етади.

4. Ғазабнинг аввали жиннилик, охири надоматдир.

5. Жавобнинг юмшоғи газабни сўндиради, сўзнинг қаттиғи одамни ўлдиради.

6. Шошқалоқлик бу адашган одамларнинг иши, сабрлилик эса эзгу одамларнинг ишидир.

7. Сабрли бўл, муродга етасан.

8. Яхшиларнинг даражасига азият ва машаққатларга сабр қилиши орқали эришилади.

9. Агар меҳнат-машаққат ёки қайғу-алам дуч келса, сабр билан қарши олсанг, унинг ортидан яна шодлик келади.

10. Ишнинг фурсатини кутиши, шошилмаслик керак, ҳамма иш вақти-соати келганда битади.

## Қаноатли бўлиш фазилати

**Қ**аноат инсонни бойитади. Фақат шундай бўлишига кўпчилик шубҳа билан қарайди. Қаноат сўзи қўлидаги мавжуд нарсага рози бўлиб, тақдирига ёзилганидан бошқасига кўз тикмаслик маъносини билдиради. Баъзилар қаноатни нотўғри тушуниб, уни дангаса бўлиб ўтиришдир деб ўйлайди. Қаноат ўзига ато этилган нарсага рози бўлиш, бошқалар мулки ва ризқ-насибасига кўз олайтирмасликдир. Бу зинҳор ғайрат-шижоатга тескари эмас. Машҳур саҳоба Саъд ибн Абу Ваққос ўғлига шундай деб насиҳат қилибди:

– Ўғлим бой бўлишни истасанг, бойлик билан бирга қаноат ҳам сўра. Чунки қаноатсиз одам бой бўлолмас. Қаноат эса битмас-туганмас бойликдир.

Азиз болалар, бир эътибор беринг: тишларимиз, бўйимиз маълум бир ўлчовга етгач, ўсишдан тўхтайтиди, тўғримми? Агар аъзоларимиз ўсишда давом этаверса нима бўларди?!

Хотирамиз маълум бир миқдорда маълумотни қабул қилади. Ундан ортиғини сиғдира олмайди.

Олма тарвуз каби йириклашмайди. Ёмғир керагидан ортиқ ёғса, қандай оқибатларга олиб келади? Демак, ҳамма нарса-нинг ўз меъёри бор. Қаноат инсонга ўша меъёрда яшашни ўргатади. Қаноатнинг зидди очкўзликдир. Очкўзлик инсонни ҳалокатга олиб боришига ҳаётий мисоллар келтирамиз:

Бир ҳайдовчи манзилга тезроқ етиб олай, деб тезликни оширибди ва оқибатда автоҳалокатга учрабди. Бир йигит кучли бўламан, деб керагидан ортиқ овқат еяверганидан ўзини ҳам кўтара олмайдиган даражада семириб кетибди.

Инсон тўхташи керак бўлган нуқтани билиши керак. Бу нуқтани қаноат белгилаб беради. Очкўзлик эса чегарадан чиқишга ва кўнгилсизликлар томон йўл олишга сабаб бўлади.

Демак, ҳаётда ҳамма нарса ўз меъёрида бўлиши яхши экан. Қаноатни ўзига шиор қилиб олган инсон ҳам мана шу мезон асосида ҳаёт кечирган бўлади.

### **Болалар луғати**



**Қаноат** – шукр қилиш, бориға рози бўлиш, ози билан ҳам кифояланиш, мамнунлик, қониқиш ҳисси.

**Тақдир** – Аллоҳ тарафидан олдиндан белгилаб қўйилган қисмат (тақдир Аллоҳнинг бандалар нима амаллар қилишини билишидир, асло бировни ишга мажбурлаш эмас).

**Кўз тикиш** – бировларнинг нарчасига ёмон назар билан қараш. (Бу сўз «кутиш» маъносида ҳам келади)

### **Фойдали насиҳатлар**



1. Киши учун энг фойдали ва дилни ёритувчи нарса қаноатдир. Энг зарарли ва нафратли нарса ҳирс ва ғазабдир.

2. Қаноат барча мамлакатлар унга тобе бўлган мамлакатдир. Қаноат шундай бир мамлакатки, ҳеч ким унга зарар етказа олмайди. Ким унга эғалик қилса, ҳеч бир нарсага муҳтож бўлмайди, бахтли ҳаёт кечиради. Бошқаларда кўрганни жуда қаттиқ истамаслик ҳам қаноатдир.

4. Кўзи суқ учун бутун дунё ҳам кифоя қилмайди, бориға қаноат қилувчи киши бахтли ҳаёт кечиради.

5. Кўзи тўқ одам ҳар нарсага суқланавермайди, бир одам бир нарсага бўлса, унга ҳавас қилавермайди.

6. Тана ва нафсга эрк берма, бўйин эгма, унинг истаклари эрмак ва ўйин, у алам ва қайғу келтиради.

7. Таомга ортиқ даражада ҳирс қўйиш худбину насткаш кишиларнинг ахлоқларидандир.

## Очкўзлик оқибати

(Ҳикмат)

**М**уҳаммад ибн Яманий шундай деди: “Олти кишидан олти нарса ҳақида сўраганимда бир хил жавоб олганим учун бир умр рўза тутишни ихтиёр қилдим. Табиблардан: “Касалликларга энг шифоли нарса нима?”, деб сўрадим. Улар: “Очлик ва оз ейиш”, дейишди. Донишмандлардан: “Ҳикмат излашда қайси нарса кўпроқ ёрдам беради?”, деб сўрадим. Улар: “Очлик ва оз ейиш”, дейишди. Обидлардан: “Аллоҳ ибодатида кўпроқ қайси нарса фойдалироқ”, деб сўрадим. Улар: “Очлик ва оз ейиш”, дейишди. Зоҳидлардан: “Зухдга қайси нарса кўпроқ ундайди”, деб сўрадим. Улар: “Очлик ва оз ейиш”, дейишди. Уламолардан: “Илм олишда қайси нарса энг афзали”, деб сўрадим. Улар: “Очлик ва оз ейиш”, дейишди. Подшоҳлардан таом ва иштаҳа очувчининг энг ёқимлиси ҳақида сўраганимда, улар ҳам: “Очлик ва оз ейиш”, дейишди”.

\* \* \*

Имом Шофеъий: “Ўн йилдан бери тўйиб овқат емадим. Чунки тўйиб ейиш баданни оғирлаштиради, заковатни (ақл-идрокни) кетказди, уйқуни келтиради ва эгасини ибодатдан қолдиради”, деган экан.

Ҳақимлардан бири шундай деган: “Дунёнинг ичига кир, сайр қил, кўр, аммо эҳтиёт бўл, дунё сенинг ичингга кириб кетмасин!”

## Отнинг туёқлари нечта?

(Ибратли ҳикоя)

**Б**ир куни имом Абу Ҳанифа отда кетаётган эди. Шунда у  
Зотдан:

– Отнинг туёқлари нечта? – деб сўрашди.

Имом отдан тушиб, отнинг оёқларини санаб кўрдилар ва:

– Тўртта, – деб жавоб берди.

Бу билан жавоб бериш ҳақида шогирдларга катта сабоқ берган эди.

Азиз болалар, кўрдингизми, саволга жавоб беришда жуда эҳтиёткор бўлиш керак. Бирон нарсани аниқ билса-да, яна бир мулоҳаза қилиб жавоб бериш лозим экан. Зеро, доно халқимиз бекорга “етти ўлчаб, бир кес”, деб айтмаган.

## Кечиримли бўлиш фазилати

**А**зиз фарзандим, ҳеч бир одам хатодан холи эмас. Ҳамма хато қилади, янглишади. Ёки биронта ҳам хато ва нуқсони йўқ мукамал бир инсонни кўрганмисан? Йўқ, бундай одам асло бўлмас. Шундай экан, одамлар бир-бирининг хато ва камчиликларини кечириш, уларни тузатишга ҳаракат қилишлари ва бир-бирларини қўллаб-қувватлаб, ҳаётда ҳамжиҳат бўлиб яшашлари керак. Ҳатто душман деб қаралган одамга ҳам инсоф билан муомала қилинади. Агар душманим деб унга зулм ва адолатсизлик қилинса, бунинг оқибати ёмон бўлади. Кечиримлилик душманни дўстга, бағритошлик эса дўстни душманга айлантириши мумкин. Демак, бағрикенг ва кечиримли бўлиш ҳаётдаги шиоринг бўлсин!

## Болалар луғати



**Кечиримли бўлиш** – бировнинг хатосини кечириш, бағрикенг ва меҳрибонлик.

**Янглишмоқ** – адашиш, хато қилиш.

**Ҳамжиҳат** – аҳил, иноқ.

**Бағритошлик** – бераҳмлик, шафқатсизлик.

**Бағрикенглик** – бирон нарсага очиқ кўнгил билан ёндашиш, қалбни кенг қилиш.

### **Фойдали насиҳатлар**



1. Сен кечириш хислатини ўзинга шиор қил, атрофиндагилардан арзимас гуноҳлари учун юз ўгираверма!

2. Кечира олиш мардлик ва кечира олмаслик номардликдир.

3. Гуноҳкор кишининг гуноҳини кечир, адоват илдизини кес ва кўпориб ташла.

\* \* \*

### **Инсоний фазилатлар қуйидагилардир:**

1. Исломият.
2. Диёнат.
3. Ота-онани ҳурмат қилиш.
4. Илм-маърифат.
5. Идрок, фаҳм-фаросат.
6. Сабр-қаноат.
7. Тартиб-интизом.
8. Виждон.
9. Ватанни севиш.
10. Адолатли бўлиш.
11. Олий ҳиммат.
12. Тилни ёмон сўзлардан сақлаш.
13. Сир сақлай билиш.
14. Ифбатли бўлиш, одамлар қўлидаги нарсалардан таъма қилмаслик.
15. Мулойимлик.
16. Хайрихоҳлик (одамларга яхшиликни ишташ).
17. Авф, кечиримли бўлиш.
18. Ғайрат, шижоат.
19. Виқор, салобатли бўлиш...

## Камтаринлик - зийнат

**И**нсон ўзини бошқалардан ортиқ деб билмаслиги, ўзини ақлли, ўзгаларни ақсиз деб тасаввур қилмаслиги, ҳар қандай яхши ишни ўзига лойиқ ва ўзгаларга нолайиқ деб ҳисобламаслиги зарур. Ким юқоридаги иллатларга қўл урса, демак у ўзини ўйлайдиган худбин боладир. Худбин одам фақат ўзини ўйлайди, ўзгалар билан иши йўқ. Уларга ўз хатолари кўринмайди. Агар кўрсалар ҳам уни камчилик деб ҳисобламайди ёки тан олишни истамайди. Бошқаларнинг фазилатларини кўрсалар ёки эшитсалар, бундан ғазабланадилар. Агар бошқаларда бирон камчилик кўриб қолсалар, дарров шов-шув кўтариб, буни ҳаммага ошкор қиладилар.

Эй фарзанд, сен бундай камчиликлардан узоқ юр. Доим камтарин бўл, фақат ўз айбингни кўр, ўзгаларни текшириб, ортидан айб қидириб юрма. Агар бировнинг айбини кўриб қолсанг, бир ўзига айтиб, уни тўғрилашга ҳаракат қил. Зинҳор манмалик кўчасига кирма, қилган ишинг ва айтган гапинг зўр бўлганда ҳам кеккайма. Манманлик инсонни хорликка етаклайди. Камтарлик сени улуғ мартабаларга эриштиради. Зеро, камтарга камол, манманга завол, дейди халқимиз.

### Фойдали насиҳатлар



1. Кимда-ким манманлик қилиб ўзини юқори тутса, уни на халқ ва на Тангри севади.
2. Кибр ва гурурдан узоқ бўл. Кибр кишини эл орасида хор, беқадр ва безътибор қилади.
3. Биров сени ўзингда йўқ сифатлар билан мақтаса, ундай одамга ишонма, чунки у сенда йўқ ёмон сифатлар билан бошқа жойда сени ёмонлаши мумкин.

## Сарой қаерда?

(Ибратли ҳикоя)

**Х**азрати Умар халифалиги даврида халқидан ажрамас ва улар қаторида ҳаёт кечирарди. Камтарин бўлганидан ўзи учун тахт қурдирмаган эди.

Византиялик бир ҳоким ҳазрати Умарнинг зиёратига келиб, уни қидира бошлади. Қараса шаҳарда на сарой ва на бир дангиллама уй бор.

Йўлда бир одамдан: “Халифангиз қаерда?” деб сўради. Йўловчи: “Халифамиз шу ерда, қумлар устида ётибди”, дебди.

Шунда ҳоким жуда ҳам ҳайратда қолибди.

– Эрон ва Ҳиндга фармон жўнатган халифа шуми? Тожу тахти, саройи йўқми? Посбонлар билан қўриқлайдиган одамлари йўқми? Бизнинг ўлкамизда бўлсайди, каттакон саройлари бўларди. Шунчалик камтарлик ҳам бўладими? – деб ёқа ушлаб қолибди.

## Шукр қилиш фазилати

**А**зиз болалар, биласизки, биз фойдаланадиган барча нарсаларни меҳрибон Аллоҳ таоло беради. Булар эвазига У Зотга шукр қилиб, ўша неъматларни фақат яхшилик йўлида ишлатишимиз керак. Бир инсон сизга икки дона олма совға қилса, бундан қанчалик қувонасиз. Аллоҳ бизга беҳисоб неъматларни ато қилиб қўйибди. Буларга, албатта, шукр қилиш керак.

Яна ўзингизга тегишли китобни дўстингизга ўқиш учун берсангиз-у, аммо у китоб варақларини йиртиб, муқовасини кир-чир қилиб қайтариб берса, қанчалик жаҳлингиз чиқади. Шундай экан, бизлар ҳам берилган неъматларни авайлаб-асраб, уни ўз ҳолича сақлаш ва танамизни турли иллатлардан ҳимоя қилишимиз лозим. Бунинг учун ичкилик, тамаки чекиш, соғлиққа зарарли нарсаларни истеъмол қилишдан узоқ бўлиб, қабих ишлардан сақланишимиз ва компьютер ўйинларини кўп ўйнашдан эҳтиёт бўлишимиз керак.

Болалар, бизнинг тана аъзоларимиз баҳоси йўқ неъматлардир. Ёруғ оламини кўриш учун берилган икки кўзимиз қанчалик қадри, тўғрими? Кўзнинг қадрига ундан жудо бўлганлар етади, дейишади. Аммо ақлли болалар кўз ва бошқа аъзолар қадрига етиши учун кўзларидан жудо бўлиши шарт эмас. Зукко болалар бир ёмонликни у келмасдан олдин сезиб, ундан қутулиш йўлини биладилар. Бизнинг аъзоларимиз ҳам олтиндан қимматроқдир. Чунки олтинни пулга сотиб олинса ҳам, бироқ тана аъзоларининг соғлиғини қайтариб бўлмайди. Шундай экан, бизга ато этилган ҳар бир неъматни авайлаб-асрашимиз, уни фақат яхшилик ва эзгулик йўлига ишлатишимиз лозим.

### *Болалар луғати*



**Шукр қилиш** – миннатдорлик изҳор қилиш, мақтов айтиш (неъматларни бергани учун Аллоҳга мақтов айтиб, ўша неъматни яхши ишларга сарфлаш шукрдир).

**Қадрига етиш** – бирон нарсанинг қийматини билиш, авайлаш.

**Авайлаб-асраш** – эҳтиёт қилиш, сақлаш, озор ва шикастлардан ҳимоя қилиш.

### **Ҳавас қилиб яшанг!**

**Б**олалар, ҳавас деганда яхши инсонлардаги фазилат ва хислатларни кўриб, уларни ўзимизда ҳам бўлишини хоҳлаш тушунилади. Ҳавас қилиш бизларни шундай яхши сифатларга интилишга чорлайди. Ҳавас қилиб яшайдиган болалар доим ҳаракатчан ва тиришқоқ бўладилар. Ҳавас қилиш турлича бўлиши мумкин. Масалан, бир ўртоғимиз ота-онасининг гапига қулоқ тутиб, уларни ҳурмат қилади. Шу сабаб ота-онаси ҳам у болани жуда яхши кўришади. Улар бахтли ҳаёт кечирадилар. Мана шу ўртоғимизга ҳавас қилсак, арзийди.

Яна бир ўртоғимиз ота-онасидан олган пулларини тежаб-тергаб ишлатади, пулни беҳуда сарфламайди, фақат китоб, дафтар каби керакли нарсаларга сарфлайди. Унинг бу тежамкорлиги мақтовга лойиқдир. Биз ҳам унга ўхшашни ҳавас қилсак арзийди. Пулни тежаб ишлатсак, ота-онамизнинг топган пулларига барака киради, ўзимиз ҳам фойдасиз харажатлардан сақланамиз, исрофдан узоқ бўламиз.

Ҳаётда ҳавас қилса арзигулик инсонлар кўп. Илм-маърифатли, олиму фузалоларга ҳавас қилиш нақадар яхши! Яна кучли, бақувват кишиларга, ватан ва миллатини душманлардан қўриқлайдиган аскарларга ҳавас қилиш ҳам яхшидир.

Демак, азиз болажонлар, ҳаётда яхши инсонларга ҳавас қилиб яшасак, фақат эзгулик ва ютуқларга эришамиз. Ҳасад билан яшаган одамлар эса ёмонлик сари қадам қўйган бўладилар...

### **Ҳасаддан узоқ бўлинг!**

**Х**асад энг ёмон иллат. Болалар, ҳасад нималигини биласизларми? Ҳасад бу бир кишидаги яхши хусусиятлар ва ютуқларни кўра олмаслик ва ундаги ютуқ ва яхшилиқнинг йўқ бўлишини хоҳлашдир. Ҳасад кўнгли қора, қалби тошдек қаттиқ кимсаларнинг ишидир. Ҳасад инсонни худбин, фақат ўзи ҳақида ўйлаб, ўзгалар билан иши бўлмаслигига сабабдир. Ҳасадгўй бирон натижага эришганларни оёғидан чалиб, уларга зарар етказишга уринади. Бу энг ёмон одат. Ҳасадгўй ҳавас қилиш нималигини билмайди. Ҳавас қиладиган одам ўзига ҳам шундай яхшилиқ берилишини хоҳласа, ҳасадгўй эса одамлардан бу яхшилиқ олиниб, фақат ўзигагина берилишини истайди. Бу худбинлик ва ичиқоралиқдан бошқа нарса эмас. Демак, болалар, биз ҳасаддан узоқ бўлишимиз, кек ва адоватдан сақланишимиз керак экан.

## Болалар луғати



**Ҳавас** – қизиқиш, иштиёқ, интилиш, рағбат, бировлар эришган ютуқлар ўзида ҳам бўлишини орзу қилиш.

**Ҳасад** – одамлардаги яхшиликларни кўролмаслик, ичиқоралик.

**Ҳасадгўй** – ҳасад қилувчи, қалби ҳасадга тўла одам.

**Худбин** – ўзини ўйловчи, ҳамма нарсадан ўз фойдасини устун қўювчи.

**Ичиқоралик** – дили бузуқлик, ҳасадгўйлик, бировнинг ютуқларини кўра олмаслик.

## Фойдали насиҳатлар



1. Ҳасад ва ғазаб икки қанот бўлиб ҳаракатга келса, тоза ва чиройли ҳаётларни хира қилиб юборади.

2. Олов ўзидан-ўзи ёниб кул бўлгани каби ҳасадчининг жасади ҳасад ўтидан эриб, барбод бўлади.

3. Одамзот ҳасад қилмаслиги керак, ҳавас қилиши керак. Ҳавас қилган одам муродига етади.

4. Ҳасадчида роҳат йўқ.

## Ота-боболаримиз ўғитлари

**Х**урматли болалар, мана китобимизнинг охирига ҳам етиб келдик. Сиз ушбу китобни ўқиш орқали ўзингизга керакли кўп маълумотларни билиб олдингиз, шундайми? Энди ота-боболаримизнинг қимматли панд-насиҳатларидан бир қанчасини келтирамиз. Уларни ёдлаб олишга ҳаракат қилинг:

– Икки тоифа одам доимо бойдир, ҳеч камбағал бўлмайди: бири – олим, иккинчиси – қаноат эгаси.

– Икки нарса борки, ози ҳам кўпдир: биринчиси – адоват, иккинчиси – чақимчилик.

– Икки нарса қалбни бузади: бири – кўп овқат ейиш, иккинчиси – кўп ухлаш.

– Икки нарса инсонни тез адо қилади: бири – аҳмоқлик, иккинчиси – ахлоқсизлик.

– Икки нарсани киши ўзидан қувиши қийин: бири – соя, иккинчиси – бадфеъллик.

– “Нима десам экан” деб андиша қилиш “нега айтдим” деб пушаймон бўлишдан яхшироқ.

– Уч нарсани унутган одам ақлли эмас: дунёнинг ўткинчилигини, ундан қачондир ажралишини ва ўлимдан ҳеч ким қутулиб қола олмаслигини.

– Ҳақимларнинг айтишича, одамлар уч гуруҳга, яъни ақллиларга, ярим ақллилар ва нодонларга бўлинадилар. Ақлли шундай кишики, бирон воқеа юз бермасдан аввал ундан қутулишнинг чора-тадбирини ўйлаб иш тутади. Одамлар охирида қиладиган ишни у олдиндан қилиб қўяди. Ярим ёки ўрта ақлли шундай кишики, бирон ҳодиса юз берса, эсанкираб қолмайди, ундан қутилиш чорасини қидиради ва шу туфайли бу бало домидан озодликка эришади. Нодон шундай кишики, бирон нохуш воқеа юз берса, ундан қутилиш йўллари қидириш ўрнига дод-вой қилиш билан чекланади.

– Уч сифат уч хил натижа келтиради: мулоимлик – улуғ мартаба, қаноат – роҳат, тавозеъ – эъзоз келтиради.

– Уч нарса инсон учун жуда зарур: қаҳру ғазаб вақтида ўзини тута билиш, бошга кулфат тушганда бетоқат бўлмай сабр қилиш ва хайрли ишларга шошилиш.

– Уч неъмат қадрига уч тоифа одам етади: ёшлиқ қадрига қарилар, саломатлик қадрига беморлар ва хотиржамлик қадрига ғам-ташвишли кишилар.

– Ақлли кишида учта хислат бўлади: бирон нарса сўралса, одоб билан жавоб беради, бировдан ёмонлик кўрса ҳам яхшилик қилади, халқи учун фойдали фикрларни олға суради.

– Уч хил кишининг хизматидан бўйин товламаслик керак: ота-она, меҳмон ва бемор хизматидан.

– Бир улуғ киши шундай деди: “Кишининг қалбида тўртта гавҳар бўлиб, бу тўрт гавҳарнинг тўртта душмани ҳам бор. Биринчиси ақд гавҳаридир, унинг душмани ғазабдир. Иккинчиси илм гавҳаридир, унинг душмани такаббурликдир. Учинчиси қаноат гавҳари, унинг душмани ҳирсдир. Тўртинчиси сахийлик гавҳари, унинг душмани таъмадир”.

---

---

## Фойдаланилган манбалар

1. Машриқзамин – ҳикмат бўстони. Ҳамиджон Ҳомидий, Маҳмуд Ҳасаний. Тошкент, 1997.
2. Ватандош алломаларимизнинг ҳикматли фикрлари. Тошкент, 2012.
3. Фарзандлар жаннат райҳонларидир. Турсунхўжа Ҳидоятхўжаев. Тошкент, 2002.
4. Буюк имом Абу Ҳанифа. Йўлдош Эшбек. Тошкент, 2004.
5. Илм олиш сирлари. Сафо Сайгили. Тошкент, 2010.
6. Ислом одоби ва ахлоқи. Аҳмаджон Бобомурод. Тошкент, 2002.
7. Саодат қучганлар ибрати. Абдуқаюм Ҳикмат. 2001.
8. Яхшилар одоби. Сумайро Абдумурод қизи. Тошкент, 2013.
9. Саодат калити. Йўлдош Эшбек. Тошкент, 2001.
10. Ўғлимга ўғитлар. Муҳаммад Камол. Тошкент, 2001.
11. Қадимдан ҳозиргача... Бобомурод Эрали. Тошкент, 2013.
12. Одоби бола элга манзур. Муҳаммадамин Тўхлиев, Муҳаммадсодиқ Тожалиев. Тошкент, 2013.
13. Овқатланиш психологияси. Сафо Сайгили.
14. Қалбимиз нури. Абдуллоҳ Мурод Холмурод ўғли, 2003.
15. Нишонга урилган сўзлар. Муҳаммад Собир. Тошкент, 1996.
16. Ҳаёт томчилари. Муҳаммад Камол. Тошкент, 2002.
17. Луқмони ҳакимдан ўғлига 365 ўғит. Абдумурод Тилавов. Тошкент, 2013.
18. Интернет маълумотлари: [www.muxlis.uz](http://www.muxlis.uz), [www.muslim.uz](http://www.muslim.uz) ва ҳоказо.

---

---

## МУНДАРИЖА

КИРИШ .....	3
Одоб нима?.....	5
Нега инсон азиз ва мукаррам?.....	6
Одоб олтиндан қиммат .....	7
Одобли ва одобсиз бола.....	8
Қайси бири яхшироқ?.....	11
Дуоси мустажоб бола .....	12
Луқмони Ҳакимнинг ўғлига насиҳатлари (1).....	12
Болалар тарбиясининг ўзига хос жиҳатлари .....	14
Одобли бўлиш йўллари.....	15
Одобли боланинг белгиси .....	16
Ота ҳаққини адо этган ўғил .....	18
Одобли бола бўлиш қийинми?.....	19
Қизалоқлар одоби.....	20
Инсон жисм ва руҳдан иборат .....	21
Ухлаш одоблари .....	22
Уйқуга тайёргарлик .....	22
Уйқу одоблари.....	23
Уйқудан эрта туришни ўрганинг .....	23
Уйқудан эрта туриш учун нима қилиш керак? .....	23
Эрта туришнинг фойдалари.....	24
Уйғонгандан сўнг.....	24
Уйғонгандан сўнг қилиш номаъқул ҳисобланган амаллар.....	25
Луқмони Ҳакимнинг ўғлига насиҳатлари (2).....	25
Ҳожатхонага кириш ва ундан чиқиш одоблари .....	27
Ҳожатхонага киришдан олдин.....	27
Ҳожатхонага киргандан кейин .....	28
Ҳожатхонада қилиш таъқиқланадиган ишлар .....	29

Ҳожатхонадан чиқиш .....	30
Озодалиқ соғлиқ сабабчиси .....	32
Кўчада ҳолва еган бола .....	33
Тоза тутиш керак бўлган нарсалар .....	33
Тана аъзоларини тоза тутиш.....	34
Ҳар бир соҳада тозалик муҳимдир.....	36
Зарарли одатлардан узоқ бўлинг!.....	36
Жанжалкаш бола.....	36
Овқатланишдан олдин .....	38
Овқатланишга тайёргарлик .....	38
Ёши катта биринчи бошлайди.....	39
Овқатланиш пайтида.....	39
Овқатланиш пайтидаги ёқимсиз ишлар.....	40
Овқатлангандан сўнг бажариладиган ишлар .....	41
Ҳикоя .....	44
Беркинмачоқ ўйини .....	45
Болалар учун нонуштанинг фойдаси .....	45
Ҳалол ризқ ва ҳалол меҳнат .....	46
Болалар луғати:.....	47
Ҳаром луқма .....	47
Қулининг қулидан нарса сўрамаган одам.....	48
Нима учун кийим кийилади? .....	49
Кийим кийиш ва ечиш одоблари.....	49
Кийим турлари.....	50
Кийиш мумкин бўлмаган кийимлар .....	51
Кийимларни тоза сақлаш.....	52
Тоза кийим – покиза табиат.....	52
Устки кийимлар .....	53
Кўйлак ва ички кийимлар .....	53
Оёқ қийимлари .....	54
Дастрўмол.....	54
Аҳмаднинг яхши иши.....	55
Нарсаларни тоза тутиш .....	56
Буюмлар тозалиги .....	56
Китоблар.....	57
Ўқув қуроллари .....	57

Сочиқ, тиш чўтка ва кўрпа-ёстиқлар .....	58
Техник жиҳозлар ва ўйинчоқлар .....	59
Уй ва хоналарни озода сақлаш .....	60
Роҳат ва тарбия маскани .....	60
Меҳмонхона .....	60
Ётоқхона ва дарсхона .....	61
Ошхона ва омбор .....	62
Ҳовли, йўлак ва ҳаммом .....	63
Кўшнисини ўйлаган Зокир .....	64
Ўқувчининг уйидаги одоби .....	65
Ўқувчининг мактабдаги одоби .....	66
Ўқимаган боланинг оқибати .....	68
Кўчада юриш одоби .....	69
Ҳақиқий паҳлавон ким? .....	70
Фарзанд ота-онаси учун нима қилиши керак? .....	71
Она фазилати .....	71
Ота фазилати .....	71
Сен ота-онангга қандай яхшилик қила оласан? .....	72
Ота-онага яхшилик қилиш .....	73
Ота-она ўрнини ҳеч ким босолмайди .....	74
Фарзанд ота-онадан доим қарздор .....	75
Фарзанд онанинг бир бўлагидир! .....	75
Бойиш “йўли”ни топган бола .....	76
Ота-онага қандай муносабатда бўлиш керак? .....	77
Ака-ука ва опа-сингилларимиз олдидаги вазифаларимиз .....	77
Кичикнинг ўзидан каттани ҳурмат қилиши ва каттанинг ўзидан кичикка меҳрибонлиги .....	78
Каттанинг ўзидан кичикка меҳрибонлиги .....	79
Ҳикоя .....	79
Ҳикмат .....	82
Одамларни ҳурмат қилиш .....	82
Нақадар ёмон иш .....	83
Одамларнинг ҳурмати нима билан ўлчанади? .....	84
Чиройли муомала – бола зийнати .....	84
Насихатлар .....	85

Олим бўлган чўпон .....	86
Зиёрат қилиш одоби .....	86
Яхшиликнинг мукофоти .....	88
Уйимизга меҳмон келганда.....	89
Сахий Абу Ҳанифа .....	90
Рухсат сўраш одоби .....	90
Ожиз одамларга меҳрибонлик қилиш .....	91
Ожизларга меҳрибонлик олийжанобликдир .....	92
Садоқатли хизматкор мукофоти .....	92
Дўст танлаш ва уларни ҳурмат қилиш.....	93
Жамият олдигаги вазифалар.....	95
Жонзотларга шафқатли бўлиш .....	96
Мушукка озор берган бола .....	97
Навоий бобомиз ибрати.....	98
Меҳрибон Ҳасан .....	99
Мушукка айланган шер .....	99
Саломлашиш одоби .....	100
Ҳикмат.....	101
Ҳақиқий дўстлик қадри.....	101
Сўзлашиш ва муомала одоби.....	102
Турли ҳолатларга қандай муносабат билдириш ҳақида .....	105
Ақлли боланинг жавоби .....	106
Жамоат жойларда одобсизлик саналган ишлар .....	106
Тилни бефойда сўзлардан тийиш.....	107
Ҳикматлар .....	108
Тилини тиймаган бола .....	109
Сир сақлаш.....	110
Бировларни ёмонламаслик.....	110
Ғийбат эвазига қилинган яхшилик .....	111
Чақимчилик иллоти.....	112
Саккиз хил таом ва бир оғиз ғийбат.....	112
Мақтанчоқ бўлманг! .....	113
Ҳикмат.....	113
Баҳоуддин Нақшбанднинг каромати .....	114
Ўйнаш одоби .....	114

Ҳикоя .....	116
Вақтни тежаш ва умр қадрига етиш .....	116
Мақоллар .....	118
Ҳикмат .....	118
Ёшлик қадрига етиш .....	119
Кундалик ишларни тартибга солиш .....	120
Тежамкорлик .....	120
Исрофдан сақланинг! .....	122
Фойдали насиҳатлар .....	124
Бахилликдан узоқ бўлинг! .....	124
Тўртга бўлинган олма .....	126
Бахиллик оқибати .....	126
Ўртача бўлишни одат қилинг! .....	127
Фойдали насиҳатлар .....	129
Телевизорни меъёрида кўринг! .....	129
Болалар телевизорни қанча вақт кўришлари мумкин? .....	129
Ёмон сифатларни билиб олинг! .....	130
Илм олиш фазилати .....	132
Ривоят .....	133
Ҳеч ким олим бўлиб туғилмас .....	134
Доим олға қадам ташланг! .....	134
(Ибратли ҳикоя) .....	135
Илм олиш сирлари .....	136
Чет тилларни ўрганиш .....	141
Ақл-идрок фазилати .....	141
Донолар хислати .....	143
Ўғри топилди .....	143
Истеъдод ва қобилият .....	144
Ўз ҳақингни тани, бировнинг ҳаққидан кўрқ! .....	144
Кўйлаги ямоқ бола .....	145
Чироқнинг ёғи кимники? .....	146
Шижоат ва жасорат .....	146
Жасур ўғлон .....	148
Дангасалиқдан узоқ бўл! .....	149
Эътиборли бўлиш .....	149

Ҳар бир қўй ўз оёғидан...	150
Меҳнаткашлик камолот омили.....	150
Мақоллар .....	151
Омонат.....	151
Ҳикоя .....	153
Алдоқчи Фаррух жазо олди .....	154
Ростгўйлик фазилати.....	155
Ёлғончи бола .....	156
Фойдали насиҳатлар .....	156
Тил ва дил бирлиги .....	157
Ваъдаси устидан чиқиш .....	157
Фойдали насиҳатлар.....	158
Ишончли Муҳаммад .....	159
Сабрли бўлишни ўрганинг! .....	159
Қаноатли бўлиш фазилати .....	161
Фойдали насиҳатлар.....	162
Очкўзлик оқибати.....	163
Отнинг туёқлари нечта?.....	164
Кечиримли бўлиш фазилати .....	164
Камтаринлик - зийнат .....	166
Сарой қаерда? .....	167
Шукр қилиш фазилати .....	167
Ҳавас қилиб яшанг! .....	168
Ҳасаддан узоқ бўлинг!.....	169
Ота-боболаримиз ўғитлари .....	170
Фойдаланилган манбалар .....	173

*(Фарзанд тарбиялашда ота-оналарга маслаҳатлар)*

# ***Бола – одоби билан азиз***

Нашрга тайёрловчи:  
**Зиёвуддин Раҳим**

Мухаррир:  
**Илҳом Халилов**

Техник муҳаррир:  
**Дилмурод Жалилов**

Босишга 2014 йил 20 июнда рухсат этилди.  
Қоғоз бичими 70x100  $\frac{1}{16}$ . Офсет босма усули.  
Апто Про гарнитураси. 22 босма табок. Адади 5500 нусха.  
4-сонли буюртма. Баҳоси шартнома асосида.

«Наврўз» нашриёти: Лицензия № АІ 170. 23 декабр 2009 й.  
Манзили: 100000, Тошкент шаҳри, А.Темур кўчаси, 19-уй.

“Elizabet print” МЧЖ босмахонасида чоп этилди.  
Тошкент шаҳри, Буюк Ипак Йўли кўчаси, 38-уй.  
e-mail: elprint\_info@mail.ru

# **Bola – odobi bilan aziz**

*(Farzand tarbiyalashda ota-onalarga maslahatlar)*

Nashrga tayyorlovchi: **Ziyovuddin Rahim**

«Navro‘z» nashriyoti  
Toshkent – 2015

KBK 82.12(50`zb)4

UO`K: 515.4.3

M40

Ziyovuddin Rahim. **Bola – odobi bilan aziz** (*Farzand tarbiyalashda ota-onalarga maslahatlar*). - T: «Navro`z» nashriyoti 2015 y. 356 b.

“Bola – odobi bilan aziz” kitobida bolalar odob-axloqi haqida juda kerakli ma’lumotlar berilgan. Misol uchun, uyda va maktabda o’zini qanday tutish lozimligi, ko’chada yurish odoblari, ota-onaga, ustozlarga, qarindoshlarga qanday muomala qilish haqida muhim yo’l-yo’riqlar ko’rsatilgan. Shuningdek, bu kitobdan bolalarning dunyoqarashini kengaytiradigan qiziq mavzular va ibratli hikoyalar ham o’rin olgan.

Sevikli farzandlarimiz bu kitobni o’qib, hayotning mohiyatini yaxshiroq anglab etadilar, odob-axloq qoidalarini o’rganadilar, insonlarga ham, atrof-muhit va hayvonot olamiga ham birdek yaxshi munosabatda bo’lish naqadar muhimligini bilib oladilar.

KBK 82.12(50`zb)4

UO`K: 515.4.3

ISBN 978-9943-381-40-7

© «Navro`z» nashriyoti 2015 y.

© Ziyovuddin Rahim.

---

---

## KIRISH

**A**ssalomu alaykum, aziz bolajonlar! Ota-bobolarimiz bolalarga yoshligidan olim bo'lma, odam bo'l, inson bo'l, deb uqtirib kelishgan. Bu pand-nasihati zamirida ulkan ma'no mavjud. Ko'pchilik bolalar olim bo'lish qiyinligini yaxshi bilishadi, ammo odam bo'lish ham og'ir ekanmi, deb o'ylashi mumkin. Chunki olim bo'lish uchun ko'p kitob o'qib, tunlarni bedor o'tkazish kerak. Bunga hammaning ham toqati etmaydi. Kelinglar, insoniy qadr-qiyamat nima bilan o'lchanadi, degan savolga javob izlab ko'raylik. Bunga bir bola boyligi bilan o'lchanadi, desa, yana biri chiroyli, qad-qomatli bo'lish kifoya, deb javob beradi. Yana bir bola libosni va yana biri boshqa narsani insoniy qadr-qimmatga o'lchov deb biladi.

Donishmand zotlar insoniy qadr-qimmat asosida odob-axloq, go'zal xulq va muomala turadi, deb aytib ketganlar. Navoiy bobomiz insoniy sharafni adab va hayo belgilaydi, deydi. Chunki odob-axloq bo'lmasa, insonni hayvondan farqlab bo'lmaydi. Olim bo'lish uchun ko'p kitob o'qish kifoya, ammo odam bo'lish uchun faqat ilmning o'zi etarli emas.

Agar ota-ona farzandiga yoshlik paytidan to'g'ri ta'lim-tarbiya bermasa, u dangasa va yalqovga aylanib, ilm olishga harakat qilmaydi va kasb-hunar o'rganmaydi. Natijada bu bola engil-elpi hayot kechirishni o'ylaydi, etarli ta'lim-tarbiya olmagan uchun adabsiz va ilmsiz holda voyaga etadi. Shu bois u hayot yo'lida ko'p qoqiladi va jamiyatda o'z o'rnini topa olmaydi. Shuning uchun siz aziz bolalar bilan olib boradigan suhbatimizni "Bola – odobi bilan aziz", deb nomladik. Zero, har bir bola o'z ota-onasi uchun aziz. Ammo bolaning chiroyli odob-axloqi uni ota-onasiga ham va boshqalarga ham suyuqli qiladi. Shunday ekan, suyuqli bola

bo'lish uchun ilm olish qatorida odobli va tarbiyali bo'lishga intilish katta samara berib, olingan ilm ham kelajakda katta foyda keltiradi.

Qadrlil bolalar! Mazkur kitobimizda odob-axloq haqida suhbatlashsak, bunga hamma o'g'il-qizlar qo'shilsa kerak. Jumladan, uyda va maktabda o'zini tutish odoblari, ko'chada yurish odoblari, ota-onaga muomala qilish va boshqa muhim odoblar mavjud. Bularning har biri haqida ushbu kitobimizda bolalarga kerakli ma'lumotlarni berishga harakat qilamiz. Siz bu kitobni mutolaa qilish orqali hayotning mohiyati, insoniy odob-axloq va odam bir-biri bilan qanday muomala qilishi lozimligi haqida kerakli bilimga ega bo'lasiz, degan umiddamiz.

---

---

## Odob nima?

**H**urmatli bolalar, bilasizlarmi, odob soʻzi qanday maʼno beradi? Yaratgan Parvardigorga ham, odamlarga ham maʼqul va maqbul odatlarga “odob-axloq” deyiladi. Odob yaxshi ishlar va chiroyli soʻzlardan iborat. Har bir inson yaxshi odamga aylanishi uchun odob-axloqni boshqalardan oʻrganib, oʻzi ham uni boshqalarga etkazadi. Maʼlumki, inson yashashi uchun har kuni turli ishlarni bajarishi kerak. Masalan, uyqudan uygʻonish, yuvinish, kiyinish, ovqatlanishning har biri uchun alohida qoidalar bor. Mana shu qoidalarni odob, deb aytiladi. Bunga kiyinish odobi, ovqatlanish odobi, uxlash odobi va hokazo odoblar misol boʻladi.

Bolajonlar, shuni bilingki, tanamiz harakati bevosita ruhimizga bogʻliq. Agar tabiatimizga goʻzal feʼllar va yaxshi odatlar oʻrnashsa, aʼzolarimiz harakati ham shunga qarab yaxshi tomonga oʻzgaradi. Bunga “yaxshi axloq”, deyiladi. Agar tabiatimizga yomon odatlar oʻrnashsa, aʼzolarimiz harakati ham shunga qarab yomonlashadi. Bunga “yomon axloq” deyiladi. Soʻz, harakat va xulqimiz yaxshi va goʻzal boʻlishi uchun ruhimizni yomon xulqlardan poklab, uni yaxshi feʼl va goʻzal odatlar bilan ziynatlash kerak. Dunyoda odamlar bir-birlari bilan salomlashib, muloqot qiladi, bir-biri bilan bordi-keldi qilib, oʻzaro munosabat oʻrnatadilar. Bu ishlarni muomala, deyiladi. Hayotda muomala turlari juda koʻp. Muomala turlaridan har biri uchun muayyan tartib va qoidalar bor. Bu qoidalar ham odobga kiradi. Masalan, salomlashish odobi, soʻzlash odobi, mehmon kutish odobi va hokazo. Demak, odob qoidalari ikkiga boʻlinadi:

1) Shaxsiy odoblar; 2) Muomala qoidalari.

Shaxsiy odoblar har bir inson yolgʻiz oʻzi bajaradigan qoidalaridir. Muomala qoidalari – boshqalar bilan birgalikda bajariladigan odoblar.

## Nega inson aziz va mukarram?

**B**olajonlar, kuzatgan bo'lsangiz, hayvonlar ham ovqat eydi, suv ichadi, uxlaydi, to'g'rimi? Odamlar ham xuddi shunday. U holda, inson bilan hayvon o'rtasida qanday farq bor? Bu haqida hech o'ylab ko'rganmisizlar? Agar inson bilan hayvon o'rtasidagi farqni bilmoqchi bo'lsak, shu ikkovi hayotini kuzatish kifoya. Inson har bir ishni aql, odob va tartib asosida bajaradi. Hayvonda aql yo'qligi uchun na odob va na qoidaga rioya etmay yashayveradi. U bunday xususiyatdan mahrum etilgan. Shuning uchun adabsiz bolaga tanbeh berilganda hayvonga o'xshama, deb aytiladi. Hayvon kir-chir holda yuraveradi, uyat va andishani bilmaydi. Shu bois u hech qanday odob-axloqqa rioya qilmaydi. Shundan ham bilamizki, Alloh insonni hayvondan farqlab, ulug' maqomga ko'tardi, unga aql ne'matini ato etib, har bir ishni shu orqali bajarish kerakligini buyurdi. Agar inson o'z aqlini ishlatasa, birinchi navbatda nima uchun yaratilganini angelaydi, Allohning mavjudligiga iymon keltiradi va unda yaxshi amallar qilib, yomon amallardan tiyilish hissi paydo bo'ladi. Ayniqsa, aqlli bola o'z aqliga suyanib, bu olam va borliq qanday yaratilgani, oy, quyosh va yulduzlar osmonda o'z-o'zicha va behuda suzib yurmasligi haqida fikrlaydi. Shu tariqa u inson hayoti ham muayyan tartib va qoidaga bo'ysunishini bilib oladi. Shundan keyin odob, kamtarlik va hayo kabi xulq-atvorlar insonga juda zarurligini tushunib etadi. Demak, odob aqlning mevasi va hosilasidir. Odobsizlik aql kamligi yoki aqlni to'g'ri ishlatmaslik oqibatida yuzaga keladi. Shuning uchun odamlar odobsiz bolani hayvon deb ataydi, bir nojo'ya ishni qilsa, darrov dakki-dashnom berib, aqlni ishlat, deb koyishadi. Odobli bolani maqtab, aqlli bola ekan, odobli bola ekan, deb alqaydilar. Demak, ey aziz farzand, sen ota-onang va qarindoshlaring suyib, erkalaydigan odobli bola bo'lishni istasang, dastlab yaxshi xulq va go'zal odoblar nimaligini yaxshilab bilib olishing kerak. Aksincha, bularni bilib olmasang, ularni ranjitib qo'yishing hech gap emas.

## Odob oltindan qimmat

**I**nson tabiati boylik, pul va oltinni juda yaxshi ko'radi. Chunki boylik ko'p narsani hal etadi, boy-badavlat odam ko'p narsani osongina qo'lga kiritadi. Shu bois ayrim bolalar boy odamga havas bilan qaraydi, boy bo'lishni orzu qiladi. Hayotda kamchilik ko'rmay, orzu-istaklariga osongina erishish haqida shirin xayollar suradi. To'g'ri, boy-badavlat kishi yaxshi yashab, nimani istasa, shunga osongina erishayotganini ko'ramiz. Ko'pchilik nazdida shu narsa katta baxt. Ammo katta va ulkan boylikka ega bo'la turib, baxtli bo'la olmagan yoki o'zini baxtsiz his etadigan boylar qancha. Ular kambag'al va faqir kishilarga qaraganda ko'proq iztirob chekib yashaydi.

Haqiqatda baxtli bo'lish uchun dastlab iymon, ilm, yaxshi amal va odob suv va havodek zarur. Buni ko'pchilik bolalar yaxshi bilmaydi, bilsa ham bu to'g'rida chuqur o'ylab ko'rmaydi. Qanday bo'lmasin, boy bo'lish kerak, deb katta xatoga yo'l qo'yadi. Baxtli bo'lish uchun odob bo'lishi kerak, deb aytdik. Bu bizning gapimiz emas, balki asrlar davomida tajribada sinalib, donishmand bobolarimiz tomonidan aytilgan. Odobning katta foydasi shuki, qaerda odob bo'lsa, o'sha joyda tartib va intizom bo'lishi aniq. Tartib va intizom har bir ishni o'z vaqtida va puxta bajarishni talab etadi. Bunga amal qilgan bola doimo maqtovga loyiq. Nega biz boshqa yurt odamlaridan orqada qolganmiz, nega turli kompyuter va boshqa asbob-uskunalar hamda o'yinchoq turlarini ulardan sotib olamiz, deb o'ylasak, bunga ular yoshligidan ilm va odobni yuksak darajada egallagani sababdir. Ilmli va odobli bo'lishning foydasi juda katta. Odamlar ham odobli bolani yoqtirib, uning ota-onasiga rahmat aytishadi va iloyo, baxtli bo'lgin, aslo kam bo'lmagin, deya haqiga xayrli duolar qilishadi. Alloh intizomli bola uchun nomai a'moliga alohida savoblar yozdiradi, rizqini ko'paytirib, umriga umr qo'shadi. Odob ana shunday ajoyib fazilatdir. Shuning uchun dono xalqimiz "odob oltindan qimmat", deb bejiz aytmagan. Buni to'g'ri tushunib olgan bola aslo adashmaydi, hayotda qoqilmaydi va ota-onasiga ko'pdan-ko'p rahmat keltiradi. Mana bu rivoyat adab boylikdan afzal ekanini

tushunishda yordam beradi: Asmaiy degan zot shunday hikoya qiladi:” Men bilan suhbatlashib turadigan arab bolalaridan biri fasohati va malohati bilan lol qoldirdi. Men sinamoqchi bo‘lib, yuz ming dirham evaziga ahmoq bo‘lishni xohlaysanmi”, dedim unga. U savolimga yo‘q, deb javob berdi. Nima uchun deb so‘radim. “Ahmoqligim tufayli bir jinoyat qilishim va bor-budimdan ayrilib, keyin shu ahmoqligim yana o‘zimga qolishidan qo‘rqaman”, dedi. Qarangki, yosh bola o‘z aqliga suyanib boylik hech narsani hal qilmasligini anglab etdi.

### **Foydali maslahat**



1. Beshikdan to qabrgacha ilm va tarbiya olishga imkoni etsa ham, lekin bolalikdan shunga ko‘nikma hosil qildirish foydali va muhimdir.

2. Bolani tarbiya qilish uni jismonan, fikran va xulqan kamolga etkazib, saodatga erishishga yordam berishdan iborat.

3. Befoyda so‘zni ko‘p gapirma va foydali so‘zni ko‘p eshitishdan qaytma.

4. Kam gapir, oz egin va kam uxla.

### **Odobli va odobsiz bola**

**K**elinglar, odobli va odobsiz bola qanday bo‘lishi haqida suhbatlashaylik. Odobli bola uyqudan erta turib, darhol yuz-qo‘lini yuvadi. Hatto badantarbiya mashqlarini bajarib, badanini chiniqtiradi. Badani va kiyimlari doim toza va ozoda bo‘lishiga e‘tibor beradi. U ko‘p kitob o‘qish barobarida darslarini o‘z vaqtida bajarib qo‘yishni yaxshi ko‘radi. Ota-onasi va ustozlaridan eshitgan nasihat va o‘gitlardan aslo bo‘yin tovlamaydi. Odobli bola har doim a‘lo baholarga o‘qiydi. Agar yaxshi va xushmuomala kishini ko‘rsa, darhol undan ibrat olib, unga amal qilishga intiladi. Bunday bolani tarbiyali yoki xulqi chiroyli ekan, deb maqtaladi. Odobli bola iloji boricha odamlarga yaxshilik qilish haqida o‘ylaydi. Kichik yoshidan boshlab ko‘chada

yoki biron joyda qariyalarni ko'rganda salom berib, qo'lida yuki bo'lsa, uni ko'tarib uyigacha eltib beradi. Qo'ni-qo'shnilar tomiga tosh otib o'ynamaydi, mushuk va shunga o'xshash jonzotlarga ozor bermaydi.

Ammo bolalar ichida odobsizlari ham uchrab turadi. Bunday bola erta o'ringa yotib, uyqudan kech uyg'onadi. Uyqudan turganida yuz-qo'lini chala yuvadi, badantarbiya mashqlarini bajarishni yoqtirmaydi. Usti-boshi kir-chir va iflos bo'lib yuradi. U qo'lga kitob ushlaymaydi va darslarini tayyorlashga hafsala qilmaydi. Ota-onasi bir ishni buyursa, uni labbay deb, bajarmaydi, balki erinchoqlik qilib, orqaga suradi. Ustozlari bergan uy vazifalarini qilmagani uchun maktabga borganda gap eshitib, sinfdoshlari oldida mulzam bo'ladi, yomon bahoga o'qiydi, yaxshi odob va xulq haqidagi nasihatlariga quloq solmaydi. Odobsiz bolani hech kim yoqtirmaydi. Chunki u aqlini kam ishlatadida. Shu bois odamlar uni xulqi yomon bola ekan yoki ota-onasi yaxshi tarbiya bermabdi, deb aytishadi. Tarbiyasiz bola qanday salomlashishni ham bilmaydi. Odobsiz bo'lgani uchun uning atrofida do'stlari kam. Tarbiya va odobi yo'qligi uchun bolalar undan uzoqroq yurishga harakat qiladi, chunki u dilozorlik qilib, ko'pchilik ko'nglini qoldiradi. Shu bois bironta bola u bilan do'stlashishni istamaydi. Demak, odobsiz bola bir o'zi yakkalanib, do'stlaridan ajrab qoladi.

Xo'sh, odobsiz bola qanday qilib yaxshi bo'ladi, deb savol berarsan. Buning uchun har qanday odobsiz bolaga ham yaxshi tarbiya berilsa, u o'z aybini tushunib, undan voz kechish haqida o'ylaydi. Yaxshi bolalar odobsiz bolaga chiroyli nasihat qilib, uni to'g'ri yo'lga boshlaydi. Ayniqsa, ko'chaga chiqqanda kompyuterxonada har xil bo'lmag'ur kompyuter o'yinlariga berilib vaqtini zoe ketkizayotgani va yomon bolaga aylanib borayotganini bildiradi. Odobsiz bolaning odobli bolaga aylanishi oson emas. Agar u aqlini to'g'ri ishlata olsa, asta-sekin yaxshi bolalar safiga qo'shilib oladi. Buning foydasini yoshi ulg'aygandan keyin biladi. Faqat u yaxshi va odobli bola bo'lishga harakat qilishi kerak. Bir donishmand: «O'g'ling etti yoshgacha rayhoningdir, yana etti

yosh qo‘shilguncha dastyoring va yana etti yosh qo‘shilganda vaziring va keyin esa u do‘sting yoki dushmaningdir», debdi. Shundan bilamizki, itoatli va odobli farzand har doim ota-ona yonida bo‘lib, ularning ko‘zini quvontiradi va ishlarida ko‘mak beradi. Itoatsiz va odobsiz bola esa ota-ona gapini olmasligi va aytganiga yurmasligi bilan xuddi ota-onasi undan judo bo‘lgandek taassurot qoldirar ekan.

### ***Bolalar lug‘ati***



**Odob** – yaxshi xulq, tarbiya va xushmuomalalik.

**Axloq** – inson tabiati, muomala, xatti-harakati va odobi.

**Tarbiya** – ta‘lim, axloq-odobni o‘rgatish, insonni voyaga etkazish va ulg‘aytirish.

**Eslab qoling:** “Odob har bir inson amal qilish kerak bo‘lgan hayot qonunidir. Inson aynan odobi bilan tilsiz va aqlsiz hayvonlardan ajralib turadi”.

### ***Foydali nasihatlar***



1. *“Har kimda odob bo‘lsa, unda ilm ham bo‘lishi qanday yaxshi. Chunki odob aql bilan chambarchas bog‘liq. Agar aql ustiga odob ham qo‘shilsa, nur ustiga nurdir. Ulug‘lik aql va odobdan yuzaga keladi. Aqlning qadri odob, boylik qadri saxovat va kuch-quvvat qadri bahodirlik tufayli oshadi”* (“Favoqihul-julaso”).

2. *Yahyo ibn Muoz shunday dedi: “Qalb ko‘krakdagi qozonga o‘xshaydi. Shu qozonda qaynagan narsani suzib oladigan cho‘mich tildir. Kimligini bilmoqchi bo‘lsang, uning so‘ziga e‘tibor ber. Chunki til senga qalbdagi shirin, nordon, xushta‘m va achchiq narsalarni ko‘rsatadi”.*

3. *Odob xulqni chiroyli qilish, so‘z va harakatni tuzatishdir.*

4. *Go‘zal sifat va chiroyli xulq bilan bezanmagan kishini chiroyli kiyimlar hech qachon ko‘rkam qilolmaydi.*

## Qaysi biri yaxshiroq?

*(Ibratli hikoya)*

**B**ozordan savat ko'tarib qaytayotgan uch ayol dam olish uchun yo'l chetidagi o'rindiqqa o'tirishdi. Bir-biri bilan o'z o'g'illari haqida gaplasha boshladi. Birinchi ayol shunday dedi: "O'g'lim juda ham chaqqon bola. Hatto bir necha daqiqa oyog'ini osmonga qilib, qo'lida tik yura oladi". Ikkinchi ayol ham o'g'lini maqtab qoldi: "O'g'limning bulbuldek ovozi bor, eshitgan odam erib ketadi". Uchinchi ayol o'g'li to'g'risida lom-mim demadi, ikki ayolning gaplariga jimgina quloq solib o'tirdi. Ikki ayol sen nega gapirmaysan, deb undan so'rashganida tortinibgina shunday dedi: "Mening o'g'limda aytarli birorta alohida fazilat yo'q. Alloh bergan bir bola-da".

Bir qariya nariroqda ayollar nima deb gaplashayotganiga quloq solib turgan edi. Ayollar yo'lga tushib, yuk ko'tarib og'riyotgan bel va qo'llarini ishqalab silay boshlashdi. Shu payt uch bola oldilariga chopib kelishdi. Bular uch ayolning o'g'illari edi. Birinchi ayolning o'g'li oyoqlarini osmonga ko'tarib qo'li bilan erda tik yurishni amalda ko'rsatdi. Ikkinchi ayolning o'g'li xarsang tosh ustiga chiqib, onasi yaxshi ko'rgan qo'shiqni xushovozda kuylay boshladi. Ayollar hursand bo'lishib, uni olqishlab chapak chalishdi. Uchinchi ayolning o'g'li esa onasi oldiga kelib: "Oyijon, savatni menga bering, uni men ko'tarib boray", dediyu uni ko'tarib yo'lga tushdi. Ayollar kuzatib turgan qariyadan qaysi birimizning o'g'limiz yaxshi ekan, deb so'rashdi. Qariya: "Onasiga yordam berishga shoshilgan o'g'ilni yaxshi bola desa bo'ladi", deb javob berdi.

## Duosi mustajob bola

*(Ibratli hikoya)*

**B**ir kuni mo'minlar amiri Umar ibn Xattob Madina ko'chalarining birida chopqillab yurgan yosh bolani ko'rib qoldi. Shu onda bolaga qarab:

– Ey bola! Haqimizga bir duo qilgin, Alloh taolo bizga rahm qilsin, – dedi. Shunda sahobalar:

– Ey mo‘minlar amiri, Alloh taolo rahm qilsin, deb shu boladan duo so‘rayapsizmi? Axir siz jannat bashorat qilingan o‘n kishidan birisiz-ku! – deya ajablanishdi. Shunda Hazrati Umar:

– Ha, men undan haqimizga duo qil, deb so‘rayapman, chunki u hali balog‘at yoshiga etib ulgurmagan. Hali uning amallar kitobida gunoh amali yo‘q. Shuning uchun uning duosi qabul bo‘ladi. Ammo biz mukallaf yoshdamiz, bizning ustimizdan qalam yurgizilgan, – deb javob berdi.

## **Luqmoni Hakimning o‘g‘liga nasihatlari (1)**

**L**uqmoni hakim o‘z farzandiga nasihat qilib shunday dedi: “Ey o‘g‘lim, uch narsadan birini ehtiyot qil. Avval narigi dunyo uchun diningni ehtiyot qil. Ikkinchisi, salomatlik uchun hikmatni (tabobatni) ehtiyot qil. Uchinchisi, ta‘magir bo‘lmaslik uchun pulni ehtiyot qil. Ey o‘g‘lim, nodonlar bilan do‘st tutinma, xasisdan biron narsa so‘rama. Ilm o‘rgan, kimda ilm bo‘lmasa, hurmat-izzatga etishmaydi. Kimda muloyimlik bo‘lmasa, u ilmdan bahra ololmaydi. Kimda saxovat bo‘lmasa, hech kim unga do‘st bo‘lmaydi. Kimning do‘sti bo‘lmasa, mol-davlati bo‘lmaydi.

Ey o‘g‘lim, sabrni va o‘z nafsing bilan kurashishni o‘zingga shior qil, harom narsalardan tiyilib, topganingga qanoat qil. Birovning rizq-ro‘ziga ko‘z olaytirma, shunda o‘zingni qiynashdan qutulasan! Taomdan och, hikmatdan to‘q bo‘l. Odamlarning fahmiga yarasha so‘zla. Iloji boricha sukutni ixtiyor qil, shunda odamlarning yomonligidan omon bo‘lasan. Ahmoqlarga qarshi sukutdan ko‘mak qidir. Odamlar senda yo‘q xislatni bor, deb seni maqtasalar, bunga kerilmaki, odamlar gap-so‘zi bilan quruq bosh kosasi durga aylanmaydi. O‘zingdan kuchlilar bilan nizolashma, o‘zingdan zaiflarni erga urma. Badgumonlikka qalbingdan joy bermaki, u biron-bir do‘st bilan samimiy yashashingga yo‘l bermaydi.

Ey o‘g‘lim, so‘zlamoqchi bo‘lsang, faqat hikmat va nasihatlardan so‘zla, aytganlaringga avval o‘zing amal qil, o‘z kasbing

va martabangga yarasha soʻzla, odamlarni gʻazab paytida sina, doʻstlaringni esa boshingga kulfat va musibat tushganda sina, doim maqbul ishlarni amalga oshirishga urin, agar gapirmoqchi boʻlsang, dalil va hujjat bilan gapir. Yoshlikni gʻanimat bil, dono kishilar bilan hamsuhbat boʻl. Doʻstlaringni hurmat qil, odamlarga ochiq yuzlilik bilan boq.

Ey oʻgʻlim, ota-onangni doimo hurmat qilib, xizmatlarida boʻl, ustoz va muallimlaringga jonu dilingdan ehtirom koʻrsat, barcha ishlarda oʻrtacha yoʻl tut, kiringa qarab chiqim qil, saxiy boʻl, mehmonni eʼzozla, unga tilingni ehtiyot qil, dushmanlardan bir lahza ham gʻofil qolma, biron soʻzni aytishdan oldin uning javobini berishni oʻyla, baxil va takabbur kishilardan uzoq yur, qanoatni haqiqiy boylik deb hisobla.

Ey oʻgʻlim, ilm talabida boʻl, qaysar va oʻjar boʻlma, oʻz aytganingda turib olma, oʻzgalar soʻzini ham eʼtiborga ol, murosa yoʻlini tanla, hamisha odamlar ichida boʻl, ulardan ajrama, keksalarni hurmat qil, barchani ehtirom bilan tilga olgin, kimning tuzini totgan boʻlsang, uning haqini ado qilishni unutma.

Ey oʻgʻlim, ust-boshingni toza tut, kim bilan gaplashing, uning oʻziga yarasha gapni gapir, tunda kishilar bilan suhbat qursang, soʻzni yumshoq va ohista gapir, soʻzlayotgan vaqtingda bir kishiga qarab gapiraverma, hammaga nazar sol, kam eyish va kam uxlash yaxshi koʻrgan amaling boʻlsin! Oʻzingga nimani ravo koʻrsang, uni oʻzgalarga ham ravo koʻr. Oʻzing yaxshi oʻqimagan va bilmagan holda birovga aql oʻrgatma va ustozlik qilma.

Ey oʻgʻlim, sir saqlay olmaydigan kishilarga siringni aytma, hamma ham yaxshilik qiladi, deb oʻylama, biron kishining baxil ekanini bilsang, undan yaxshilik chiqadi, deb oʻylama, birovning ishi tushib oldingga kelsa, uni noumid qilib qaytarma, oʻzingdan kattalar bilan hazillashma, uyda bor narsalaringni dushman koʻzidan yashirin tut, oʻz aka-ukalaringni hurmat qil.

Ey oʻgʻlim, bir koʻrishda sinamay turib, birovni doʻst tutma, sinalmagan odamga ishonma, oʻz qadrini bilmaydigan kishilardan yaxshilik umid qilma, oftob chiqquncha uxlama, hadeb kulaverma, badnom (nomi yoki xulqi yomon) kishilarga suhbatdosh boʻlma,

keksalar va ulug' kishilar oldiga o'tib, ulardan oldin yurma, odamlar o'zaro gaplashayotgan paytda ularning so'zini bo'lib, gap solma, mehmonning oldida birovga g'azabingni sochma, boshingni esa quyi solmasdan o'tir..."

**Yodda tuting:** hikmat "bilimdonlik", "donolik", "hikmatli so'z", "tibbiyot ilmi", "shifokorlik" kabi ma'nolarni anglatadi.

## **Bolalar tarbiyasining o'ziga xos jihatlari**

**A**ziz bolalar, tarbiya va odob-axloq quyidagi muhim jihatlarni o'z ichiga oladi.

### **Fe'l-atvor tarbiyasi.**

Bolalar yosh paytidan yaxshi tarbiyalansa, odobli-axloqli va madaniyatli bo'lib voyaga etadilar. Yoshlik paytidan olingan ilm va odob-axloq bola xotirasiga qattiq muhrlanadi. Qaysi bola yoshligidan yaxshi ta'lim-tarbiya olgan bo'lsa, uning komil inson bo'lib etishishiga shubha yo'q. Albatta bunda ota-onalar va ustozlar asosiy o'rin tutadi. Shu sabab ustoz va murabbiylar so'ziga quloq tutish va ularning o'gitlariga amal qilish lozim.

### **E'tiqod tarbiyasi.**

E'tiqod inson hayotida eng muhim omil sanaladi. Chunki e'tiqodsiz odamning ongi bo'sh, fikri tarqoq hamda buzuq g'oya va qarashlarga ergashib ketish xavfi bo'ladi.

Inson qalbidagi e'tiqodni hech narsa ketkaza olmaydi, uni na pul, na mansab va na qo'rquv va na do'q-po'pisa bilan ketkazib bo'lmaydi. E'tiqodi mustahkam odam ulkan tog'dek baquvvat, daryodek toshqin va serg'ayrat bo'ladi. Shuning uchun e'tiqod va u bilan bog'liq narsalarni puxta o'rganib olish kerak.

### **Badan tarbiyasi.**

Inson modda va ruhdan iborat. Shunday ekan, uning ruhiy sog'lom bo'lishi bilan birga moddiy sog'lomligi ham muhim omillardan hisoblanadi. Badan tarbiyasi badanni sog'lom va kuchli hamda a'zolari mukammal darajaga etkazishdan iborat.

### **Fikr (aql) tarbiyasi.**

Inson bolasini dunyo va oxirat saodatiga boshlovchi narsa, albatta Allohning eng buyuk ne'mati bo'lgan aqlidir. Aql orqali inson yaxshini yomondan, oqni qoradan ajrata oladi. Mana shu narsa uning saodatga erishishida vosita vazifasini bajaradi.

### *Bolalar lug'ati*



**Fe'l-atvor** – insonning o'ziga xos xususiyati, xarakteri va tabiati.

**E'tiqod** – ishonch, qalb bilan tasdiqlash va imon.

**Fikr** – o'ylash, xayol, mulohaza va g'oya.

### **Odobli bo'lish yo'llari**

**O**dobli bolaning belgisi shuki, u barvaqt, kattalar bilan barobar uyg'onadi. Ulardan ilgari ham turmaydi, keyin ham qolmaydi. Hamma uyqudan uyg'onganida ham o'rnidan qo'zg'almay uxlab yotgan bolani dangasa deb chaqiradilar.

Odobli bola uyqudan turib, kiyimlarini kiyib yuz-qo'lini yuvadi, ota-onasiga salom berib, ulardan hol-ahvol so'raydi. Yomon bolalar esa uyqudan turib, yuzlarini yuvmasdan ovqatlanishga o'tiradi, ota-onalarining holidan xabar olmaydi.

Odobsiz bolaning yana bir belgisi shuki, u uyqudan turishi bilan yuz-qo'lini yuvmasdan ko'chaga o'ynashga chiqib ketadi, choy vaqti o'tib bo'lgach, hammadan ortda qolib bir o'zi nonushta qiladi. U choy ichib bo'lgunicha maktabga borish vaqti o'tib ketadi. Darsga kech qolib o'qituvchilaridan dakki eshitadi, darslarni yaxshi o'zlashtirmaydi. Chunki ertalab yo'l qo'yilgan birgina xato mana shunday natijaga olib keladi. Shu sabab barvaqt turib, hamma ishlarni o'z vaqtida bajarish kerak.

Odobli bola o'rnidan turib, choy vaqti bo'lgunicha o'tgan kundagi saboqlarini takrorlaydi. Ushbu kunda o'tiladigan saboqlarini bir-ikki marta ko'zdan kechiradi. Choy vaqti bo'lganidanso'ng darhol ota-ona, aka-ukava opa-singillari qatorida odob bilan o'tirib choy ichadi. Tayyor nonushtaga o'tirmasdan kattalar vaqtini olmaydi, o'zi darsdan kechga qolganidek, ularni

ham ishi va o'qishidan kechikishiga sababchi bo'lmaydi. Odobli bola maktabga yaxshi xulq va odob bilan boradi. Katta kishilardek o'z yo'lidan yuradi, loy yo'lak va yurilmaydigan joylardan yurmaydi. Ko'chada katta yoshli kishilarni ko'rsa, ulardan oldin salom beradi. Ularga hurmat-ehtirom ko'rsatadi, ranjitmaydi yoki diliga ozor bermaydi.

## **Odobli bolaning belgisi**

**O**dobli bola biron nojo'ya ishni bilmasdan qilib qo'ysa, kishilar unga qarashi bilan ishi noto'g'ri ekanini tushunib, xijolat chekadi, qilgan ishidan o'zini noqulay his etadi va uyaladi. Agar shu vaqtda bir kishi nasihat qilsa, uning aytgani o'zining foydasiga aytilayotganini o'ylaydi. Biroq indamay yo'lga ketmasdan nasihat qilgan kishiga: "Bilmasdan qilib qo'yibman. Boshqa bunday xato ishga qo'l urmayman!" deb kechirim so'raydi.

Ammo odobsiz va tarbiya ko'rmagan bola esa undan farq qiladi, xato ishlarini tushunib etmaydi. Agar unga biron kishi nasihat qilsa, nasihat qiluvchiga qattiq gapirib, so'zini e'tiborga olmaydi, hatto unga hurmatsizlik qiladi.

Aziz bolajon, shuni doim yodda saqla: odobli bola har qancha ko'rimsiz bo'lsa ham tarbiyali va odobli bo'lgani uchun uni hamma yaxshi ko'radi. Odobsiz bola har qancha chiroyli bo'lsa ham, e'tibor qozonmaydi. Ustiga shinam va yaxshi liboslar kiyib olganiga qaramay hech kim unga havas bilan qaramaydi. Chunki bolaga baho berilganda hamma vaqt uning odobiga qaraladi, kiyimlariga emas.

Odobli bolaning kundan-kunga qadri va hurmati oshib boradi. Ammo u bundan taltayib ketmaydi, shunday tarbiya bergani uchun ota-onasidan minnatdor bo'ladi, ular buyurgan xizmatni bo'yin tovlamasdan bajaradi. Odobsiz bolaning esa kundan-kunga hurmati tushib boradi.

Qaysi bola yoshi ulug' va keksa kishilarning so'ziga kirsam, o'zi ham ulug' bo'ladi. Odobli bola yana o'zidan kattalar hurmatini bajo keltiradi, duolarini olishga intiladi. Zero, duo odamning o'sib-unishi uchun qanot vazifasini bajaradi.

Odobli bolani har kim xush ko'radi va uni maqto'v bilan tilga oladi. Qanday ishni qilmoqchi bo'lsalar, odamlar odobli bolaga ishonadilar. Ammo tarbiya ko'rmagan bolani hech bir ishga yaqinlashtirmaydilar, unga biron yumushni ishonib topshira olmaydilar. Balki uni izza qilib, beodobligini yuziga soladilar.

Ota-ona uchun tarbiya topgan bola katta boylikdir. Odobli bolani hech qanday boylikka almashtirib bo'lmaydi. Chunki boylik bilan odob-axloqni sotib olish mumkin emas-da! Yana odob bilan erishish mumkin bo'lgan yutuqlarga boylik bilan etib bo'lmaydi.

Ey farzandim, endi o'zing ayt-chi: milliard so'm puli, qo'sha-qo'sha dang'illama uy-joylari, turli rusumdagi mashinalari bor odam boymi yoki bir odobli farzandi bor odammi? Boyligi bisyor odamning o'g'li beodob bo'lsa, qanday xunuk, boyligi o'rtacha yoki kambag'al kishining farzandi odobli, o'qishlari a'lo bo'lsa, qanday chiroyli?! Ikkovini bir-biriga qiyoslash aslo mumkin emas. Demak, boylik hamma narsani hal qiladi, deb o'ylash to'g'ri emas. Haqiqiy iste'dod, adolat, odob-axloq, insof va imon-e'tiqod oldida boylik juda ojiz narsa bo'lib qoladi.

Odobli bola haqorat va qarg'ish olmaydi. O'zi birovlarini so'kib, haqorat qilmaydi, boshqalarning so'kinishi va haqoratiga sabab bo'lmaydi.

Odobli bola qilgan ishlari yoki o'zida bor fazilatlar bilan maqtanmaydi, kerilmaydi, kekkaymaydi, balki kamtar bo'ladi, o'zidagi fazilatlarni do'stlari bilan baham ko'radi, muloyim, ochiqqo'l va ochiqko'ngil bo'ladi. Bu "meniki", bu "seniki" deb ajratish, hamma vaqt faqat o'zini o'ylash, boshqalar bilan ishi bo'lmaslik odobli bola sha'niga durust emas. Demak, bolaning kelajakda baxtli va tole'li bo'lishi uning odob-axloqi va qanchalik ilm olishiga bog'liq. Bola ota-onasining so'ziga kirsam, aytganlaridan chiqmasam, bergan maslahatlarini jon deb qabul qilsam, bunday bola ulg'ayganida, albatta baxtli bo'ladi.

## Ota haqini ado etgan o'g'il

(Ibratli hikoya)

**Q**adim zamonda qaroqchilar yo'lto'sarlik qilib, ojiz va zaif odamlarni asir olib bozorda qul qilib sotardilar. Kunlarning birida qaroqchilarning qo'liga bir katta yoshli kambag'al kishi tushib qoldi. Qaroqchilar boshlig'i unga: "Agar bozorda qul bo'lib sotilishni istamasang, menga yuz tilla tanga keltirsang, seni ozod qilaman", dedi.

Shunda kambag'al kishi oilasiga xat yozib, unga shunday so'zlar bitdi: "Bilaman, sizlarda meni qutqarish uchun to'lashga pulinglar yo'q. Ammo bu xatni men boshimga tushgan ishdan xabardor bo'lishingiz uchun yozayapman".

O'sha kishining g'oyatda yaxshi va jasur bir o'g'li bor edi. Xat etib borishi bilan qaroqchilar turgan joyga etib kelib ularga: "Ey janoblar! Men otamni tekindan-tekini olib ketmoqchi emasman, chunki, bilamanki, siz aslo bunday qilmaysiz. Ammo otam qari, zaif va ishga yaroqsiz kishi. Uni qul bozorida sotsangiz ham ko'p pul berishmaydi. Uning o'rniga mana meni sotsangiz ko'p pul olasiz".

Qaroqchilar uning bu taklifiga rozi bo'lishdi va boshliqlari bilan maslahatlashib javob bermoqchi bo'lishdi. Qaroqchilar boshlig'i bu gapni eshitganida o'z quloqlariga ishonmadi va qari kishining o'g'liga ajablanib shunday dedi: "Yo tavba! Bu dunyoda mana shunday jasur o'g'lonlar ham bormi? O'zini mana shunday qurbon qiladigan kishilar ham bormi bu olamda?! Mendan odamgarchilik ketdimi? Otangni sen tufayli avf etdim. Qani endi keta qolinglar".

Faqir ota va uning uchun o'zini qurbon qilmoqchi bo'lgan o'g'li xursand bo'lib uylariga qaytishdi.

## Odobli bola bo'lish qiyinmi?

**O**dobli bola g'oyatda qadrli va bebahodir. Xo'sh, odob-axloq har bir bolaning ko'rki va boyligi ekan, bunga qanday qilib erishish mumkin?

Bola odobli bo'lish uchun ko'p mashaqqat va riyozat chekishi shart emas. Odobli bola bo'lish uchun hamma maqtalgan sifatlarni o'ziga singdirib, axloq qoidalariga amal qilish kerak. Shunda bolaning bilim olishi ham, xulqi ham joyida bo'ladi. Odob bor joyda bilim olish ham oson va barakali bo'ladi. Chunki odobli bolaning har bir ishida tartib va samara bo'ladi.

### ***Imom A'zamning o'g'liga nasihatlari***

*Ey o'g'lim, senga aytadigan bir qancha vasiyatlarim bor. Ularni jon qulog'ing bilan eshitib, amal qilsang, ikki dunyoda baxt-saodat qozonasan:*



1. Barcha ishlaringda niyatni xolis qil. Halol luqma eyishga harakat qil.

2. Barcha a'zolaringni gunoh va yomon ishlardan saqla!

3. Nimani bilishga muhtoj bo'lsang, uni bilmay qolma!

4. Dunyo va oxirat yo'lida foydasi tegadigan kishilar bilangina do'st tutin.

5. Musulmonga ham, g'ayrimusulmonga ham dushmanlik qilma.

6. Alloh bergan rizqingga qanoat qil.

7. Boshqalarga muhtoj bo'lib qolmaslik uchun qo'lingdagi bor imkoniyatdan tadbirkorlik bilan foydalan.

8. Odamlar senga past nazar bilan qarashlariga sabab bo'ladigan yomon ishlarni qilma.

9. Hojatingdan ortiqcha narsalarga berilishdan saqlan.

10. Odamlar bilan ko'rishganda gapni salom berishdan boshla, mayin va muloyim so'zla, yaxshilarga yoqimli bo'l, yomonlar bilan murosa qil.

11. Odamlar orasida nizo va janjal chiqqanida dushmanlaringdan ko'ra do'stlaringdan ehtiyot bo'l. Zero, dushmaning do'stingdan foydalanishi mumkin.

12. Siringni, pulingni va boradigan joyingni birovga aytma.

13. Yaxshi qo'shnichilik qil va ularning aziyatlariga sabr qil.

**Yodda saqlang:** Imom A'zam – No'mon ibn Sobit (mel. 699-769) hanafiy mazhabining asoschisi va juda katta olim.

## Qizaloqlar odobi

**Q**iz bola oilaning ziynatidir. Qizi bor hovli fayz taratib turadi. Qizning muomalasi uning husnidir. Qizning hayosi go'zalligidir. Qizning hayosi bilan andishasi bo'lsa, yasanishning hojati yo'q. Hayosi bor qiz oddiy kiyim bilan ham chiroyli ko'rinadi.

Tarbiya topish va odobli bo'lish o'g'il bolalarga qanchalik lozim bo'lsa, qiz uchun undan ham ko'proq lozimdir. Shu sababdan ba'zi ishlar o'g'il bolalarga ayb ko'rinmasa ham, qiz bolalarda katta ayb sanaladi. Masalan, libos va bosh kiyim yirtiq bo'lishi o'g'il bolalarda ham ayb, lekin qizlarda undan ko'proq aybdir. Odobli qizlar erkak odam nazarini tortmaydigan kiyimlarni kiyadi, yarim yalang'och kiyim kiyishdan uyaladi, uyat sanaladigan a'zolarini berkitib yuradi, ko'chada begona erkak kishilarga qaramasdan, odobsiz so'zlarga quloq solmasdan maktabga boradi.

Maktabdan qaytgandan so'ng saboqlarini takrorlab bo'lib, qizlarga lozim bo'lgan uy yumushlarini qiladilar. Ular ko'proq kiyim va do'ppi tikish, har xil taomlar pishirish, pishiriq va shirinliklar tayyorlash va o'rganish bilan mashg'ul bo'ladilar.

Odobli qiz hamisha onasi yonida bo'ladi, ko'cha-ko'ylarga chiqib yurmaydi, biron ish bilan ko'chaga chiqsa ham, kech bo'lmasdan uyiga qaytadi va o'g'il bolalar bilan o'ynamaydi. Odobli qiz kir-chir, nopok va yirtiq, ochiq-sochiq kiyimlarni kiymaydi, boshyalang va oyoqyalang yurishdan iymanadi. Odobli qiz ust-boshini toza tutib, sochlarini tarab ozoda va orasta bo'lib yuradi, og'zi va tishlarini tozalovchi vositalar bilan poklab, noxush hid taralishining oldini oladi.

Odobli qiz tizzalari va bilaklarini ochib, sochlarini yoyib yurish bilan o'zini boshqalarga ko'z-ko'z qilmaydi. Qiz bola o'z nomusini pok saqlashi va unga aslo gard-g'ubor tegizmasligi kerak. Qiz

bolaning soʻzi va qiladigan ishi har doim odob doirasida boʻlsa, hamma uni maqtaydi va oʻziga kelin qilishni diliga tugib qoʻyadi.

## **Inson jism va ruhdan iborat**

**A**ziz bolalar, inson jism va ruhdan iborat. Bizning oʻz tanamiz oldidagi vazifamiz boʻlgani kabi maʼnaviyatimiz – ruhiyatimiz oldidagi vazifalarimiz ham bor. Bularning har ikkisini barobar olib borilmasa, birini qilib, ikkinchisini oʻz holiga tashlab qoʻysak, komil inson boʻla olmaymiz. Shu sabab oʻz tanamiz oldidagi vazifalarni bilib olishimiz lozim. Mazkur kitobda biz bolalarning moddiy va ruhiy olami bilan bogʻliq eng muhim maʼlumotlarni keltiramiz.

## **Uxlash odoblari**

**I**nson har kuni ishlab, uyiga charchab qaytganidan soʻng dam olishni istaydi. Xuddi shunday bolalar ham kunduzi oʻynab charchaydilar. Kech boʻlganda koʻchada qorongʻi tushguncha sangʻib yurmasdan darhol uyiga kiradilar. Kechki ovqatdan keyin darsini qilib, boshqa ishlari boʻlmasa, maza qilib uxlab, dam oladilar. Ertangi kun uchun kuch toʻplaydilar. Bolalar uxlaganlarida charchoqlari chiqib ketadi. Ular uyqudan tursalar, yana avvalgiday kuchli boʻlib qoladilar.

## **Uyquga tayyorgarlik**

**B**olalar kech boʻlganda “men ertaroq yotishim kerak”, degan fikrni xayollariga keltirsalar, yaxshi boʻladi. Chunki ertaroq yotish yaxshi odatdir. Erta yotgan bola quyosh chiqib ketgunga qadar uxlab yotmaydi. Odobli bolalar kechki ovqatdan keyin dars tayyorlab, undan keyin boshqa zarur ishi boʻlmasa, har xil keraksiz oʻyinga berilmasdan uxlaydilar. Chunki erta yotgan bola barvaqt uygʻonadi. Kechqurun soat 9:00da hamma bolalar uyquga yotgan boʻlishlari kerak. Baʼzi bolalar uzogʻi bilan kech soat 10:00 da uxlashlari maʼqul. Maʼlumki, bir ishga kirishishdan

avval unga tayyorgarlik ko'riladi. Biz quyida uxlashdan oldin qilinadigan amallar haqida ma'lumot beramiz.

Uyquga yotishdan oldin mana bu ishlarni bajarish lozim:

- eshiklarni qulflash;
- ovqatlar ustini yopish;
- texnika asboblarni (kompyuter, televizor kabilarni) o'chirish;

- tishlarni yuvish;
- olov va chiroqni o'chirish.

Texnika asboblari ishlab turgan paytda ulardan ko'zga ko'rinmaydigan nurlar taraladi. Bu nurlar inson sog'lig'iga salbiy ta'sir qiladi. Shuning uchun ularni ishlatib bo'lib, darhol o'chirish kerak. Yotishdan avval tishlarni va yuz-qo'lni yuvishning foydasi juda ko'p. Shunday qilgan bola tinch uxlaydi, yomon tushlar ko'rmaydi.

## Uyqu odoblari

**O**'ringa yotish oldidan qilinadigan amallar:

- o'rinni tayyorlash va tekshirish;

- uyqu kiyimida bo'lish.

- o'ringa yotgan paytda qilinadigan amallar:

- o'ng tomonga yonboshlab yotish;

- o'ng kaftni o'ng yuzga qo'yib yotish.

Uyquga yotgan paytda mana bu ishlarni qilish noma'quldir:

- avratlarini yopmasdan yotish;

- qornini erga qaratib yotish;

- og'zida ovqat bilan yotish;

- yonboshlab olgan holda kitob o'qish.

## Uyqudan erta turishni o'rganing

**U**yqudan erta turish yaxshi odat. Erta turishning juda ko'p foydalari bor.

Maktab o'quvchilari kun chiqmasdan oldin o'rnidan turib, o'z yumushlarini bajaradilar. Ular yuz-qo'llarini yuvib, nonushta

qilib, so'ng maktabga borishga tayyorgarlik ko'radilar. Ammo kichik bolalar kechroq uyg'onsalar ham zarari yo'q.

## Uyqudan erta turish uchun nima qilish kerak?

**U**ning uchun uchta narsaga e'tibor berish zarur:  
– bolalar kechqurun hammadan ertaroq uxlashlari kerak. Chunki erta yotgan bola erta turishi oson bo'ladi;

– uyquga yotayotgan bola “ertalab barvaqt uyg'onaman”, deb niyat qilishi kerak;

– uxlashdan avval kattalarga: “Meni ertaroq uyg'otinglar”, deb tayinlashi lozim. Ba'zi bolalar kun chiqquncha o'rnidan turmasdan yotaveradi. Birov uyg'otsa ham turishga erinib, kattalarning undovini kutadi. Unday bola – yalqov va dangasa, deyiladi.

## Erta turishning foydalari

**U**yqudan erta turishning aql, badan va iymonga foydasi bor. Aqlning tiniqlashib, yaxshi ishlaydigan vaqti tong paytiga to'g'ri keladi. Ana shu paytda uyqudan turgan bolaning aqli tiniq va o'tkir bo'lib, miyasi yaxshi ishlaydi. Bunday bolaning darsida ham, ishlarida ham unum va baraka bo'ladi. U kechgacha g'ayratli va xursand bo'lib yuradi. O'rtoqlari bilan ham xushchaqchaq va quvnoq holda o'ynaydi.

Tana doimo sog' bo'lishi uchun har kuni ertaroq turishga odatlanish kerak. Ertalab badantarbiya bilan shug'ullanish sog'liqni mustahkamlaydi. Uyqudan kech turgan bola o'zini lanj va lohas his etadi.

## Uyg'ongandan so'ng

**U**yg'ongandan so'ng qilinadigan ishlar mana bulardir:

1. Uyg'ongach, Yaratganga shukr qilish;
2. Kiyimlarni kiyish;
3. Joyni yig'ishtirish;
4. Xonani shamollatish;

5. Badantarbiya;
6. Atrofdagilar bilan soʻrashish.
7. Nonushta;
8. Maktabga tayyorgarlik;
9. Oʻqishga borish.

Demak, siz uyqudan koʻzingizni ochgan zahoti uygʻonish duosini oʻqiysiz. Duodan soʻng kiyimlaringizni kiyasiz. Oʻrin-koʻrpalarni chiroyli qilib yigʻib qoʻyasiz.

Tuni bilan xona dimiqib qolgan boʻladi. Shuning uchun derazalarni bir oz ochib, havoni almashtirish kerak.

### **Uygʻongandan soʻng qilish nomaʼqul hisoblangan amallar**

1. Oʻrindan turmay, yalqovlanib yotaverish;
2. Yotadigan kiyim bilan odamlarga koʻrinish;
3. Oʻrinni yigʻishtirmay turib ketish;
4. Yuz-qoʻlni yuvmasdan boshqa ishga kirishish;
5. Ertalabki zarur ishlarini orqaga surish.

Ertalab uyqudan turgach, ozgina badantarbiya qilishga odatlanish kerak. Bunday qilish odamning sogʻligʻi uchun juda ham foydalidir. Mashqlardan soʻng nonushta qilasiz. Nonushta tayyorlashda kattalarga yordamlashishni oʻrganing. Nonushta paytida ovqatlanish odobiga rioya qilishni unutmang. Nonushtadan soʻng dars jadvaliga qarab, kitoblaringizni tekshirib olasiz. Maktabga tayyorgarlik koʻrasiz. Bugun kerak boʻladigan kitob-daftarlaringizni esingizdan chiqarmang. Maktabga kech qolmasdan borishga odatlaning.

### **Luqmoni Hakimning oʻgʻliga nasihatleri (2)**

**E**y oʻgʻlim, Allohga shirk keltirma! Chunki shirk eng katta gunohdir. Odamlarga yuzingni burishtirma. Hech qachon kekkayib, manmansirab yurma. Chunki Alloh takabbur va maqtanchoq kimsalarni xush koʻrmaydi. Erga qarab vazminlik bilan yurgin va hech qachon ovozingni baland koʻtarma!

Ey o'g'lim, salomatlik bebaho boylik va go'zal axloq beqiyos ne'matdir. Kattalar bilan gaplashayotganingda har bir so'zingga ahamiyat ber. Qarindoshlar bilan aloqani uzma. Bekorchi va bema'ni odamlar oldida o'tirma. O'zingdan kattalar bilan hazillashma.

O'g'lim, imkon qadar urush-janjaldan saqlan! Dunyo ishlari uchun ortiqcha g'am ema. Yoshligingni g'animat bil va ilmli kishilar bilan maslahatlash. Qayg'uga botma, g'amgin bo'lma. Odamlarning qo'lidagi narsalarga ko'z tikma. Taqdirga rozi bo'l. O'zingga berilgan rizqqa qanoat qil. O'zingdan-o'zing behuda g'amgin bo'lma. Xafagarchilik bilan qalbingni band etma.

Ey o'g'lim, avvalo o'zingga nasihat qil. Boshqalarga bir narsani aytishdan oldin o'zing unga amal qil. Biliming va holingga qarab so'zla. Sukut qilsang, pushaymon bo'lma. So'z kumush bo'lsa, sukut oltindir. Kattalar bilan tortishma. Musibatga sabrli, kishilar oldida kamtar bo'l.

O'g'lim, yolg'on so'zlashdan juda ehtiyot bo'l. Chunki yolg'on diningni buzadi va odamlar oldida obro'yingni to'kadi. Natijada e'tibor va darajangni yo'qotasan. Ochiq chehrali, to'g'ri so'zli bo'l. Salomlashishga odatlan.

Ey o'g'lim, oz mol-dunyo jo'yali sarf-xarajat va tadbir bilan ko'payadi. Ko'p mol-dunyo behuda sarf-xarajat oqibatida kamayadi. Agar qanoatli bo'lsang, dunyoda sendan boy odam bo'lmaydi.

Ey o'g'lim, me'dangni ovqatga to'ldirma. Aks holda aqling va fahm-farosating o'tmaslashadi. Agar oshqozon to'lsa, fikr uxlaydi, hikmat sukutga ketadi va a'zolar ibodatdan bosh tortadi.

Ey o'g'lim, ishlaringda faqat olimlar bilan maslahatlash. Olim johilni biladi. Chunki uning o'zi oldin johil edi, johil olimni bilmaydi, chunki u oldin olim bo'lmagan.

O'g'lim! Yaxshilikni uning qadriga etadiganlarga qil. Bo'ri bilan qo'y do'st bo'lmaganidek yaxshilik sohiblari bilan gunohkor kimsalar ham bir-biriga do'st bo'lolmaydi. Dunyoda toat-ibodatlariga ham g'ayrat qilki, oxiratda senga hamroh bo'lsin. Dunyoni batamom tark etma. Halolidan rizq ishlab topki, hech kimga muhtoj bo'lma.

Ey o'g'lim, hasad qilma, birovlar orqasidan yomonlama. Agar senga yomonlik qilishsa, kechirimli bo'lgin, yaxshilik ko'rsang, shukr qilgin, ofat va balolarga duch kelganingda sabr etgin. G'ayrlik va ko'ra olmaslikdan hazar qil, kasalmandlar ziyoratini kanda qilma, o'tganlarni yomon sifatlar bilan eslama.

Farzandim, so'zni yumshoq so'zla, qattiq so'zlama, ahmoq va johillarni sukut bilan kutib ol. Vaqtingni ko'pini sukut bilan o'tkaz. Ko'proq tafakkur qilsang, tiling balosidan qutulasan. Sukut salomatlik eshigini ochuvchi yagona kalitdir. O'zingdan kattalar bilan tortishma va ularga qaysarlik qilma. O'zingdan kichiklarga past nazar bilan qarama, bir so'zni aytmoqchi bo'lsang, yaxshilab o'ylab gapirginki, hech kim senga "uf" demasin.

Ey o'g'lim, yozdasoydan, qishdako'zadansuvichma. Ochko'zlik badanning eng katta dushmanidir, ishtahasizlik ham shunday. Yuvingach, ma'lum muddat o'ranib yotish kerak. Ovqatdan so'ng yurish kerak. Oyog'ingni issiq tut, boshingni salqin...

Ey o'g'lim, birovga yaxshilik qilsang, yaxshiligingni eslatib, uni uyaltirma, kamsitma. Birovga ichirgan va edirganingni minnat qilib, zaharga aylantirma! Evaziga narsa kutib qilingan yaxshilik yaxshilik hisoblanmaydi, balki u oddiy oldi-berdidan iborat, xolos.

## **Hojatxonaga kirish va undan chiqish odoblari**

**O**dam bolasi har kuni ovqatlanib, suv ichadigan qilib yaratilgan. Shunday ekan, inson har kuni hojatxonaga borishga ham muhtoj. Eyilgan ovqat oshqozonda hazm bo'lib, bir qismi badanga ozuqa holida so'riladi, undan qolgan qismi esa ortiqcha chiqindiga aylanadi. Chiqindiga aylangani badandan tashqariga chiqishga yo'l qidiradi. Hojat ushatish ana o'sha ortiqcha va zararli narsalardan qutulish bo'ladi. Inson har kuni hojatxonaga kiradi, lekin ko'pchilik unga kirishning qoidalari borligini yaxshi bilmaydi. Ularga amal qilishning inson sog'lig'i uchun katta foydasi bor.

## Hojatxonaga kirishdan oldin

**H**ojatxonaga kirishdan oldin quyidagi ishlarga ahamiyat berish kerak:

1. Og'zida ovqat yuqi qolmasligi;
2. Qo'lining tozaligiga e'tibor berish;
3. Qalin kiyimlarini tashqariga echib kirish;
4. Qo'lida biron narsa bo'lsa, uni ichkariga olib kirmaslik;
5. Muqaddas kalomlar – oyat va hadislar bo'lsa, tashqarida qoldirish;
6. Hojatga kirishdan oldin duo o'qish;
7. Hojatxonaga chap oyoq bilan kirib, u erdan o'ng oyoq bilan chiqish.

Og'zida chaynab yutilmagan taom bo'lagi bo'lsa, u bilan hojatxonaga kirilmaydi. Shuningdek, qo'l yog' yoki iflos bo'lsa, oldiniga qo'lni yaxshilab yuvib olish kerak. Aks holda qo'l kiyimni ushlaganda kiyim iflos bo'ladi. Hojatxonaga kirishdan avval qalinroq ustki kiyimlar nopok suv tegmasligi uchun tashqarida echib qo'yiladi. Ustki kiyim deganda palto, chapon va kurtka kabi qalin kiyimlar tushuniladi.

Ba'zi bolalar qistalib tursa ham, o'yinni ko'zi qiymasdan o'ynashda davom etaveradi, faqat iloji qolmagan vaqtda hojatxonaga yugurib qoladilar. Shuni unutmangki, bolalar, hojati qistaganda o'zini zo'riqtirish sog'liqqa zarar. Chunki bunaqa paytda siydik qonga shimilishni boshlaydi.

## Hojatxonaga kirkandan keyin

**H**ojatxonaga kirkandan keyin ahamiyat berish kerak bo'lgan ishlar mana bular:

1. Hojatxona eshigini qulflab olish;
2. Kiyimni nopok narsalar tegishidan ehtiyot qilish;
3. Tana a'zolarini pokiza saqlash;
4. Hojatdan so'ng tozalanish;
5. Tozalanishda chap qo'lni ishlatish.
6. Hojat chiqarish vaqtida gapirmaslik.

Hojatga kirgan odam hech kimning ko'ziga ko'rinmasligi kerak. Chunki uyat (avrat) joyini birovga ko'rsatish yoki birovning avratiga qarash aslo mumkin emas. Shuning uchun hojatxonada eshigini qulflab olish darkor. Hojat ushatayotgan joyda o'zidan boshqa hech kim bo'lmasligi kerak. Ayrim bolalar ko'chada o'ynab yurganda hojatxonaga kirishga erinib, daraxt tagi yoki shunga o'xshash odamlar o'tadigan joylarga tik turib choptiradi. Bu holda siydik kiyimiga tegib, uni iflos qilsa, ikkinchidan poyabzal iflos bo'lib, shu iflos narsa bilan uyiga kirishi mumkin. Musulmon bolaning kiyimlari hamda tanasi toza va behid bo'lishi lozim. Agar kiyimga yoki badanga najosat tegsa, albatta uni tozalash kerak, shunda ham ketmasa, uni yuvish kerak.

Inson hojatxonada bo'shanib bo'lgach, najosat chiqqan a'zoni yuvib, tozalanadi. Tozalanishda maxsus qog'oz, kesak yoki suvdan foydalanish ma'qul. Najosat chiqqan joyni oldiniga qog'oz bilan artilib, undan keyin iliq suv bilan yuviladi. Bunda sovuq suvdan foydalanilsa, avrat a'zolarini shamollatib qo'yishi mumkin. Tozalanishda tezak va suyak kabi narsalarni ishlatish aslo mumkin emas. Tozalanish paytida chap qo'ldan foydalanish kerak. Chunki o'ng qo'lni odamlar bilan so'rashish va ovqat eyish uchun ishlatiladi.

## Hojatxonada qilish ta'qiqlanadigan ishlar

**H**ojat ushatish paytida ba'zi ishlarni qilish mumkin emas. Jumladan:

1. Qiblaga qarab yoki orqa qilib o'tirish;
2. Ko'p o'tirish yoki mudrash;
3. Birov bilan gaplashish;
4. Biror narsani qo'lida tutib o'qish;
5. Eyishga ulgurmagan narsani olib kirib u erda eb-ichish;
6. Suv va qog'ozni ko'p ishlatish;
7. Tozalanish paytida suvni sachratish;
8. Uzrsiz tik turib yozilish;
9. Zaruratsiz avrat a'zosiga qarash;
10. Hojatxonani iflos qilib chiqish.

Ochiq erda hojat ushatishga to'g'ri kelib qolsa, quyidagi ishlar ta'qiqlanadi:

1. Oy yoki quyoshga qarab o'tirish;
2. Shamol esayotgan tomonga qarshi o'tirish;
3. Oqayotgan yoki to'xtab turgan suvga choptirish;
4. Ekinzorga yoki mevali daraxt ostiga yozilish;
5. Qabristonga hojat ushatish;
6. Teshik va kovakka siyish;
7. Hasharotlar ustiga hojat ushatish.
8. Odamlar yoki hayvonlar o'tadigan yo'l ustida hojat ushatish.

## Hojatxonadan chiqish

**H**ojatxonadan chiqishda quyidagi ishlarga e'tibor berish lozim:

1. Axlal ketadigan erni suv bilan tozalash;
2. Suv jo'mraklarini o'chirish;
3. Kiyimlarni chiroyli kiyish;
4. Hojatxona qog'ozini tekshirish;
5. Chiroqni o'chirish;
6. O'ng oyoq bilan chiqish;
7. Chiqqandan so'ng zikr aytish;

Bolalar, hojatxonadan chiqayotgan paytingizda u erning tozaligini ko'zdan kechiring. Hojatxona sizdan keyin ozoda holda qolishi kerak. Ba'zi beadab bolalar o'zlari o'tirgan erni tozalamasdan chiqadilar. Bu yaxshi tarbiya olmaganini ko'rsatadi. Suv jo'mraklarini ham yaxshilab o'chirish kerak. Chala burab chiqib ketilsa, suv oqib, isrof bo'ladi. Hojatxonadan chiqmasdan turib, kiyimlarni chiroyli qilib kiyib olinadi. Ust-boshining u yoq-bu yog'iga qaramasdan yoki tugmalarini yaxshi qadamasdan chiqish uyat bo'ladi.

Xojatxonadan o'ng oyoq bilan chiqish odobdandir. Hojatxonadan chiqqandan keyin ikkala qo'lni yaxshilab, iloji bo'lsa, sovunlab yuviladi.

## Sog'liqni saqlash choralari

**B**olalar, sizlar yaxshi bilasizlarki, sog'liq etuk inson bo'lishda muhim ahamiyatga egadir. Chunki sog'lom va tetik kishining ishlari ham unumli bo'ladi. Sog'liq yo'qotilgan joyda ish ham unmaydi, inson biron yutuqqa erisha olmaydi. Shuning uchun Alloh tarafidan berilgan sog'liqni saqlash har bir odamning burchidir. Ayniqsa, bunga ko'proq bolalar ahamiyat berishlari kerak. Aziz bolajon, sen yoshligingdan sog'liqni saqlashga e'tibor berib, zararli odatlarni tark qilsang, katta bo'lganingda ham soppa-sog' va bardam-baquvvat yurasan, og'riq, kasallik va boshqa qiyinchiliklardan xoli bo'lasan. Ayrim bolalar kichik yoshidan kattalarga taqlid qilib, chekish va ichishga odatlanadi. Bu sog'lik uchun katta zarar, shuningdek, keyinchalik bu odatni tashlamoqchi bo'lganida uni tashlashga qiynaladi va afsuslanadi. Shuning uchun chekish va ichishga mutlaqo yaqin bormaslik kerak. Kattalar chekib-ichib yuribdi-ku, zarar bo'lganida buni tashlagan bo'lardi deb xato o'ylamaslik kerak. Balki ular qutulish chorasini topa olmasdan ich-ichidan qiynalib yurgandir yoki o'rganib qolganidan tashlay olmayotgandir.

### *Bolalar lug'ati*



**Sog'liq** – sihat, salomatlik, odamning kasal bo'lmay salomat holda yurishi.

**Chora** – tadbir, iloj, yo'l (masalan, qiyin vaziyatdan chiqish yo'li choradir).

### *Foydali maslahatlar*



1. Sog'ligini o'ylagan kishi o'z ovqatining asosiy qismi sabzavotlar, mevalar va bulardan tashqari shifobaxsh taomlardan iborat bo'lishiga e'tibor qaratishi lozim.

2. Badantarbiya badanni sog'lom va kuchli hamda a'zolari mukammal darajaga etkazishdir.

*Chunki inson harakat qilishga yaratilgan, harakatsiz baxt-saodatga erishib bo'lmaydi.*

*3. Har kuni badantarbiya qilishga odatlangan odamga dard yaqin kelmaydi.*

*4. Badantarbiya bilan mashg'ul bo'linsa, hech qanday dori-darmonga zarurat qolmaydi. Buning uchun ma'lum bir tartibga rioya qilish ham shart.*

*5. Badantarbiyani tark etgan kishi yalqov va dangasa bo'lib qoladi. Zero, harakatsiz qolgan a'zolar zaif va nimjon bo'ladi.*

*6. Badanning salomat va quvvatli bo'lishi insonga eng kerakli narsadir. Chunki o'qish, o'qitish, o'rganish va o'rgatish uchun inson sog'lom va tetik bo'lishi lozim.*

*7. Tananing rohati taomning ozligidadir. Dilning rohati so'zning kamligidadir. Ruhning rohati uyquning kamligidadir.*

*8. Ko'p ovqat eydiganlar ovqati badhazm bo'ladi. Ovqati badhazm bo'lgan kishi doim dardmand bo'ladi.*

## **Ozodalik sog'liq garovi**

**E**y farzand, agar badaning sog'lom va tetik bo'lishini, aqling o'tkir va qalbing xushnud bo'lishini istasang, quyidagi nasihatlar quloq sol:

1. Qishda har haftada kamida ikki marta issiq suv bilan, yozda esa har kuni bir marta iliq suv bilan yuvin.

2. Uxlashdan oldin va uyqudan turgandan keyin yuzing, qo'llaring va oyoqlaringni yuv.

3. Odamlar oldida ko'zing, qulog'ing yoki burningni o'ynab kavlama. Chunki bu o'sha a'zolarga zarar beradi va odamlarni sendan nafratlantiradi. Agar ularni tozalamoqchi bo'lsang, bir chekkaga o'tib, toza dastro'mol bilan artib tozala.

4. Odamlar oldida tishlaringni kavlama va tirnoqlaringni olma. Chunki bu juda xunuk odat.

5. Uxlashdan oldin va uyqudan turgandan keyin misvok va tish cho'tkalari bilan tishlaringni tozalab yuvgin. Chunki ovqat qoldiqlari milk va tishlarga zarar etkazib, og'izning hidini buzadi.

6. Yuz artiladigan sochiq, tish cho'tka, uxlaydigan krovat, yostiq, yopinchiq va taroq kabi narsalar alohida o'zingniki bo'lsin, ularni sendan boshqa odam ishlatmasin.

7. Suvni toza va sof holda ich.

8. Yuzing, taoming yoki ichadigan ichimligingga pashsha qo'nishidan ehtiyot bo'l. Chunki u ko'pincha yuqumli kasallik mikroblarini olib yuradi, ana shularni senga ham yuqtirishi mumkin.

9. Odamlar senga hurmat-e'tibor va havas bilan qarashlari uchun kiyimlaring tozaligiga va ko'rinishing chiroyli bo'lishiga e'tibor ber.

10. Zararli hasharotlar bo'lmasligi uchun yashaydigan uying toza bo'lishiga harakat qil.

11. Sen uxlaydigan xonaning havosi buzilmasligi uchun quyosh nurlari kirib turadigan tarafda bo'lsin.

12. Maktab qurollari va uyda o'ynaydigan o'yinchoqlaring tozaligiga rioya qil. Shunda ularning ko'rkamligi saqlanib, bolalar bilan o'ynaganda qo'llari kir-chir bo'lmaydi. Qo'llaring yoki kiyimlaringni siyoh bilan ifloslama.

13. Doimo toza joylarda o'yna va sayr qil.

## **Ko'chada holva egan bola**

*(Hikoya)*

**B**ir kichkina bola ko'chada o'ynab o'tirganda holva sotuvchi o'tib qoldi. U sotib yurgan holvasini pashsha va changlardan ehtiyot qilmas edi. Bola bir tanga berib, holvasidan sotib oldi. Bir necha kundan keyin qattiq kasal bo'lib yotib qoldi va otasi uyga tabib chaqirib keldi. Ko'p savol-javoblardan keyin tabib uning kasali holva eyishdan kelib chiqqanini aniqladi. Uni davolash uchun bezgak kasalliklari shifoxonasiga olib borishga buyurdi. Oilasi iztirob chekib, otasi uni davolashga ko'p pul sarfladi. U kasalxonada bir oy yotib, tuzalib chiqdi.

## Toza tutish kerak bo'lgan narsalar

**B**iz o'zimizni ham, atrofdagi narsalarni ham doim ozoda saqlashimiz lozim. Har birimiz besh xil narsani toza saqlashni o'rganishimiz kerak. Ozoda saqlanishi shart bo'lgan besh xil narsa mana bular:

- 1) Tana a'zolari;
- 2) Kiyimlar;
- 3) Shaxsiy buyumlar;
- 4) Uy va xonalar;
- 5) Atrof-muhit.

## Tana a'zolarini toza tutish

**T**arbiyali bola o'z tanasini ozoda va pok tutadi. Ammo ba'zi a'zolari boshqasiga qaraganda ko'proq yuvib turish kerak.

Tez-tez yuvib turish lozim bo'lgan tana a'zolari quyidagilar: 1) Qo'l; 2) Yuz; 3) Tish; 4) Burun; 5) Bosh; 6) Oyoq.

1) Qo'l. Qo'l juda ko'p foydali xizmatlarni bajaradi. Biz qo'limiz bilan yuzimizni va tanamizning barcha a'zolarini yuvamiz. Qo'lda ovqat eyimiz, bir-birimiz bilan qo'l berib co'rashamiz. Qo'lda bir narsani olamiz yoki beramiz. Shuning uchun qo'llarimiz doimo toza bo'lishi shart. Tirnoqlarni o'stirib yubormasdan olib turish ham qo'lning tozaligini ta'minlaydi. Bola tirnog'ini o'zi ololmasa, kattalarga aytib oldiradi.

2) Yuz. Yuz hammaga ko'rinib turadigan a'zodir. Tananing boshqa a'zolari ko'pincha kiyim yopib turadi. Ammo yuzni kiyim yopmaydi. Chang va kirlar yuzga tez yopishadi. Shuning uchun yuzni boshqa a'zolarga qaraganda ko'proq va tez-tez yuvib turish zarur. Odamlar bir-birlari bilan gaplashganda yuzga qarab gaplashadilar. Yuzi kir bo'lgan holda boshqalarning ko'ziga ko'rinish uyat sanaladi.

3) Tish. Alloh tishlarni chiroyli qilib yaratgan. Ularni avaylab asrash kerak. Tishlar sog'lom va oppoq bo'lsa qanday yaxshi!

Oppoq tishlar insonga chiroy bag'ishlaydi. Tishlar ovqatni chaynab, maydalab beradi. Agar ular toza bo'lsa, ovqat ham qoringa pokiza holatda kiradi. Tishlarni tez-tez yuvib turilmasa, ular orasida kir to'planadi yoki hidlanadi. Bu kirlik ovqatga qo'shilib, qoringa tushsa, odam kasal bo'lib qoladi.

Tishini yaxshi yuvmaydigan bolaning tishi ko'p og'riydi. Tish og'rig'i juda yomon. Tishga e'tibor berilmasa, u sarg'ayib, xunuk tus oladi. Tishi hunuk bo'lib yurish ham durust emas. Ovqatlanib bo'lgandan so'ng tishlarni yaxshilab yuvish zarur. Aks holda og'izda yoqimsiz hid paydo bo'lib, yonidagi odamga ozor beradi.

Tishni har kuni ikki marta misvok yoki pasta (ma'jun) bilan yuvish kerak. Payg'ambarimiz tahorat olayotganda tishini misvok bilan yuvganlarni maqtaganlar. Odamlarning oldida tishni kavlash xunuk odat. Bu beodoblikdir. Agar kavlamoqchi bo'lsa, qo'li bilan og'zini to'sib kavlashning zarari yo'q.

4) Burun. Alloh burunni ham muhim vazifa uchun yaratgan. U nafas olishimizga yordam beradi. Agar burun toza bo'lsa, inson yutayotgan havo ichkariga sof va bezarar holatda kiradi. Odobli bola hech kimning ko'zi tushmaydigan joyda burunlarini qoqib, tozalab oladi. Birovning oldida aslo burnini tortmaydi va kavlamaydi. Ba'zi bolalar esa hadeb burnini tortaveradi. Bunaqa odat hech kimga yoqmaydi.

Inson aksirganda yoki yo'talganda yuzini chetga burishi kerak. Og'zi va burnini dastro'mol yoki engi bilan to'sishi lozim. Chunki bunday paytda burun va og'izdan zararli moddalar otilib chiqadi.

5) Bosh. Inson hayoti uchun juda zarur hisoblangan a'zolar – miya, quloq, ko'z, burun va og'iz boshda joylashgan. Demak, boshga yaxshi ahamiyat berish lozim. Uni tez-tez yuvib turish talab etiladi. Qizlar sochlarini haftada kamida bir marta yuvib turishi kerak. O'g'il bolalar sochlarini ko'p o'stirib yuborishlari durust emas. Sochni bir oyda bir marta olinadi yoki qisqartiriladi. Bosh, ko'z, quloq, burun va og'izni oynaga qarab tozaligini tekshirib turish kerak.

6) Oyoq. Oyoq ko'pincha paypoq ichida bo'lgani uchun ko'zga tashlanmaydi. Ammo uni ham vaqtida yuvib turilmasa, undan yomon hid tarqala boshlaydi. Shuning uchun tahorat paytida oyoqning panjalari orasini barmoq bilan ishqalab yuviladi. Shunda ular pokiza va sog'lom bo'ladi.

## **Har bir sohada tozalik muhimdir**

**H**ar bir sohada tozalikka ahamiyat berish va poklik sari intilish taraqqiyotning asosidir. Yuqorida insonning tanasi, uy-joylari va liboslari toza bo'lishi lozimligi aytib o'tildi. Ammo biz yana bir a'zoning pokligiga alohida e'tibor berishimiz lozim. Bu qalbdir. To'g'ri, bolalar qalbi tug'ilganida pok va ma'sum holda tug'iladi. Bu a'zoni odob va xush xulqlar har xil chirk va iflosliklardan asraydi. Ammo tengdoshlaringiz ichida yomonlik qilishni qalbida asrab yuradigan bolalar ham uchrashi mumkin. Shunday ekan, har qanday zararli ishlardan saqlansak, qalbimizni ham toza saqlagan, uni turli ma'naviy kirlardan pok tutgan bo'lamiz.

## **Zararli odatlardan uzoq bo'ling!**

**H**urmatli bolajonlar, hayotda inson sog'lig'i va ruhiy holatiga zarar keltiruvchi narsalar ko'p. Masalan, mast qiluvchi ichimliklar va tamaki mahsulotlarini iste'mol qilishning sog'lig'imiz uchun zarari katta. Chunki mast qiluvchi ichimliklar inson aql-hushini ketkazadi, unga har taraflama ziyon etkazadi. Tamaki esa salomatligimizning asosiy kushandasidir. Hatto uning hidi ham o'ta zararli. Tamaki chekkan odam xavfli rak kasalligiga chalinishi ilmiy tomondan tasdiqlangan. Yana chekuvchi kishilarning og'zi, kiyimlari va qo'lidan badbo'y hid kelib turadi. Shunday ekan, bolalar, bunday zararli narsalar o'rniga foydali bo'lgan taomlar, meva-sabzavotlarni iste'mol qilish sog'likka juda foydalidir.

## Janjalkash bola

*(Ibratli hikoya)*

**Z**okir a'lochi o'quvchi, ammo uni o'rtoqlari uncha yoqtirmaydi. Chunki u doim kim bilandir janjallashib-tortishadi, murosani bilmaydi. Kuz kunlarining birida bolalar ko'l bo'yida yig'ilishdi. Ular ko'llar va dengizlar haqida gaplashib, dengizlar ko'llarga nisbatan sovuqroq va chuqurroq bo'lishi haqida tortishib qolishdi. Ammo Zokir o'z odatiga ko'ra bolalar fikriga qarshi borib, o'zining gapini ma'qullardi.

Ammo bu gal do'stlari odatini yaxshi bilishgani uchun uning fikriga qo'shilishmadi. Shundan keyin ular o'ynab mayda toshchalarni ko'lga ota boshlashdi. Bu mayda toshchalar suv sathida cho'kmasdan turardi. Shu kuni Foruq boshqalarga qaraganda ko'proq xursand edi. Foruq otgan toshlar suv sathida cho'kmasdan turganini ko'rgan Zokir hasad qilib undan so'radi: "Qo'lingdagi toshlarni ko'rsam maylimi?". Foruq kaftini ochganda Zokir uning kaftidagi toshlarni birma-bir ko'zdan kechira boshladi. Aslida esa bu toshlar boshqa toshlardan farq qilmasdi. Ammo urush-janjalni yaxshi ko'ruvchi Zokir unga dedi: "Ko'rib turibmanki, sen eng kichik va eng engil, qog'ozdek yupqa toshlarni yig'ibsan. Bunaqa toshlari bor kishi yutib chiqishi kerak".

Foruq fe'li keng bola edi. Shuning uchun Zokirga qarab dedi: "Gapingga qo'shilaman, kel, bo'lmasa toshlarimizni almashtiramiz, bu toshlarni sen olgin-da, qo'lingdagilarni menga ber".

Lekin bu bilan hech narsa o'zgarmadi. Shunda avtohalokatga uchrab, cho'loq bo'lib qolgan Haydar degan bola Zokirga yaqin borib, unga odob bilan dedi: "Aziz do'stim, bugun o'yinda yutib chiqa olmaganing uchun kayfiyating yaxshi emas".

Yutqazgani alam qilib, Zokirning rosa jahli chiqdi va unga qarab baqirdi: "Biz nima qilayotganimizni tushunmaysan, sen cho'loq!" Zokirning Haydarga aytgan gapi boshqa bolalarga ta'sir qilib: "Nega bunday deysan? Uning ko'nglini og'ritding", deb Zokirga tanbeh berishdi. Zokir qilgan ishidan pushaymon bo'ldi...

## Ovqatlanish odobi

**E**y farzand, ovqat eyishning ham bir qancha odoblari bo'lib, har bir bola ularga amal qilishi kerak. Shunday qilsa, sog'ligi yaxshilanib, tana baquvvat bo'ladi. Ovqatlanish odoblariga rioya qilgan bolaning aqli va zehni o'tkirlashib, har xil kasallik va og'riqlardan salomat bo'ladi. Bolaning qay darajada tarbiyali ekani uning dasturxon atrofida o'zini qanday tutishidan ham ko'rinib turadi.

## Ovqatlanishdan oldin

**Q**achon ovqatlanish kerak? Hamma yaxshi biladiki, qachon qorin ochsa, ovqat eyishga ishtaha paydo bo'ladi. Ammo ba'zi bolalar ovqatni ko'rib qolsa, odob va rioyani ham unutib darhol ovqatga tashlanadi. Bu ovqatlanish odobi va tartibiga ziddir. Shuni unutmaslik kerakki, faqat qorin ochgan vaqtda ovqatlanish tanaga foyda keltiradi. To'q qoringa ustma-ust ovqat eyish sog'liqqa zarar etkazadi. Qorin ochgan paytda eyilgan ovqat badanga yaxshi hazm bo'ladi va uni zo'riqtirmaydi. Sho-fe'iyning: «O'n yildan beri to'yib ovqat emadim. Chunki to'yib eyish badanni og'irlashtiradi, fatonatni ketkizadi, uyquni keltiradi va sohibini ibodatdan qoldiradi», degan so'ziga e'tibor bering. U zot taom etarli bo'la turib, nafsini to'yib ovqatlanishdan tiyganligi bejiz emas. Ko'p ovqat eyish badnafslilikni keltirib chiqaradi, sabr-qanoatli bo'lishdan uzoqlashtiradi.

## Ovqatlanishga tayyorgarlik

**O**vqat payti bo'ldi, deylik. Demak, o'z-o'zidan ovqatlanishga ishtahamiz ochiladi. Ayrim beodob bolalar daragini eshitgan zahoti ovqat eyishdan oldin bajarish lozim bo'lgan odoblarni unutadi. Ovqat eyishdan oldin qo'lni kir bo'lsa-bo'lmasa, darhol yuvib olish kerak va shunga doimo odatlanish lozim. Dasturxon va sochiqlar ham ozoda, ovqat suziladigan idishlar ham yuvilgan bo'lishi kerak. Siniq, darz

ketgan yoki cheti uchgan piyola yoki kosalarda ovqatlanish mutlaqo mumkin emas. Dasturxon solishda ko'proq qiz bolalar kattalarga qarashib, dasturxonda qaysi narsa qaerda turishini yoshligidan bilib borishi kerak. O'g'il bolalar ham dasturxon yozish va ovqat keltirishda onasi va opa-singillariga yordam bersa, foydadan xoli emas.

### **Yoshi katta birinchi boshlaydi**

**D**asturxonga ovqat keltirilganida atrofida o'tirganlar bir-birini ovqatlanishga undashi kerak. Hamma o'zicha qo'l uzatib eyverishi odobdan emas. Agar yoshi katta kishi yoki mehmon o'tirgan bo'lsa, uning dasturxonga qo'l uzatishini kutib turiladi. Ovqatga qo'l uzatishdan oldin Alloh taolodan eyiladigan taomni foydali va barakatli qilishini so'raymiz. Ovqatga qo'l uzatilganda "bismilloh"ni to'liq aytib, ovqat eyishni boshlashni kattalar yoshi kichiklarga o'rgatib borishi kerak. Chunki keksa ota-bobolarimiz aytishlaricha agar bismillah, deb aytilmasa, bu taomga shayton sherik bo'lib, uning barakasini ketkizar ekan. Qolaversa, ovqatga yomon sherik qo'shilgandan keyin uning barakasi ham ketadi.

Demak, ovqat eyish oldidan bajarish lozim bo'lgan amallar mana bulardir:

1. Qo'llar toza bo'lishi;
2. Odob bilan o'tirish;
3. Yonidagilarni taklif qilish;
4. Taom duosini o'qish;
5. "Bismilloh"ni aytishni unutmaslik.

### **Ovqatlanish paytida**

**O**vqat eyish paytimizda mana bu odoblarga amal qilamiz:

1. O'ng qo'l bilan eyish;
2. O'z oldidan eyish;
3. Luqmani kichikroq olish;
4. Yaxshi so'zlardan gapirish.

Bu sanalgan amallarning har biri haqida ustozlar istagancha gapirib berishlari mumkin. Ovqatdan haddan oshiq to'yib ketmasdan oldin qo'lni tortgan ma'qul.

### **Ovqatlanish paytidagi yoqimsiz ishlar**

**O**vqatlanish paytida yoqimsiz sanalgan ishlarni qilish birga ovqatlanib o'tirganlarga xush kelmaydi. Ularning ishtahasini bo'g'ib qo'yadi. Ovqatdan ham baraka ko'tariladi. Ovqatlanish odobiga to'g'ri kelmaydigan makruh (yoqimsiz) ishlar uch turga bo'linadi:

1) Ovqat eyishdagi makruh ishlar:

1. Chap qo'lda ovqatlanish;
2. Og'zidagini yutmasdan ovqatga qo'l cho'zish;
3. Tik turib yoki yurib ovqatlanish;
4. Yonboshlab yoki oyoqni uzatib ovqatlanish;
5. Og'zida ovqat bilan gapirish;
6. Chapillatib eyish, xo'rillatib ichish;
7. Shoshib ovqat eyish;
8. Imillab ovqat eyish;
9. Ovqatga puflash;
10. To'ygandan so'ng ham eyaverish.

2) O'zini tutishdagi makruh ishlar:

1. Ovqatni ayblash;
2. Yoqimsiz so'zlarni gapirish;
3. Dasturxonga qarab yo'talish, aksirish;
4. Burun, tish yoki quloq kavlash;
5. Biror a'zosini qashlash.

3) Boshqalar bilan ovqatlanishdagi makruhlr:

1. Ovqatga chaqirganda tez kelmaslik;
2. Kattalardan oldin ovqatni boshlash;
3. Birovning og'ziga yoki ovqatiga qarash;
4. Taomning yaxshisini o'ziga olish;
5. Birovning oldidagini olib eyish;
6. Hammadan oldin qo'lni tortib olish;

7. Odamlar eb bo'lgandan so'ng ham eyaverish;
8. Boshqalardan tez va ko'p eyish;
9. Hammadan ko'p gapirish;
10. Sukut saqlab o'tirish.

Bulardan tashqari, qoshiq va idishlarni qattiq taqirlatish, to'kib-sochib ovqatlanish ham durust emas. Singan va darz ketgan idishda ovqat eyish sog'liq uchun zararli.

### **Ovqatlangandan so'ng bajariladigan ishlar**

**O**vqatlanib bo'lgandan so'ng mana bu ishlarni qilamiz:  
 1. Tarelkani (yoki kosani) non yoki barmoq bilan yalash;

2. Dasturxonga to'kilgan ushoq yoki ovqatlarni terib eyish;
3. Barmoqdagi ovqat qoldiqlarini yalash;
4. Taomdan keyin aytiladigan duoni o'qish;
5. Ovqat tayyorlaganga rahmat aytish;
6. Dasturxonni yig'ishtirish;
7. Idish-tovoqlarni yuvish;
8. Qo'l va og'izlarni yuvish.

### **Ovqatlanishning umumiy odoblari**

**A**ziz bolalar, quyidagilar ovqatlanishning umumiy odoblariga kiradi:

1. Eyiladigan taom halol yo'l bilan topilgan, yaxshi va toza bo'lishi kerak.
2. Faqat ruxsat etilgan narsalarni eb-ichish, sog'liq uchun zararli eguliklardan saqlanish.
3. Taomni etkazgani uchun Allohga shukronalar aytish.
4. Taom eyishdan oldin qo'llarni yuvish va og'izni chayish.
5. Taomni o'ng qo'li bilan eyish.
6. O'rtadagi idishdan ovqatlanayotganda o'z oldidan olib eyish, boshqalar oldidagi narsalarga qaramaslik va hojatidan oshig'ini emaslik.
7. Dasturxon atrofida toza va pokiza kiyimda o'tirish.

8. Luqmani kichikroq olish, katta luqma olish va yaxshi chaynamay yutish o'ta odobsizlik va sog'liq uchun zarardir.

9. Ovqat yaxshi hazm bo'lishi uchun uni yaxshilab chaynash. Har xil ovozlarni chiqarib, pishillab chaynamaslik.

10. Og'izni ovqat bilan to'ldirib olmaslik va og'izda ovqat bor paytda gapirmaslik.

11. Boshqa bir kishining eyayotgan taomiga va olgan luqmasiga qaramaslik.

12. Og'ziga solingan ovqatdan suyak va boshqa narsalar chiqsa, og'izdan olib dasturxoniga qo'yimaslik. O'zgaralar e'tiborini qaratmaslik uchun shunday qilinadi.

13. O'zgaralar ishtahasini buzadigan va dilini siyoh qiladigan harakatdan nihoyatda ehtiyot bo'lish.

14. Odamlar ovqat eyayotganida tishni kavlamaslik. Tishdan chiqqan narsalarni odamlar nazari tushmaydigan joyga tashlash.

15. Ovqat eyish vaqtida iloji boricha suv ichmaslik, agar ichmoqchi bo'linsa, piyola yoki idish yog' bo'lmasligi uchun oldin qo'lni yaxshilab artish kerak.

16. Nonni erga tashlamaslik, non ustiga tovoq va boshqa idishlarni qo'yimaslik.

17. Bir xil ovqat bilan kifoyalinish va oshqozon to'lib ketgungacha ovqat emaslik. Agar shunday qilinsa, ovqat hazm bo'lishi og'irlashib, kasallik keltirib chiqarishi mumkin.

18. Agar aksirmoqchi yoki og'izdan bir narsani chiqarmoqchi bo'lsa, yuzni dasturxondan boshqa tomonga burish va og'izni berkitish.

19. Ovqat idishini yaxshilab tozalab qo'yish, taomni oxirigacha eb, kosa va lagandagi yog'larni non bilan artib olish. Mana shunda baraka va fayz yog'iladi, isrofdan saqlaniladi.

20. Qo'ldagi yog'ni avval yalab, keyin sochiqqa artiladi. Qo'l yog'ini yalamasdan yuvib tashlash yoki artish isrofdir.

21. Agar maktab oshxonasida o'tirilsa, to'polon qilmaslik va o'z nasibasidan ko'proq ovqat eyishga urinmaslik.

22. Agar oshxona xizmatchisidan piyola, qoshiq va salfetka

(qo‘l sochiq) kabi biron narsa so‘ramoqchi bo‘lsa, muloyimlik bilan so‘rash.

23. Ovqat eb bo‘linganidan keyin qo‘llar va og‘izni yuvish, tishlar tozaligiga e‘tibor berish (ayniqsa, kechki ovqat iste‘molidan keyin qo‘l va og‘izni yaxshilab yuvib, tishlarni tozalab keyin uyquga yotish kerak. Qo‘l va og‘izda yog‘ va shira kabi narsalar qoldig‘i qolib ketsa, sog‘liqqa zarar bo‘ladi).

24. Qo‘lni yuvayotganda qo‘l va tishlar orasini tozalashga alohida e‘tibor berish.

25. Taomni eb bo‘lganidan keyin “Alhamdulillah” (“bizni edirib-ichirgan va musulmon qilib yaratgan Allohga shukur”), deb bergan ne‘matlari uchun Allohga hamd aytib, “rahmat, ovqat shirin bo‘libdi”, deb ovqat tayyorlaganlarga minnatdorlik bildirish.

26. Ovqatdan hosil bo‘lgan kuch-qudratni yaxshi va savobli ishlarga sarflash.

### ***Saqlanish kerak bo‘lgan narsalar:***

1. *Qorin to‘yganidan keyin ham o‘zini zo‘rlab ovqat eyish.*
2. *Ovqatni isrof qilish.*
3. *Mehmondorchilikka chaqirilmasa ham borish.*
4. *O‘zgalarning nasibasini eyish.*
5. *Kasallik va boshqa zarar keltiruvchi narsalarni eyish.*
6. *Nima eyayotgani va ichayotganiga e‘tibor bermaslik.*

### ***Taom eyishdagi odobsizliklar:***

1. *Ovqatni chap qo‘li bilan eyish.*
2. *Ovqatni hidlab ko‘rish.*
3. *Nonni yumshoq yo qattiqligini bilish uchun ushlash.*
4. *Ovqatni shoshilib, yaxshi chaynamasdan yutish.*
5. *Ovqatni o‘ta issiq holida eyish (shu sabab nonushta va tushlikni maktabga ketishdan oldinroq qilib olish kerak. Maktabga ketishga 5-10 daqiqa qolganida shoshilib ovqatlanish o‘quvchilarning kun tartibi buzilishi va sog‘lig‘i yomonlashishiga sabab bo‘ladi).*

## Hikoya

**B**ir o'quvchi kasal bo'lib qoldi va uning kasali og'irlashdi. Doktor kelib kasalini tekshirib ko'rgach, ovqat va holvani haddan ziyod ko'p eb qo'ygani uchun oshqozoni ishdan chiqib, sog'ligi yomonlashganini aniqladi. Tasodifan doktor shu o'quvchining qo'lida pul to'la hamyon borligini ko'rib qolib unga dedi:

– Agar senga yana shuncha miqdorda pul bersam, shu hamyonga sig'dira olasanmi?

– Unga ichidagidan ortiq pul sig'dirish mumkin emas, – deb javob berdi o'quvchi.

– Zo'rlab sig'dir.

– U qimmatbaho hamyon. Yirtilib ketishidan qo'rqaman.

Shunda doktor dedi:

– Bilginki, ey o'g'lim! Sening oshqozoning ham shu hamyonga o'xshaydi. Agar qorningga siqqanidan oshig'ini esang, har xil kasalliklarga chalinasan.

### Foydali nasihatlar



1. Ko'p eyish oz eyishdan ham mahrum qiladi.

2. Badanning quvvati ovqat, ruhning quvvati ilmdir.

3. Qorin eyishdan zavq oladi, aql esa hikmatdan.

4. Olimlardan biri Nizomiddin shunday deydi:

“Quyidagilar yoqimsiz, xunuk va nomaqbul ishlardandir: o'zgalarni masxaralash, ko'p kulish, achchiq narsalarni ko'p eyish, mevalari pishib turgan daraxt tagiga yotish yoki uning ostiga hojat ushatish, sochni boshqa kishilar tarog'i bilan tarash, qozondan qo'l bilan ovqat eyish, jamoat oldida tupurish, sichqon egan narsani eyish, bozorda ko'pchilik nazari tushib turgan joyda ovqat eyish, qabristonda o'tirib ovqatlanish va u erda qahqaha otib kulish!”

## **Bekinmashoq o'yini**

*(Ibratli hikoya)*

**Z**okir do'stlari bilan bekinmashoq o'yini o'ynayotgan edi. Bekinish uchun har tomonga tarqab ketganlarida Shokir yo'l chetidagi ulkan kashtan daraxtining orqasiga bekinmoqchi bo'ldi. Bu o'yinda biror bolaning uni topib olishi qiyin edi.

Shu paytda oppoq soqolli musofir kishi shaharga kelib, Shokir bekinib turgan kashtan daraxtiga yaqinlashib qoldi va unga dedi: "O'g'lim, sendan bir manzil haqida so'ramoqchi edim". Shokir biroz shoshilib qoldi va undan jim bo'lishini so'rab qo'llari bilan ishora qildi.

Haligi kishi Shokir nima uchun jim bo'lishini talab qilayotganiga tushunmadi va unga ajablanib qarab dedi: "Sendan bir narsa haqida so'ragandim. Agar bilsang xabarini ber, bilmasang o'zing jim bo'l!" So'ngra taajjublanib dedi: "Shahar bolalari sog'-salomat ekan-ku, ammo ularning ahvoli kulgili va qiziq!"

O'yindagi bolalar anavi erda bir keksa yoshli kishi daraxt ortiga bekingan o'rtog'i bilan gaplashib turganini ko'rgach, o'sha bola Shokir ekanini bilishdi. Oyoq uchida yurib sekin-asta o'sha daraxtga yaqinlashishdi.

Ulardan qattiq norozi bo'lgan qariya kelgan tomoniga qaytib keta boshladi. Shunda Shokir qattiq xijolat bo'lib o'yinini tashladi, bekingan joyidan chiqdi. Nuroniy qariyaning ortidan yugurdi va undan kechirim so'radi. Keyin qariyani ketayotgan manziliga olib borib qo'ydi.

## **Bolalar uchun nonushtaning foydasi**

*(Tibbiy maslahat)*

**B**olalarning nonushtasi har kunlik harakatla-ri va o'qishni qay darajada o'zlashtirishlariga ta'sir qiladi. Kunni yaxshi nonushta bilan boshlagan bolalarning maktabda yaxshi o'qishlari va tanlovsiz iste'molga xohish bildirmasliklari ma'lum bo'lgan.

Nonushtada toza mevaning sharbati yoki sut, pishloq, tuxum, kepagi olinmagan unli non iste'mol qilish juda foydali.

Nonushta qilmagan o'quvchilarning fikrini jamlashda qiynalishlari, behuzur bo'lishlari va qondagi qand miqdori pasayib, yanada tez charchashlari kuzatilgan. Uyqu ham etarli bo'lmasa, stress (tushkunlik, ruhiy bosim) garmonlari ortadi va keragidan ziyod kaloriya iste'moliga zamin hozirlaydi.

Tadqiqotlar nonushtaning imtihon baholariga ham ta'sir ko'rsatishini tasdiqladi. Nonushta qilish odatini davom ettirish bolalikdagi depressiya va giperaktivlik borasida ham himoyalovchi ta'sirga egadir. Nonushta bilan kunni boshlagan bolalarning diqqat va zehni o'tkir bo'ladi.

## Halol rizq va halol mehnat

**B**olalar shuni zinhor unutmang, halol rizq egan odamning tani sog'lom, qilgan ishlari to'g'ri bo'ladi. Harom rizq egan odamning qilgan ishi unumsiz bo'ladi. Uning duosi ham, ibodati ham qabul bo'lmaydi.

Halol rizq sog'liq uchun foydali. Harom ovqat va ichimlik inson tanasiga zarar etkazadi va jamiyatni buzadi. Taom va ichimlik halol bo'lishi uchun nimalarga e'tibor berish lozim? Taom halol bo'lishi uchun unda uchta shart bo'lishi kerak:

1. Halol yo'l bilan pul topish.
2. Halol hayvon yoki zararsiz o'simlikdan ovqat tayyorlash;
3. Hayvonni shar'iy yo'l bilan so'yish.

Halol rizq topish uchun, avvalo halol mehnat qilish lozim. O'g'irlik, poraxo'rlik, qimorbozlik kabi yo'llar bilan pul topish harom. Bunday pulga oziq-ovqat sotib olgan odam harom ovqat egan bo'ladi.

Ma'lumki, ovqat go'sht va o'simliklardan tayyorlanadi. Uy hayvonlaridan tuya, mol, qo'y, echki va otning go'shti halol. Yovvoyi holda yashaydigan ba'zi hayvonlar ham halol. Bularga kiyik, bug'u, tog' echkisi, yovvoyi mol kiradi. Yovvoyi holda kun kechiradigan hayvonlarning go'shti haromdir. Iflos narsalarni

eydigan jonivorlar ham harom sanaladi. Suv hayvonlaridan baliqlarning hamma turi halol. O'simlik va donlar ham halol sanaladi. Ammo qaysi o'simlik zararli bo'lsa, o'shani iste'mol qilish harom bo'ladi. Masalan, aqlga zarar etkazadigan nasha harom. Mast qiladigan ichimliklar ichish harom. Shar'iy yo'l bilan so'yilmagan hayvon go'shtini ham eb bo'lmaydi.

### *Bolalar lug'ati*



**Halol** – ruxsat etilgan, qonuniy, to'g'ri, pok (shariat tomonidan ruxsat etilgan ish va so'z).

**Harom** – man qilingan, noqonuniy (shariat tomonidan man qilingan ish va so'z).

**Rizq** – nasiba, ulush, ne'mat (taom va ichimliklar ham, iste'dod va qobiliyat kabilar ham insonga berilgan rizqdir).

### **Harom luqma**

**A**bu Zafar Mag'ribiy bir asarida Muhosibiy yoshligidan zukko va hozirjavobligi bilan tanilganini shunday hikoya qiladi: «Horis Muhosibiy yoshligida xurmo sotuvchi bir kishining eshigi oldida o'ynayotgan bolalar oldidan o'tib qoldi. U bolalar o'yinini biroz tomosha qilib turdi. Bir vaqt hovli egasi qo'lida bir qancha xurmo bilan uyidan chiqib, manavi xurmoldardan egin, deya Horisga xurmolarni uzata turib, hozirgina bir kishiga xurmo sotganida undan tushib qolganini aytdi. Horis uni taniysizmi, dedi. U taniyman, dedi. Horis boshqa bir so'z demasdan uyiga yo'l oldi. Xurmofurush uning orqasidan chopib borib, elkasidan tutib shunday dedi: «Allohga qasamki, menga ichingdagini aytmaguningcha, qo'yib yubormayman». Horis unga: «Ey shayx, agar musulmon bo'lsangiz, qattiq chanqagan vaqtda suvni izlagandek hisobidan qutulish uchun xurmo egasini izlang. Musulmon bolalariga harom luqmani edirasizmi?», dedi. Shayx: «Allohga qasamki, shundan keyin savdo qilganda juda ehtiyot bo'lib ish tutdim», dedi.

## Qulining qulidan narsa so‘ramagan odam

*(Ibratli hikoya)*

Bir boy puli ko‘pligi uchun maqtanib, olim odamga shunday debdi:

– Sizga qancha pulu oltin kerak bo‘lsa, mana mendan so‘rang!  
– Yo‘q, – debdi olim. – Men qulimning qulidan narsa so‘ramayman!

– Ie, qanaqasiga sizga qul bo‘lay? – darg‘azab bo‘libdi boy. Olim javob beribdi:

– Nafs mening qulim, sen esa nafsning qulisan!..

### *Foydali nasihatlar*



1. O‘zi poku ko‘zi pokni inson desa bo‘ladi.
2. Halol pokiza kishi doim xotirjamu tinchlikdadir. Birovga xiyonat qiladigan kishi esa halokatga giriftordir.
3. Halollik-poklik zehn va idrokni keng va o‘tkir qiladi. Xalq orasida e‘tiboru shuhratga sabab bo‘ladi.
4. Harom oz bo‘lsa ham zarari ko‘pdir.

---

---

## KIYINISH ODOBI

### Nima uchun kiyim kiyiladi?

**B**olalar, nima uchun kiyim kiyiladi, bilasizlarmi? Kiyim kiyishdan uch narsani maqsad qilinadi:

1. Uyat a'zolari bekitish;
2. Issiq va sovuqdan saqlanish;
3. Odamlarga chiroyli ko'rinish.

Inson har kuni uyqudan ko'zini ochib, Yaratganga shukr qiladi. Shundan so'ng eng birinchi qiladigan ish – kiyimlarni kiyish. Uyqu vaqtidagi yupqa kiyim bilan odamlarga ko'rinish odobdan emas. Yana bizdan sog'ligimizni saqlash ham talab qilinadi. Shuning uchun biz issiqqa va sovuqqa moslab kiyinamiz.

Chiroyli va ozoda kiyinish ham maqtalgan sifatlardandir. Kiyimning sodda bo'lishi ham yaxshi fazilat.

### Kiyim kiyish va echish odoblari

1) Kiyinish paytidagi odoblar.

1. Kiyim kiyishda “bismilloh”, deb aytish;
2. O'ng tomondan boshlab kiyish;
3. Kiyimni shoshilmasdan kiyish. Agar shoshilsang, kiyimni teskari kiyishing yoki tugmalarini uzib yuborishing, yangi libosingni tez eskirtib qo'yishing mumkin. Shu sabab libosni avaylab kiyish kerak.

2) Kiyim echishdagi odoblar.

Kiyim echayotganda ham “bismilloh” deyiladi va chap tomondan boshlab echiladi. Echilgan kiyimlar chiroyli qilib taxlab qo'yiladi. Kiyim qo'yiladigan joy odamning ko'zi tushmaydigan, masalan, shkaf ichida bo'lgani afzal. Shunda kiyimlar toza saqlanib,

ularga chang yuqmaydi. O'g'il bolalarning ba'zi kiyimlari (ko'ylak, kostyum, ustki kiyimlar) vaqtinchaga ko'z tushadigan erda turishi mumkin. Ammo shim, shalvor va ichki kiyimlarni ko'z tushmaydigan erga qo'yish kerak. Qizlarning kiyimlari odamlarning ko'zi tushmaydigan pana joyda turadi. O'g'il bolalarning kiyimiga aralashmaydi.

Odotsiz bolaning kiyim echishini ko'rganmisiz? U ko'chadan kelsa, kiyimlarini echib, duch kelgan erga uloqtiradi. Ertasiga maktabga ketayotganda kiyimlarini topa olmaydi. Chunki echgan joyini esidan chiqarib qo'ygan bo'ladi. Ba'zida u ichdan kiyadigan yupqa kiyim bilan ko'chaga chiqib, hammaga kulgi bo'ladi...

## Kiyim turlari

1) O'g'il bolalar kiyimi. O'g'il bolalarning kiyimlari paxta, jun yoki kanopdan tayyorlanadi. Ularning rangi har xil bo'lishi mumkin. Ammo oq rangli kiyimlar maqtalgan. Chunki oq rang toza va yoqimli bo'ladi. Ozgina kir bo'lsa ham tezda bilinadi va tez yuviladi. Yana yashil rangli kiyim ham yaxshidir.

Ko'ylak. Ko'ylak o'g'il bolalar uchun eng yaxshi kiyimlardan biridir.

Erkaklar ko'ylagining turlari ko'p. Har bir millatning o'ziga xos ko'ylaklari bo'ladi. Ba'zilari uzun, ba'zilari qisqaroq.

Shim, shalvar. Tikilishi oddiy shimlar o'g'il bolalar uchun yaxshi shimlardir. Shim va shalvarlarning pochasi to'piqqacha tushib turadi.

Shortik. Shortik – yozda kiyiladigan kalta shalvar. Shortikning pochasi tizzani yopib turadigan bo'lishi kerak. O'g'il bolalar cho'milganda ham shortikka o'xshagan ishton kiyadilar.

2) Ayol-qizlar kiyimi. Qizlar va ayollarning kiyimi kanop, paxta, jundan tashqari ipakdan ham tikiladi. Ranglari ham har xil va rang-barang bo'ladi.

Ro'mol. Ro'mol qizlar va ayollar eng yaxshi ko'radigan kiyim bo'lib, uning katta-kichikligi har xil bo'ladi. Xotin-qizlar uyda kichik-roq ro'mol o'rashadi. Kichkina ro'mol bilan ko'chaga chiqishmaydi.

Ko‘ylak va lozim. Qizlarning ko‘ylagi keng va uzun bo‘ladi. Uzunligi to‘piqqacha tushib turadigan ko‘ylak – yaxshi ko‘ylak. Lozim ham uzun va keng bo‘lishi kerak.

## **Kiyish mumkin bo‘lmagan kiyimlar**

1) O‘g‘il bolalar uchun. O‘g‘il bolalarning ko‘ylagi qizlarnikiga o‘xshagan gulli yoki yaltiroq bo‘lmaydi. Ipak kiyimlar kiyish ham mumkin emas. O‘g‘il bolalarga qip-qizil, sap-sariq, olovrang yoki pushti rangli kiyimlar yarashmaydi.

O‘g‘il bolalar tor shimlarni kiymaydilar. Ba‘zi shimlar odamning orqasini aniq bildirib turadi. Bularni kiyish mumkin emas. Shimning pochasi haddan tashqari uzun bo‘lmasligi kerak. To‘piqdan tushib ketadigan shimni maqtalmaydi.

Shortiklarning uzunligi, agar tizzadan tepada bo‘lsa, odobli bolalarga to‘g‘ri kelmaydi. O‘g‘il bolalar qizlarnikiga o‘xshagan kiyimlarni kiymaydilar. Kiyimlari va badanlariga har xil bema‘ni narsalarni osib yurmaydilar. Tilla soat taqmaydilar. Tilla taqinchoqlar qizlarga yarashadi.

2) Qiz bolalar uchun. Beli tor, ko‘kragi ochiq, engi kalta ko‘ylak qizlarga to‘g‘ri kelmaydi. Qiz bola shim yoki shortik kiymaydi. Chunki bular erkaklar kiyimidir. Qizlar o‘g‘il bolaga o‘xshatib qo‘yadigan kiyimlarni kiyish mumkin emas.

Odobli qizlar begona odamlar oldida taqinchoqlarini ko‘rsatib yurmaydilar.

3) Hamma uchun. Qizlar va o‘g‘il bolalarning kiyimlari badanga yopishib turadigan tor bo‘lishi to‘g‘ri emas. Tor kiyim axloqqa xilof sanaladi va sog‘liqqa ziyon keltiradi. Tanada qon aylanishiga xalaqit beradi. Tanani ko‘rsatib turadigan yupqa kiyim kiyish ham yomon. Yupqa kiyimlar inson avratini yashira olmaydi. Xulqqa salbiy ta‘sir ko‘rsatadi.

Aqlli bolalarga bachkana kiyimlarni kiyishdan saqlanish tavsiya qilinadi. Masalan, jonli narsalarning surati solingan va yomon so‘zlar yozilgan kiyimlar odobli bolalar kiyimi emas. Odobli bola bizning diniy va milliy qadriyatlarimizga begona, o‘zga dindagilarga xos bo‘lgan kiyimlarni kiymaydi.

Demak, aziz bolalar, kiyish mumkin bo'lmagan kiyimlar quyidagilardir:

1. Badanga yopishib turadigan tor kiyim;
2. Terini ko'rsatib turadigan yupqa kiyim;
3. Jonli narsalarning rasmi solingan kiyim;
4. Yomon so'zlar yozilgan kiyim;
5. Hammani o'ziga qaratadigan g'ayri oddiy kiyim;
6. Boshqa din va millatning ramzi tushirilgan kiyim;
7. Harom yo'l, masalan, o'g'irlik bilan topilgan kiyim;
8. Qiz bolani o'g'il bolaga o'xshatib qo'yadigan kiyim;
9. O'g'il bolani qizlarga o'xshatib qo'yadigan kiyim;
10. O'g'il bolalar uchun ipak kiyim.

## **Kiyimlarni toza saqlash**

### **Toza kiyim – pokiza tabiat**

**A**ziz bolajonlar, siz egningizdagi kiyimni doim toza tutishga harakat qiling. Shunda sizni ko'rgan odam: "Bu bolaning tabiati pokiza, xulqi yaxshi ekan", deb o'ylaydi. Kiyim hashamli bo'lishi shart emas, ammo toza bo'lishi zarur.

Kir-chir kiyimda yurgan bolani ko'rgan odam nima deyishi mumkin? "E, bu bolaning ko'ngli ham toza bo'lmasa kerak", deydi. So'ng undan uzoq bo'lishni istab qoladi. Chunki kiyimga ahamiyat bermaslik inson tabiatining toza emasligini ko'rsatadi. Aqlli bola tez-tez yuvilib, har doim ozoda bo'lib yuradi. Uning badani toza bo'lgandan keyin kiyimlarning ham tozasini kiyadi.

Agar badan toza bo'lsa-yu kiyimlar kir bo'lsa, nima bo'ladi? Kiyimdagi kirlar badanga o'tadi. Shundan keyin yuvinishning ham foydasi qolmaydi.

Kiyimlar tez-tez yuvilishi va dazmollanishi kerak. Kattaroq bolalar kiyimlarini o'zlari yuvishga o'rganadilar. Kichkina bolalar esa kiyimlarini onalari yoki opalariga yuvdirib oladilar.

## Ustki kiyimlar

**P**alto, kurtka, chapon, kostyum yoki shimga o'xshash kiyimlar ustki kiyimlardir. Ularni ehtiyot qilib kiyish lozim. Ko'chada yurganda kiyimni nopok narsalar tegishdan saqlash kerak. Ko'chadan kelganda uyga kirishdan avval ustki kiyimlarga bir qarab olish kerak. Agar chang o'tirgan bo'lsa, qoqib tozalanadi. Agar qish fasli bo'lsa, kiyimga yopishib qolgan qorlar tushirib yuboriladi. Shundan keyin uyga kiriladi. Uyga kirgach, qalinroq kiyimlarni eshik oldida echiladi, so'ng o'z o'rniga qo'yiladi. Duch kelgan tomonga uloqtirilmaydi. Shunda ular toza saqlanadi. Ba'zi bolalar ko'chada toza kiyim bilan iflos joyga o'tirib oladilar. Hech ikkilanmay erga dumalaydilar. Bunaqada kiyim kir bo'lib ketadi va tez yirtiladi.

## Ko'ylak va ichki kiyimlar

**K**o'ylak uyda ham, ko'chada ham kiyib yuriladigan doimiy libos. Shuning uchun u tez kir bo'ladi. Ko'ylakning eng ko'p kir bo'ladigan qismi yoqasi va engi. Demak, ko'ylakning yoqa va engini tez-tez tekshirib turish kerak. Agar kirlangan bo'lsa, yuvdirish va dazmollatish lozim.

Bolalar ovqat eyotganda ehtiyot bo'lsinlar. Ba'zi bolalar ovqatni xuddi birov eb qo'yadigandek shoshib eganlaridan ko'ylaklariga to'kib, oqizib yuboradilar. Yana ba'zi bolalar beadabligi bois ovqatni eb, qo'lini kiyimiga artadilar. Bunaqada kiyim dog' bo'lib qoladi, uni yuvsam ham ketmaydi.

Ichki kiyimlar. Ichki kiyimlar (mayka, ichki ishton) odamning badaniga bevosita tegib turadi. Shuning uchun ularning toza bo'lishi juda muhim. Ichki kiyim boshqalarga ko'rinmaydi. Har bir bola o'zining ichki kiyimlarini tekshirib turishi kerak. Sal kirlangan bo'lsa, almashtirish lozim.

Bolalar hojat ushatganda ehtiyot bo'lishlari zarur. Chunki bu paytda kiyimga najosat (siydik, axlat) tegsa, albatta yuvish shart. Nopok kiyimda yurish kishi sog'lig'iga zarardir. Agar ichki kiyimga e'tibor berilmasa, u hidlanib, biron-bir kasallikni yuzaga keltiradi.

## Oyoq qiyimlari

**T**ufli, etik, shippak, sandal kabi oyoq kiyimlari ko'chada va hovlida har xil erlarni bosib yuradi. Ularga chang, loy yoki najosat ilashib qolishi mumkin. Odobli bola yo'lda yurganda nopok erlarni bosmaydi. Mabodo oyog'iga biror iflos narsa tegib ketsa, darrov tozalaydi. Ko'chadan qaytganda uyga kirishdan oldin oyoq kiyimlariga bir qarab oladi. Agar iflos narsa tekkaniga ko'zi tushsa, oyog'ini erga ishqalab tozalaydi. Yoki biror cho'p bilan najosatni ketkazadi. Odobsiz bola loy, kir oyoq kiyimi bilan uyiga kirib ketaveradi va uyni iflos qilib qo'yadi.

Paypoq. Paypoq doimo poyabzal ichida va echib qo'yilganda gilamga o'xshash narsalar ustida bo'ladi. Shuning uchun u tez kirlanadi. Bundan tashqari ba'zan oyoq paypoq ichida terlaydi. Oyoqdan chiqqan ter va hid paypoqqa o'tadi va keyin undan atrofga badbo'y hid tarqala boshlaydi. Shuning uchun oyoqni ham, paypoqni ham tez-tez yuvib turish kerak.

## Dastro'mol

**U**ydan tashqarida bo'lganda ba'zida qo'lni yoki og'iz-burunni yuvishga to'g'ri kelib qoladi. O'sha paytda yuvilgan a'zolari artish uchun dastro'mol yoki bir martalik salfetka ishlatiladi. Dastro'mol cho'ntakda olib yuriladigan narsa. U yuvilgan va taxlangan holatda bo'lishi kerak. Aytaylik, siz avtobusda ketayapsiz, yoki ko'pchilik bilan gaplashib o'tiribsiz. Kutilmaganda aksirib qoldingiz. Nima qilasiz?

– Bunaqa paytda burunni dastro'mol yoki salfetka bilan to'siladi, keyin unga artiladi. Ba'zi joylarda aksirganda va yo'talganda og'iz va burunni eng bilan to'sish odati bor. Ba'zi bolalar dastro'mol tutishni esdan chiqarib qo'yishgan. Dastro'molni ko'rmaganlariga ancha bo'lib ketgan. Bir martalik qog'ozni ham bilishmaydi. Bu yaxshi emas. Odobli bola har safar ko'chaga chiqib ketishdan avval dastro'molni bir tekshiradi. Yo bo'lmasa cho'ntagiga bir marta ishlatiladigan salfetkadan bir necha dona solib oladi.

## Ahmadning yaxshi ishi

*(Ibratli hikoya)*

**S**ovuq qish kuni. Maktabga ketayotgan Ahmad yo'lda bir kambag'al bolani uchratib qoldi. Bu nochor bolaning ustida paltosi yo'q edi. Yirtiq etigidan suv o'tib ketgani ham kunday ravshan bo'lib ko'rinib turgandi.

Ahmad uning ahvoli yaxshi emasligini sezib, o'zida unga nisbatan achinish va g'am his qildi. Oilasining ahvoli yaxshi bo'lmasada, Ahmad muxtojlariga yordam berishni kechiktirmasdi.

Ahmad bu nochor kambag'al bolaning ortidan keta boshladi. Bolaning o'zi o'qiydigan maktabga kirib ketganini ko'rganida ajablendi. Oldin maktabda bu bolani ko'rganini eslay olmadi. Unga qanday yordam berish haqida o'ylay boshladi, ammo bir tayinli fikr kelmadi. Agar unga o'zining ikki yildan beri kiyib yurgan poyafzalini bersa, o'rniga o'zi nima kiyishini bilmasdi.

Tanaffus paytida bu nochor bola bilan uchrashib unga dedi: "Men sen bilan do'stlashmoqchiman".

Bir pasda unga o'rganib qoldi. Bechora bolaning otasi bir necha yil avval vafot qilib, u onasi va ikki ukasi bilan yashar ekan. Bu tumanga yaqinda ko'chib kelishgan ekan. Ahmad yonidan bir-ikkita somsa chiqarib uni bola bilan bo'lishib edi.

Kechqurun otasiga dedi: "O'qituvchimiz bizga uy vazifasi berib, kambag'al kishilarga yordam berish yo'lini izlab topishimizni buyurdilar. Shunda otasi unga kambag'allarga yordam berish yo'llari haqida tushuntirib berdi.

Kelgusi kuni maktabga chiqqanida to'ppa-to'g'ri muhtojlarga yordam beradigan tashkilot tomon ketdi. U erda bir istarasi issiq insonga o'zining kambag'al va muxtoj do'sti haqida gapirib berdi va unga yordam berish niyatida ekanligini aytdi. Toza qalbli bu inson Ahmadning ishidan juda xursand bo'ldi. Uni maqtadi. O'rtog'ining turar joyini bilib berishini so'radi.

Shunday qilib, Ahmad bir nochor bolaga yordam berishlariga sababchi bo'ldi. Zero, savobli ishga yo'llovchi uni qiluvchi kabi savobga ega bo'ladi.

Demak, aziz bolalar, biz yaxshi ishlarni qilishga shoshilishimiz, agar bu ezgu ishlar qo‘limizdan kelmasa, uni amalga oshira oladigan kishilarga aytib, yaxshilik qilinishiga sababchi bo‘lishimiz kerak.

## Narsalarni toza tutish

### Buyumlar tozaligi

**B**olalar, har bir inson besh xil narsani toza tutishi shart ekanini bilamiz. Shularning uchinchi shaxsiy buyumlar edi. “Shaxsiy buyumlar” deganda uy ichidagi hamma narsa tushuniladi. Uydagi narsalar yo sizniki yo ota-onangizniki yoki akangiz yo ukangizniki. O‘quvchining shaxsiy buyumlariga qarab, uning qanday bola ekanini bilish mumkin. Agar uning buyumlari ozoda bo‘lsa, demak u aqlli va tarbiyali bola. Agar buyumlari kir-chir va betartib bo‘lsa, demak, u uncha ham aqlli bola emas.

Har bir bola o‘z buyumi va narsalarini toza tutish uchun zarur bo‘lgan birinchi shart – tartib. Tartib har bir narsani joy-joyiga qo‘yishdir. Narsalar har joyda sochilib yoki qalashib yotishi adabsizlikni bildiradi. Balki har bir buyum o‘ziga munosib joyda turishi lozim. Har bir narsa o‘zining sheriklari bilan birga qo‘yilishi kerak.

Buyumlarni ishlatilmagan taqdirda qarovsiz qoldirilmaydi, balki vaqti-vaqtida tozalab turiladi. Aks holda ularni chang va kir qoplaydi. Kir mikroblarni paydo bo‘ladi. Mikroblardan kasallik kelib chiqadi. Agar buyumlar toza tutilsa, egasiga ko‘p xizmat qiladi. Shu sababli pul ham tejaladi. Demak, buyumlarni toza tutishda uchta foyda bor ekan: uyning tartibli bo‘lishi, kasallikdan saqlanish va pulning tejalishi.

## Kitoblar

**K**itob inson uchun ulug‘ ne‘matdir. Kitob tufayli biz bilmaganimizni bilib olamiz va to‘g‘ri yo‘lni va odob-axloqni o‘rganamiz. Shuning uchun kitoblarni avaylashimiz va toza tutishimiz zarur. Kitobdan foydalangan bola shunchaki ermak

uchun unga yozishi, chizishi, uning varaqlarini buklashi yoki yirtishi mumkin emas. O'qigan vaqtda kitob titilib-to'zib ketishi va kir qilishi ham yomon ish. Kitoblar uyda alohida tokchada yoki shkafda turishi kerak. Kitobni o'qib bo'lgach, yana o'z joyiga qo'yib qo'yiladi. Kitoblarni va ular turadigan tokchalarni tez-tez artib, changdan tozalab turiladi.

## O'quv qurollari

1. Daftarlari. Aqli bolaning daftarlari toza bo'lishi kerak. Agar daftarga siyoh bilan xato yozib qo'ysa, nima qilish kerak? Uning ustidan bir chiziq tortiladi – bo'ldi. Aqli kamroq bola esa xatoni tirnog'i bilan o'chirishga urinadi. Bunaqada daftar xunuk bo'lib ketadi. Yozish uchun chiqarilgan daftarga rasm solinmaydi. Rasm daftari alohida bo'ladi.

2. Qalam (ruchka). Qalamni o'ynash, sindirish va og'izga solib kir qilish mumkin emas. Ayrim odobsiz bolalar qalamni nayza qilib otadi, tishlab g'ajiydi. Natijada qalam yaroqsiz holga keladi. Bu ota-onasi peshana teri bilan topgan ne'matni isrof qilishdir. Isrof qilish esa gunoh.

3. Sumka-portfellar. Kitob va daftar solinadigan sumkalar ham toza bo'lishi kerak. Sumkaga turli egulik, kiyim-bosh yoki turli o'yinchoqlar ham solinmaydi. Bu narsalarning sumkasi alohida. Ammo maktabga ketayotganda sumkaga quruq meva solish mumkin. Mevani sumkaga solishda avval kog'ozga o'raladi yoki maxsus idishga solinib, undan keyin sumkaga joylanadi.

Sumkani chang joylarga qo'yilmaydi. Ba'zi bolalar maktabdan qaytayotganda sumkasini iflos joyga tashlab, o'zlari o'yinga berilib ketadi. Yoki uyining oldiga kelganda sumkani ichkariga olib kirmasdan ko'cha eshik yonida qoldiradi. O'yinga ovunib, sumkasiga iflos bo'lish-bo'lmasligiga ahamiyat bermaydi. Bu yomon odat.

## **Sochiq, tish cho'tka va ko'rpa-yostiqlar**

1. Sochiq, tish cho'tka. Har bir bolaning sochiq va tish cho'tkasi alohida bo'ladi. Bularni hammomning ichida tayinli joyga qo'yiladi. Yaxshi bola yuz-qo'llarini va tishlarini har kuni bir necha marta yuvadi. Tish cho'tkani ishlatib bo'lib, yana yuvib qo'yish kerak. Sochiqni ham tez-tez yuvish lozim. Agar tez-tez yuvib turilmasa, u hidlanib qoladi.

2. Ko'rpa-yostiq va choyshab. Uyquga yotilganda yuz ko'rpa-yostiq va choyshablarga tegib turadi. Choyshabni va yostiq jildlarini o'z vaqtida yuvib turiladi. Agar ular toza bo'lsa, nafas olganda havo ichga toza holda kiradi. Kitob va o'yinchoqlarni ko'rpa, yostiq va choyshablar orasiga qo'yish durust emas. Kiyimlar ham ulardan alohida turishi kerak. Odobli bola uyqudan turgandan keyin ko'rpa-to'shaklarini yig'ishtirib, ularni chiroyli qilib taxlab qo'yadi.

3. Karavot, stol-stullar. Har bir bola o'zi yotadigan karavot changlarini artib turishga odatlani-shi kerak. Ko'p bolalarga uyda dars qilishlari uchun alohida stol-stullar ajratib berilgan. Yaxshi bola-lar o'z stol-stullarini artib turadi, ular ustiga har xil bo'yoqlar bilan chizmaydilar. Stolning ustini doimo tartibli tutadilar. Uning ustiga chiqib o'ynamaydilar. Dars tayyorlaydigan stolda ovqat emaydilar.

## **Texnik jihozlar va o'yinchoqlar**

1. Kompyuter, disk, magnitofon, pleyer, tele-fonlar. Ba'zi bolalarning otalari "bolam tezroq va ko'proq ilm olsin" deb qimmat turadigan zamonaviy apparatlarni olib berishadi. Bunday apparatlarni ehtiyot qilinmasa, tezda buzilib, ishdan chiqib qolishi mumkin. Shuning uchun ularni qadrlash kerak. Kompyuter kabi texnika asboblarni ishlatib bo'lgach, albatta tokdan o'chiriladi. Ertasiga yoqqanda yaxshi ishlaydi. Apparatlar ustini tez-tez artib turish kerak. Artganda spirt yoki maxsus modda ishlatiladi. Shunda ularga chang tushmaydi. Apparatda changlar yig'ilib qolsa, u buzilib qolishi mumkin.

2. O'yinchoqlar. Boshlang'ich sinfda o'qiyotgan ba'zi bolalarga ota-onasi o'yinchoq olib beradi. Shu o'yinchoqlarni uyda qo'yiladigan alohida joy bo'lishi kerak. Ba'zi bolalar o'yinchoqlarini kiyimlari ichiga tashlab qo'yadi yoki kitob-daftarlar bilan aralash-quralash qilib tashlaydi. Bunaqada o'yinchoqlar kirlanadi yoki sinadi. Kitob daftarlar ham o'yinchoq tegib titilib qoladi. O'yinchoqlarni ham tez-tez artib turish kerak. Ularni otib yuborish va sindirish durust emas. Chunki ota-onasi unga peshana teri bilan topadigan ish haqi hisobidan sotib olgan. Shuning uchun uni qadrlab, avaylab foydalanish kerak. Dars paytida o'yinchoq o'ynash noto'g'ri. Balki darsini to'liq tayyorlab bo'lgach, biroz oz o'ynab, charchog'ini ketkazish bola uchun foydalidir.

---

---

## UY VA XONALARNI OZODA SAQLASH

### Rohat va tarbiya maskani

**B**olalar har kuni maktabga borishsa, kattalar ishga yo‘l olishadi. Maktab va ishdan bo‘shagandan keyin hamma uyga qaytib keladi. Hamma o‘z uyini juda yaxshi ko‘radi. Chunki katta odam ham, kichkina bola ham boshqa erdan ko‘ra o‘z uyida o‘zini erkinroq his etadi. Uy rohat maskani. Odam o‘z uyida bo‘lganda bemalol dam oladi, uxlab, hordiq chiqaradi. Ertangi kun uchun kuch-quvvat to‘playdi. Inson o‘z uyida xordiq chiqarib, charchog‘ini unutadi. Yana aytish mumkinki, uy o‘ziga xos tarbiya maskani. Ota-onalar uyda bolalariga chiroyli tarbiya berib, ularga odob-axloqni o‘rgatadilar. Bolalar ham uyda o‘zlarini erkin his etib, dars qiladi, kitob o‘qiydi, ba‘zi hollarda uy ishlarida kattalarga qarashadi. Shunday qilib, har bir inson umrining ko‘p qismi uyda o‘tadi. Uy osoyishtaligi bebaho ne‘mat. Bunday ne‘mat qadriga etib, uni asrab-avaylash kerak. Aqlli va iymonli kishilar uyi va xonalarini toza tutib, unga kir-chirni yaqinlashtirmaydi. Chunki ozoda va sarishtali hovli-joyda baraka va rohat bo‘ladi.

### Mehmonxona

**O‘**zbek xonadonlarida eng yaxshi xonalardan birini tashrif buyuradigan mehmon uchun alohida jihozlab, bezab qo‘yiladi. Mehmonxona chiroyli va ozoda bo‘lishi lozim. Nima uchun? Buning ikkita sababi bor.

Biror mehmon kelib qolsa, uning oldida xijolat bo‘lmaysiz. Qolaversa, saranjom-sarishtali va pokiza uy mehmon ko‘nglini ko‘taradi va bemalol dam oladi. Mehmonxonaning bu tariqa

pokiza va chiroyli bo'lishi mehmon hurmati uchun qilinadi. Mehmonxonaga chiroyli gilam va palos solinadi. Zamonaviy mehmonxonalarda divan-kreslo va stol-stullar qo'yish odat tusini olgan. Yoki yumshoq ko'rpachalar to'shab qo'yiladi. Ayrim mehmonxonalarda kitob javoniga turli kitoblar terib qo'yilganini ko'ramiz. Ba'zi hollarda devorga daraxtlar va gullar, tog'lar va daryolar kabi chiroyli tasvirlar bilan bezatiladi. Ammo uyga jonli hayvon yoki jonzotlar suratini osish yoki rassomga chizdirish aslo joiz emas. Iymon-e'tiqodli kishilar o'z mehmonxonasi devoriga ko'zmunchoq, isiriq va tumor kabi bachkana narsalarni ilib qo'ymaydi. Mehmonxonada o'yinchoqlar va kiyimlar ham turmaydi. Odatda uyni sarishta tutish va jihozlashga ayollar va qizlar ko'proq e'tibor beradilar. Ular derazalarga qanday parda osishdan tortib, tuvaklarda qaysi gullarni o'stirish lozimligini yaxshi biladilar.

Ammo o'g'il bolalar hamma ishni onalari va singillariga tashlab qo'yib, bir chekkada qarab turmaydilar. Ular ham uy ishlariga qarashib yuborishlari kerak.

## **Yotoqxona va darsxona**

**O**ta-onalar maktabda o'qiydigan bolalariga uyda alohida xona ajratib, kerakli shart-sharoitni yaratib beradilar. Bunday alohida xonani yotoqxona va darsxona, deb aytiladi. Yoki bolalar xonasi, deb atalishi ham mumkin. Bu xona bir yoki bir necha bola uchun ajratiladi. Bunday xonada bola dars qiladi, o'yinchoq o'ynaydi, uxlab dam oladi. Shunday xonasi bor bolalar o'z xonalarini doimo ozoda va sarishta tutishlari kerak. Oldin aytganimizdek, xona ozoda va toza bo'lishi uchun bir shartni bajarish zarur. Bu shart tartibdir. Tartib har bir narsani o'z o'rniga qo'yishdir. Bolalarga ajratilgan bunday xonada faqat bolalarga tegishli narsalar turishi kerak. Bolalar ishlatmaydigan narsalarni bu xonadan olib chiqish lozim.

Bolalar xonasida nimalar bo'lishi kerak? Bu xonada karavot, kiyim shkafi, stol-stul va kitob javoni bo'ladi. Hozirgi vaqtda

yana o'yinchoqlar qutisi yoki kompyuter turishi mumkin. Devorga ilinadigan narsalar – dars jadvali, kalendar, soat, doska, xarita va jonsiz narsalarning surati bo'lishi ham joizdir. Javonda turadigan kitoblar, maktab darsliklari, daftarlar, kundalik daftar, ruchkalar, qalamlar, qog'ozlar hammasi tartibli ravishda taxlab qo'yiladi. Ularni tez-tez tekshirib, artib turish kerak. Stol ustida kompyuter, stol lampasi, deraza tokchasida anvoyi gullar turadi. Kitob-daftar turadigan javon alohida, o'yinchoqlar turadigan shkaf yoki quti alohida bo'lishi kerak. Xonaga qo'yilgan narsalar, rasmlar, o'yinchoqlar bolaning yoshi va darslariga mos bo'lishi kerak.

Bola yotadigan o'rindagi choyshab va ko'rpa-yostiqlar tozaligiga e'tibor berish kerak. Karavot va stol-stullarni tez-tez artib turish kerak. Xonani har kuni yig'ishtirish va albatta shamollatish lozim. Bu ishlarni o'zi qila olmasa, unga ota-onasi yoki opa-akalari yordam beradi. Agar xonani va undagi narsalarni tozalab turilmasa yoki xonada keraksiz narsalar sochilib yotaversa, nima bo'ladi? Bunday uyda yashaydigan bola darslarini yaxshi tayyorlay olmay qoladi. Kechasi uxlaganda tushiga har xil narsalar kirib chiqadi. Chunki shayton va jinlar kir-chir va tartibsiz joylarga keladi. U tozalikka rioya qilmaydigan xonadonga osongina kirib oladi va unda yashaydiganlarni vasvasa qiladi.

## **Oshxona va ombor**

**O**shxona – ovqat tayyorlanib, tanovul qilinadigan xona. Bu xonada har kuni ovqat pishiriladi va eyiladi. Shuning uchun oshxona juda ham ozoda bo'lishi kerak. Bu joyni bir kunda bir necha marta tozalab turish lozim. Oshxonadagi idishlar va jihozlarning hammasi chinnidek toza bo'lishi zarur. Ularni yuvib bo'lingandan keyin qog'oz yoki sochiq bilan quritiladi. Shundan keyin turiga qarab, o'z joyiga qo'yiladi. Qoshiq-sanchqilar va pichoqlar alohida, tarelka va kosa kabi idishlar alohida turadi. Stol ustida yoki suv jo'mragi yonida idish qolib ketmasligi kerak. Ba'zilarining oshxonasida idishlar va narsalar stolning ustida

kechgacha yuvilmasdan sochilib yotadi. Bu to'g'ri emas. Ba'zi odamlar o'z oshxonasini chinnidek toza qilib qo'yadi. U erga kirilsa, ko'zingizga bironta ortiqcha narsa ko'rinmaydi. Hamma narsa did bilan o'z joyiga qo'yilgan bo'ladi. Bu qanday yaxshi! Har safar ovqat pishirgandan so'ng gaz o'choq yoki plitalar ustini artib qo'yiladi. Chunki unga suv yoki ovqat qoldig'i to'kilgan bo'ladi.

Oshxonada qo'lni va idishlarni artadigan alohida sochiqlar va qog'ozlar turishi kerak. Oziq-ovqat turadigan va suv solinadigan idishlarning usti doimo yopiq turishi kerak. Ombor – keyinroq ishlatiladigan ozuqa yoki boshqa mahsulotlarni g'amlab qo'yiladigan xona. Omborxonada ko'proq xom oziq-ovqatlar ham turadi. Omborxonada ham oshxona kabi ozoda tutilishi lozim. U joyning quruq va qorong'iroq bo'lgani yaxshi. Omborxonada turgan ozuqalarni tekshirib turiladi, agar achiganlari bo'lsa, darhol chiqindi idishga tashlab yuboriladi. Omborda sichqon va zararkunandalarga qarshi dorilar qo'yiladi.

## **Hovli, yo'lak va hammom**

**H**ovli va yo'lak odam yuradigan va ko'pchilik ko'zi tushadigan uy sahni. Hovli va yo'laklar doimo tozalanib, supurilgan bo'lishi kerak. Hovli sahniga mevali va manzarali daraxtlar va chiroyli muattar gullar ekiladi. Daraxtlar va o'simliklar havoni zararli gazlardan tozalashi inobatga olinib, ularni ko'paytirish va chiroyli parvarish qilish odamlarga foyda keltiradi. Ba'zilar o'z uyida mol, qo'y yoki tovuq boqadi. Ularga maxsus molxona yoki tovuqxona quriladi. Buni yordamchi xo'jalik, deyiladi. U joylar ham tez-tez tozalab turilishi kerak. Agar shunday qilinmasa, molxonadan havoga sassiq hid ko'tarilib, qo'ni-qo'shnilarga ozor etadi. Qo'shniga ozor berish gunoh.

Hammom – inson sog'lig'ini saqlash uchun nihoyatda muhim xona. U erni ham yuvinib-cho'milgandan keyin tozalab, shamollatib turiladi. Hammomda uchta asosiy joy bor: yuz-qo'l yuvadigan er ("umivalnik"); hojat ushatadigan joy ("unitaz"); cho'miladigan er (vanna yoki dush). Bu joylar doimo oppoq va ozoda holda

turishi lozim. Xushboʻy narsa sepib yoki oynani ochib, yomon hidlarni ketkazish zarur. Uy egasi qay darajada ozodaligini uning hammomidan ham bilsa boʻladi.

Aziz bolalar, sizlar “hojatxona odoblari”, degan darsda koʻp narsalarni oʻrgandingiz. Ana shu qoidalarga, albatta amal qilish kerak. Baʼzilar hammomga turli kiyim va sochiqlarni qatorlashtirib, ilib qoʻyishi durust emas. Uncha zarur boʻlmagan kiyimlarni koʻz tushmaydigan erga taxlab qoʻyish kerak. Yana baʼzi hammomlarda eski choʻtkalar, soch oladigan asboblar chang bosib yotadi. Keraksiz narsalarni saqlab yurish toʻgʻri emas. Yaroqsiz boʻlib qolgan narsalarni chiqindi bilan olib chiqib tashlash kerak.

## Qoʻshnisini oʻylagan Zokir

*(Ibratli hikoya)*

**Z**okir yaxshi bola. Otasi boy kishi, unga hamma narsani muhayyo qilib qoʻygan. Afsuski, shunday qulaylik boʻla turib, Zokir kambagʻal va yoʻqsil kishilar qanday hayot kechirishi haqida hech narsa bilmaydi. Bir kuni stadionga ketayotgan yoʻlda Zokirni bir it quvlab qoldi. U itdan qochib bir tor koʻchaga kirib qoldi. Shu payt bir toshga qoqilib erga uchib tushdi. Koʻzini ochganida jarohatlarini bogʻlab qoʻyayotgan va uni parvarish qilayotgan ayolni va oʻziga tengdosh bolani koʻrdi. Muhammad bilan onasi Zokirni itdan qutqarib, uni uylariga olib kirishdi. Zokir ularga minnatdorlik bildirdi. Ular yashab turgan uylari shu darajada oddiy va koʻrimsiz ekanidan ajablandi. Kechqurun ularnikida qoldi. Zokirning tomogʻidan ovqat oʻtmadi. U oddiy taomni eyishga qiynalib, ogʻziga olgan luqmalarni yuta olmadi. Keyingi kuni onasi tayyorlagan ovqatni koʻtarib Muhammadning uyiga bordi va taomini oʻsha erda ular bilan birga baham koʻrdi. Demak, yaxshi kishilar oʻzidagi bor narsalarni qoʻshnilari bilan baham koʻrishlari kerak. Zero, hadisi sharifda “Kimki oʻzi toʻq boʻlib yon qoʻshnisi och holda ekanini bilib turib tunni oʻtkazsa, u menga imon keltirmabdi”, deyilgan.

## O'quvchining uyidagi odobi

**E**y farzand, uying sen uchun eng aziz makondir. Sen unda ulg'ayib, voyaga etasan. Ota-onang mehr-muhabbatini shu joyda ko'rasan, ular seni sevib-ardoqlashadi, seni yaxshi ko'rishadi va yaxshi inson bo'lishingni xohlab, kerakli shart-sharoitni muhayyo etishadi. Sen u erda uxlaysan, o'ynaysan, dam olasan, ovqat eysan va choy ichasan. Shunday ekan, sen u erda chiroyli axloq va go'zal odob bilan quyidagilarga amal qilib yashashing kerak:

1. Maktabdan qaytganingda, uxlashdan oldin va uyqudan turganingda oila a'zolaringga salom ber.

2. Ota-onangga itoat qil, o'zingdan yoshi katta akalaring, opalaring va boshqa qarindoshlaringni hurmat qil va o'zingdan kichkinalarga mehribon bo'l.

3. Agar uyda xizmatkorlar bo'lsa, urib so'kish bilan ularga ozor berma. Agar ulardan biron narsa so'ramoqchi bo'lsang, muloyimlik bilan so'ra.

4. Uy jihozlarini, elektr qo'ng'iroqlarni va suv jo'mraklarini behuda o'ynama, devor, o'rindiq va ko'rpachalarni iflos qilma. Ularga bo'r yoki qalam bilan chizma. Agar uyda bog' bo'lsa, daraxt shoxlari va gullarni sindirma.

5. Koptok tepib, ko'p baqirib yoki yugirib uydagilarga ham, qo'ni-qo'shnilarga ham ozor berma. Uydagi narsalarga zarar keltiradigan o'yinlarni uy ichida o'ynama. Maktabdan qaytganingda kiyimlaringni ilgakka osib qo'y, qidirib vaqtingni bekor ketkazmasliging uchun kitoblaringni o'zing biladigan joyga qo'y.

6. Darslaringni tayyorlash uchun alohida vaqt ajrat va o'sha vaqtda boshqa narsaga chalg'ima.

7. Qo'shnilaring va ularning bolalarini ranjitma. Ularni ko'rganingda salom ber, muloyimlik va odob bilan muomala qil.

8. Agar biron qarindoshing yoki mehmon ota-onangni ziyorat qilib kelsa va sen unga salom bermoqchi bo'lsang, yuz-qo'llaringni va kiyimingni tozalab, odob bilan uning oldiga bor.

9. Tovuq, quyon, mushuk va shularga o'xshash uy hayvonlariga ozor berma.

## O'quvchining maktabdagi odobi

**E**y farzand, maktab sening ikkinchi uying. Sen ujoyda ta'lim-tarbiya olasan, o'quvchi do'stlaring va o'qituvchilaring bilan bir oiladek yashaysan. Sen maktabda yaxshi o'qishing va doim xursand holda yurishing uchun quyidagi nasihatlariga amal qilishing kerak:

1. Uyqudan erta tur. Shunda nonushta qilish, toza kiyimlaringni kiyish, kitob va o'quv qurollaringni olishga, shuningdek, o'z vaqtida maktabga borishga ulgurasan.

2. Do'stlaring bilan samimiy ko'rish. Birinchi bo'lib ularga salom ber va har birini o'z ismlari bilan chaqir, ularga laqab qo'yma. Maktabda hamma vaqt o'z ishing bilan mashg'ul bo'l. Umringni va oltindan ham qimmat vaqtingni behuda o'tkazma. Biron ishni bahona qilib maktabdan ko'chaga chiqib ketishni o'ylama, keraksiz so'zlarni gapirishdan tiyil.

3. Safda turganingda va sinfga ketayotganingda shovqin qilib gapirma.

4. O'qituvchi sinfga kirganda unga salom ber. Keyin jim quloq solib o'tir.

5. Savol yoki javob bermoqchi bo'lsang, o'ng qo'lingni ko'tar. Agar o'qituvchi senga ruxsat bersa, o'rningdan turib javob ber.

6. Ovozingni baland ko'tarib shovqin qilma. Har bir dars oraliqidagi qisqa tanaffusda sinfdan chiqib ketib qolma.

7. Katta tanaffusda esa o'rtoqlaring bilan sog'ligingga va axloqingga zarar bermaydigan o'yinlarni o'yna. Xatarli o'yinlarni o'ynama. Ovozingni baland ko'tarib baqirma. Biron kishini so'kma yoki u yomon ko'radigan laqab bilan chaqirma.

Maktabda o'zingdan kattalarga hurmatda, kichiklarga esa izzatda bo'l. Kattalarni faqat ulardan qo'rqqaning uchun hurmat qilma. Balki yoshi sendan ulug'ligi, ilmi va tajribasi ko'proqligi sabab ularga hurmat bajo keltir. Kichik yoshdagi o'quvchilarga

zo‘ravonlik qilishdan saqlan. Chunki ularga ziyon keltirish odobli va mard bolalarning ishi emas.

8. Senga yordam bergan o‘rtoqlaringga va maktab ishchilariga rahmat ayt. Chunki bu odobing go‘zalligiga dalolat qiladi va senga nisbatan mehr-muhabbatini oshiradi.

9. O‘quv qurollaringni ehtiyot qil, ularni toza tut va kitob javoningga tartib bilan qo‘y. Shunda kerak paytda ularni olishing oson bo‘ladi.

Sinfdoshlaringga tegishli o‘quv qurollari va boshqa narsalarga so‘ramasdan tegma, ularning jihoz va buyumlarini titma. Zero, bu o‘g‘rilikka yo‘l ochishi mumkin. Biron narsa kerak bo‘lib qolsa, uni egasidan so‘rab ol va ishlatib bo‘lishing bilan darrov qaytarib ber. Biron narsani qaytarib berishga olib, undan keyin o‘zingnikidek foydalanib yurishdan juda ehtiyot bo‘l!

10. Maktabni va undagi jihozlarni xuddi o‘z uyingni va undagi jihozlarni ehtiyot qilganingdek ehtiyot qil. Devorlarga chizib-yozma, suv jo‘mraklarini ochiq qoldirma, deraza oynalarini sindirma va partani qalam bilan bo‘yama.

11. Senga berilgan har bir topshiriqni o‘z vaqtida bajar. Bugungi ishni ertaga qoldirma. Chunki har bir kunda qilinadigan ishlar bor. Birini keyingi kunga qoldirsang, barcha ishlaring orqaga surilib ketaveradi.

12. Maktabdan odamlar sendan rozi bo‘lgan holda qaytgin. Shunda Alloh sendan rozi bo‘ladi va senga hayotingda salomatlik va barakalar beradi.

Maktabdan chiqib to‘g‘ri uyga bor. Odobsiz bolalarga o‘xshab o‘qish tugaganidan keyin turli o‘yinlar o‘ynab, ko‘cha-ko‘ylarda sandiroqlab, tentirab yurma.

Maktabdan qaytgach, kitob-daftar va kerakli narsalaringni tartib bilan aniq joyga qo‘y. Ularni duch kelgan joyga tashlab ketma. Shunda maktabga ketayotganda yoki dars tayyorlamoqchi bo‘lganingda, “daftarim qani, kitobimni kim oldi”, deb ota-onang yoki aka-ukalaringdan so‘rab bezor qilmaysan. Maktabdan kelgach, ovqatlanib, biroz xordiq chiqargach, uyga berilgan vazifalarni bajar, mashqlarni bajar va o‘z ustingda tinmay mehnat

qil. Faqat maktab darslari bilangina cheklanib qolma. Qo'shimcha adabiyotlar va badiiy asarlar mutolaasiga ham vaqt ajrat. Zero, bular sening dunyoqarashing kengayishi va biliming ko'payishiga sabab bo'ladi.

Ey farzand, shuni unutmaki, odob bolaning eng chiroyli libosidir. Qara, agar maktabdagi biron o'rtog'ing chiroyli kiyimlar kiyib olgan bo'lsayu, ammo o'zi dangasa, ishyoqmas, hamma bilan urushib yuradigan, so'kinadigan odobsiz bo'lsa, uning kiygan kiyimiga kim e'tibor beradi? Libosi uchun kim uni yaxshi bola deya oladi? Aksincha, biron bola o'rtacha kiyim kiygan bo'lsayu, ammo o'zi a'lochi, odobli va hammaga hurmat bilan muomalada bo'lsa, uning kiyimi juda chiroyli bo'lmasa ham, barcha uni yaxshi va odobli o'quvchi deya tilga oladi. Demak, eng birinchi o'rinda maktabda ham, umuman har qanday joyda odobli bo'lishga harakat qilish kerak.

## O'qimagan bolaning oqibati

*(Ibratli hikoya)*

**B**ir o'quvchi maktabga kech qolib keladigan odat chiqardi. O'qituvchi esa kunning oxirida uni qamab qo'yib jazolar edi. Darsga ko'p kech qolavergach, uni haydab yuboradigan bo'ldi. Natijada u uyda o'qiganini tushunmaydigan bo'lib qoldi. Chunki u uy vazifasi sharhini o'qituvchisidan eshitmasdi. Sinfdoshlarining birontasidan so'rasa, unga javob berishmas edi. Chunki u o'quvchilar va o'qituvchilar orasida odobsizligi bilan tanilgan edi. Ketma-ket ikki marta imtihondan yiqilgach, maktabdan haydaldi. Har safar otasi uni maktabga olib kelib qo'ysa, axloqi yomonligi va darslarga yaxshi qatnamagani sababli uni haydab yuboraverishdi. To'satdan otasi vafot etib, u butunlay maktabdan uzildi. Bir o'zi qolib, yomon bolalarga qo'shildi va ularning yo'liga kirib ketdi. Onasi bir o'zi tarbiyalay olmagan uchun uni o'z holiga tashlab qo'ydi. Natijada o'ziga egulik ham topa olmay qiynaldi va ko'chalarda oyoq kiyimlarni moylab kun kechirishga majbur bo'ldi. Har safar maktabni a'lo baholarga bitirgan sinfdoshlaridan

birontasini ko'rib qolsa, ularga havas bilan qarab, vaqtini behuda ketkazganiga afsuslanardi.

## Ko'chada yurish odobi

**E**y farzand, ko'chada turli odamlar har xil ishlar bilan yuradi. Ba'zilari piyoda, ba'zisi mashinaga mingan, biri shoshilgan va boshqasi shoshmasdan sekin ketayotgan, ba'zilari katta yoshli bo'lsa, boshqasi kichkina. Agar sen ularning orasida yursang, o'zingni va boshqalarni yo'l ozorlaridan saqla. Buning uchun sen quyidagi nasihatlariga quloq solishing kerak:

1. Tiqilinch ko'chada ketayotganingda piyodalar yo'lakchasidan yur.

2. Agar biron do'sting yoki qarindoshingni ko'rib qolsang va u bilan ko'rishmoqchi bo'lsang, yo'ldan chetroqqa o'tib ko'rish va yo'l o'rtasida u bilan uzoq turma.

3. Agar ko'chada o'rtoqlaring bilan ketayotgan bo'lsang, eniga bir saf bo'lib ko'chani to'ldirib olmanglar, chunki yo'l yolg'iz sizlar uchun emas.

4. Agar bir ojiz yoki zaif kishi yo'ldan o'tkazib qo'yishni so'rasa, darhol unga yordam ber. Buning savobi juda katta. Bu bechora bilan yurishga uyalma.

5. Ko'chada ketayotganingda kitob o'qish bilan mashg'ul bo'lma, yon-atrofga ko'p alanglama. Tijorat do'konlari yoki o'yingohlar oldida ko'p turib qolma.

6. Yurganingda shoshilib tez ham yurma, juda sekin ham yurma, o'rtacha yurgin va doimo oldingga qara.

7. Mashinaga yoki biron-bir ulovga mingan bo'lsang ham yo'lda ketayotganingda ovqat eyishing odobdan emas.

8. Yo'lda yotgan toshni oyog'ing bilan tepma va sotuv do'konlari eshiklariga osib qo'yilgan mollarni o'ynama.

9. Agar sen velosiped yoki mashinada bo'lsang, ko'channing o'ng tomonidan yur.

10. Yurib ketayotgan tramvayga minishga yoki undan tushishga urinma.

11. Agar yoʻldan adashib qolsang yoki oʻrtogʻing yashaydigan joyni bilmasang, odob bilan yon-atrofdagilardan soʻra.

12. Agar biron kishiga bilmasdan ozor etkazib qoʻysang, masalan, turtilib ketsang yoki yoʻlovchi qoʻlidan biron narsani tushirib yuborsang yoki uning oyoq kiyimini bosib olsang, muloyimlik bilan kechirim soʻra.

13. Oʻzing tanimaydigan odamning yuziga uzoq tikilib turma va nogironlarni masxara qilma.

## **Haqiqiy pahlavon kim?**

*(Ibratli hikoya)*

**X**olid kuchli, juda qoʻrqmas bola. Stolni bukmasdan turib, bir qoʻlida koʻtara oladigan kuchi bor. Maktabda sportning kurash turi bilan shugʻullanardi. Hech kim uni magʻlub qila olmagan. U bilan eng koʻp kurashgan Nuriddin degan bola edi.

Bir kuni ikkovlari maktab bogʻida janjallashib, urishib qolishdi. Kurashda Nuriddin engildi. Sinfga kirganida esa u Xolidning kitobini yirtib, yaroqsiz holga keltirdi. Bu ishni koʻrgan Xolidning jahli chiqib ketdi, oʻrtogʻiga tashlanib, uning yuziga musht tushirdi. Natijada Nuriddinning burni qonab, kiyimlari qonga belandi. Sinf ham ifloslandi. Bu hodisadan butun sinf xafa boʻldi. Xolidning bu ishini oqlab boʻlmaydi. Chunki bir hadisi sharifda: "Raqibini enggan pahlavon emas, balki gʻazab kelganida oʻzini bosib tura olgan haqiqiy pahlavondir", deyilgan.

## **Farzand ota-onasi uchun nima qilishi kerak?**

**E**y aziz farzand, ota-onang senga eng yaqin, seni eng koʻp yaxshi koʻradigan va senga juda mehribon insonlardir. Ular sening hayotga kelishing sababchilaridir. Senga gʻamxoʻrlik qilish, tarbiyalash va seni barcha ozorlardan saqlashda ularning juda ham katta xizmatlari bor. Shunday ekan, ularning fazilatlarini bilib olib, ota-onangni hurmat qilishing kerak.

## **Ona fazilati**

1. Onang seni to‘qqiz oy qornida ko‘tarib, shu vaqt orasida ko‘p og‘riq va qiyinchiliklarni boshidan o‘tkazgan.

2. U sening jisming va kiyimlaringning tozaligiga e‘tibor berar edi. Seni emizganda tepangda uzun tunlarni bedor o‘tkazar edi.

3. U senga qanday eyish, ichish, yurish va o‘ynashni o‘rgatgan, sen o‘shanda bularning birontasiga kuchi etmaydigan bir ojiz bola eding. Senga og‘riq bergan narsa uni og‘ritar edi, seni xursand qilgan narsa uni xursand qilar edi. Demak, sen onang bilan bir butun tanasan.

## **Ota fazilati**

1. Otang har kuni ko‘chaga chiqib, qiynalib mehnat qilib, senga kerakli taom, kiyim, o‘yinchoq va boshqa narsalarni sotib olib kelar edi.

2. Sen ulg‘aygach, u seni maktabga yubordi. Ta‘lim olishing uchun pul topib, sarfladi, seni odam bo‘lsin, katta bo‘lganida qiynalmasin, deb iztirob chekdi.

3. Agar kasal bo‘lsang, seni davolash uchun doktorga olib borib, sog‘ayishing uchun dori-darmon olib kelar edi. Demak, otang sen uchun tayanchdir.

## **Sen ota-onangga qanday yaxshilik qila olasan?**

1. Ey farzand! Ota-onangga itoat qil, yaxshi ko‘r va nasihatlariga amal qil.

2. Ular oldida odob bilan o‘tir, sening huzuringga kelsalar, o‘rningdan tur va ularning ovozidan ovozingni baland ko‘tarma.

3. Ota-onang quvvatli vaqtlarida ular xursand bo‘ladigan ishlarni qil. Agar quvvatlari ketib ishga yaroqsiz bo‘lib qolsalar, zimmangdagi haqlarini ado etish uchun muhtoj bo‘ladigan barcha narsalarda ularga yordam ber.

4. Ular senga qattqlik qilsalar, ularga qo‘pol gapirma. Chunki faqat sening foydangni xohlashadi.

5. Ertalab turganingda va kechqurun yotishingdan oldin, ularni ko'rganingda salom ber.

6. Ularni g'azablantiradigan amallardan yiroq bo'l. Ko'proq umr ko'rishlarini yaxshi ko'r va shuni orzu qil. Chunki ular ham sening salomat bo'lishingni va umring uzun bo'lishini orzu qilardilar.

7. Ular biron ish buyurganlarida zinhor "uf", dema.

8. Chaqirganlarida "labbay", deb tezda huzurlariga etib bor.

9. Ularga ozor etishiga sababchi bo'lma. Ya'ni, bolalar bilan urishma va ularning ota-onalarini so'kma. Aks holda o'sha yomon bolalar ham sening ota-onangni so'kadilar.

### *Bolalar lug'ati*



**Labbay** – biron chaqirganda beriladigan javob (aslida "labbay" so'zi "mana, huzuringdaman" ma'nosini anglatadi).

**Uf** – biron narsadan shikoyat va ranjishni ifodalaydi (aslida "uf" so'zi "sendan bezorman", "jonimga tegding", ma'nosini anglatadi. Shu sabab bu so'zni zinhor tilga olmaslik kerak. Ayniqsa ota-onamiz oldida "uf" demasligimiz lozim).

### **Ota-onaga yaxshilik qilish**

**E**y farzand, atrofingga qara va ota-onalarning o'z farzandlariga qilgan ishlari haqida o'ylab ko'r. Ana shunda ota-onang seni tarbiyalash va kasal bo'lganingda davolatishda boshlaridan kechirgan qiyinchiliklarni bilib olasan.

Onang seni to'qqiz oy qornida ko'targan vaqtida qancha-qancha og'riqlarni tortib, qancha-qancha mashaqqatlarni boshidan o'tkazdi. Seni emizish, yuvib tarash, issiq-sovuqdan seni himoya qilishda u bechora kecha va kunduzlarni qiyinchilikda o'tkazdi.

Sen ulg'aygach, senga qanday emaklash, qanday yurish, qanday eyish va ichish, qanday gapirish, barcha-barchasini o'rgatdi. U har kuni sen uchun taom va choy tayyorlaydi. Kiyimlaringni yuvib,

yotishing uchun joy soladi. U seni ko'rib ko'zi quvonadi, qalbi shodlanib orzu-umidlarga cho'madi.

Otang esa ishlab Alloh bergan rizqni topish uchun har kuni uyidan chiqib ketadi. Sening rohatingni o'ylab qiynaladi, mehnat qiladi. Sening eyishing, ichishing, kiyinishing, turar joying va ta'lim olishing uchun ko'proq pul topishga harakat qiladi. U seni yaxshi ko'radi va seni hayotingda yutuqlarga erishib, muvaffaqiyat qozonib yashashingni ko'rishidan ham ko'proq biron narsani yaxshi ko'rmaydi. Shuning uchun sen ota-onangga itoat etib, ularga yaxshilik qilishing kerak.

Ota-onaga yaxshilik qilishning avvali ularga itoatli bo'lishdir. Chunki ular bolalarini zararli narsaga buyurmaydi. Agar ota-onang kasal bo'lib qolsalar, ularni davola, agar ojizlanib kambag'al bo'lib qolsalar, ularga puldan yordam qil. Odamlar ota-onangni so'kmasin desang, sen ularning ota-onalarini so'kma. Ularga muloyimlik bilan gapir. Ularning so'zidan siqilma. Agar tirik bo'lishsa, ularga uzoq umr so'rab, vafot etgan bo'lsalar, rahmat so'rab ularning haqqiga duo qil. Bu tarbiya qilganliklari va yoshligingda mehribon bo'lganliklari evaziga sendan ularga mukofot bo'ladi.

### ***Foydali nasihatlar***



1. *O'zing ham, moling ham otangnikidir.*
2. *"Ota-onasini hurmat qilgan kishining umri uzun bo'ladi".*
3. *"Haqiqiy farzand har bir sohada o'z otasining hukmiga bo'ysunadi".*
4. *O'g'il dono bo'lsa, ota rohat topibdi.*
5. *Otaning xatosi uchun tanbeh beruvchi bo'lma.*

### **Ota-ona o'rnini hech kim bosolmaydi**

**O**ta-ona uchun farzandining chiroyli xulqi va odobi muhimdir. Odobli bolaning ota-onasi kambag'al bo'lsa ham hech ayb emas. Chunki har bir narsa Yaratganning xohish-

irodasiga bog'liq. Ota-onasining faqirligini ayb sanash, buni o'zlariga aytib, taqdiridan nolish juda katta xatodir.

Ey farzand, sening ota-onang hayot ekan, sog'salomat ekan, ularning qadriga et, yashab turganini g'animat bil. Shuni unutmaki, ota-onaning kambag'alligi ayb emas. Aslida farzandning odobsizligi nihoyatda katta aybdir. Odobsiz bolaning ota-onasi boy, martabali yoki olim bo'lsa ham odamlar e'tiborida bo'lmaydi. Unday bola ota-ona sha'niga isnod keltiradi. Farzandi tufayli obro'-e'tibordan qolgan ota-ona kasallikka chalinadi, vaqtdan erta qariydi, umri qisqaradi.

Odobli bolaning ota-onasi faqir va kambag'al bo'lsa ham bolasi tufayli qadrlil va hurmatli bo'ladi. El-yurt orasida hurmatda, izzatda bo'lgan ota-onaning sog'lig'i yaxshi, ruhi tetik bo'ladi. Tengdoshlariga nisbatan yosh ko'rinadi, umri uzayadi. Shuning uchun sen odobli va yaxshi bola bo'lishing kerak. Shunda ota-onangni hurmat etib, ularni xursand qilgan va qadrlariga etgan bo'lasan. Zero, ota-onang o'rnini hech kim bosolmaydi.

## Farzand ota-onadan doim qarzdor

**A**ziz bolajonlar, shuni bilinglarki, atrofingizdagi bolalar, o'rta va katta yoshdagi kishilar marhamatli va shafqatli bo'lishlari mumkin. Ammo hech bir kishi sizlarga ota-onangizdek sadoqatli bo'lolmaydi, hech kim ota-onangizdek xizmat yo'lida mashaqqat chekmagan. Ota-onangiz hamisha sizlarning barkamol va solih bo'lishingizni xohlaydilar.

Ota-onangiz sizlarni parvarish qilishda issiq-sovuqqa chalintirmay, sog'salomat, odobli va ilmli bo'lishingizda chekkan mashaqqatlarini, tortgan kulfatlarini, o'zi emasa ham sizlarga edirib-ichirganini unutmang. Hamisha ularning roziligi yo'lida xizmat va hurmatlarini joyiga qo'ying. Shuni unutmangki, ota-onangizning sizlardan umidi katta. Ular sizlarni qadrlil va hurmatli, ulug' kishilar bo'lishingizni hamisha umid bilan kutib turadilar. Shunday ekan, fursatni qo'ldan boy bermang. Har soat va kunni g'animat bilib, ota-onangiz ko'nglini ko'tarish, xursand

qilish harakatida bo'ling. Zaif va nimjon vaqtingizda ota-onangiz tarbiyalari tufayli sizlar odamga aylandingiz va o'sib voyaga etdingiz. Shunday ekan, ota-onaga buning evaziga doim yaxshilik qilib, ularning duolarini olish kerak.

Aziz bolalar, ota-ona diydorini g'animat biling. Bugun ota-onamiz oldimizda, belimizga quvvat, g'am va xursandchiligimizga sherik bo'lib turishibdi. Shunday ekan, ularni qadriga etish kerak.

## **Farzand onaning bir bo'lagidir!**

**O**nalarimiz bizlarni voyaga etkazish uchun mehru muruvvatlarini ayamagan, oromidan kechib, kechalari uxlamay tarbiyamiz bilan mashg'ul bo'ldilar. Xafa bo'lsak yoki ko'nglimiz bir narsadan ranjib qolsa, atrofimizda parvona bo'lgan, tobimiz qochib qolsa, huzur-halovatini yo'qotgan ham onadir.

Ona biz uchun bog'bondir. U doim bizni parvarish qilish payida bo'ladi. Buni tushungan har qanday bola o'z onasi hurmatini barcha narsadan ustun qo'yadi. Aqlli farzand bir daqiqa bo'lsa ham ona mehrini esdan chiqarmaydi, kichikroq bo'lsa ham ishga qo'l urganida onani bundan xabardor qilib, uning roziligini oladi. Aytgan so'zlariga quloq solib, maslahatlariga amal qiladi, har vaqt onani minnatdor qilishga intiladi. Biz onamizning bir bo'lagimiz, agar biron a'zomiz og'risa, onamizning tani og'riydi, agar biz xursand bo'lsak, onamiz ham xursand bo'ladi. Shunday ekan, doim onamizga e'tiborli bo'laylik, ularni qarovsiz qoldirmaylik, hamisha holidan xabar olib turaylik.

## **Boyish “yo'li”ni topgan bola**

*(Ibratli hikoya)*

**B**ir bola otasidan bir narsaga pul olib, vaqtidan oldin ishlatib qo'ydi. Yaqinda ta'til boshlanadi. Maza qilolmaydi. Yo'lini topish kerak. Qo'lga tushgan jurnalda har bir xizmat uchun haq to'lanishi lozimligini o'qib, ko'zlari charaqlab ketdi. Bu mantiqqa ko'ra, oilasi uchun qilgan ishlarining har biriga haq olishi kerak!

Doʻkondan non olib kelishni 1000 soʻmga, onasi bilan bozorga borib kelishni 2000 soʻmga baholasa, qimmatga tushmaydigandek edi. Xuddi shunday qildi. Bir varaqqa oy davomida bajargan ishlarini yozib narx qoʻydi. Umumiy summa 250.000 soʻmni tashkil qildi. Xatni sekingina onasining yoniga solib qoʻydi. Boyish yoʻlini topganidan boshi osmonda edi uning!

Ertalab dars stoli ustidan 250.000 soʻm pul va bir xat topdi: “Oʻlim bilan olishib seni dunyoga keltirganim, yillar boʻyi ustingni toza tutganim, ming bir azob bilan oʻstirayotganimning haqqi – faqat sevging va yonogʻingdan olganim birgina oʻpichdir! Ishlab topgan pulingni oʻynab-kulib ishlat, bolajonim!..”

## **Ota-onaga qanday munosabatda boʻlish kerak?**

**F**arzandlar ota-onaga itoat etib, har bir fursatni roziliklarini olish uchun gʻanimat bilmogʻi kerak. Bolaning baxt-saodatga erishishi, yutuq va muvaffaqiyat qozonishi ota-onaning xursandchiligi va rozili tufayli hosil boʻladi. Bolalar ota-onasini hurmat qilish qatorida ularni sharmanda qilmasliklari va nomlarini bulgʻamasliklari kerak. Ota-onaning soʻzlariga ishonmagan, ulardan oʻzini aqlli va ishbilarmon hisoblagan bolalar hayotda qiynalib qoladi va koʻp qiyinchiliklarga duchor boʻladi. Chunki ishonchsizlik odamda aldov va yolgʻonchilikni paydo qiladi. Yolgʻonchilik va ikkiyuzlamachilik esa barcha yomon ishlarga sabab boʻladi.

Aslida har qanday odamga yolgʻon gapirish katta jinoyat, ogʻir gunohdir. Ammo ota-onani aldash juda katta gunoh sanaladi. Ota-onasiga bildirmay biron yomon ishni qilish ota-onaga nisbatan hurmatsizlik, ularni haqoratlash bilan tengdir. Aslida bolalar qiyin holatga tushganlarida rostini aytib, ota-onalarini bundan xabardor qilsalar, ota-ona oʻzlarining aqli va tajribasi bilan bu qiyin holatdan chiqish yoʻllarini koʻrsatib beradilar. Demak, har bir bola oʻz ota-onasini qilayotgan ishi va holatidan xabardor qilishi barobarida uning nasihati va maslahatlariga quloq tutishi va amal qilishi kerak.

## **Aka-uka va opa-singillarimiz oldidagi vazifalarimiz**

**A**ziz bolalar, siz aka-uka va opa-singillaringizni hammadan ko'ra ko'proq yaxshi ko'rib, hurmat-ehtimom qilishingiz kerak. Zero, sizlar bir ota-onadan tug'lgansiz va eng yaqin qarindosh hisoblanasiz. O'zaro munosabat masalasida sizlarning orangizdan qil ham o'ta olmasligi kerak. Ko'chadagi do'stlar bir kuni kelib sizni tashlab ketishi ehtimoli bor. Ammo o'z jigaringiz yaxshi kunda ham, yomon kunda ham aslo sizni tashlab ketmaydi. Chunki sizlarni ota-ona bog'lab turadi, sizlar o'zaro aka-uka va opa-singilsizlar. Sizlarning aloqa va munosabatingiz uzilmas rishta bilan bog'langan, biron manfaat ustida qurilmagan. Shunday ekan, aziz farzandlar, bir-biringizga mehribon bo'linglar, hurmat bilan muomala qilinglar. Buni ko'rgan ota-onangiz ham xursand bo'ladi. Aka-uka va opa-singillariga hurmat ko'rsatadigan bolani boshqa odamlar ham yaxshi ko'radi.

### **Kichikning o'zidan kattani hurmat qilishi va kattaning o'zidan kichikka mehribonligi**

**E**y farzand, o'zingdan yoshi katta kishilarni hurmat qil va o'zingdan kichiklarga mehribon bo'l. Shunday qilsang, qariganingda senga mehribonlik qiladigan va ojiz bo'lib qolganingda senga rahm qiladigan kishilarni uchratasan. Kichikning o'zidan kattani hurmat qilishi va kattaning o'zidan kichikka mehribonlik qilishi go'zal axloqlardan biridir.

Kichikning o'zidan kattaga hurmati quyidagi nasihatlarga amal qilish orqali bo'ladi:

1. Avtobus, trolleybus yoki tramvayda tik turishga ojiz kishini ko'rsang, sendan darajasi past bo'lsa ham o'ringdan turib unga joy ber.

2. Sen taniydigan yoshi ulug' kishilarni uchratib qolsang, birinchi bo'lib salom ber.

3. Akalaringni va sendan katta birodarlaringni hurmat qil. Shunda ular senga mehribon bo'lishadi va seni yaxshi

ko'radilar. Agar senga yaxshilik qilsalar, ularga rahmat aytishni unutma.

4. Agar uyda xizmatkorlar bo'lsa, ularga yumshoq gapir, qo'pollik qilma. Ota-onalarini haqorat qilma va ularni urma. Chunki ular ham senga o'xshagan odam.

5. Jamoat joylariga kirishda yoki chiqishda chiroyli didli va odobli bo'lishga harakat qil. Keksalar va ayollar bilan tiqilishma, yo'l bo'shaguncha biroz kutib tur.

## **Kattaning o'zidan kichikka mehribonligi**

1. O'zingdan kichik ukalaring va singillaringga mehribon bo'l. Holva yoki o'yinchoqlarni ular bilan baham ko'r, qizg'anib o'zingniki qilib olma. Ularning jahlini chiqarma, ular bilan janjallashma.

2. Kichkina ukalaringni qo'rqinchli va bo'lmag'ur hikoyalar bilan qo'rqitma.

3. Agar kichik ukalaringning darslariga yordam berishga kuching etsa, yordam ber.

## **Hikoya**

Ismoil odobli o'quvchi. U o'zidan kichik ukalari va singillarini yaxshi ko'radi. Har doim birga o'ynaydi, biron narsasini qizg'anmaydi, mehribonlik qilib, ularni xursand qiladi. Yoshi katta bo'lishiga qaramasdan, ularni o'ziga yaqin tutadi va xuddi tengquridek muomala qiladi. Kunlarning birida singlisi qo'g'irchog'i bilan kichkina aravaga o'tirib, undan bog'da sayr qildirishni so'radi. U rozi bo'lib aravani torta boshladi. Bundan singlisi juda hursand bo'ldi, o'zi ham xursand bo'ldi. Onasi bu holni ko'rib unga:

– Ey Ismoil, singling xursand bo'ladigan ishni qilishing juda yaxshi. Bu akaning vazifasidir, – dedi.

## Baxil savdogarning oqibati

(Ibratli hikoya)

**Q**adimgi zamonda yomon fe'lli xasis savdogar bozorda aylanib yurib, sakkiz yuz tilla tangasi bor hamyonini yo'qotib qo'ydi. Har tomonga zir yugurib, hamyonini so'rab-surishtirdi, lekin hech kimdan daragini eshitmadi. Shunda u kim hamyonimni qaytarib bersa, unga yuz tilla mukofot berishini e'lon qilish uchun bozorga jarchi yubordi. Yo'qolgan bu hamyonni Vali ismli bir etikdo'z topib olgandi. U nihoyatda halol kishi edi.

Egasi topilguncha hamyonni saqlab qo'yishga qaror qildi. Jarchining gapi rost ekaniga ishonch hosil qilgach, savdogarning oldiga borib unga hamyonni topshirdi. Savdogar baxil, yolg'onchi va birovga yaxshilikni ravo ko'rmaydigan yaramas odam edi. U yo'qolgan hamyoni topilganiga qanchalik xursand bo'lmasin, buni bildirmadi. Darhol hamyonini ochib sanab ko'rgach, bechora etikdo'zga tuhmat qilib shunday dedi: "Shundoq ham oladigan pulingni allaqachon olib bo'libsan!". Vali etikdo'z savdogarga shunday debdi: "Og'zingizga qarab gapiring! Men faqir kishiman, ammo yolg'onchi, o'g'ri emasman! Va'da qilgan pulingizni berolmasangiz, meni o'g'irlikda ayblamang".

Nopok savdogar Vali etikdo'zga tuhmat qilib, hatto ikkovi mahkamaga (qozixonaga) borishdi. Ikki tomon so'zini eshitgan qozi savdogarning aldayotganini sezdi va uni qattiq jazolamoqchi bo'ldi. Qozi g'azabini bildirmay o'z qarorini e'lon qilib dedi: "Savdogar hamyonidan yuz oltin tanga olinganini da'vo qilayapti, etikdo'z esa hamyondan hech narsa olmaganman, deb aytayapti. Men har ikkisining so'ziga ishonaman, ikkovining ham gapi rost. Shuning uchun etikdo'z topib olgan bu hamyon boshqa odamniki, hamyon to egasi chiqqunicha mahkamada turib turadi". Baxil savdogar etikdo'zga qilgan ishidan afsuslandi, ammo endi kech edi...

## Ustoz otangdek ulug‘!

**A**ziz bolalar! Ustozni hurmat qilish sizning burchingizdir. Ba‘zi kitoblarda ustozning haqqi ota-ona haqqidan keyin turishi aytilgan. Chunki ota-onangiz dunyoga kelishingizga sababchi bo‘lsa, ustozingiz, qadrli muallimingiz oq-qorani tanitadi, o‘qish, yozish va fikrlashga o‘rgatadi. Shunday ekan, bolalar, ustozni hurmat qilish va unga minnatdorlik izhor qilishimiz lozim.

Ustozga hurmat bilan muomalada bo‘lish qatorida undan hol-avhol so‘rash, biron ish buyursa, darhol bajarish lozim. Shuningdek, kamtarona munosabatda bo‘lamiz, hech qachon ustozdan o‘zimizni katta tutmaymiz. Chunki uning yoshi, ilmi va tajribasi ham biznikidan ko‘proq. Shunday ekan, uni behurmat qilmaslik va ustozlik haqqini ado qilish talab etiladi.

Ota-onamizga qilgan yaxshiliklarni albatta ustozimizga ham qilishimiz kerak. Bundan tashqari, ularga yaxshilik so‘rab duo qilishimiz, duolarini olishimiz va aytganlarini bee‘tibor qoldirmay ado etishimiz lozim. Ba‘zi yomon bolalar ustozlarini xafa qiladilar, aytganlarini vaqtida bajarmaydi, darsda o‘rtoqlari bilan gaplashib o‘tirib, muallim so‘ziga quloq tutmaydi. Aziz bolalar, unutmangki, ustozini xafa qilgan va uni ranjitgan bolalar hayotda yaxshilik ham, baraka ham topmaydi. Zero, biz ustozimizni hurmat qilib, undan ko‘p bilimlarni olsak, hayotda qoqilmaymiz. Ustozimiz biz uchun ma‘rifat ziyosidir. Ustoz qadri katta hayot boshlab, biron kasb boshini tutib, yashay boshlagandan keyin bilinadi. Ana o‘shanda maktab davrida bilim olmagan, agar bilim olganida, ustozining pand-nasihatlariga quloq tutganida, yaxshiroq ishlarda ishlab, yaxshiroq pul topishi mumkinligiga afsuslanadi. Ammo endi kech bo‘lganini, hayotni orqaga qaytarib bo‘lmasligini bilib, o‘zidan-o‘zi xafa bo‘ladi.

Ey farzand, senga ilm o‘rgatayotgan ustoz mehrini qozonish uchun quyidagilarga amal qilishing kerak:

1. Ustozingdan oldinda yurma.
2. Ustozing o‘rniga o‘tirma.
3. Ustozing oldida ruxsatsiz gapirma.

4. Malol keladigan bo'lsa, dars vaqtida ko'p savol berma.

5. Dasrga kech kelma.

6. Ustozingni bezovta qilma.

Hikoya qilinishicha, Imom Buxoriy bobomiz bir muddat Makkai mukarramada dars olishiga to'g'ri keladi. Bir ziyoratchi u zotning Buxoroi sharifdagi bir ustozidan salom va maktub keltirganida ustoz yurtidan kelganini bilib, u bilan quchoq ochib ko'rishadi va unga hurmat bajo keltiradi. So'ng salom xabarini eshitganida, Buxoroi sharif tomonga yuzlanib, salomga alik olib, ustozni haqiga duo qiladi. Keyin maktubni ikki qo'llab olib, ehtirom bilan xatni o'qiydi.

Qarang bolalar, qanday ibratli voqea?! Demak, ustoz o'zidan uzoq joyda bo'lsa ham uning huzurida turgandek hurmat bajo keltirish va uni doim e'zozlash lozim ekan.

## Hikmat

**B**ir hakimdan:  
– Nima uchun ustozingni otangdan ham yaxshi ko'rasan? – deb so'raldi.

– Ustoz abadiy tirikligimning sababchisi, otam esa o'tkinchi hayotimning sababchisidir! – deb javob qildi u.

## Odamlarni hurmat qilish

**Q**uyidagi odoblarga rioya qilish odamlarni hurmat qilish jumlasidandir:

1. Salomni oshkora ber, ko'rishganda tabassum qilib, ochiq chehrali bo'l. Chunki yuzni burishtirish va kibr odamlarda senga nisbatan nafratni paydo qiladi.

2. O'zingga yaxshi ko'rgan narsani odamlarga ham yaxshi ko'r va o'zingga ravo ko'rmagan narsani odamlarga ham ravo ko'rma. O'ziga yoqqan narsani o'zgalardan qizg'anish va yoqtirmagan narsani birovlariga berish odobli bolalar ishi emas.

Agar avtobus yoki tramvayda o'tirgan bo'lsang, o'zingga etarli joydan oshig'ini band qilma. Chunki boshqa odamning o'tirishiga

xalaqit berasan. Unutma, jamoat transporti yolg'iz seniki emas, unda boshqa odamlarning ham haqi bor.

3. Senga gapirayotgan odamga ovozingni baland ko'tarma. Agar ular ota-onang, o'qituvching kabi sendan yoshi ulug' va martabali kishi bo'lsa, senga gapirayotgan paytda uning so'zini bo'lma.

4. O'zing yoki mashinang ovozi yoki uni tez haydash bilan odamlarni bezovta qilma. Chunki yo'lda yosh bolalar, zaifa ayollar va qariyalar bor. Sening bu qilg'ing ularga ozor beradi.

5. Kambag'alni kambag'alligi uchun tahqirlama, bechorahol, nogiron yoki badanida biron aybi bor kishilarni masxara qilma. Balki o'sha odam uchragan kasallikdan seni salomat qilgani uchun Allohga shukr qil.

6. Biron kishini u yomon ko'radigan laqab bilan chaqirma. Do'stlaring va tengdoshlaringga laqablar to'qima. Chunki bu ularning diliga ozor etkazadi.

### *Bolalar lug'ati*



**Hurmat** – izzat, ehtirom, siylash, qadrlash; obro'e'tibor.

**Tahqirlash** – nafratlanish, jinkanish, mensimaslik, haqorat, kamsitish, xo'rlash.

**Zaifa** – 1. Kuchsiz, ojiza ayol. 2. Xotin, rafiq, ayol.

### **Naqadar yomon ish**

*(Ibratli hikoya)*

**A**bulhasan rivoyat qiladi: “Biz Nabiy alayhissalom huzurlarida o'tirgan edik. Davradan kimdir turib ketdi, biroq oyoq kiyimini unutib qoldirdi. Davradagilardan biri uning oyoq kiyimi ustiga o'tirib oldi. Haligi kishi bir ozdan keyin qaytib kelib, oyoq kiyimini so'radi:

– Biz ko'rmadik, – deyishdi. Poyafzal egasi bezovtalanib qoldi. So'ng uning oyoq kiyimi ustiga o'tirgan kishi:

– Mana oyoq kiyiming, – dedi.

Shunda Payg‘ambar alayhissalom:

– Musulmon kishini bezovta qilish naqadar yomon ish! – dedilar.

– Men hazillashdim, – dedi u kishi.

Rasuli Akram yana o‘sha gaplarini takrorladilar.

## **Odamlarning hurmati nima bilan o‘lchanadi?**

**D**unyodagi barcha odamlar irqi, rangi, ko‘rinishi va kiyimidan qat’i nazar teng huquqlidir. Biri boshqasidan aslo ustun emas. Ammo ular ichida e‘tiqodi kuchli, ilmi, odob-axloqlilari hurmatga sazovordirlar.

Inson qadr-qiymati hech qachon mol-dunyo bilangina o‘lchanmasligi kerak. Chunki boylik doimiy emas, kishi o‘zi xohlamagan tarzda mol-mulkidan ayrilib qolishi mumkin. Yana boylik yomon va yovuz odamlarga ham berilishi mumkin. Shuning uchun faqat boyligini e‘tiborda tutib, biron insonni yaxshi deb ayta olmaymiz. Ammo o‘zi odobli, diyonatli bo‘la turib, boy va saxiy bo‘lsa, bu juda yaxshi.

Inson qadri yana tashqi ko‘rinish, chiroyga qarab belgilanmaydi. Bilamizki, tashqi ko‘rinish yosh o‘tgan sari o‘zgarib boradi. Yoshligida chiroyli bo‘lgan odam qariganida qadri tushib qolishi kerakmi? Yo‘q, kim yoshligida ham, qariganida ham odob-axloqli bo‘lsa, e‘tiqodini mustahkam saqlasa, o‘sha kishi eng hurmatli odamdir. Agar uning boyligi va chiroyi bo‘lmasa ham. Biroq kimning boyligi, chiroyi, hashamatli uylari va farzandlari bo‘lsayu, o‘zi yomon, qo‘pol muomalali va pastkash bo‘lsa, hech qachon uni yaxshi inson deya olmaymiz. Bunday odamlarga boyligi va chiroyini deb yaxshi muomalada bo‘linadi, agar o‘sha narsalar undan ketsa, u hurmatini ham yo‘qotadi.

Xulosa shuki, aziz bolajonlar, inson qadri boylik, chiroy va nasl-nasab bilan belgilanadi, deydiganlar qattiq adashadi va u fikri buzuq odam. Balki kim e‘tiqodli, odob-axloqli va ilmi bo‘lsa, insonlardan yaxshiligini ayamasa, o‘sha eng yaxshi va eng hurmatlidir.

## Chiroyli muomala - bola ziynati

**A**ziz bolajonlar, chiroyli muomala nimaligini bilasizlarmi? Chiroyli muomala sabr-toqat, odob va yumshoqlik bilan muomala qilish, birov yomonlik qilsa, kechirib, yaxshilik qilsa, unga rahmat aytish va ularga yordam berib, zararni ketkazishga harakat qilishdir. Chiroyli muomala ham soʻz, ham amal bilan boʻladi.

Quyidagilar goʻzal muomala jumlasidandir:

1. Tijoratchilar bilan muomala qilganda omonatli boʻlish. Yaʼni, yolgʻon gapirmaslik, xiyonat qilmaslik va ularga ochiq chehra bilan muomala qilishdir.

2. Hunarmand odamlar olgan buyurtmalarni puxta qilishi va vaʼda qilingan vaqtga rioya etishi kerak.

3. Tabib kasallarga muloyim muomalada boʻlib, ularga gʻamxoʻrlik qilsin.

4. Bajarish vaqti etganda har kim oʻz zimmasidagi burchni kechiktirmasdan bajarsin, chunki bu narsa odamlar koʻz oldida uning qadrini koʻtaradi.

5. Oʻquvchi maktabda oʻrtoqlariga nisbatan odobli boʻlishi, oʻzini katta tutmasligi va birontasiga ozor etkazmasligi kerak.

6. Har bir inson qoʻshnisiga nisbatan odobli boʻlishi, uni hurmat qilishi, kasal boʻlsa, uni borib koʻrishi, agar koʻrinmay qolsa, holidan xabar olishi, undan biron narsani qarz olgan boʻlsa, uni oʻz vaqtida qaytarib berib, bu yaxshiligi evaziga unga rahmat aytishi kerak.

7. Fikriga qarshi chiqqan odam bilan yumshoqlik va muloyimlik ila munozara qilsin. Chunki bu narsa uning qalbini yumshatadi.

8. Sen yomonlikni yaxshilik bilan daf qil. Chunki bu narsa dushmaningni doʻstga aylantiradi.

Hadisi shariflarning birida: “Sizlarning menga eng suyuqlirogʻingiz eng axloqi goʻzalrogʻingizdir”, - deyilgan.

## Nasihatlar

1. Qoʻlingdan yaxshilik kelmasa, yomonlik qilishdan ham tiyil.
2. Agar yaxshi gaping boʻlmasa, tilingni boʻhton va gʻiybat bilan bulgʻama.

3. Yaxshilik yo'lida chekilgan mehnat erda qolmaydi.
4. Biror kimsaga katta yaxshilik qilgan bo'lsang ham, uni kichik deb bil, birov senga yaxshilik qilgan bo'lsa, uni katta deb bil.

## Olim bo'lgan cho'pon

*(Ibratli hikoya)*

**E**y farzand, sen pandu nasihatlariga quloq solsang va ulardan ibrat olsang, yaxshilab amal qilsang, diling doimo shod bo'ladi, kundan-kunga o'saverasan.

Aytishlaricha, Luqmoni hakimnikiga bir guruh kishilar mehmon bo'lib kelishdi. Undan hikmatga oid narsalar haqida so'rashdi. Shunda kelganlardan biri:

– Ey hakim, sen falon joyda cho'ponlik qilgan kishi emasmisan? – deb so'rab qoldi.

– Ha, o'sha cho'ponman, – deb javob berdi Luqmon, – hozir ko'rib turibsanki, hakimman.

– Bu darajaga qanday erishding? – so'radi u.

Luqmoni hakim unga:

– To'g'ri so'zlash, odamlarga yaxshilik qilish, omonatga xiyonat qilmaslik, yolg'on so'zlamaslik, behuda gapirmaslik, musibat va qiyinchiliklarga mardona chidash va o'zini kamtar tutish tufayli! – deb javob berdi.

## Ziyorat qilish odobi

**M**uhabbatni oshiradigan va do'stlikni mustahkamlaydigan sabablardan biri bayramlar, dam olish kunlarida, safarga bormoqchi bo'lganda yoki safardan kelganda, kasal bo'lganda o'zaro bir-birini qutlab, ziyorat qilib turishdir.

Ziyorat qilishda rioya qilinadigan bir qancha odoblari bor. Jumladan:

1. Ziyorat qilish uchun munosib vaqt tanlagin. Bu uxlash, ovqatlanish yoki boshqa ish bilan mashg'ul bo'linadigan vaqt bo'lmasin.

2. Borishi haqida oldindan xabar berish (bu aslo manmanlikka kirmaydi, “meni munosib kutishga harakat qilinglar”, degan ma’noni anglatmaydi. Balki ularni oldindan ogohlantirilsa, mezbonlar noqulay ahvolga tushib qolmaydilar).

3. Agar ziyorat uchun ma’lum vaqt tayin etilsa, unga rioya qil. Undan erta ham, kech ham borma.

4. Agar biron uyga kirmoqchi bo’lsang, oldin uy egasidan ruxsat so’ra. Agar uy egasi senga eng yaqin kishi bo’lsa ham.

5. Uyga kirayotganda seni qarshi olayotgan kishiga salom ber.

6. Uyga kirayotganingda yo’lingda duch kelgan narsalardan ko’zingni erga qaratib o’tgin. O’tirgan paytingda uy jihozlari yoki derazalariga alanglab ko’p qarama. Shuningdek, o’zingga lozim ko’rilgan joyda o’tir.

7. Gapirayotganingda o’rta ovoz bilan gapir. Foydali so’zlar bilan cheklan.

8. Oldingga qo’yilgan ovqatni yomonlama.

9. Uy egasining xursandligi yoki tashvishiga sherik bo’l. Xursand vaqtlarida tabriklab, tashvish chekayotganida unga dalda bo’l.

10. Uzoq o’tirma. Chunki uy egasining boshqalar bilan ham va’dasi yoki qiladigan ishlari bordir.

11. Kasal ko’rishga borganingda ham uzoq o’tirma yoki ko’p gapirib uni qiynab qo’yma. Uning oldida faqat xursand va xotirjam qiladigan so’zlarni gapir.

12. O’zingdan zeriktirib qo’yadigan darajada ko’p ziyorat qilma. Yoki butunlay aloqani uzib qo’yadigan darajada ziyoratni kamaytirib yuborma.

13. Seni ziyorat qilishga kelgan kishining yuziga ochiq tabassumli bo’l. Uning oldiga mehmonlarga atalgan narsalardan qo’y va ketayotganida uni eshikkacha kuzatib chiq.

14. Zimmangdagi vazifani bajarish va oradagi do’stlikni saqlab qolish uchun ziyorat qilgan kishini sen ham ziyorat qilib tur.

### **Bolalar lug’ati:**

**Ziyorat** – tashrif, tabarruk joylarga safar qilish, yaqin kishilarni va yoshi ulug’ keksalarning holidan xabar olish.

**Dalda bo‘lish** – ruhiyatni ko‘tarish, kuch-quvvat va g‘ayrat bag‘ishlash; yordam, himoya.

**Zimmadagi vazifa** – o‘ziga yuklatilgan vazifa.

## Hikmat

**B**iror joyga borganda ortiqcha ezmalanib uzoq o‘tirmaslik va o‘tirishda esa faqat kerakli so‘zlarni gapirish odamning qadru qiymatini oshiradi.

## Yaxshilikning mukofoti

*(Ibratli hikoya)*

**CH**o‘pon Ahmad tog‘aning g‘am-tashvishlari ko‘p edi. U urushning og‘ir yillarini sira unuta olmaydi. Chunki xuddi shu yillarda o‘zining qadrdonlarini yo‘qotgan edi. Turmush o‘rtog‘i vafot etib, o‘g‘li daraksiz ketgan, shahardagi ishidan ajragandan keyin qishloqda cho‘pon bo‘lib ishlayotgan edi. Bir kuni yo‘l chetida qo‘ylarini boqib turganida bir kasalmand yigitni shaharga kuzatayotgan odamlarni ko‘rib qoldi. Afti-basharasidan uning kambag‘alligi bilinib, kalta kamzulda sovuqdan qaltirab turardi. Shunda cho‘pon Ahmad tog‘a necha yillardan beri ustidan echmagan chakmonini unga kiygizib qo‘ydi.

Kasalxona yo‘lakchasida shifokor tashxisini kutib turgan kasalmand yigit bir kishining elkasiga qo‘lini qo‘yib «ota» deb chaqirganini sezdi. Kasalmand yigit bundan ajablandi va boshini ko‘tarib unga qaradi. Dastlab «ota» deb chaqirgan bu yigitni tanimadi. Yigit ham hayron bo‘ldi va undan uzr so‘rab shunday dedi: «Siz kiygan bu chakmon men necha yillardan beri ko‘rmagan otamning chakmoniga o‘xshar ekan, men sizni otam deb o‘ylabman, kechirasiz».

Kasalmand yigit undan: «Otangiz kim edilar?» deb so‘radi va biroz gaplashib o‘tirgandan keyin bildiki, u chakmonini bergan cho‘pon Ahmad tog‘aning o‘g‘li ekan. Shunda unga:

«Chindan ham bu chakmon otangizniki, siz adashmadingiz», dedi. Shifokor ko'rigidan o'tgandan so'ng kasalmand yigit cho'pon Ahmad tog'aning shifoxonada shifokor yordamchisi bo'lib ishlaydigan o'g'li bilan qishloqqa qaytdi. Shunday qilib, cho'pon Ahmad tog'aning yaxshiligi o'g'lining topilishiga sabab bo'ldi.

## Uyimizga mehmon kelganda...

**E**y aziz farzand, agar uyingga mehmon kelsa, “xush kelibsiz”, deb uni ochiq chehra bilan kutib ol. Mehmonni ochiq yuz bilan kutib olish katta ziyofat bilan barobardir.

Mehmondorchilik odoblaridan biri shuki, mehmon oldiga kirganda, chiqayotganda yoki taom eyilayotganda ochiq yuzli, shirin so'zli va xushfe'l bo'lish lozim. Mehmonlar oldida biron kishiga qattiq gapirilmaydi va birovga tanbeh berilmaydi. Chunki mehmon buni o'ziga og'ir olib, mezbon mendan xafa bo'ldimikan, degan xayolga borishi mumkin.

Aziz bolajonlar, agar uyimizga mehmon kelsa, ota-onamizga yordamlashishimiz, mehmon kutishga ko'maklashib yuborishimiz kerak. Zero, odobli bolalar doim ota-onalariga ko'maklashadilar.

Mehmon kelganida bolalar kattalar bilan salomlashgach, boshqa xonaga chiqib o'rtoqlari bilan o'ynaydilar, mehmonlar gap-so'ziga o'zlari izn bermaguncha quloq solmaydilar. Mehmon kelganida dasturxonga qo'yilgan qand-qurs va boshqa quruq mevalarga qo'l uzatishdan saqlanish kerak. Beodob bolalar dasturxonga beruxsat qo'l uzatib, u-bu narsani qo'lga olib, uyidagilarni xijolatga qo'yadi. Odobli bolalar mehmonlar bilan salomlashib bo'lgach, darhol boshqa xonaga chiqib, biron xizmatga chaqirilsa, xizmatni ildam bajaradi. Mehmonlar ketayotganida ular bilan odob ila xayralashiladi, “Yana kelib turinglar”, “Yaxshi etib olinglar” – deb ularga yaxshilik tilaydi.

## Saxiy Abu Hanifa

(Ibratli hikoya)

**I**mom A'zamning Kufada yashaydigan uyi baland edi. Muhtasham saroylarni esga solardi. Bir kuni u zotning huzuriga bir kishi kelib:

– Ey imom, o'zingiz olim bo'lsangiz-u, yana dunyo dabdabasiga berilishingiz qanday bo'ladi? – dedi.

– Uyimni hammaning uyidan baland qurdirganimga kelsak, Kufaga kelgan kambag'allar birinchi mening uyimga ko'zlari tushib, hammadan boy odam ekan, deb o'ylashlari va to'g'ri menikiga mehmon bo'lishlari uchundir, – debdi ulug' imom.

Savol beruvchi imomning donoligiga tan beribdi, hurmat bilan unga ta'zim qilibdi va shogird tushibdi.

## Ruxsat so'rash odobi

**A**ziz bolalar, biron joyga borishdan oldin ota-onadan ruxsat so'rash kerak. Ularning ruxsatisiz yoki aytmasdan ketib qolish durust emas. Chunki ota-onamiz bizlardan xavotir olishadi. Yana ular biz bilmagan narsalarni biladilar. Agar biz boradigan joy xatarli bo'lsa, u erga borishdan qaytarishadi. Shuning uchun har doim ularning ruxsati bilan ko'chaga chiqish kerak. O'z uyimizdan boshqa uylarga, hatto qo'ni-qo'shni yoki qarindoshlar uyiga kirishdan oldin ham albatta ruxsat so'rash kerak. Eshik tirqishidan mo'ralash yoki chaqirmasdan to'g'ri uyga bostirib borish odobsizlikdir. Tashqarida chaqirgach, oldiga odam chiqishini kutib turiladi. Agar ruxsat berilsa, ichkariga kiriladi. Shuningdek, ota-onamiz o'z uylarida bo'lgan vaqtlarida ham oldilariga kirishdan avval "Ota yoki ona, kirsam maylimi", deb ruxsat so'rash kerak. Ruxsat olmasdan to'g'ridan-to'g'ri oldilariga kirib borish odobli bolaga yarashmaydi.

Bundan tashqari, oila davrasida katta yoshlilar suhbatlashayotganlarida biron fikr aytmoqchi bo'lsang, oldin "Men ham gapirsam bo'ladimi?" deb ruxsat so'rab, ruxsat bo'lsa, gapirish

kerak. Ammo kattalar soʻzini boʻlish yo ularning suhbatiga iznsiz aralashish aslo toʻgʻri emas.

### *Bolalar lugʻati*



**Ruxsat soʻrash** – izn soʻrash, biron ishni qilish uchun rozilik olish.

**Moʻralash** – toʻsiq, tirqish yoki teshik orqali ichkariga qarash.

### **Ojiz odamlarga mehribonlik qilish**

**E**y farzand, Alloh kuch-quvvat va tan-sogʻlik ato etgan yoki mol-dunyo va shon-shuhrat bergan kishilar mana shu neʼmatlar evaziga shukr bajo qilishlari uchun ojiz va zaif kishilarga yordam berish lozim. Shuni unutma:

1. Agar ota-onang yoshlari ulgʻayib, senga muhtoj boʻlib qolsalar, ularga mehribonlik koʻrsat va ehtiyojlarini qondiradigan darajada ularga pul berib tur. Chunki ular ham sening baxtli boʻlishing uchun oʻzlarini koʻp hayot lazatlaridan mahrum etganlar.

2. Agar odamlar koʻp chiqqan avtobusda boʻlsang va biron keksa, kasal, zaif kimsa yoki bir ayol oʻtirishga joy topa olmasa, sen oʻtirgan boʻlsang, darhol oʻrningdan turib ularga joy ber.

3. Agar sening xizmatkoring boʻlsa, unga toqatidan ortiq ish yuklama, haqoratlab va xorlab unga ozor berma, uni etarli ovqat eyishidan mahrum etma va uni urib azoblama.

4. Agar uyda uy hayvonlari boʻlsa, ularni qiynama, etarli taom va suvini ber.

### **Ojizlarga mehribonlik oliyjanoblikdir**

1. Agar oilasi va bola-chaqasi taʼminotiga qiynalib turgan kambagʻal odamni koʻrsang, unga yordam qoʻlini choʻzishing va bolalar tarbiyasida unga koʻmaklashishing kerak. Chunki bolalari yaxshi tarbiya olmasa, ular birovlar molini oʻgʻirlyadigan oʻgʻri va jinoyatchiga aylanishi mumkin.

2. Agar sen kelajakda bir oilaning boshlig'i (otasi) vafot etib, boquvchisi yo'qotganini va ilgari aziz bo'lib, keyin xorlanib qolganini bilsang, qo'lingdan kelganicha ularga yordam berishing kerak.

3. Agar sen bir odamning cho'kayotganini yoki yong'in ichida qolganini yoki unga bir vahshiy hayvon hujum qilayotganini eshitsang va yordam berishga qodir bo'lsang, evaziga hech qanday mukofot va rahmat kutib o'tirmay unga yordamga shoshilishing kerak.

## Sadoqatli xizmatkor mukofoti

*(Ibratli hikoya)*

**B**ir boyning o'ttiz yildan ko'proq xizmatini qilgan bir xizmatchisi bor edi. Nihoyat, bu xizmatchi yoshi ulg'ayib, xizmatga yaramay qoldi. Shunda boyning bolalaridan biri dedi:

– Ey ota, nima uchun mana bu foydasi tegmaydigan kuchsiz xizmatchini bo'shatib, o'rniga baquvvat xizmatchini olib kelmaymiz?

– Ey o'g'lim, bu odam yosh va baquvvat vaqtdan beri bizga sadoqat bilan xizmat qilib keldi. U yoshligingizda sizlarni elkasida ko'tarib, ulg'ayguningizcha sizlarga kelgan ozorlarni qaytarardi. Mana endi quvvati ketib, kuchdan qolganida uni haydab yuborish odamgarchilikdan emas. Men yaqinda uning ishini bajaradigan quvvatli xizmatkor olib kelaman. U esa bog'dagi hujrasida yashayveradi. Endi bizga omonat va ixlos bilan xizmat qilgani evaziga uni taqdirlash uchun biron ish qilishga majbur qilmayman, – dedi otasi o'g'liga.

### *Bolalar lug'ati*



**Sadoqat** – do'stlik, birdamlik, samimiylik va vafodorlik.

**Mukofot** – taqdirlash, rag'batlantirish, sovg'a, tortiq.

**Ozor** – aziyat, zarar, haqorat, azob, jabr.

## Do'st tanlash va ularni hurmat qilish

**E**y farzand, sen o'zing uchun yaxshi do'st tanla. Zero, sen qanday bo'lsang, do'sting ham shunday bo'ladi. Aksincha, do'sting qanday bo'lsa, sen ham unga o'xshaysan. Shu sabab yaxshi va odobli bolalar bilan do'stlashish kerak. Do'stlikni mustahkamlash, uning uzoq davom etishi uchun esa do'stlar bir-biriga sodiq, hurmat ko'rsatuvchi va bir-birining sirini saqlovchi, dushmanlardan himoya qiluvchi bo'ladi. Do'stlar xursandchilik kunlarida ham, xafalik kunlarida ham doim birga bo'ladilar. Faqat xursandchilik kunlarida atrofida aylanib, qiyin vaqtlarda bir-birlarini tark etish haqiqiy do'stlik emas. Do'stning qandayligi qiyin va og'ir vaqtlarda bilinadi.

Ey farzand! Sen do'sting bilan teng bo'l, hech qachon o'zingni undan baland qo'yma, doim kamtarin bo'l, o'zingga ravo ko'rgan narsani unga ham ilin. Ya'ni, o'zing yaxshi ko'radigan narsani do'stingga ham ber. O'zing yoqtirmaydigan narsani unga berma! Ko'p yoru birodarlar, haqiqiy do'stlar orttir. Chunki ularning odamga foydasi ko'p. Chin do'st tayanchdir. Kimning tayanchi bo'lsa, o'sha baquvvat hisoblanadi. Baquvvat kishining baxt va davlati mustahkam bo'ladi. O'ziga do'st topa olmagan kishi odamlarning eng ojizidir. Bundan ham ojizi esa oldiniga biron do'st topadi-yu, keyin uni ham yo'qotib qo'yadi. Sen doim yomon ish qiladigan, so'zida turmaydigan va va'dasini bajarmaydigan odamni do'st tutma. Chunki u arzimas narsani deb senga xiyonat qiladi. Sen yana yolg'onchi bilan do'st tutinma. U misoli sarobdir: yaqin narsani uzoq, uzoq narsani yaqin qilib ko'rsatadi.

Yana bir maslahatim shuki, ahmoq bilan do'st tutinma! Chunki u doim senga foyda o'rniga zarar keltiradi. Shunday ekan do'st tanlashda shoshilma, eng yaxshi, pokiza va qalbi oftobdek va odob-axloqli bolalarni o'zingga do'st qilib tanla.

## Foydali nasihatlar



1. Umar ibn Xattob shunday dedi: "Insonlarga chiroyli do'st bo'lish aqlning yarmidir. Bilmaganini chiroyli tarzda so'rash ilmning yarmidir. Chiroyli tadbir qilish hayotdagi baxtning yarmidir".

2. Odamning do'sti ko'p bo'lsa, dushmani kam bo'ladi.

3. Do'sti ko'p kishining yuragi tog'dek.

4. Chin do'stlikka qilich ham bas kelolmas.

5. Soxta do'st – ochiq dushmandan yomon.

6. Modomiki, mening do'stim dushmanim bilan ko'p o'tirgan ekan, men uni hech do'st deb bilmayman. Chindan ham zahar aralashgan shakardan saqlanish kerak, ilonga qo'ngan pashshadan esa qochmoq kerak.

7. Har narsaning yangisi, ammo do'stning eskisi yaxshi.

8. Har kimning do'st yoki dushmanligi og'ir kunlarda bilinadi.

9. Bir hakim shunday deydi: «Do'sting bergan maslahat tufayli ish tutsang-u, biroq natija yomon bo'lib chiqsa, sen do'stingni malomat qilma, unga: "Sen aytgandek qilaman, deb ishim chappasiga ketdi, nega senga maslahat soldim-a!» demagin. Chunki yana ish yuzasidan unga maslahat solsang, maslahati to'g'ri bo'lsa-da, oqibati yomon bo'lishidan qo'rqib, senga aytmaydi.

10. Sinalmagan do'st va sinalmagan dushmanga ishonish katta xatodir.

## Jamiyat oldidagi vazifalar

**M**a'lumki, odamlar jamoat bo'lib yashaydi. Shunday ekan, ularning bir-birlari oldida vazifa va majburiyatlari bor. Jamiyat a'zolari o'rtasidagi munosabat qoidalariga rioya qilinganida jamiyatda tartib bo'ladi, odamlar tinch-xotirjam va baxtli hayot kechiradilar.

Birinchi navbatda har bir inson hurmat-ehtiromga loyiq ekanini bilib olishimiz kerak. Inson zotini kamsitish, jonini xatarga qo'yish, mulkini toptash va izzat-obro'sini to'kish aslo

mumkin emas. Agar kim shunday qilsa, katta jinoyatga qo‘l urgan bilan barobardir. Har qanday jamiyatda o‘g‘rilik qilgan, odamlar mulkini nohaq tortib olgan va aldagan qattiq qoralanadi. Bu narsaga muqaddas dinimiz Islomda ham qattiq e‘tibor berilgan. Dinimizda o‘g‘rilik va odamlar sha‘nini oyoq osti qilish harom ishlardan ekani ta‘kidlangan.

Hurmatli farzandlar, jamiyat oldidagi vazifalarni sanab o‘tar ekanmiz, beixtiyor “davlat mulki” degan tushuncha yodimizga keladi. Davlat mulki bu millat mulkidir. Unda barchaning haqi bor. Shu sabab odobli bolalar davlat mulkini o‘g‘irlashi, unga zarar berishi kerak emas, balki uni o‘z mulkidek qo‘riqlashi lozim. Sen maktabdagi o‘quv jihozlarini, parta va darsliklarni qanchalik avaylab-asrasang, davlat mulkini saqlagan, o‘zingga va jamiyatga foyda keltirgan bo‘lasan.

### *Bolalar lug‘ati*



**Jamiyat** – birlashma, tashkilot; kishilar jamoasi (“jamiyat” va “jamoat” so‘zlari bir-biriga yaqin ma‘noni anglatadi).

**Jinoyat** – ayb, gunoh, jinoiy ish, yomon oqibatlariga olib boruvchi zararli xatti-harakat.

**Sha‘nini oyoq osti qilish** – hurmatini toptash, obro‘cini to‘kish.

### **Jonzotlarga shafqatli bo‘lish**

**E**y farzand, odobli bolaning qalbi insonlarga va jamiki jonzotlarga nisbatan mehr-shafqatga to‘la bo‘ladi, birontaning ko‘ngliga ozor etkazmaydi, hayvonlarga zarar bermaydi. Hayvonlarda inson uchun foyda ko‘p. Mol go‘shtini eyiladi, sutini ichiladi, terisi va junidan kiyimlar tikiladi, bir joydan boshqa joyga borishda unga miniladi. U dehqonga beminnat dastyor va yordamchidir: erini haydab beradi, sug‘orish charxpalaklarini aylantiradi va og‘ir yuklarini manzilga etkazadi va yig‘ilgan hosilini uyga tashib keltiradi. Shuning uchun

biz jonzotlarga mehribon bo‘lib, muloyimlik bilan muomala qilishimiz kerak. Chunki ular ham his qiladi, agar urilsa, joni og‘riydi. Lekin buni gapira olmaydi. Ba’zi nodon va johil odamlar ot-ulovini yurishdan bosh tortsa, boshiga kaltak bilan uradi. Bu esa ularning haqini poymol qilishga kiradi. Inson qalbidagi mehr-muhabbat uning imon-e’tiqodiga bog‘liq. Imoni kuchli odam barcha tirik jonzotlarga mehr-shafqatli bo‘lishi tabiiydir. Ko‘nglida kiri bor yomon kimsalar hayvonlarga shafqat nimaligini unutadi, ularni bekordan-bekor qiynaydilar, uradilar va haqoratlaydilar.

Payg‘ambarimiz alayhissalom aytadilar: “Bir odam yo‘lda ketayotganida juda chanqabdi, nihoyat bir quduqni ko‘rib, uning oldiga borib, undan suv olib ichib chanqog‘ini qondiribdi. Shu payt bir it tilini chiqarib, chanqoqlikdan namli tuproqni yalayotgan ekan. U odamning rahmi kelib: “Bu it ham menga o‘xshab chanqabdi”, deb quduqqa tushib, mahsisiga suv to‘ldirib itga ichiribdi. Uning bu ishidan Alloh rozi bo‘libdi va uni kechiribdi”.

Hayvonlar insonlar foydalanishlari uchun yaratilgan. Har bir hayvondan biron ishda foydalanilib, uni toqati ko‘tarmaydigan yumushlarni qilishga majburlanmaydi. Hayvonlarni vaqtida edirib, ichirishga e’tibor berish, ularni och-nahor va suvsiz tashlab qo‘ymaslik kerak. Shuningdek, ularni kuchlari etmaydigan ishlarga majburlash, kaltaklash, yuzlariga urish, iskanjaga olish, so‘kib-haqoratlash, och va suvsiz holda qoldirish gunohdir. Qushlarning uyasini buzish, polaponini olib qo‘yib, onasini chirqillatish ham yaxshi emas. Hayvon zoti bizning foydamizga yaratilgan ekan, foydalanishdan boshqa maqsadlarda ularni ermak uchun qatl etish, shunchaki o‘yin qilib biron narsa bilan poylab, ularga ozor berish yaxshi ish emas. Yomon bolalar tosh va tayoqqa o‘xshash narsalar bilan chumchuq va kabutarlarga shikast etkazadi yoki bir oyog‘ini bog‘lab osmonga uchirib o‘ynaydi. Aziz bolalar, unutmaylikki, bu ishning javobi va mas’uliyati bor. Bir qushni o‘ldirgan bola bir kuni bu qilmishi uchun albatta javob beradi. Shunday ekan, hayvon va qushlarga zarar keltirmaslik va ularga nisbatan mehribon bo‘lish kerak.

Quyidagilar jonzotlarga muloyimlik qilish jumlasidandir:

1. Unga etarli ozuqa berishi.
2. Ozuqasi, tanasi va joylari tozaligiga e'tibor berish.
3. Ustiga og'ir yuklarni yuklash va dam bermasdan to'xtovsiz ishlatish kabi toqatidan oshig'ini unga majburlamaslik.
4. Uni urib, o'ynab, bolasidan ajratib olmaslik.
5. Etarli miqdorda dam berish va kasal bo'lsa davolatish.

## **Mushukka ozor bergan bola**

*(Hikoya)*

**B**ir bola uyiga kelganda u erda uxlab yotgan mushukni ko'rib eshikni berkitdi. Shunchaki o'z ko'nglini xushlash va ermak uchun mushukning orqasidan quvib qo'lidagi kaltak bilan uni ura boshladi. Mushuk esa bir joydan boshqa joyga sakrar, jonini qutqarish uchun har tarafga qochardi. Natijada u xonadagi chinni idishlardan birini erga tushirib, uni sindirdi. Bundan bola badtar g'azablanib, mushukni beayov ura boshladi. Mushukning joni og'rib, butun kuchini to'plab, bolaning o'ziga chang soldi va uning yuzini yumdalab oldi. Buni kutmagan bola eshikka qarab qochdi va yordam so'rab baqira boshladi. Mushuk esa fursatni boy bermay uydan qochib ketdi. Shu bilan bolaning yuzi bir umr tirtiq bo'lib qoldi.

## **Navoiy bobomiz ibрати**

*(Ibratli hikoya)*

**N**avoiy bobomizning har kungi odatlari shu ediki, asr namozini ado etgandan keyin namozda bo'lmaganlarni so'rab-surishtirar, betob bo'lganlar yoki hojatmandlar bo'lsa, ulardan hol-ahvol so'rar, ularga behad mehribonliklar ko'rsatardi.

Bir kuni bu odatiga xilof ravishda namozdan keyin tezlik bilan o'z bog'lari tomonga qarab ketdi va biror joyda to'xtamadi. Odamlar bundan hayron bo'ldilar.

Hazrat Navoiy bu holni shunday izohladi:

– Men masjidga kelayotganimda, falon joyda tahorat olgan edim. Namozdaturganimda elkamda bir chumoli oʻrma layotganini koʻrdim. Bildimki, tahorat olgan joyimda u menga ilashgan ekan. Mabodo u mening elkamdan tushib, ozor topsa va iniga yoʻl topolmasa, shu sababdan uvoliga qolarman, deb qoʻrqdim. Shuning uchun namozdan keyin tezlik bilan tahorat olgan joyga borib, uni ini oldiga qoʻydim, ozor etkazish tashvishidan qutuldim. Hazratning xizmatidagilar bu hikoyani eshitgandan keyin qay darajada jonzotlarga rahmdil ekanidan hayratlandilar va duoga qoʻl ochdilar (Xondamir, “Makorimul axloq”).

**Yodda saqlang:** Alisher Navoiy – oʻzbek mumtoz adabiyatining asoschisi, adabiy tilimizni kamoliga etkazgan ulugʻ shoir va mutafakkir.

## Mehribon Hasan

*(Ibratli hikoya)*

**Q**ish kunlaridan birida Hasan non sotib olish uchun nonvoyxonaga bordi. Uyiga qaytib kelayotganida yoʻlda ozgʻin bir itni koʻrdi. Goʻyo uning qoʻlidagi nondan bir boʻlak berishini oʻtinib soʻrayotgandek tuyuldi. Bu bechora it holiga achingan Hasan oʻziga-oʻzi: “Agar bu itga nonlardan birini bersam, onam qattiq urishadi”, dedi. Ammo Hasan oʻylab oʻtirmasdan itga yordam berishga qaror qildi. Savatini qorga qoʻydi-da, bir boʻlak nonni olib maydalab it oldiga tashladi. Nonvoyxonadan chiqib bu erdan oʻtib ketayotgan bir kishi Hasanning gapini eshitib qoldi. Oʻzidagi bir boʻlak nonni sekin, bildirmasdan Hasanning savatiga solib qoʻydi. Hasan uyiga kelganida savatidagi non kamaymaganini koʻrib hayron boʻldi. Agar Hasan mana bu hadisni bilganida, bu voqeaning mohiyatini yaxshilab tushunib olgan boʻlar edi: “Kishining molu dunyosi qilingan sadaqadan kamaymaydi”.

## Mushukka aylangan sher

(Ibratli hikoya)

**B**ir zamonlar bir shaharda jinoyatchilarni vahshiylarcha jazolash usuli joriy etilgan ekan. Shahar hokimi jinoyatchilarni och qolgan sherlar oldiga tashlashni buyurar ekan. Odamlar yig'ilib, shu jazoning qanday ijro etilishini ko'rish uchun sher yotgan qafas oldiga kelishar ekan. Bir kuni egasidan qochib ketgan qulni jazolagani olib kelishibdi. Bechora qulni o'n kun och qoldirilgan bir sher oldiga keltirishibdi. Uni ko'rgan sher to'satdan to'xtab qolibdi. Keyin qulning yoniga kelib uning qo'llarini yalay boshlabdi, unga suykalib erkalanibdi.

Yig'ilganlar buni ko'rib hayron bo'lishibdi va quldan sher nima uchun unga hujum qilmaganini so'rashibdi. Shunda qul jazo berayotgan kishilarga va odamlarga qarab shunday debdi: "Ancha avval men bu sherga o'rmonda yo'liqib qoldim. Oyog'iga uchli, katta bir tikan kirib qolib, uni rosa azoblayotgan ekan. Men unga yordam berdim, shu tikanni olib tashladim, shundan beri biz do'st bo'lib qolganmiz".

Odamlarga qulning bu hikoyasi judayam ta'sir qildi. Ular qul bilan sherni birgalikda ozod qildilar. Qizig'i shundaki, sher qulga huddi uning mushugidek ergashib kelar edi.

## Salomlashish odobi

**E**y farzand, barcha insonlar nazdida maqbul sanalgan odoblardan biri salomlashishdir. Chunki salomlashish qalblarda xursandchilik, xotirjamlik va muhabbatni paydo qiladi. Salom har qanday ofat, balo va yomonliklardan uzoq bo'lish ma'nosidadir. Demak, salom bergan kishi boshqalarning yomonliklardan uzoq bo'lishini tilagan va unga yaxshilik so'rab duo qilgan bo'ladi. Ey farzand! Sen odamlarni necha marta ko'rsang ham, ular bilan salomlashishni o'zingga odat qilib ol va quyidagilarga rioya qil:

1. Uxlashdan oldin, uyqudan turganda, uydan chiqayotganda va uyga kirayotganda ota-onangga va oila a'zolaringga salom ber

va ularning muhabbatini qozon.

2. Agar uyda xizmatchi bo'lsa, unga salom ber. Agar sendan oldin salom bersa, unga alik ol. Shunday qilsang, u seni yaxshi ko'rib, ixlos bilan xizmat qiladi.

3. Duch kelgan mahalladoshingga salom ber va ochiq yuzli bo'l, ularning hurmatiga va qiyinchilik vaqtlarida mehr-muhabbatiga sazovor bo'lasan.

4. Agar bir majlisga kirsang, o'tirganlarga salom ber. Ularning har biri bilan qo'l berib ko'rishma. Faqat uy sohibi yoki majlis boshlig'i bilan ko'rishsang kifoya. Keyin o'zingga munosib joyga borib o'tir.

5. Maktabda o'rtoqlaringga salom ber, ularni hurmat qil, ulardan o'zingni katta olma va maktab rahbari va ustozlaringga har safar ko'rganingda tabassum va chiroyli odob bilan salom ber. Agar shunday qilsang, ular tarafidan e'tibor topasan.

6. Agar senga birov salom bersa, unga undan ham go'zalroq yoki o'shanga o'xshatib javob ber.

7. Kichik kattaga, turgan o'tirganga va ulovda ketayotgan piyoda odamga salom berishi odobdandir.

8. Ovqat eyayotgan va shu kabi biron ish bilan mashg'ul bo'lgan odamlarga salom berma.

9. Ota-onangdan boshqa biron kishining qo'lini o'pma.

Ba'zi bolalar "assomu alaykum", deb chala salom beradilar. Bolalar, shuni bilinglarki, "assalomu alaykum", degani "sizga tinchlik va salomatlik tilayman" ma'nosini anglatadi. "Assomu alaykum" esa "sizga o'lim bo'lsin", deganidir. Albatta biz o'zimiz yaxshi ko'rgan insonlarga faqat yaxshilik tilaymiz. Shundaymi? Demak, salomni to'liq va to'g'ri berishimiz kerak. Yana "assalom" deyish ham etarli emas. "Assalom" tinchlik-salomatlikdir. Ammo salomning ortidan "alaykum" qo'shilmasa, bu tilak kimga bildirilayotgani ma'lum bo'lmay qoladi.

Aziz bolalar, yana bir narsani bilib olinglarki, agar birontasi sizlarga chala salom bersa yoki sizlar tushunmaydigan biron tilakni bildirsa, ularga "va alaykum", deb javob qaytariladi. Bu "sizga ham shuni tilayman" deganidir. Shunda u sizga salomatlik tilasa, siz

ham unga salomatlik tilagan bo'lasiz. Agar dushmanlik ma'nosida biron so'z aytgan bo'lsa, unga munosib javob qaytargan bo'lasiz.

## Hikmat

**S**alom berish odam uchun omonlik demakdir. Salom berilsa, jon undan omonlik topadi.

## Haqiqiy do'stlik qadri

*(Ibratli hikoya)*

**A**hmad odobli o'quvchi. Bir kuni u isitmalab kasal bo'lib qoldi. Tuzalgunigacha o'rnidan turolmay yotdi. Maktabdoshlari va qo'shnilar uni ko'rish uchun kelib, sog'ayib ketishini tilab duo qilishdi. Otasi ko'rish uchun uyga kelganlar yoki telefon orqali so'raganlarning ko'pligidan taajjublanib, ularning biridan so'radi:

– Sen Ahmadning do'stimisan, sen uni yaxshi ko'rasanmi?

– Ha! – deb javob berdi u.

– Senga uning qaysi bir xulqi yoqadi?

– Uning yuzidan hamisha tabassum arimaydi, do'stlari bilan chiroyli odob bilan ko'rishadi, birinchi bo'lib ularga salom beradi, salomiga muloyimlik bilan javob qaytaradi, ko'rinmay qolgan kishilar haqida so'raydi va kasallarni borib ko'radi.

Shundan keyin otasi o'g'li o'z odobi va muloyimligi bilan odamlar mehrini qozonganini bildi.

## So'zlashish va muomala odobi

**E**y farzand, sen o'z yumushlaringni bajarishda odamlar bilan muomala qilasan. Buning uchun senga til berilgan. Sen til bilan boshqa jonzotlardan afzaldirsan. Shuning uchun sen chiroyli did-farosatga rioya qilgan holda va to'la odob bilan tilingni faqat foydali narsalarga ishlatishing kerak.

Buning uchun quyidagilarga rioya qilishing lozim:

1. Agar bir odamga gapirsang, o'rtacha ovoz bilan gapir, ya'ni sen bilan gaplashayotgan odam ranjib qolmasligi uchun ovozingni juda baland ham, past ham qilma.

2. Har bir kishi bilan darajasiga qarab gaplashishga odatlan, ota-onang, ustozlaring va boshliqlaring bilan gaplashganda to'la odobga rioya qil. Kichik ukalaring, uydagi xizmatchilar kabi sen bilan darajasi barobar kishilarga nisbatan yumshoq va muloyim bo'lishga harakat qil.

3. Chiroyli, oson, maqsadni aniq ifoda etuvchi so'zlarni tanla va odamlarga so'zingdan malol etmasligi uchun ko'p takror qilma.

4. Shoshilmay gapir, qo'ling va boshing bilan ko'p ishora qilma. So'zingni tinglashga majbur qilish uchun sen gaplashayotgan odamning biron a'zosini ushlab olma.

5. O'zing haqingda va o'zingdagi fazilatlar haqida gapirma. Chunki odamlar o'zini maqtagan kishini yomon ko'radilar.

6. Sergap bo'lma va so'zni faqat o'zingniki qilib olma. Chunki suhbatdoshing senga javob qaytara olmasligi mumkin.

7. Senga gapirayotgan odamni qo'yib boshqasi bilan gaplashishga yoki kitob va jurnal o'qishga chalg'ib ketma, so'zini tamomlashdan oldin suhbatdoshing so'zini bo'lma.

8. Agar suhbatdoshing so'zidan biron noto'g'ri narsani topsang, yolg'onchiga chiqarib yoki e'tiroz bildirib, uni xijolat qilma. Chunki u ozorlanadi va seni yomon ko'rib qoladi.

9. Agar birov sen biladigan biron hikoyatni gapirayotgan bo'lsa, so'zini bo'lib qo'ymasliging uchun hikoyani bilishingni aytib, uni hijolat qilma. Bilsang ham sabr bilan tingla.

10. Agar bir guruh odamlar o'zlariga tegishli mavzuda gaplashayotgan bo'lishsa, ularning gapiga qo'shilma. Faqat o'zlari seni suhbatga taklif qilishsagina, ularga borib qo'shil.

11. Jamoat joylarda baland ovozda gapirilmaydi.

“Maxzanul-ulum” kitobida so'zlashish odobi haqida shunday deyilgan: “So'zlashish odobi shundayki, so'zni kam so'zlasin, chunki laqmalik tentaklikning belgilaridan biridir. Kishi aytmoqchi bo'lgan gapini aql tarozisida o'lchamay turib gapirishi nomaqbuldir. Hakimlar: “Ko'p o'yla, so'ng so'zla”, deyishgan.

Ehtiyoj paydo bo'lmagan bir marta aytilgan so'zni takror gapirmasin. Biror kishi biron voqeani bayon qilishga kirishsa, eshituvchining bundan xabari bo'lsa-da, xabardorligini undan yashirsin. Chunki gapiruvchi xijolat chekishi mumkin. O'zga kishidan so'ralsa, savolga javob bermasin. Agar savol ko'pchilikka berilgan bo'lsa, u mazkur savolga javob berishga qodir bo'lsa ham, hammadan oldin javob berishga shoshilmasin. Biron kishi javob bersa, qoniqarli bo'lmasa yoki qo'shimcha qilishga qodir bo'lsa, ohista javobini aytsin. O'tirishda bo'layotgan muzokara va munozaraga daxli bo'lmagan holda aralashmasin. Kattalarga kinoyali so'z aytmasin. Tushunilishi qiyin bo'lgan so'zni misollar bilan izohlasin. Bahs-munozarada chegaradan tashqariga chiqmasin. Har bir kishiga u tushuna oladigan darajada so'zlasin”.

### ***Bolalar lug'ati***



**Muomala** – munosabat, aloqa, so'zlashuv.

**Nomaqbul** – qabul qilinmaydigan, to'g'ri bo'lmagan, noma'qul, noto'g'ri, xato.

**Bahs-munozara** – muhokama, munozara, tortishuv; musobaqa, bellashuv.

### ***Foydali nasihatlar***



1. *Muloyimlik rizq sari etaklovchi kalitdir.*

2. *Bolalar o'z otalaridan meros qilib oladigan uch afzal narsa bor: xushmuomalalik, odob va sadoqat.*

3. *Hakimlarning aytishicha, xushmuomalalikning o'nta belgisi bor. Bular: insof, aql, ilm, bag'rikenglik, oliyjanoblik, ko'rkam fe'l, yaxshilik,*

*sabr, shukr, muloyimlik.*

4. *Xayrli va savobli ishlar insonni turli halokatlardan asraydi.*

5. *Tili shirin odamning do'sti ko'p bo'ladi.*

6. *O'zingdan ulug'lar senga rahm qilishini xohlasang, o'zingdan pastlarga rahm qil.*

7. *Hakimlardan biri dedi:*

– Qadimiy hikmatlarda aytilishicha, inson o‘z yaratilish xosiyati bilan hayvonlardan afzal bo‘ldi. Unga bir og‘izu, ikki quloq berilgan. Shuning uchun u bir marta gapirishi va ko‘p marta eshitishi kerak.

8. O‘ylab so‘zlagan kishining so‘zi to‘g‘ridir, o‘rinsiz ko‘p vaysagan til shafqatsiz yovdir.

9. Aytilgan so‘z otilgan o‘qdir, aytilgandan keyin uni qaytarib bo‘lmaydi. Ko‘p so‘zda ko‘p xato bo‘ladi. Biron joyga qadalgan nayzani chiqarib olsa bo‘ladi, ammo dilga qadalgan so‘z zahrini chiqarib bo‘lmaydi.

10. So‘zlovchi ba‘zida adashadi va xato qiladi, tinglab turgan zakovatli kishi uni tuzatadi va to‘g‘rilaydi.

11. Suvning mazasi muz bilan, oshning mazasi tuz bilan, odam yaxshiligi so‘z bilandir.

12. Odam o‘z fikrini tili orqali ifodalaydi, tildan chiqqan so‘zlari yaxshi bo‘lsa, u e‘tibor topadi.

## **Turli holatlarga qanday munosabat bildirish haqida**

- A**ziz bolalar, quyidagilarni yodda saqlang:
1. Tanish kishi bilan uchrashganda: “Assalomu alaykum!” deyiladi. Shuningdek:
  2. Gap boshlashdan avval: ahvollaringiz yaxshimi, sog‘misiz!
  3. Biron ishni boshlagan kishiga: sizga omad tilayman!
  4. Yangi kiyim sotib olganga: xaridingiz barakali bo‘lsin, yaxshi kunlarga kiying!
  5. Yangi uyga ko‘chib borganlarga: yangi uyingiz qutlug‘ bo‘lsin, shu uyda xotirjam yashang!
  6. Kirib kelgan odamga: xush kelibsiz!
  7. Mehmon kelganda: xush kelibsizlar, marhamat, kiring!
  8. Mashinaga chiqqan odamga: yo‘lingiz bexatar bo‘lsin!
  9. Yordam bergan kishiga: katta rahmat!
  10. Yaxshilik qilganga: rahmat, ikki dunyo saodatiga erishing!
  11. Biron narsa bergan kishiga: rahmat, sizga ko‘paytirib bersin!

12. Ovqat eyayotganda: yoqimli ishtaha, olinglar, osh bo'lsin!  
 13. Ovqat eb bo'lgandan so'ng: alhamdulillah!  
 14. Ovqat eb bo'lgach, mezbonga: katta rahmat, ovqatingiz shirin bo'libdi!  
 15. Bemorga: tez sog'ayib ketishingizni xohlayman.  
 16. Xavf-xatarni boshidan kechirgan kishiga: qayg'ularingiz ortda qolsin!  
 17. Yaxshi xabar eshitganda: O'ziga shukr!  
 18. Yomon xabar eshitganda: Alloh asrasin!  
 19. Chaqiriqqa (telefonga) javob berishda: assalomu alaykum, qulog'im sizda, eshitaman (yoki labbay).  
 20. Uyquga ketishdan oldin ota-ona va yaqinlarga: xayrli tun, yaxshi yotib turinglar!  
 21. Xayrlashish vaqtida: xayr, yaxshi qoling, yana uchrashguncha omon bo'ling!

## Aqlli bolaning javobi

*(Ibratli hikoya)*

**P**odshohlardan biri o'z vaziridikiga mehmonga boribdi. Vazirning odobli, so'zi chiroyli o'g'li bor edi. Podshoh o'tirgach, o'sha bolani yoniga o'tkazib undan so'rabdi:

- Mening uyim chiroylimi yoki otangnikimi?
- Qachon podshoh otamning uyida bo'lsa, albatta otamning uyi chiroyli! – deb javob beribdi.

Keyin podshoh barmog'idagi qimmatbaho uzukni ko'rsatib undan so'rabdi:

- Bu uzukdan ham chiroyligini ko'rganmisan?
  - Ha! Uzuk taqilgan qo'l uzukdan chiroyli, – debdi bola.
- Podshoh uning hozirjavobligidan taajjublanib yana so'rabdi:
- Mendan keyin podshoh bo'lishni istaysanmi?
  - Podshohning o'g'li mendan ko'ra podshohlikka haqliroq, – debdi bola.

Bu javobdan podshohning shodligi yanada oshib, vazirning o'g'liga bergan tarbiyasidan mamnun bo'libdi.

## Jamoat joylarda odobsizlik sanalgan ishlar

**H**urmatli bolalar, odamlar ko'p joylarda quyidagilarni qilish odobsizlik sanaladi. Ularni yodingizda tuting va ulardan uzoq bo'ling:

1. Jamoat joylarda ovozini baland ko'tarib gapirish.
2. Tevarak-atrof tozaligiga bee'tibor bo'lish.
3. Me'yoridan ortiq hazil-mutoyiba qilish.
4. Odamlar orasida tishini tozalash, qo'lini og'ziga urish.
5. Og'zini katta ochib esnash (esnaganda og'iz o'ng qo'l bilan berkitiladi).
6. Jamoat orasida faqat o'z manfaati uchun ish yuritish, ko'pchilikni o'ylamaslik.
7. Ko'pchilik ichida bir odamni yomonlab, uning ayblarini ochish (aslida biron kishining aybi ko'rinsa, uning o'zini chetga chaqirib, muloyimlik bilan xatosi tushuntiriladi. Agar odamlar orasida aytilsa, u bundan noqulay holatga tushib, sizga dushman bo'lib qolishi mumkin).
8. Ko'pchilik orasida o'zini maqtash.

## Tilni befoyda so'zlardan tiyish

**E**y farzand, sen tilingni ehtiyot qil, faqat foydali gaplarni gapir, behuda so'zlardan yiroq bo'l. Shunda odamlar orasida suyukli bo'lasan.

Odamlar ichida suyukli bo'lib yashashing uchun quyidagi nasihatlariga amal qilishing kerak:

1. Doim to'g'ri so'zlashga odatlan. Chunki odamlar yolg'onchi deb tanilgan kimsalar bilan muomala qilishni va ularning so'ziga quloq solishni xohlamaydilar.
2. Agar sendan kichikroq bo'lsa ham, odamlarga gapirganda ularni hurmat qilishga odatlan. Chunki o'zingdan obro'si past kishilarni kamsitishga tiling o'rganib qolsa, o'zingdan ulug' kishilarga nisbatan ham odobing yomonlashadi.

3. Do'stlaringni so'kma, haqorat qilma va ularni yomon ko'radigan laqablar bilan chaqirma. Chunki bu qabih so'zlar tarbiyang yomonligiga ishoradir.

4. Biron kishini o'zi yo'qligida u eshitishni xohlamaydigan gap-so'z bilan eslama. Chunki kim odamlarning aybini qidirsam, odamlar ham uning aybini qidiradilar.

5. Alovat solish uchun odamlar o'rtasida yomon gaplar tarqatadigan chaqimchi bo'lma.

6. Sharmanda qilib, ayblarini hammaga yoyishni xohlab odamlarning sirlarini fosh etma.

7. Payg'ambarimiz alayhissalomning ushbu so'zlari doim qulog'ingda tursin: "Kim Allohga va oxirat kuniga iymon keltirgan bo'lsa, yaxshi so'z gapirsin yoki jim tursin".

Aziz farzandlar, bilingki, donolar shunday deydilar:

– tilingni tiy, so'zingni qisqa qil, bu til tiyilsa, o'zing ham yomonlikdan saqlanasan.

– odam gapirishi uchun avval unga savol berilgan bo'lishi kerak. Agar so'ralmasa, gapirmaslik kerak.

– hikmatning belgisi sukutdir va ehtiyojga yarasha so'zlashdir.

– oz demak hikmatga bois va oz emak sihatga bois.

– tilingga juda ehtiyot bo'lgin, boshing omon saqlanadi, so'zingni qisqa qil, yoshing uzayadi.

– dunyoda tilni saqlash oxiratdagi pushaymonlikdan engilroqdir.

### *Bolalar lug'ati*



**Behuda** – foydasiz, ma'nosiz, bekor; amalga oshmaydigan, xomxayol, puch; o'rinsiz, nohaq.

**Sharmanda qilish** – uyatli holatga qo'yish, uyaltirish.

**Fosh qilish** – oshkor qilish, ma'lum qilish, odamlarga bildirish.

## Hikmatlar

1. Ey farzand, dunyoda omon bo'lay desang, sergap bo'lma, zarurat tug'lsa gapir, bo'lmasa jimlikni ixtiyor qil. Eng yoqimli xislat tilni saqlay bilishdir.

2. Sergaplik o'z dushmaningdir, chunki u sening ayblaringni oshkor etadi, dushmaningni esa joyidan qo'zg'atadi (Buni Muhammad Zehniy shunday izohlaydi: "Ko'p gapirishdan saqlan, chunki ko'p gapirsang, yashirin sirlaring va kamchiliklaring o'z-o'zidan ochilib qoladi, jim yotgan dushmanlaring esa xatoyingdan foydalanib qoladilar").

3. Gapirishdan ko'ra eshitishda foyda ko'p, chunki eshituvchi o'zgar gapidan ibratli so'z durlarini terib oladi, bilmaganlarini o'rganadi, hayotning yaxshi-yomon narsalari haqida tajriba hosil qiladi.

4. Luqmoni hakimdan:

– Bemorga nima ediraylik? – deb so'rabdilar.

– Achchiq so'zdan boshqa nima edirsangiz ediraveringlar, – debdi hakim.

## Tilini tiymagan bola

*(Ibratli hikoya)*

**R**amziy hali yosh bola. Har kuni dalada ishlaydigan otasiga tushlik olib boradi. Bir kuni olisdagi qoyalar bag'rida noaniq bir narsani ko'rdi. Shunda Ramziy ko'tarilib turgan toshni o'ziga o'xshagan bir bola deb o'ylab, "bu yoqqa kel", deb baqirdi. Qoyalardagi toshlar orasidan ham "bu yoqqa kel", degan aks sado eshitildi. Ramziy aks-sado nima ekanini bilmasdi. Shuning uchun tepalikda bir bola toshlar panasiga berkinib, meni masxara qilayapti, deb o'yladi. Ramziy yana shunday deb baqira boshladi: "Menga o'zingni ko'rsat, bo'lmasa afsuslanib qolasan!" Haligi tovush ham "menga o'zingni ko'rsat, bo'lmasa afsuslanib qolasan!" deb javob qaytardi.

Butun vujudini g'azab egallagan Ramziy yana bor kuchi bilan baqira boshladi: "Chiq bu yoqqa, qo'rqqoq!" Yana xuddi

shu soʻzlarni eshitgach charchagunicha tepalikka qarab chiqdi. Tepalikda hech kimni koʻrmagan Ramziy bu magʻrur bola boshqa joyda berkinib turibdi deb oʻyladi. Oʻsha lahzada u bu bolani tutib olsa, boplab adabini berishi mumkinligi, bu qoʻrqqoq bolada unga koʻrinish uchun jurʻat qilmayotganini oʻylab, tiliga kelgan soʻzlarni aytib qoyalarga tirmasha boshladi.

Birdan otasining qorni qattiq ochib, poylab turgani Ramziyning esiga tushib qoldi. Axiyri bu bolani qidirishdan voz kechdi. Dalaga etib kelganida otasiga nima boʻlganini aytib berdi. Otasi unga bir hikmatli gapni eslatdi: “Kimki faqat oʻzi rozi boʻlgan narsalarni gapirsa, oʻzi norozi boʻladigan narsalarni eshitadi”.

## Sir saqlash

**A**ziz bolalar quyidagi nasihatlarini yaxshilab eslab qolinglar:  
1. Sir saqlash birovga sir aytib pushaymon boʻlishdan yaxshi.

2. Birovning sirini ochgan kishi sening siringni ham boshqalarga etkazadi.

3. Suhbatdosh sirini fosh qilish eng yomon aybdir.

Aziz farzandim, maslahatim shuki, sening aybingdan xabar topib, uni birovlariga oshkor qilmaydigan, senga yaxshilik qilsa, uni taʼna qilmaydigan, unga yaxshilik qilsang, aslo unutmaydigan bolalar bilan doʻst tutin, shunday doʻstni ardoqla, uni qadrla. Sir saqlay olmaydigan doʻst bir kuni senga zarar keltirib qoʻyadi.

## Foydali nasihatlar



1. Doʻstim, deb ishonib har kimga sir aytma, ehtiyot boʻl.

2. Siringni aslo birovga aytma, chunki senga oʻzingdan boshqa jonkuyar yoʻq.

3. Siring ichingda ekan, u sening asiringdir, sendan tashqariga chiqsa, sen unga asir boʻlasan.

4. Oʻttiz ikki tish orasidan chiqishga muvaffaq boʻlgan sir oʻttiz ikki mahallaga tarqaladi.

5. *Ko'p kishilar borki, ular o'z sirlarini saqlay olmasliklari tufayli halokatga duchor bo'ladilar.*

6. *Kishi so'ziga quloq tut, ammo darrov unga ishona qolma, yurak siringni ochma, yashirib maxfiy tut.*

## **Birovlarni yomonlamaslik**

Aziz bolalar, shuni bilingki, birovlarini yomonlash, ular haqida turli gap-so'zlarni tarqatish g'iybat bo'ladi. G'iybat asl insoniy fazilatlariga teskaridir, odob-axloqli bola birovlarini yomonlash va odamlar haqida noloyiq so'z aytishdan saqlanadi. Garchi bir odam haqiqatda yomon bo'lsa, uni behuda tilga olaverish, aybini oshkor qilish yaxshi emas. Balki kishining aybini yolg'iz o'ziga aytib, tuzatishga harakat qilish yaxshidir. Ko'ngli qora odamlar kishi aybini hammaning o'rtasida gapirib, birovni uyaltirishni xohlaydilar. Qalbi pok insonlar esa o'ziga o'xshagan insonlar haqida yomon gaplarni tarqatmaydilar.

### ***Bolalar lug'ati***

**G'iybat** – birovni kamsitish, ayblash va odamlar kamchiligini oshkor etish.

**Tuhmat** (bo'hton) – birovni yolg'ondan ayblash va aybsiz odamga kamchiliklar xos ekanini da'vo qilish.

Izoh: g'iybat va tuhmat orasidagi farq shuki, odamlarda bor kamchiliklarni ular yo'q vaqtlarda aytish g'iybatdir. Masalan, bir odamning rangi qora bo'lsa yoki oyog'i cho'loq bo'lsa, uni o'zi yo'q vaqtda “qora”, yoki “cho'loq” deyish g'iybatdir.

Odamlarda yo'q kamchiliklarni yolg'ondan ularga tegishli ekanini da'vo qilish tuhmatdir. Masalan, birov o'g'rilik qilmasa ham uni “o'g'ri”, deyish tuhmat bo'ladi.

Bolalar, unutmang, g'iybat va tuhmat juda yomon odat bo'lib, ikkisi ham katta gunohdir!

Aziz bolalar, quyidagi hikoyani o'qib chiqsangiz, g'iybatning qanchalik yomon ekanini bilib olasizlar.

## G'iybat evaziga qilingan yaxshilik

*(Ibratli hikoya)*

**H**asan Basriyga: “Bir kishi sizni g'iybat qildi”, deb aytdilar. Hasan darhol g'iybat qilgan kishiga bir idishda xurmo yubordi. U kishi xurmoni olgach, o'sha zahoti Hasanning oldiga kelib, undan: “Men sizni g'iybat qilgan edim, siz esa menga xurmo yuboribsiz, sababi nima?” deb so'rabdi. Shunda Hasan Basriy unga: “Sen menga yaxshilik yuborgan ekansan, men evaziga xurmo yubordim!” deb javob qilibdi.

Bundan ma'lum bo'ladiki, g'iybat qilingan odam g'iybatchiga to'g'ri yo'lni ko'rsatishi kerak, ammo g'iybat so'z g'iybatchiga zarar etkazadi, uning qilgan ishlarining savobi boshqa odamga o'tadi va odamlar oldida g'iybatchining yuzi qora bo'ladi.

## Chaqimchilik illati

**H**urmatli bolajonlar, chaqimchilik ham juda yomon odatdir. Biron erda eshitgan gapini tezda boshqa joyga borib aytish, odamlar o'rtasiga janjal va nizo urug'larini sochish chaqimchilikdir. Qalbi toza inson birovdan eshitgan gapini birovga aytmaydi, jimlik va sukut saqlashni ixtiyor etadi. Agar birov unga gap tashib kelsa, unga chiroyli nasihat qilib, uni bu qiligidan qaytaradi. Odobli bola o'zi chaqimchilik qilmasligi bilan bir qatorda boshqalarni ham bu yomon ishdan qaytaradi.

Bolalar, shuni yodda saqlanglar: eng yovuz va yaramas odam shunday odamki, o'zgalarning aybini topishga intiladi, gap tashib, do'stlarni bir-biridan ayiradi.

## Sakkiz xil taom va bir og'iz g'iybat

*(Ibratli hikoya)*

**B**ir kishi Hasan Basriyning huzuriga kelib, “falonchi sen haqingda noma'qul gaplarni gapirdi”, debdi.

– Qachon?

- Bugun.
- Qaerda?
- Uyida.
- Uning uyida nima qilayotgan eding?
- Ziyofatga borgan edim.
- Ziyofatda nima eding?

Haligi odam sakkiz xil taomning nomini sanabdi. Shunda Hasan Basriy:

– O‘sha odamning sakkiz xil taomi qorningga sig‘diyu, bir og‘iz so‘zi sig‘madimi? Tur, ket bu erdan! – dedi va g‘iybatchini oldidan quvib chiqardi.

## Maqtanchoq bo‘lmang!

**I**nson uchun eng katta kamchilik maqtanchoqlik qilish va o‘z aybini ko‘ra olmasligidir. Zero, har qanday odam xato-kamchilikdan xoli bo‘lmaydi. Shunday ekan, aziz farzandim, sen zinhor maqtanchoq bo‘lma, juda zo‘r ishlarni qilsang ham kekkayma, o‘zingni maqtama, seni boshqalar maqtasin. Aqlli bola o‘zini maqtamaydi. Nodon bolalar esa birov ular qilgan ishlarni tan olmasalar ham, doim o‘zini maqtashga harakat qiladi. Agar sen yaxshi, bilimli va odobli bola bo‘lsang, insonlar sening qanday ekaningni bilishadi, maqtanishga va o‘zingni ko‘z-ko‘z qilishga hojat qolmaydi. Demak, hayotda kamtar va xolis bo‘lish insonni yuqori martabalarni egallashiga sabab bo‘ladi. Zero, dono xalqimiz bejizga “kamtarga kamol, manmanga zavol”, deb aytmagan.

### *Bolalar lug‘ati*



**Maqtanchoq odam** – o‘zini-o‘zi maqtaydigan, maqtanishni yaxshi ko‘radigan kishi.

**Kamtar odam** – maqtanishni istamaydigan, o‘zini boshqalardan past oladigan, mag‘rurlanmaydigan kishi.

**Xolis odam** – samimiy, qalbi toza, beg‘araz, ko‘nglida kiri yo‘q, yaxshilikni biron ta‘masiz amalga oshiruvchi kishi.

## Hikmat

**B**a'zi hakimlarning aytishicha, to'rt narsa xunuk, lekin yana to'rt narsa borki, undan xunukroqdir:

1. Yoshlarning gunoh qilishlari xunuk, lekin qarilarniki bundan ham xunukroqdir;
2. Johillarning dunyo bilan mashg'ulligi xunuk, olimlarniki bundan ham xunukroqdir;
3. Barcha insonlarning dangasaliklari xunuk, olim va talabalarniki bundan ham xunukroqdir;
4. Boylarning maqtanchoqligi xunuk, ammo kambag'allarniki bundan ham xunukroqdir.

## Bahouddin Naqshbandning karomati

*(Ibratli hikoya)*

**M**uridlari hazrat Bahouddin Naqshbanddan karomat ko'rsatishni so'rashibdi. Hazrat o'rinlaridan turibdi-da, engil-engil besh-olti qadam yurib, yana joylariga o'tiribdi. Muridlar hayron bo'lib qarashibdi. Shunda hazrat Naqshband shunday debdi:

– Ikki elkamda tog'day-tog'day gunohlarni ko'tarib, qushday engil yurishimning o'zi karomat emasmi?

## *Bolalar lug'ati*



**Karomat** – noodatiy hodisa (karomat mo'jiza emas. Zero, mo'jizani faqat payg'ambarlar ko'rsatishgan. Valiylar esa karomat ko'rsatishadi).

**Hazrat** – janob, hurmatli (biron kishini hurmatlash ma'nosida uning ismi oldidan yoki ismi o'rniga ishlatiladi).

**Murid** – izdosh, ergashuvchi, shogird.

## O'ynash odobi

**E**y farzand, har bir inson ma'lum vaqtini sport bilan shug'ullanish va o'yin o'ynashga sarflashi kerak. Bu uning ishga bo'lgan g'ayratini oshiradi, tanasini baquvvat qiladi, aqliy qobiliyat va ish unumdorligini oshiradi. Sport bilan shug'ullanish bolalarni dangasa va tanbal bo'lishdan saqlaydi.

Sport o'yinlari o'quvchilarning sog'ligi va axloqiga ko'p foyda beradi. Ta'lim-tarbiya vazirligi sport va sport ishlariga alohida e'tibor berib, darslik programmalarida sport o'yinlari uchun o'quv soatlari ajratilgan. Bu vazirlik tomonidan bu sohani o'rgatadigan o'qituvchilar tayinlanib, har yili musobaqalar uyushtiriladi va unda yutib chiqqanlar uchun mukofotlar belgilanadi. Lekin o'yinlarning foydasi faqat quyidagi odoblarga rioya qilgandagina bo'ladi.

1. O'ynamoqchi bo'lgan bola o'yin vaqtida o'rtoqlari bilan go'zal odoblarga rioya qilgan holda o'ynashi kerak.

2. O'yin vaqtida hazillashib yomon so'zlar va uyatsiz gaplarni aytmasin. Chunki kim o'yin vaqtida tilini yomon so'zlarga o'rgatib qo'ysa, jiddiy turgan vaqtlarida ham yomon so'zlarni tilga oladigan bo'lib qoladi.

3. Agar ikki guruh o'ynayotgan bo'lsa, biri yutib chiqsa, unisini mazah qilishi va ustidan kulishi uchun biri boshqasini o'ziga dushman sanamasin.

4. O'ynayotganlardan biri boshqasiga ozor berish, uni urish, kiyimini yirtish yoki erga yiqitishga harakat qilmasin. Chunki o'ynovchi arziyas deb sanayotgan bu ishlar ba'zida o'ta achinarli natijalar bilan tugaydi.

5. Futbol va basketbol kabi odatiy o'yinlarni o'ynasin.

6. Har bir o'yinda o'zining va o'zi bilan o'ynayotgan bolalarning kiyimlarini yirtish va kir qilib qo'yishdan ehtiyot bo'lsin.

7. Ovqat egandan keyin darhol o'ynamasin. Chunki bu narsa oshqozonga zarar qilib, jismni qiynab qo'yadi.

8. Bolalar o'yinlarni me'yorida o'ynasinlar. Chunki charchab qolib maktab vazifalarini tayyorlashga kuch topa olmasliklari mumkin.

9. Qurol-aslaha yoki gugurt kabi uy jihozlariga talafot etkazadigan, koptok kabi deraza oynalarini va chiroqlarni sindiradigan narsalarni o'ynamasin.

10. O'yin uchun munosib vaqt tanlasin va odamlar dam oladigan yoki uxlaydigan, masalan peshin vaqtiga o'xshagan vaqtlarda o'ynamasin.

11. Shuningdek, o'yin uchun munosib joy ham tanlasin. Odamlar va mashinalar o'tadigan ko'chalarda o'ynamasin. Bog'lar va oqar suvlarga yaqin, bahavo joylar o'yin uchun eng yaxshi joylardir.

## Hikoya

**B**ir bola serqatnov katta ko'chada o'ynashga odatlangan edi. Bir kuni u o'ynayotgan to'p uchib, tez kelayotgan mashina haydovchisining yuziga tegdi. Mashina yo'ldan chiqib, piyodalar yo'lakchasiga o'tib, bir daraxtga urilib, oldi pachoq bo'ldi. Tezda militsioner etib kelib, o'ynayotgan bolalarni tutib militsiya bo'limiga olib bordi. Keyin mahkama mashinaga etgan talafot uchun bolaning otasiga jarima to'lashga hukm chiqardi.

## Vaqtning tejash va umr qadriga etish

**A**hmad tirishqoq o'quvchi. Otasi vafot etib, hatto unga maktabni bitirib olishiga yordam beradigan hech narsa qoldirmay ketdi. U o'qishini tashlab, bir savdogarga ishchi bo'lib yollandi. Bo'sh vaqtlarida kechki maktabga qatnab, ta'lim olardi. U qancha qiynalsa ham, nihoyat huquqshunoslik shahodatnomasini qo'lga kiritdi. Shundan keyin u savdogar xizmatidan bo'shab, himoyachi-advokat bo'lib ishlay boshladi. U tirishqoqligi va vaqtini zoe ketkizmagani bois hech qancha o'tmasdan obro'si ko'tarilib, nomi hamma yoqqa ovoza bo'ldi.

Bu yigit vaqtning qadrini bilib, undan unumli foydalangani uchun katta yutuqlarga erishdi. Agar bo'sh vaqtini o'yin-kulgiga sarflaganida, hech kim uni tanimasdi va kambag'al holda hayot kechirgan bo'lardi.

Safar qilmoqchi bo'lgan kishi poezdning ketish vaqtiga rioya qilmasa, keyingi poezd kelishini kutib vaqti bekor ketadi. Dehqon o'z vaqtida eriga ekinni ekmasa, qo'shnilar hosilni yig'ishtirayotganlarini ko'rganda pushaymon bo'ladi.

Mana shundan ko'ryapsanki, vaqtni tejash degani uni foydali o'rinlarga sarflash demakdir. Ya'ni, sen vaqtingni tartibga solishing va undan unumli foydalanishing kerak. Sen puldan ko'ra ko'proq vaqtingni qizg'anishing kerak. Chunki o'tgan ozgina umr hech qachon qaytib kelmaydi.

Aziz bolalar, sizlar vaqtingizni tejab, uni foydali ishlarga sarflashga, umrni behuda ketkazmaslikka harakat qiling. Televizorda beriladigan kino va multfilmlar sizni dars qilish va boshqa foydali ishlardan chalg'itib qo'ymasin. Aslo televizorga qaram bo'lib qolmang. Zero, vaqtini foydali ishlarga sarflagan bolalar kelajakda, albatta, katta yutuqlarga erishadilar.

Hadisi shariflarning birida shunday tavsiya qilingan: "Besh narsadan oldin besh narsaning qadriga et:

1. Qarilikdan oldin yoshlikni;
2. Kasallikdan oldin sog'liqni;
3. Kambag'al bo'lib qolishdan oldin boylikni;
4. Mashg'ul bo'lib qolishdan oldin bo'sh vaqtni;
5. O'limdan oldin tiriklikni (qadriga et)".

Quyidagilar ham vaqtni tejash doirasiga kiradi:

1. Har bir ishni o'z vaqtida qil. Chunki kim bir ishni boshqa vaqtga qoldirsa, uning ishlari ko'payib ketadi. Natijada ularni puxta qilolmaydi.

2. Har bir amal uchun alohida vaqt belgilashing kerak bo'ladi. Chunki vaqtning ishsiz o'tishi umrning befoyda ketishidir.

3. O'ynash va dam olish uchun alohida vaqt ajrat. Chunki bir kunda bir soat o'ynash g'ayrat-shijoatni yangilaydi va ishlashga quvvatni ziyoda qiladi.

4. Uyda befoyda ishlar bilan shug'ullanib yoki ko'chada bolalar bilan bekorchi gaplarni gaplashib yozgi ta'tilni bekor o'tkazma. Balki unda ham hayvonot bog'i yoki muzeyga borish, futbol o'ynash yoki odob-axloqqa va aql-zakovatga foydali

kitoblarni, gazeta va jurnallarni o'qish singari ishlar bilan mashg'ul bo'l.

5. Kompyuterdan o'z o'rnida foydalan, ko'p vaqtingni kompyuter o'yinlarini o'ynab o'tkazma.

Bolalar, unutmangki, kim vaqtini zoe ketkizsa, bu vaqt uning zarariga ishlaydi.

### *Bolalar lug'ati*



**Tirishqoq** – harakatchan, astoydil harakat qiladigan, uddaburon, g'ayratli va shijoatli (dangasaning teskarisi).

**Behuda ketkazish** – bekor ketkazish, o'rinsiz sarflash (vaqt, pul va boshqa narsalarni).

**Puxta bajarish** – biron ishni o'ylab, mukammal holda bajarish (“puxta” so'zi “pishiq”, “tajribali”, “mohir”, “mustahkam”, “asosli” kabi ma'nolarni anglatadi).

### **Maqollar**

1. Vaqt g'animat, o'tsa nadomat.
2. Vaqting ketdi, baxting ketdi.
3. Gap ko'p – umr oz.
4. Yozda ishlamagan qishda kesak er.
5. Yo'qotilgan oltin topilar, yo'qotilgan vaqt topilmas.
6. O'tgan vaqt yo'qolgan oltindan qimmat.

### **Hikmat**

**A** bu Bakr Siddiqdan shunday rivoyat qilinadi: “Uch narsani uch narsa bilan topib bo'lmaydi:

1. Boylikni orzu bilan topib bo'lmaydi;
2. Yoshlikni bo'yanish bilan topib bo'lmaydi;
3. Sog'liqni dori-darmon bilan topib bo'lmaydi”.

## Yoshlik qadriga etish

**A**ziz bolalar, yoshlik davri g'animatdir. U juda tez o'tib ketadi. Yaqindagina maktabda o'qib yurgan bolalar ko'z ochib yumguncha ulg'ayib, turli sohalarada ishlaydilar. Xullas, bilgan kishiga vaqt suvdek oqib o'tib ketadi. Shu sabab yoshlikni qadriga etish, uni foydali ishlar va mashg'ulotlar bilan o'tkazish kerak. Jumladan, ilm va odobni, biron kasb-hunarni o'rganish har bir bola uchun muhimdir. To'g'ri, bolalarni vaqti-vaqti bilan o'rtoqlari bilan o'ynashdan qaytarilmaydi. Ammo bolalikning hamma vaqtini o'yin-kulgu bilan o'tkazish to'g'ri emas. Balki bolalik chog'ida ilm olish qay darajada ahamiyatli ekanini tushunib etsak, yoshimiz ulg'ayganida uning mevasini ko'ramiz. Rivoyatlarda kelishicha, tabobat ilmining katta olimi Abu Ali ibn Sino 18 yoshiga qadar juda ko'p ilmlarni egallab, 20-25 yoshlarida etuk olimlik maqomini egallagan edi. Ko'rdingizmi, bolalar, har bir bola yoshligini g'animat bilib, bu vaqtlardan unumli foydalansa, katta bo'lganida egallagan ilmi o'ziga juda ko'p foyda keltiradi.

### *Foydali nasihatlar*



1. *Yoshlik toshqin suv, sug'oriladigan ekinzoringizni sug'orib qolmasangiz o'tib ketadi. Keyin keksalikning ko'zoynagini taqib, igna bilan quduq qazishdan ish chiqmaydi.*
2. *Sizlarda yoshlik kuch-quvvati bor ekan, uni zoe ketkazmasdan burchingizni bajarishga sarflang.*
3. *Yoshlik sofliğini saqlab qolishning eng yaxshi yo'li – yomon xislatlarga ko'ngildan o'rin bermaslik, bolalikni saqlab qolish. Bolalik sofliğini saqlab qolgan kishilar dunyoda eng baxtlidir.*

### **Kundalik ishlarni tartibga solish**

**I**shlash, dam olish va boshqa zaruriy yumushlarni bajarish vaqtlarini tartibga keltirish yuksalishning eng ulug' dasturidir. Tartibsiz va pala-partish ishlarda doim kamchilik

bo'ladi. Bu insonning qoloqlikka qarab ketishiga, ishlaridan unum va baraka ko'tarilishiga sabab bo'ladi. Ayniqsa, hozirgi tezkor zamonda har bir ishni o'z vaqtida bajarish, dam olish va boshqa kerakli yumushlarga ham vaqt ajrata bilish talab etiladi.

Tartibli yashash inson umrini barakali qiladi. Vaqt qadrini bilmagan bola o'z qadrini ham yo'qotadi. Vaqtning besh daqiqasi ham katta ahamiyatga ega. Chunki shu besh daqiqalar yig'lsa, soatlarga, soatlar kunlarga, kunlar haftalar, haftalar oylarga, oylar esa yillarga aylanadi. Umrimiz yillardan iborat. Shunday ekan, umrimizning kichik bo'lagini ham behuda ishlarga sarflamasligimiz lozim.

### *Bolalar lug'ati*



**Tartibga solish** – tartibli holga keltirish.

**Zaruriy yumush** – kerakli va muhim ish.

**Pala-partish** – tartibsiz, betartib, chala-chulpa, o'ylamay-netmay qilingan ish.

### **Tejamkorlik**

**A**liga otasidan katta boylik meros bo'lib qoldi. Shu boylik evaziga Ali va uning oilasi otasidan keyin ham yaxshi yashay boshladi. Lekin u o'zini ko'rsatishga va boylarga o'xshashga harakat qildirdi. Shuning uchun u qimmatbaho mashina sotib oldi, chiroyli qasrdek hovlida yashashni istab qoldi, o'yin-kulgularga berilib ketdi. Natijada kirimidan ko'ra ko'proq pul sarflay boshladi.

Puli qolmagach, ba'zi banklardan qarz olishga o'tdi. Hatto bo'ynidagi qarzlari ko'payib, qo'l ostidagi mol-mulkni birma-bir sota boshladi. Nihoyat, uning qo'lida hech narsa qolmadi. Shu tariqa Ali pulni behuda sarflash tufayli oilasi qiyin ahvolga tushib qoldi.

Bunga ish oqibatini o'ylamagan, zamonning o'zgarib turishini va hayotda kutilmagan hodisalar ro'y berishini hisobga ola bilmagan oila boshlig'i sababchi bo'ldi. Natijada uni o'ylamay qilgan ishi xorlik va kambag'allikka yo'liqtirdi. Agar sarf-xarajatni

kamaytirib, boshqalardan qarz olmaganida o'zi ham, oilasi ham qiynalib qolmasdi.

Aziz bolalar, tejamkorlik pul sarflashda o'rtamiyona bo'lishdir. Ya'ni, hayotda kutilmagan hodisalarini hisobga olmasdan qo'lidagi pullarning hammasini sarflab yubormasin, o'zi va oilasiga sarflashda juda baxillik ham qilmasin. Mol-dunyo yig'ishga berilib ularni taom, kiyim, turar joy va davolanishlariga kerakli narsalardan mahrum qilmasin. Agar shunday qilsa, oilasi uni yomon ko'rib qoladi.

Tejamkor odam pulini keragidan ortiqcha narsalarga sarflamaydi. O'n so'mga olinadigan narsa uchun hovliqib, yuz so'm sarflamaydi. Pulni faqat kerakli narsalargagina sarflaydi. Har bir ishda o'rtacha yo'l tutadi. Agar o'n so'mga olish mumkin bo'lgan narsaga yuz so'm ishlataversa, bir kuni pushaymon bo'ladi. Chunki hayotda tejamkorlik nimaligini bilmaydiganlar muhtojlikka tushib qoladilar. Isrofgarlik puldan barakani ketkazadi. Shuni unutmang, aziz bolalar.

Quyidagilarga amal qilish tejamkor bo'lishga yordam beradi:

1. Harajatning har biri uchun o'zingga munosib miqdor belgila.
2. Musibatlar paytida sarflash uchun kirimning muayyan qismini jamg'arib qo'yishga e'tibor ber.

3. Ortiqcha dabdabalarga sarf-xarajatni ko'paytirib yuborma. Masalan, qimmatroq mashina sotib olish, o'yingohlarni ko'p ziyorat qilish, yangi chiqqan kiyim va boshqa shu kabi narsalarga pulni bekorga sarflash demakdir.

4. Sendan puli ko'p boylarga o'xshashga intilma. Chunki Alloh insonlarni turli xil toifa va tabaqalarda yaratgan. Hamma bir xil boy yoki kambag'al bo'lmaydi. Kimdir boy, kimdir o'rtahol, yana kimdir kambag'al bo'ladi. Sen o'zingdagi mavjud narsalarga shukr qil va ulardan tejamkorlik bilan foydalan.

5. Senga berilgan ne'matlar qadrini bilishing uchun hayotda sendan darajasi pastroq odamlarga nazar sol.

6. Imkon qadar birovdan qarz olma. Chunki qarz olishga o'rganib qolgan kishi o'ziga kambag'allik va g'am-tashvish eshiklarini ochgan bo'ladi.

7. O'zingdagi ortiqcha pullarni ishlatib yuborishdan qo'rqsang, bironta omonatdor kishiga berib qo'y. Chunki pulning qo'lingga yaqin bo'lishi undan foydalanishni senga oson qiladi.

Hikmatda aytilishicha, kim maslahatlashib ish tutsa, hech qachon pushaymon bo'lmaydi. Kim tejamkorlik bilan o'rtacha yo'l tutsa, hech vaqt kambag'al bo'lmaydi.

Aziz bolalar, bu maslahatlar sizlarga kelajakda juda asqotadi. Shu sabab ularni yodda tuting.

### *Bolalar lug'ati*



**Tejamkorlik** – tejam bilan ish tutish, isrof qilmaslik.

**Sarf-xarajat** – ishlatiladigan pul, mablag'.

**Isrofgarchilik** – isrof qilish, isrofga yo'l qo'yish, behuda sarflash, uvol qilish.

### **Isrofdan saqlaning!**

Aziz bolalar, isrof tejamkorlikning ziddidir. Isrofgarlik aqlga zid ishdir. Isrof deganda keraksiz narsalarga behuda pul sarflash tushuniladi. Isrofgarlikning oxiri halokat va ziyon. Isrofchi odam qanchalik boy bo'lmasin, baribir oqibatda kambag'alga aylanadi. Chunki isrofchi uchun har narsaning eshigi ochiq bo'ladi. Bu eshikdan kambag'allik va muhtojlik ham kirib keladi.

Bolajonlar, ota-onalarimizning ertadan kechgacha ishlab pul topishlariga e'tibor qarataylik. Ularga bu ish oson emas. Shunday ekan, ular topgan pulni qadrlaylik, pulni behuda narsalarga sarflamaylik. Shunda ota-onamiz bizdan xursand bo'lishadi.

Qanday pul topish va uni qaerga ishlatish borasida muqaddas Islom dinimiz ta'limotlarida kerakli ko'rsatmalar berilgan. Avvalo, pul halol yo'l bilan topilishi kerak. Birovlarni norozi qilib topilgan pul, masalan o'g'rilik qilib topilgan pul halol emas. Shundan keyin halol yo'l bilan topilgan pulni halol ishlarga, ezgulik yo'lga sarflash kerak. Haloldan topib gunoh ishlarga, yomonlik yo'lga sarflash ham noto'g'ri.

Endi yana bir narsaga e'tibor qarataylik, puli bo'la turib uni kerakli narsalarga sarflamaslik baxillikdir. Zero, qo'lidagi pulni oila a'zolariga, kambag'al va muhtoj kishilarga, xayriya ishlariga sarflamayotgan kishi ayni baxildir. Bunday kishining puli borligidan nima foyda bor? Zarur bo'lganida ham pulini sarflamay, faqat ko'paytirish payida bo'lishdan foyda yo'q. Buning aksi-chi, pul topib, uni keraksiz narsalarga sarflab yuborish ham aslo to'g'ri emas. Ushbu holatlarning har ikkisi ham xatodir. Eng to'g'risi o'rtacha yo'l tutishdir. Ya'ni, oila a'zolari va kambag'allarga kerakli darajada sarf qilish va ortiqcha sarf-xarajatdan tiyilish insonni komillik darajasiga olib chiqadi. Kim o'rtacha yo'lni tutsa, kambag'allikdan ham, isrofgarchilikdan ham saqlanadi.

Juda ko'p kishilar isrof aslida nima ekanini bilmaganlari uchun ne'matlarni isrof qiladilar. Ba'zilar faqat pul to'lanadigan narsalarni tejash kerak, deb tushunadigan va tekin yoki arzon ne'matlarni xohlagancha ishlataveradilar. Bu noto'g'ri. Chunki ne'matlarning qadri insonlar nazdidagi qadri bilan emas, balki Yaratgan Alloh dargohidagi qadri bilan o'lchanadi. Mana bir misol, suvni olaylik. Ko'pchilik odamlar anhor to'la suv, uni xohlaganingcha ishlataverasan, deb tushunadilar. Aslida ichimlik suvi eng qadrli va bebaho ne'matdir. Dunyodagi aksar odamlar bunga amal qilmayotganlari bois hozirda ichimlik suvi muammo darajasiga chiqib bormoqda. Ba'zi mamlakatlarda ichimlik suvi juda qimmatbaho narsaga aylanib ulgurdi. Shunday ekan, biz har bir ne'mat qadriga etishimiz kerak.

### *Bolalar lug'ati*



**Ezgulik yo'li** – yaxshilikka yo'llovchi yo'l.

**Xayriya ishlari** – saxovat, ehson, muhtojlarga yordam qilish.

**Qadriga etish** – ahamiyat berish, e'zozlash, biron narsa yoki kimsaning hurmatiga yarasha muomalada bo'lish.

## **Foydali nasihatlar**



1. Shamini kunduzi yondirgan odamning tuni qorong' u bo' ladi.

2. Pulini behuda isrof qilgan odam og' ir kunlarda xor-zor bo' ladi.

3. Muhtoj bo' lmaganga sadaqa berish isrof hisoblanadi.

4. Vakillari isrof kasalligiga yo' liqqan millat shubha yo' qki, balo va halokatga uchraydi. Agar dunyo tarixiga nazar solsangiz, dunyodagi qavmlarning nobud bo' lish sabablaridan biri shu isrofgarlikdir.

## **Baxillikdan uzoq bo' ling!**

**H**urmatli bolajonlar, yuqorida ne' matlardan tejamkorlik bilan foydalanish lozimligi va isrofdan saqlanish kerakligi aytili. Ba' zi insonlar tejamkorlikni baxillik va isrofn saxiylik, deb tushunadilar. Bu noto' g' ri tushunchadir. Chunki tejamkorlik hech qachon baxillik sanalmaydi. Tejamkor behuda sarf-xarajatdan saqlanuvchi, faqat eng kerakli narsalar uchun pul va boshqa narsalarni ishlatuvchi kishidir. Baxil esa eng kerakli joylarga ham pul ishlatishni xohlamaydi. Tejamkorlik maqtalغان xislatdir. Baxillik esa qoralanadi. Bolalar, mana shu farqni yaxshi ajratib olinglar.

Yana boshqa odamlar isrofn saxiylik bilan chalkashtirib yuboradilar. Isrof ne' matlarni behuda sarflashdan iborat bo' lib, albatta bu qoralangan xislatdir. Saxiylik esa bag' rikenglik bo' lib, pulni lozim bo' lgan miqdordan biroz ko' proq sarflashni bildiradi. Shuningdek, qarz olgan odam qarzini to' lashga qiynalib qolganda ham uning muddatini uzaytirish yo bo' lmasa, qarzidan kechib yuborish ham saxiylikka kiradi. Saxiylik zinhor isrof emas.

## **Bolalar lug' ati**



**Xislat** – sifat, xususiyat, fazilat.

**Baxil** – ziqna, xasis, birovga narsasini bermaydigan.

**Saxiy** – qo' li ochiq, saxovatli, himmatli, hech kimdan narsasini ayamaydigan.

## **Foydali nasihatlar**



1. Uch narsadan uch narsani topsa bo'ladi: sabrdan najot, saxovatdan ulug'lik va adolatdan g'alaba (Xoja Ahror Valiy).

2. Har g'aniyki, tirikligida ehsonidan ko'ngullarni shod qilmag'ay, o'lganidan so'ng ani kimsa duo ila yod qilmag'ay (Alisher Navoiy).

3. Saxovat shunday bir buyuk sifatki, uni doim maqtov bilan eslaydilar.

4. Saxiy odam xalqqa dunyoni suvdek oqizib ulashsa, xalq uning tevaragiga suvdek oqib, yig'ilib keladi.

5. Yumshamas ko'ngilni saxiy yumshatadi, etib bo'lmas murodga saxiy kishi erisha oladi.

6. Odamlar muhabbatini o'zingga jalb qilmoqchi bo'lsang, saxiy bo'l, saxovat seni sevikli qiladi.

7. Saxiylik juda yaxshi xislat, uni hech qo'ymaslik kerak, lekin o'zganing moli bilan saxiylik qilmaslik kerak.

## **To'rtga bo'lingan olma**

*(Ibratli hikoya)*

**CH**or askarlari asirga tushgan shayx Shomil ustidan kulish uchun bir necha kun unga na bir burda non va na bir qultum suv beribdilar. So'ng qip-qizil chiroyli olmani oldilariga qo'yishibdi. Ularning o'ylashicha, och va tashna shayx Shomil olmaga tashlanib, ochofatlarcha eyishi, ular esa uni masxara qilib kulishlari kerak edi. Ammo oradan yana bir necha kun o'tibdi hamki, shayx Shomil olmaga qo'l urmay, uni tomosha qilib o'tiraveribdi. Bu holdan hayratga tushgan uch rus askari olmani nega emayotganini so'rashibdi:

– Menga bir pichoq keltirsangiz, – debdi shayx. Aksarlar pichoq keltirishibdi. Shayx Shomil olmani qo'lga olib to'rt qismga bo'libdi. Uch qismini uch askarga berib, eng kichik bo'lagini o'ziga olibdi...

## Baxillik oqibati

*(Ibratli qissa)*

**B**ir solih kishining mevazor bog'i bor edi. U bog'ning hosilga kirib, meva berishini kutar, mevalar pishganidan keyin, kambag'allarni chaqirib, mevalardan uzib, ularga ulashar edi. Shu tariqa uning bog'iga baraka kirdi. Bog' mo'l-ko'l hosil berar edi. Har gal bog'dagi mevalardan kambag'allarga ko'proq bergani sayin hosil ham yildan-yilga ko'payib boraverardi. Solih kishi qilayotgan ishidan mamnun bo'lib, vaqti-soati kelib vafot etdi. Bog' uning o'g'illariga meros bo'lib qoldi. Ammo ular:

– Bog'imiz mevalarini kambag'allarga nima uchun berar ekan-miz? Bu yildan boshlab, uning mevalarini hech kimga bermaymiz, – dedilar. Ularning ichida aqlli va solih farzand bor edi. U akalariga:

– Allohdan qo'rqinglar! Otamizning yaxshi odatini to'xtatib qo'ymanglar, – dedi. Qolganlari esa:

– Yo'q, bular bizning haqqimiz, anavi tekinxo'rlar haqqi emas. Agar ular ozgina olishsa ham, nasibamiz kamayib qoladi. Xudo haqqi, bu yil hech kimga hech narsa bermaymiz! – deyishdi.

Shu kechasi boqqa yondiruvchi bo'ron yog'ildi. Hammayoq kuyib, kulga aylandi. Bog' egalari bundan bexabar uxlab yotishardi. Ular tong otishi bilan boqqa borib, mevalarni uzib olishmoqchi va kambag'al-miskinlardan buni sir tutmoqchi bo'lishdi. Tong arafasida bir-birlarini imo-ishora bilan bildirmay chaqirdilar. Hech kim sezmasligi uchun oyoq uchida yurib ketishdi. Bir-birlari ortidan asta-sekin oyoq uchida yurib boqqa qarab borishdi. Boqqa kirayotib birlari:

– Xudoga shukr, miskinlardan birontasi ham bizni payqab qolmadi, – dedi.

Lekin qaysi ko'z bilan ko'rsinlarki, daraxtlar yashin urgandek kuyib, qorayib ketgan va mevasidan asar ham qolmagan edi.

– E voh! – deb yuborishdi. – Yanglishdik, qorong'ida adashib boshqa boqqa kirib qoldik. Bu bizning bog' emas-ku?! Endi nima qilamiz!?

Shunda oqil farzand dedi:

– Yo‘q! Bu bog‘imizning xuddi o‘zginasi. Sizlar kambag‘allarni uning hosilidan mahrum qilmoqchi bo‘lganlaringiz uchun ham bu bog‘ kuydirib yuborildi!

## **O‘rtacha bo‘lishni odat qiling!**

**B**olalar, har bir ishda o‘rtacha yo‘lni tanlash zarur. Zero, haddan oshish ham va o‘rtachadan kamaytirish ham nuqson sanaladi. Har bir ishda mo‘tadil bo‘lishga intilgan odam insof va adolat bilan ish tutadi. Masalan, ovqatlanayotgan bola ochko‘zlik qilib ko‘p taom eb yuborsa, qorni og‘rib qolishi va yana uyquchi bo‘lib qolishi mumkin. Buning aksi bo‘lsa-chi? Juda kam ovqat egan bola quvvati ketib, maktabga bora olmasligi va bir pasda qorni ochib qolib, ilm qulog‘iga kirmasligi mumkin. Shu sabab ovqatni me‘yorida eyish kerak. Chunki ochofatlik odamning moddiy va ma‘naviy holatini buzadi. Buni uyqu misolida ham ko‘rish mumkin. Ko‘p uxlash bolani dangasa qilib qo‘yadi. Ko‘p uxlagan bolaning qo‘li ishga bormaydi. Chunki hadeb uxlayverganidan yalqovlik tanasiga o‘rnashib oladi. Yana ko‘p uxlagan bolalar o‘z vazifalarini vaqtida bajara olmaydi va ustozidan tanbeh eshitadi. Agar kam uxlasa-chi? Kam uxlash ham bolalarning sog‘lig‘i va ruhiy holatiga ta‘sir ko‘rsatadi. Odam sog‘lom bo‘lishi uchun ayni vaqtida dam olib, ayni vaqtida o‘z ishlarini bajarishi kerak. Kamolotga har bir ishni me‘yorida qilish bilan erishiladi. Bir sohada ilgarilab ketib, boshqa sohalarida sustkashlikka yo‘l qo‘yish, bir ishni ko‘proq bajarib, boshqalarini pala-partish amalga oshirish kamchilikdir.

Aziz bolalar, demak, ovqat eyish, uxlash, bolalar bilan o‘ynash va yana qolgan barcha ishlarda me‘yorga rioya qilib, dangasalik va sustkashlikdan saqlanish lozim ekan.

## *Bolalar lug'ati*



**Mo'tadillik** – o'rtacha bo'lish, o'rtamiyonalik (Masalan, bolalar bo'yining juda uzun ham, qisqa ham bo'lmasligi mo'tadillikdir. Shuningdek, havo juda issiq yoki o'ta sovuq bo'lmasa, mo'tadil hisoblanadi).

**Haddan oshish** – chegaradan chiqish, me'yorni unutish.

**Nuqson** – kamchilik, ayb, xato, etishmovchilik.

**Ochofatlik** – ochko'zlik, ebto'ymaslik, badnafslilik.

**Sustkashlik** – imillash, bo'shashganlik, lanjlik.

## *Foydali nasihatlar*



*Ibrohim Naxa'iy shunday degan ekan: "Sizlardan oldingi qavm uch narsa tufayli halokatga uchradi:*

- 1. Ko'p gapirganliklari;*
- 2. Ko'p taom eganliklari;*
- 3. Ko'p uxlaganliklari".*

## **Televizorni me'yorida ko'ring!**

**B**olajonlar, hozirgi vaqtda ko'pchilik bolalar televizor ko'rish va kompyuter o'yinlarini juda yoqtiradi. Ayrimlari darsdan bo'shagan zahoti uyiga borishni ham unutib, kompyuter oldida har xil o'yinlarni o'ynab kunni kech qiladi. Ammo har bir ishda me'yorni saqlansa, haddan oshilmasa, sog'likka zarar bo'lmaydi, yana boshqa ishlari o'lda-jo'lda bo'lib qolmaydi. Ayrim qiz bolalar uyga kelgan zahoti uy yumushlarini bajarish va supurib-sidirish o'rniga hali kechgacha ulguraman, degan xayolda televizor oldida o'tirib qoladi va onasidan dakki eshitadi. Yaxshilab o'ylab ko'rilsa, vaqt oltindan qimmat ekani ayon bo'ladi. Ayrim o'g'il-qizlar televizorda behayo va bachkana filmlar, bemehrlik, shafqatsizlik va axloqsizlikni targ'ib qiluvchi multfilmlarni ota-onalaridan yashirincha ko'rishga odatlanadi. Aslida bu-

larni hech bir inson ko'rish joiz emas. Zero, ular inson qalbini qotirib, ma'naviyatini buzadi.

Shifokorlar bolalarning televizorni qancha muddat ko'rishlari mumkinligi haqida kerakli tavsiyalarni berishgan.

## **Bolalar televizorni qancha vaqt ko'rishlari mumkin?**

**T**elevizorda namoyish etiladigan ko'rsatuvlarni tomosha qilishdan oldin va undan keyin ko'rish a'zolari tekshirib ko'rilganda, ko'zning tez charchab-toliqib qolgani aniqlangan. Bunda birinchi navbatda ko'zning akkomodatsion apparati charchaydi. Bu apparat idrok qilinayotgan tasvirning aniqligini ta'minlaydi. Ko'z tez toliqib qolmasligi uchun televizor ekranidan kamida uch metr uzoqlikda o'tirish kerak.

Bola qancha yosh bo'lsa, televizor qarshisida shuncha kam o'tirishi kerak. Jumladan, 4 yoshli bolalar 15 daqiqa, maktabgacha yoshdagi bolalar kuni bilan yarim soat, 14 yoshgacha bo'lgan maktab o'quvchilari ko'pi bilan bir soat, yuqori sinf o'quvchilari esa ikki soat teleko'rsatuvlarni tomosha qilishlari ma'qul deb topilgan. Ayniqsa, teleko'rsatuvlarni rangli televizorda tomosha qilganda oq-qora rangda ko'rsatadigan televizorga nisbatan ko'zni unchalik zo'riqtirmaydi. Rangli tasvir akkomodatsion apparatdan zo'riqishning bir qismini olib, ko'zning rangli idrok etish apparatini stimullaydi. Shunday bo'lsa-da, xoh rangli, xoh oq-qora televizor bo'lishidan qat'iy nazar, mutaxassislar imkon qadar kamroq televizor ko'rishni tavsiya etadilar. Demak, hurmatli bolalar, imkon qadar kamroq televizor ko'rish, buning o'rniga ustoz topshirgan uy vazifalarini tayyorlash, badiiy kitoblar o'qish, ota-onamizga ko'maklashish va bo'sh vaqtimizda tengqur bolalar bilan o'ynash juda foydali deb aytilgan.

## Yomon sifatlarni bilib oling!

**A**ziz bolajonlar, quyida sanab o'tiladigan sifatlarni yomonlikka sabab bo'ladi. Ulardan uzoq yurish kerak:

1. Dinni, muqaddas narsalar va joylarni oyoq osti qilish.
2. Nodonlik, bilimsizlik, beodoblik, jaholat va zulmat.
3. O'z nomini bulg'ash, isnodga qolish, badnom bo'lishdan qo'rqib haqiqatni bekitish, yolg'on gapirish.
4. O'ziga bino qo'yish va o'zini hammadan yuqori deb o'ylash.
5. Dinga, sog'lom aqlga to'g'ri kelmaydigan ishlarni, gunoh amallarni qilish.
6. Xoh yaxshi, xoh yomon bo'lsin, biron ishga mukkadan ketib, boshqa narsalarni unutilib qo'yish, haddidan oshish.
7. E'tiqodi yo'q kishilarga taqlid qilish, ularga o'xshashni orzu qilish.
8. Ikkiyuzlamachilik, riyokorlik, odamlarga faqat moddiy imkoniga qarab muomalada bo'lish, boyga mulozamat qilib, kambag'alni kamsitish.
9. Hayotda ayshu ishratga o'chlik, lazzat va rohatni o'ylab yashashni orzu qilish (Zero, hayot faqat mazza qilib yashashdangina iborat emas).
10. Ochko'z va baxil bo'lish.
11. Kibr-havo, g'urur, dimog'dorlik, o'zini katta tutish.
12. Mag'rurlanib ketish, hatto yaxshi ishlari bilan ham maqtanish.
13. Hasad, birovlarining yutug'ini ko'ra olmaslik, qizg'anchilik.
14. O'zgalarning baxtsizligi va kulfatidan xursand bo'lish.
15. Laganbardorlik, tilyog'lamalilik qilish, xushomad.
16. Qarindosh va yaqinlaridan uzoqlashib, ularga mehrsiz bo'lish.
17. Qo'rqqoqlik qilish, etarli darajada shijoat, g'ayrat ko'rsata olmaslik.
18. G'azab, haddan ortiqcha jahl, me'yoridan ortiq qattiqqo'llik qilish.

19. O'z so'zi va bergan va'dasida turmaslik, makkorlik, munofiqlik, vafosizlik.

20. Sotqinlik, isyonchi va fitnachi bo'lish, so'zi boshqa, ishi boshqa bo'lish, birovlarining xotirjamligi va tinchligini buzish.

21. Odamlar haqida yomon gumon qilish, ular haqida noto'g'ri o'y-fikrga borish.

22. Mol-dunyoga o'chlik, baxillik va ziqnalik.

23. Yaxshi ishlarni va yumushlarni kechiktirish, ularni o'z vaqtida qilmaslik.

24. Gunoh ishlarni yaxshi ko'rish, ta'qiqlangan ishlarni qilish, odamlarga azob berish, ularning dilini og'ritish.

25. O'jarlik va to'g'ri narsalarni ko'rsa yoki eshitsa ham qabul qilmaslik, haqiqatni inkor etish.

26. Kaltafahmlik, yaxshi va yomonning orasini ajrata olmaslik yoki ajrata olishga harakat qilmaslik.

27. Odamlarni haqoratlash va ularga yomonlik tilash.

28. Odamlarni laqab bilan chaqirish.

29. Sababsiz kechirim so'rash.

30. Chaqimchilik qilish, bir gapni odamlar o'rtasida tarqatib, turli nizo-janjallarga sabab bo'lish.

31. Qilgan xato ishlariga pushaymon bo'lmaslik...

## Ilm olish fazilati

**E**y farzand! Sen ilm olishga intil. Zero, ilm tufayli yaxshi-yomonning farqini ajrata olasan. Ilm bilan yuksak marralarni qo'lga kiritasan. Ilmli kishi o'ziga nima zarar, nima foydali ekanini yaxshi biladi. Ilmli kishi yutuqqa qaysi yo'l bilan erishish yo'lini biladi. Demak, odam etuklik darajasiga erishish uchun ilm olishi va o'sha olgan ilmiga amal qilishi kerak ekan.

Hayotda har bir narsani ochadigan kaliti bor. Barcha yutuq va muvaffaqiyatlar kaliti ilmdir. Inson o'z ilmi va iqtidori tufayli ulkan g'alabalarni qo'lga kiritadi.

Agar ilm bo'lmasa, hayvonlardan farqimiz qolmaydi. Odam o'z ilmi, aql-idroki bilan hayvonlardan ajralib turadi. Zero, hayvon

ham ovqat eydi, suv ichadi va uxlaydi. Odamlar ham xuddi shunday. Oradagi farq: ilmda, yaxshi-yomonni ajrata olish va bir-biriga madaniyat bilan muomala qilishdadir.

Ilm olish bilan birga odob-axloqli ham bo'lish kerak. Faqat ilm egallasa-yu, xulqi yomon, odamlar bilan janjallashib yuradigan, boshqalarga ozor bersa, uning egallagan ilmidan foyda yo'q. Shuning uchun ilm olish qatorida go'zal odoblar bilan sifatlanishni ham bilish kerak.

### *Bolalar lug'ati*



**Ilm** – bilim, ma'lumot, bilish, idrok etish (har bir narsaning asl mohiyatini o'rganish ilmdir).

**Marra** – yutuq, g'alaba.

**Yutuq** – muvaffaqiyat, g'alaba.

### **Rivoyat**

**I**bn Abbosdan:  
– Sen qanday qilib shuncha ilmga erishding, – deb so'radilar.

U shunday javob berdi:

– Savol beruvchi til, biluvchi qalb va chidamli o'qituvchi bilan.

### *Foydali nasihatlar*



1. *“Yoshlikda zahmat chekib, ilm o'rgansang, kasb-hunar egallasang, qariganda rohat topasan” (Koshifiy).*

2. *“Kim ko'p kitob o'qisa, kitob uning zehni ochadi, zavqini oshiradi, so'zga chechan qiladi. Kitob yolg'izlikdagi eng munis hamdamdir. Kitob o'tmishdan ham, kelajakdan ham xabar beruvchidir. Kitob insondan hech narsa tilamaydi, ammo uni kamolga etkazadi. Kitob odob-axloqning koni, bilimning bulog'idir”.*

3. *Qiziqish ilmning eshigidir.*

4. *Diqqat-e'tibor ilmning makoni.*
5. *Bilak qila olmagan ishlarni ilm hal qila oladi.*
6. *Insonni bilim bilan odob bezaydi.*
7. *Ishlatilmagan bilim bora-bora eskiradi.*
8. *Bilmaganlik ayb emas, bilishga intilmaslik ayb.*
9. *Bilim shunday boylikki, uni hech kim tortib ololmaydi.*
10. *Sen barcha so'zlarni bilim bilan so'zlagin, barcha kishini bilimi uchun ulug'lagin.*
11. *Bilim bilan saodat yo'li ochiladi, shunga ko'ra, ilmli bo'l, baxt yo'lini izla.*
12. *Zakovatning ozini oz dema, uning foydasi kattadir. Bilimning ozini oz dema, uning manfaati ko'pdir.*
13. *Bilimni saralab, saylab olish uchun zakovatli bo'lish kerak. Ishlarni ko'ngildagidek bitirish uchun esa bilimli bo'lish kerak.*
14. *Fikr g'oyibdan paydo bo'lmaydi. Fikr bilimning hosilasidir.*
15. *Bilim o'rgan, zakovat kasb et, behuda yurma, xayrli payt kelganida, ular seni ro'shnolikka chiqaradi.*
16. *Ilm odamning zehnini ochadi, aqlini ko'paytiradi, bilmagan narsalarini bildiradi, dunyoda baxtli va izzatli qiladi.*
17. *Sha'biy aytadi:*  
– *Ilm bobida nimani eshitsang yozib qo'y, agar qog'oz bo'lmasa, devorga bo'lsa ham yoz. Chunki yodlagan narsa unutiladi va yozilgan narsa esa abadiy qoladi.*

## **Hech kim olim bo'lib tug'ilmas**

**A**ziz bolajon, sen ilmni asta-sekin o'zlashtirib, olimlik darajasiga etasan. Bu yo'lda sendan faqat sabr-qanoat talab etiladi. Hech bir inson onasidan olim bo'lib tug'ilmaydi. O'tmishda yashagan mashhur olimlar ham yoshliklaridan ilm va odob o'rganib, komil inson darajasiga erishganlar. Shunday ekan, "ilm olish juda qiyin-ku", deb dangasalik qilma, bir kunda nimadir o'rgana borsang, natijada etuk ilm egasi maqomiga ko'tarilasan. Zero, xalqimizda "toma-toma ko'l bo'lur", degan naql bor. Hazrat Alisher Navoiy bobomiz esa: "Oz-oz o'rganib dono bo'lur, qatra-qatra yig'ilib, daryo bo'lur", degan.

## Doim olg'a qadam tashlang!

**M**a'lumki, o'sib-ulg'ayib borgan sari odam tanasi ham o'zgarib boradi. Shunga muvofiq uning ongi, fikrlash doirasi, dunyoqarashi ham o'zgarib, boyib borishi kerak. Agar faqat moddiy narsalarga e'tibor berilsa-yu, ma'naviyatga etarlicha ahamiyat berilmasa, ruhiy holat izdan chiqadi. Shu sabab odam har kuni nimanidir o'qib-o'rganishi va bilimni tinimsiz oshirib borishi kerak. Kecha bilmagan narsamizni bugun o'rganishimiz, bilganlarimizni yanada mustahkamlab, fikr doiramiz va dunyoqarashimizni kengaytirib borishimiz lozim. Ilm-ma'rifat yo'lida sustkashlikka yo'l qo'yib bo'lmaydi. Zero, o'tayotgan har bir kunimiz hisobli, har kunning o'z o'rnini bor. Undan unumli foydalanish har bir bolaning o'z ixtiyorida.

Olgan bilimlarimiz ta'sirida dunyoqarashimiz shakllanib, kengayib boradi. Hayot haqida qancha ko'p bilsak, umr mazmunini, uning tub mohiyatini va yashash tarzini chuqurroq anglay boshlaymiz.

Shunday ekan, hurmatli farzandlarim, doimo bilim olish, eng go'zal odoblar bilan ziynatlanish harakatida bo'ling. Zero, ilm va odob bilan juda yuksak cho'qqilarni zabt etish mumkin.

### *Bolalar lug'ati*



**Olg'a** – oldinga, old tomonga.

**Ulg'ayish** – balog'atga etish, voyaga etish; rivojlanish, avj olish, kuchayish, ko'payish.

**Muvofiq** – mos keluvchi, munosib, loyiq, qulay.

**Dunyoqarash** – tushuncha, e'tiqod, nazar, qarash, fikr.

**Mohiyat** – haqiqat, biron narsaning asli, tub-negizi; mazmuni.

**Yashash tarzi** – hayot tarzi, turmush va tirikchilik holati.

**Cho'qqi** – 1. Tog'ning eng baland nuqtasi. 2. Yuksak daraja, g'alaba, yutuq.

**Zabt etish** – egallash, ishg'ol qilish.

## Ey inson, ilm olgin...

(Ibratli hikoya)

**U**mar ibn Abdul'aziz amirlikka saylangach, uni tabriklash uchun turli taraflardan kelgan vakillar huzuriga kelishdi. Ziyoratchilar orasida hijozlik o'n-o'n bir yoshlar atrofidagi bir bola ham bor edi. O'sha yigitcha Umarni qutlash uchun oldinga chiqdi. Amirul mo'minin:

– Shoshilmay tur, sendan yoshi ulug'lar ham bor, – dedi. Shunda bola:

– Amirul mo'mininni Alloh qo'llasin! Inson ikki kichik a'zosi – qalbi va tili bilan insondir. Agar Alloh bandasiga burro til va saqlovchi qalb ato etgan bo'lsa, gapirishga haqli emasmi? Haqiqatan ham, siz aytgandek, gap yoshda bo'lsa, majlisingizda yoshi sizdan ulug'roq, gapirishga haqliroq odamlar ham bor-ku, – dedi.

Shunda amirul mo'minin Umar ibn Abdul'aziz bolaning so'zlaridan ta'sirlanib, ushbu ma'nodagi she'r aytdi:

“Ey inson, ilm olgin, hech kim olim bo'lib tug'ilmas, ilm sohiblari johil kabi bo'lmas, ilmsiz yoshi ulug' odamning majlisidagi mavqei ham past bo'lar”.

### Ilm olish sirlari

**A**ziz bolalar, quyida ilm olishning sirlarini hamda yuksak natijalarga erishishingizda yordam beradigan foydali maslahatlarni keltiramiz.

#### **1. Muvaffaqiyatga ishonish.**

Oldimizga qo'ygan maqsadimiz, albatta biz o'ylagan niyatlar amalga oshishiga aniq ishonishimiz kerak. Agar qalbdagi ishonch bo'lsa, shunga qarab harakat ham kuchli bo'ladi.

#### **2. Sabrli bo'lish.**

O'qishda, ilm olishda sabr va xohish talab etiladi. Sabr bir ishdagi to'siqlarni engish uchun qat'iyatli bo'lishdir. Yaxshi o'quvchi unga etishadi, omadni qo'lga kiritish uchun sabr bilan o'qiydi.

### **3. Irodali bo'lish**

Inson hayoti davomida qiyinchilik va mashaqqatlarga duch kelganida iroda kuchi juda kerak bo'ladi. O'qishdan bezor bo'lib, zerikkanlar qo'rqmasdan kurashni davom ettirishi kerak. Bunga rejali va tartibli ishlash orqali erishish mumkin.

Istak va sabr bilan tartibli o'qishni amalga oshirish kerak. Bu dasturning asosi har kuni tartib bilan dars qilish uchun o'tirish va o'qishdan o'zini olib qochmaslikdir.

### **4. Ilm olishdan rohatlanish.**

Mashqlarni bajarib, masalalarni echayotgan bola qilayotgan ishidan huzurlanishi va rohatlanishi kerak. O'rganishdan qancha xursand bo'lsak, ma'lumotlarni eslab qolish shuncha oson bo'ladi.

### **5. O'qishga nisbatan xohishni uyg'otish.**

Ba'zida o'qish istagi so'nadi. Bu har kimda ham bo'lishi mumkin. Ajdodlarimiz "boshlash bitirishning yarmidir", deb bejiz aytishmagan.

Qisqasi, o'qishga kirishishdan oldin xohish bo'lishini kutmaylik, darsga o'tirganimizda u o'z-o'zidan paydo bo'ladi.

Xohish bilan o'qish uchun quyidagilarga e'tibor bering:

- masalani aniq echa olishingizga ishonning;
- o'qishni boshlamasdan oldin mavzuga bog'liq maqsad qo'yish;
- o'qiyotgan manbaga o'zimizda qiziqish uyg'otish;
- o'qish davomida qayd etish, tagiga chizish, xulosa chiqarish kabi turli vositalarni qo'llash.

### **6. O'qishda tanaffus zarur.**

Dars mobaynida biroz tanaffus qilish tanaffussiz o'qishdan foydaliroq. Dam olib o'qish ishni qisqa va tez fursatda bajarishning sababidir.

Darsga tanaffus berish bir xillikdan qochish, kuchni oshirish, yanada unumli ishlashga yordam beradi. Tinimsiz dars qilish zehnni charchatadi, sabrni ketkazadi va ilmni qabul qilish imkoniyatini kamaytiradi.

Lekin, dars orasidagi tanaffusni televizor ko'rish, kompyuter

o'ynash, telefonda gaplashish bilan emas, balki toza havoda yurish va jismoniy mashqlar qilish bilan o'tkazish kerak.

### **7. Qiziquvchan bo'lish.**

Mavzularni yaxshilab o'zlashtirish uchun qiziqish kerak. Har bir ma'lumotni alohida e'tibor va qiziqish bilan o'qisak, zehnda yaxshi saqlanib qoladi. Shuningdek, bajara olmagan savolimizni kitoblardan xohish bilan qidirsak, maqsadga muvofiq bo'ladi.

Imomi A'zamdan: "Qanday qilib chuqur bilim egasi bo'lgansiz?" deb so'rashganida, "Bilmaganimni o'rganish uchun diqqat bilan tingladim, bilganlarimni qaytarishganda esa xuddi bilmagandek maroq bilan takrorladim", deb javob bergan ekan. Bolalar shuni unutmangki, ko'p ishlagandan ko'ra unumli ishlashga harakat qilish kerak. Kitob bizga yuk emas, yo'l ko'rsatuvchidir.

### **8. Savollarni to'g'ri tushunish.**

Imtihonga tayyorlanayotganda ko'p savollarga javob topish kerak. Sizga berilayotgan savollarni to'g'ri tushunish javob berishni engillashtiradi. Savolni yaxshi tushunib olmagan odam uning javobiga ham qiynaladi yoki noto'g'ri javob beradi.

Unutmaslik kerakki, savolni to'g'ri tushunish va ishlayotgan mashq mohiyatini bilish masalaning yarmini echish bilan barobar.

### **9. E'tibor bilan o'qish.**

O'qish davomida qancha e'tiborli bo'lsak, eslab qolish qobiliyatimiz shuncha oshib boradi. Buning uchun mavzuni sinchiklab o'qish lozim. Muhim joylarini daftarga qayd etish yoki rangli ruchka bilan chizish takrorlash paytida qulaylik tug'diradi.

O'qiyotgan ma'lumotlarni yaxshi o'zlashtirish uchun quyidagilar tavsiya etiladi:

- baland ovozda o'qish;
- o'rtoqlari bilan savol-javob qilish;
- mavzuga tegishli testlarni echish va kamchiliklarini bilib, ularni o'rganish.
- ma'lumotlarni yodlab qolish uchun tushunib o'qish hamda amaliyatda qo'llash kerak.
- imtihon kunidan oldin oxirgi marta belgilab qo'yilgan qaydlarga yoki kitobning muhim joylariga qarash samara beradi.

## **10. Jismoniy mashqlarga beparvo bo'lmalik.**

Sog'lom bo'lishni xohlaydigan har bir bola jismoniy mashqlar ni har doim bajarib turishi kerak. Chunki mashq orqali qon aylanishi tezlashadi, miyamizga kislorod etib boradi, mushaklar kucha-yib, bo'g'inlarning harakatini ta'minlaydi, ruhiy taranglik kamayib, kuch-quvvat ortadi. Mashq tufayli yurak, buyrak, o'pka va tomirlar kuchga to'ladi, tomirlar kengayadi va elastik (egiluvchan) holga keladi.

Aziz bolalar, bu kabi mashqlarga beparvo bo'lmang. Eng qulay mashq yurish va zinadan chiqib-tushish, ayniqsa, futbol, suzish, velosiped haydash, tennis, voleybol, basketbol kabi sport turlari bilan shug'ullanish lozim. Darsdan toliqqanimizda jismoniy mashqlar qilish foydali. Bu bilan dam olamiz, badanimiz va aqlimizga kuch-quvvat qo'shiladi.

## **11. Televizor, telefon va kompyuterdan uzoq bo'lish.**

Ta'lim olayotgan o'quvchi e'tiborini jalb etadigan barcha narsadan uzoq bo'lishi zarur. Hatto uyali aloqa vositasi ham xalaqit bergani uchun uni o'chirib qo'yishi kerak.

Dars vaqtida begonalar telefon qilsa, o'quvchi dasrdan chalg'iydi va xayoli bo'linadi. Shuningdek, televizor qarshisida uzoq vaqt o'tirish ancha vaqtimizni oladi va darsga kirishish oson bo'lmaydi. Televizor dars qilishga to'sqinlik qiladi.

Ba'zi o'quvchilar dars jarayonida televizorga quloq solib, yangi ma'lumotlarni o'zlashtirishlari noto'g'ri. Bundan tashqari, kompyuter o'yinlari o'quvchini toliqtiradi. Undan faqat kerakli ishlardagina foydalanish lozim.

## **12. Vaqtida ovqatlanish muhim.**

Aqliy mehnat bilan shug'ullanayotgan o'quvchilar ovqatlanishga e'tibor berib ko'p ovqat eyishdan tiyilishlari kerak. Ammo meva va sabzavotlarni ko'p iste'mol qilinsa, sog'liqqa shuncha foyda keltiradi. Asal, uzum, yong'oq kabilar aqlni charxlaydi, xotirani kuchaytiradi. Taomlanishda qorinni haddan ziyod to'ydirmaslik lozim. Shuningdek, juda kam taom eyish ham to'g'ri emas, balki me'yorida eyish talab etiladi. Luqmalarni yaxshilab chaynab, o'tirib ovqatlanish kerak. Ammo turib yoki yurib ovqatlanish sog'liqqa zararli.

### 13. Uyquning ahamiyati.

Uyqu faqat tana uchun emas, balki miya dam olishi uchun ham muhimdir. Vaqtida uxlamagan o'quvchi ishyoqmas, dangasa va hafsalasiz bo'lib, uning ish unumdorligi ham pasayadi. Shu sababli o'quvchilar uyqu soatlariga e'tiborli bo'lib, me'yorida va vaqtida uxlab dam olishlari kerak. Ammo bolalar quyidagilarni unutmang:

- ko'p uxlagan odam ko'p dam oladi, deb juda vaqtli uxlash noto'g'ri. Majburiy dam olish insonni asabiy holga keltiradi.
- ko'p uxlagan odam ham vaqt yo'qotadi, ham dangasa bo'lib qoladi.
- ertalab vaqtli uyg'onib, sokin muhitda dars qilish yaxshi natija beradi.

### Foydali maslahatlar



1. Daryolarning doim dengizga qo'shilishi uning suviga ta'sir qilmaganidek, amal va lazzat haqiqiy ilm oluvchiga ta'sir ko'rsata olmasligi kerak.

2. Agar bir shogird ilm va muallimni yaxshi ko'rmasa, qunt bilan o'qimasa, maqsadiga eta olmaydi.

3. Hech qachon ilm o'rganish ishida uzilish yuz bermasligi kerak. Negaki, bu katta yo'qotishga olib boradi.

4. Ta'lim oluvchi uzluksiz holda dars qilishi, sheriklari bilan yoki yolg'iz o'zi masalalarni takrorlab turishi lozim.

5. Bizning maqsadimiz o'quvchini toliqtirib qo'ymaslikdir. Hadeb bir narsani o'qiyverish zeriktiradi va toqatini toq qiladi. Agar o'quvchi bir masaladan boshqa masalaga o'tib tursa, u xuddi turli-tuman bog'rog'larni sayr qilgandek zavqlanadi, bir bog'dan o'tar-o'tmas boshqa bir bog' boshlanadi. Kishi ularning hammasini ko'rgisi keladi. Har bir yangi narsa kishiga rohat bag'ishlaydi.

6. Ta'lim oluvchi ilmni hurmat qilishi kerak, kitobni erga qo'yishi va uni iflos qo'llari bilan ushlashi mumkin emas.

7. Ta'lim oluvchi eyish, ichish va uxlash kabilarni ham unutib

*qo'ymasligi, shuningdek, hashamatli hayotni orzu qilmasligi kerak. U insonlar bilan chiroyli muomala qilishi va o'ziga tegishli bo'lmagan narsalar bilan shug'ullanmasligi lozim.*

## **Chet tillarni o'rganish**

**A**ziz bolalar, inson eng avvalo o'z ona tilini yaxshilab bilib olishi kerak. Ona tilida gaplashishni va to'g'ri yozishni o'rganishi talab etiladi. Ona tili inson uchun eng kerakli va foydali tildir. Ona tilini o'rganib olgach, biron chet tilini o'rganish mumkin. Masalan, rus, ingliz va boshqa tillarni. Chet tillarini o'rganish insonga yangi-yangi ilm eshiklarini keng ochadi. Chunki boshqa tillarda juda ko'plab ma'lumot va yangiliklar mavjud. Masalan, hozirda internet tarmog'idagi ko'p ma'lumotlar asosan rus va ingliz tillarida berilgan. Ularni o'qib tushunish uchun chet tilini yaxshi o'zlashtirish kerak. Ammo baribir o'z ona tilimizni, o'zbek tilini hamma tillardan ko'ra puxta o'rganib borishimiz shart.

## **Aql-idrok fazilati**

**E**y farzand, aqlli kishilar bilan maslahatlash-sang, uning aqli senga o'tadi, undan ko'p narsani o'rganasan. Kishi o'z aqliga suyanib ish qilganda ko'p xatolarga yo'l qo'yishi mumkin.

Quyida aql-idrok bilan bog'liq nasihatlarini keltiramiz. Ularni diqqat bilan o'qisang, aqlning fazilati va dono bo'lish yo'llari haqida bilimga ega bo'lasan.

### ***Foydali nasihatlar***



1. *Har narsa aqlga muhtoj, aql esa tajribaga muhtoj. Aql bilan tajribaning aloqasi suv bilan erning aloqasi kabidir. Suv bilan er o'zaro birga bo'lmasa, erda biron narsa unishi mumkin emas.*

2. *Kishining aqli sharaf va ulug'lik asosidir. Kimning aqli ko'p bo'lsa, ayblari yashirin va do'stlari*

*undan rozi bo'ladi.*

3. Aqlli odam shunday kishiki, qiyin vaziyatdan osongina qutulib ketadi. Dono shunday odamki, qiyin vaziyatga aslo tushmaydi.

4. Nafsning tizgini aqlning qo'lidadir, aql nafs ustidan hukm yurgizib, uni yomon yo'ldan asrab turadi. Odatda, qaysi narsa ko'paysa, uning qadri kamayib boradi. Ammo aql ko'paygan sari uning qadri oshaveradi. Hamma narsaning chegarasi va to'xtaydigan joyi bor, ammo aqlning chegarasi yo'q.

5. Aqlli odam o'z nuqsonlari uchun uzr so'raydi. Nodon odamning gapi ko'p bo'ladi.

6. Serjahl boshda aql bo'lmaydi.

7. Aqliga bir ishora etarlidir.

8. Aqlli odam avval maslahatlashib, so'ng ishga qo'l uradi. Ahmoq esa avval ishga qo'l urib, keyin maslahatlashadi.

9. Pulni ishlatsang kamayadi, aqlni ishlatsang sayqal topib ko'payadi.

10. Ziyraklik bu insondagi tez fikrlilik va o'ylagan narsasini darrov topa olish qobiliyatidir.

11. Ne'matlar ichida eng ulug'i aqldir. Shu aql odamlarni boshqa yaratilganlar orasida mukarram va sharafli qilgandir.

12. Hayvonlar o'zlariga keladigan zulm va jabrlarni shox, tish, tumshuq va tirnoqlari bilan qaytaradilar. Lekin inson aql va idroki bilan o'ziga keladigan zarar va zulmlardan saqlanadi.

13. Zakovatlilar tushunadilar, bilimlilar biladilar. Bilimli aqllilar tilaklariga etadilar.

14. Aql egalari kishining dilidagi fikr va niyatini, ilm va quvvatini, qadr va qimmatini so'zlagan so'zidan biladilar.

15. Mulohazali bo'lish – bu insonni saodatga olib keluvchi fazilatli fikrlarni, baxt-saodat uchun izlangan narsalarni tiklay olish qobiliyatidir.

16. Tafakkur etmaslik va muhokama qila bilmaslik diniy, ijtimoiy va shaxsiy hayotimizga juda ko'p zarar keltiradi.

17. Aql tarozisida tortib ko'rilmagan har qanday bilim asossizdir.

## Donolar xislati

**X**alq aqlli kishilarni dono deb ataydi. Chunki ular insonlarga foydali va zarur bo'lgan narsalarni o'ylab topadilar. Ko'p so'zlash bilan odam dono bo'lmaydi. Ko'p tinglab dono bo'ladi va izzat topadi. Aqlli kishi deb shunday kishiga aytamizki, unda o'tkir aql-idrok bo'lishi bilan birga fazilat ham bo'lsin. Bunday kishi o'zining butun qobiliyati va idrokini yaxshi ishlarni amalga oshirishga va yomon ishlardan o'zini tiyishga qaratgan bo'lishi kerak. Shunday odamni aqlli va to'g'ri fikr yurituvchi deb atash mumkin.

Bugunning chorasini ko'rib, ertaga ehtiyoji qolmagan kishi aqllidir. Oqil odam bir masalaning har bir jihatini o'ylab, tadqiq va taftish qiladi, qat'iy hukm qilishga shoshilmaydi, ma'naviy jihatlarni ham tushunadi. Dalilsiz, hujjatsiz bir jumlaning qiyosini rad etish yoki qabul qilish ahmoqlik hisoblanadi.

## O'g'ri topildi

*(Ibratli hikoya)*

**A**bu Hanifa qo'shnilaridan birining tovusi o'g'irlandi. Qo'shni imomga murojaat etdi. Imomi A'zam:

– Buni hech kimga gapirmang, – dedi. Masjidga bordi. Jamoat to'plangach:

– Ey qo'shnisining tovusini o'g'irlagan kishi, tovus patlarini boshingga ilashtirib masjidga kelgani uyalmadingmi? – dedi imom.

Shunda jamoatdan bir odam boshini paypaslaganini ko'rdi. Darhol imom unga:

– Borib qo'shningning tovusini qaytarib ber, – dedi. Shu tariqa o'g'ri topilib, tovus egasiga qaytarildi.

## Iste'dod va qobiliyat

**U**lug' vatandoshimiz Abulqosim Mahmud Zamaxshariy: "Hunarmandu kosiblar ko'pdir, biroq mohiru qobiliyatlilar ozdir", degan edi. Ya'ni, usta ko'p, ammo haqiqiy usta, o'z ishining mohir ustasi bo'lgan kishilar kamdir. Shunday ekan, ey farzand, sen yaxshi bilim olib, o'z kasbing ustasi, etuk mutaxassis bo'lib etishsang, doim ishing baroridan keladi va hayotda qoqilmaysan. Zero, o'z kasbing mohir ustalari doim el ardog'ida bo'ladilar. Bunday kishilarga talab juda katta.

### O'z haqingni tani, birovning haqidan qo'rq!

**O**dobli bola o'z haqini tanib, uni birovga berib qo'ymaydi. Ya'ni, seniki bo'lishi kerak narsa senda bo'lsin. Uni o'zgalarga berib qo'yma! Albatta bu yaxshi ma'nodadir. Saxiylik ham me'yorida bo'lishi kerak. Sening saxiyliging yoki ko'ngilchanliging o'z haqingni boshqalar olib qo'yishiga sabab bo'lmasin! Ammo sen faqat va faqat o'z haqingni ol. Senga tegishli bo'lmagan narsalarga, o'zgalar mulkiga ko'z olaytirma! O'zgalar haqqini ema! Masalan, olish va sotishda tarozidan urib qolish, olayotganda ko'p qilib olish va sotishda bir kilogramm o'rniga 800-900 gramm qilib xaridorni aldash birovning haqqini eyishdir. Bunga yana boshqa o'lchovlardan urib qolish, odamlarni aldab, yomon narsani yaxshi deb sotish, o'zgalarga tegishli narsalarni o'g'rilash kabi qabih ishlar ham kiradi.

Ey farzand, sen bularni yaxshilab anglab ol, hayotda to'g'ri va halol yashashga odatlan. Halollikda, to'g'rilikda gap ko'p. Kim to'g'ri va rostgo'y bo'lsa, uning ishi unumli, hayoti barakali va fayzli bo'ladi. Yolg'on so'zlab, birovning haqqini eb ko'p foyda ko'raman, degan odam xato qiladi. Chunki birovning haqqi bari-bir buyurmaydi. Shuni unutma!

## *Bolalar lug'ati*



**Hazar qilish** – ehtiyot bo‘lish, saqlanish, tiyilish; yomon ko‘rish.

**Haq** – haqiqat, adolat, qonun, haqqoniy, rost, erkimkoniyat, biron kimsa yoki narsaga tegishli ulush.

**Ko‘z olaytirish** – birovga tegishli narsaga yomon niyat bilan qarash.

**O‘lchovdan urib qolish** – tarozidan va birovning haqqidan urib qolish.

**Fayzli** – o‘ziga jalb qiladigan, ko‘rkam, istarasi issiq; farovon, to‘kin-sochin.

## **Ko‘ylagi yamoq bola**

*(Ibratli hikoya)*

**H**azrati Umar ibn Xattobning yosh o‘g‘li ko‘chada bolalar bilan o‘ynar edi. Bolaning ko‘ylagiga yamoq solingan bo‘lib, tengqurlari uning ustidan kulishdi. “Otang mo‘minlar amiri bo‘lsayu, sen shunday yirtiq-yamoq kiyimda yursang”, deb kamsitishdi. Hazrati Umarning o‘g‘li bundan juda xafa bo‘ldi. Otasining huzuriga borib:

– Bolalar kiyimimdagi yamoqlarni ko‘rib, ustimdan kulishyapti, – deb bo‘lgan voqeani so‘zlab berdi. Shunda Umar ibn Xattob o‘g‘liga:

– Xazinachiga borib, xazinadan bir kiyimlik mato berar ekansiz, otam maoshlaridan olib o‘rniga qo‘yar ekan, degin, – deb tayinladi.

O‘g‘il xazinachining oldiga borib, mo‘minlar amirining so‘zlarini aytdi. Xazinachi unga:

– Agar otang maosh olgunlaricha yashab turishlariga kafolat bersalar, aytgan matoni beraman, – dedi.

O‘g‘il xazinachining hech narsa bermasligini tushundi. Otasi huzuriga borib, xazinachi nima deb javob berganini aytdi. Shunda Umari Odil:

– Agar xazinachi sen aytgan matoni berib yuborganida edi, men uni o’sha zahoti ishdan bo’shatgan bo’lar edim, – dedi, so’ngra o’g’liga taskin berdi.

## Chiroqning yog’i kimniki?

*(Ibratli hikoya)*

**H**azrati Umarning xalifalik davrlarida uylariga makkalik bir do’sti mehmon bo’lib keldi. Qorong’i kecha edi. Hazrati Umar uyida davlat ishlari bilan mashg’ul edi. Do’stidan uzr so’rab, biroz kutib turishini aytdi. Davlat ishini bitirganidan keyin, yonib turgan chiroqni o’chirdi va boshqa chiroqni yoqdi. Do’sti bundan hayratlanib, sababini surishtirdi. Hazrati Umar shunday javob berdi:

– O’chirilgan chiroqning yog’i xazinanikidir, ya’ni davlatniki. U davlat ishlari ko’rilayotgan paytda yonsa, menga halol bo’ladi. Sen esa mening oshnamsan, suhbatimiz ham o’zimizga tegishli bo’ladi. Shu sababli o’z pulimga olingan ikkinchi chiroqni yoqib qo’ydim. Davlatning moli xususiy ishlarga qo’llanilsa, yorug’lik o’rniga qorong’ilik va uyat bo’ladi.

## Shijoat va jasorat

**E**y aziz farzand! Bilginki, kimda shijoat ko’p bo’lsa, unda xilma-xil fazilatlar bo’ladi. Shijoatli kishini hamma yaxshi ko’radi. Shijoatli kishi jangda ham dushman diliga vahima solib, boshqalarni olg’a yurishga ilhomlantiradi.

Jasorat insonning eng ulug’ fazilatidir. Qo’rqoqlik esa eng yomon xususiyatdir. Tarixda nomlari qolgan ulug’ insonlar eng jasur va mard kishilar bo’lishgan. Qo’rqoq odamning aslo sharafi, or-nomusi va qadr-qiymati bo’lmaydi. Bir so’z bilan aytganda, quyon yurakning tarixda yaxshi nomi qolmaydi. Shijoat inson sharafini va qadrini ko’taradi. Qo’rqoqlik esa pastkash odamlarni yanada tubanlashtiradi.

Inson ruhiy tarafdand qancha kamolotga etsa, shuncha jasur

bo'ladi. Insonning shijoati va jasorati uning kamolot darajasiga bog'liq.

Aziz bolalar, tilimizdagi "matonat" so'zi ham "mardlik", "jasurlik", "shijoat" ma'nolarida qo'llaniladi. Matonat bu har bir insonning o'z fikrida va so'zida sabotli bo'lishi, bir ishga qo'l urganda uni oxirigacha etkazish uchun mahkam turishi va barcha ishda sabr qilishdir. Matonatsiz odam bir ishni boshlab, biroq salgina qiyinchilikdan so'ng uni tashlab qo'yadi. Biron kishi uni ozroq koyisa yoki kamchiligini tanqid qilsa, darhol irodasi bukiladi va ishonchini yo'qotadi, shubha ostida qolib, qilayotgan yaxshi ishini ham chala qoldiradi.

Bir yigit dengiz qirg'og'ida ketayotib bir to'da odamlarning dengizga qarab ishora qilib: "Odam cho'kyapti, yordam beringlar! Yordam beringlar!" deb baqirayotganlarini ko'rdi. Keyin ular ishora qilgan tarafga qaradi. U erda bir kishi goh suvning yuziga qalqib chiqib, goh suv ostiga cho'kib ketardi. Nihoyat uning madori qolmadi. Turganlar yig'lab, bir-birlariga qaradilar. Go'yo ular bu kishini qutqarish uchun o'z hayotini xatarga soladigan bir ulug' shijoatli odam haqida bir-biridan so'rayotgandek edilar.

To'satdan bu yigit dengizga o'qdek otilib, suzib ketdi. Nihoyat, cho'kayotgan odamning oldiga etib, uning orqa tomonidan suvga sho'ng'idi. Bir lahza o'tmasdanoq, ikkovi suv yuziga qalqib chiqdi. Odamlar bu shijoatli yigitning himmatidan hayratlanib, cho'kayotgan odamning qutulganidan xursand bo'ldilar. Yigit qirg'oqqa etib kelgach, unga rahmat aytish uchun oldiga keldilar. Cho'kayotgan odamni qutqarib qolgan bu yigit shijoatli hisoblanadi. Chunki shijoat degani o'z burchini bajarish yo'lida dovyuraklik bilan xatarga qarshi turishdir.

### *Bolalar lug'ati*



**Shijoat** – dadillik, botirlik, jasurlik, mardonavorlik, intilish.

**Jasorat** – mardlik, qo'rqmaslik, qahramonlik, botirlik, dovyuraklik.

**Matonat** – mustahkamlik, qat’iylik, salobat, bardosh, sabot, chidam.

### ***Foydali nasihatlar***



1. Mard bilan ulfat bo’lgan murodga etadi, nomard bilan yaqin yurgan kishi g’amdan boshi chiqmaydi.

2. Mard (mo’min-imonli) odamning va’dasi ham naqd, ham tez bo’ladi.

3. Shijoat bu yurakning quvvatidir. Agar tanada etarli kuch bo’lib, qalbda shijoat bo’lmasa, befoydadir. Ammo tana kuchsizroq bo’lsa ham, ammo qalbda g’ayrat-shijoat bo’lsa, tananing kuchsizligi ahamiyatsizdir.

4. Odamlarning botiri kelajakdagi ishlardan qo’rqmaydi.

5. Qo’rqmasang – yov qochar.

6. Kamolot hosil qilishdan chetlangan kishi odamlarning eng qo’rqog’idir.

7. Jahon ahli shijoatnikidir.

### **Jasur o’g’lon**

*(Ibratli hikoya)*

Ibn Qutayba hikoya qiladiki, Umar ibn Xattob yo’l bo’yida o’ynayotgan bolalar oldidan o’tayotgan edi. Ular orasida yosh Abdulloh ibn Zubayr ham o’ynayotgan edi. Hazrati Umarni ko’rgan zahoti salobatidan qo’rqib, bolalar o’zini chetga olishdi. Lekin bir bolakay joyida qimirlamay turaverdi. Undan boshqa hech kim qolmadi. Mo’minlar amiri unga yaqin keldi-da, tabassum qilib:

– Nega do’stlaring kabi sen ham chetga chiqmading? – deb so’radi. Bola hazrati Umarga:

– Ey mo’minlar amiri, aybim yo’qki, sizdan qo’rqsam, yo’l ham tor emaski, sizga bo’shatay desam, – deya mag’rur javob qildi. Bolaning shijoatidan hazrati Umar xursand bo’ldi. Kelajakda ulug’

inson bo'lishiga umid bog'ladi. Yillar o'tib, bu umid haqiqatga aylandi. Bola ulg'ayib, zamonaning ulug'laridan biri – sarkarda Abdulloh ibn Zubayr bo'lib etishdi. Bu javob zamiridagi durdek yashirin ziyraklik va go'zal topqirlikka qarang.

## **Dangasalikdan uzoq bo'ling!**

**H**urmatli bolajonlar, dangasalik juda yomon illatdir. Buni quyidagi hikmatlarni o'qish orqali bilib olasiz.

1. Bekorchilik va aysh-ishrat nodonlikka olib keladi, ayni vaqtda kasallikning tug'ilishiga ham sabab bo'ladi.
2. Aksar yalqovlar o'zlari uchun foydali ishlarga dangasalik qilib, foydasiz ishlar orqasida umrni behuda o'tkazadilar.
3. Aqlli kishilar bugungi ishni ertaga qo'yadigan kishilardan yuz o'giradilar.
4. Dangasalik har vaqt insonni xor qiladi.
5. Mehnatsiz kechgan bir kun sanab o'tkazilgan yilga barobar.
6. Har bir insonning qadr-qiymati o'z ishini qoyil qilib bajarishadi.
7. Bu dunyo bir ekinzordir, unda nima eksang, shuni o'rasan.

## **E'tiborli bo'lish**

**H**ar bir aqlli va zukko bola atrof-muhitga e'tiborli, odamlarga ahamiyatli bo'lishi kerak. Chunki turli yomon ishlar e'tiborsizlik oqibatida kelib chiqadi. Rivoyat qilinishicha, Luqmoni hakimdan so'radilar:

- Odamlarning eng yaramasi, eng yomoni kim?
- Odamlarning yomonlik qilayotganlarini ko'ra turib, ko'rmaslikka olgan, beparvo va loqayd bo'lganidir, – deya javob berdi Luqmoni hakim.

## Har bir qo‘y o‘z oyog‘idan...

*(Ibratli hikoya)*

**H**orun ar-Rashidning do‘sti Buhlul Dono: “Ey xaloyiq! Gunoh va yomon ishlardan uzoq bo‘ling!”, deb barchaga nasihat qilar ekan. Ba‘zi odamlarga bu nasihat yoqmas ekan. Shu sabab ular Horun ar-Rashidga shikoyat qilib kelishibdi: “Do‘stingizning nasihatlaridan to‘yib ketdik. Biz gunoh ish qilsak, unga nima? Har bir qo‘y o‘z oyog‘idan osiladi”, deyishibdi.

Horun ar-Rashid: “Yaxshi, tushunarli”, debdi va bir qo‘yni so‘ydirib, ko‘chaga ostirib qo‘yibdi. Bir necha kun o‘tgach, qo‘y sasiy boshlabdi. Hamma yoq juda sasib ketibdi. Xalq yana Horun ar-Rashidning oldiga kelib: “Bu qo‘yni bu erdan olib tashlang. Sassiqlik bizni bezor qildi”, debdi. Horun ar-Rashid o‘rni kelganida shunday debdi: “Sizga nima, har bir qo‘y o‘z oyog‘idan osiladi”.

Odamlar shunda o‘z xatolarini tushunib, boshlarini eggan holda ortlariga qaytishibdi.

Yomonliklar ham yomon hidga o‘xshaydi. Yaxshi insonlar jaholatga, harom ishlarga qarshilik qilib, jasorat ko‘rsatmasa, dunyo yomonliklarga to‘lib ketadi.

### **Mehnatkashlik kamolot omili**

**A**ziz bolalar, har bir inson o‘ziga mos ravishda biron ish bilan mashg‘ul bo‘ladi. Masalan, o‘quvchi bolalar ta‘lim oladilar, shifokor davolaydi, haydovchi uzoqni yaqin qiladi va hokazo. Inson hayotda o‘z o‘rnini topish uchun doim ilm olishi va foydali ishlar bilan shug‘ullanishi kerak. Dangasalik, ishyoqmaslik zararli odat bo‘lib, dangasa bolalar dasrlarini tayyorlashga erinadilar. Tirishqoq bolalar esa darslarini vaqtida bajarib, ro‘zg‘or ishlarida ota-onalariga yordamlashadilar. Bu narsa ularning kelgusida hayot tashvishlarini qiynalmay bajarishlariga zamin yaratadi.

## *Bolalar lug'ati*



**Dangasalik** – mehnat qilishdan qochish, ishyoqmaslik, tanballik, yalqovlik.

**Mehnatsevar** (mehnatkash) – mehnat qilishni yaxshi ko'radigan.

**Ro'zg'or ishlari** – oila va xo'jalikka oid ishlar.

**Zamin yaratish** – biron narsaga asos solish, sharoit va imkon yaratish.

## **Maqollar**

1. Hurmat qilsang, hurmat ko'rasan, mehnat qilsang, davron surasan.
2. Xazina g'oyibdan emas, mehnatdan.
3. Daraxt yaprog'i bilan go'zal, odam – mehnati bilan.
4. Bekorchidan Xudo bezor.
5. Gapni oz so'zla, ishni ko'p ko'zla.
6. Izlanganga tole yor.
7. Mehnat, mehnatning tagi rohat.

## **Omonat**

**E**y farzand, ma'lum muddatga saqlash uchun berilgan moddiy va ma'naviy narsalar omonatdir. Har bir inson o'z mol-mulkini asraganidek o'zgalarga tegishli narsalarni ham xuddi shunday asrab-avaylashi kerak. Omonat saqlash jamiyatdagi insonlarning bir-biriga ishonchini oshiradi.

Agar maktab hovlisidan biron narsa topib olsang, u sening qo'lingdagi omonatdir. U sening mulking emas. Agar sen egasini qidirib topib, narsasini unga qaytarib berish uchun maktab direktoriga uchrasang, sen omonatga vafodor inson bo'lasan. Shu ishingni deb seni maktab direktori, ustozlar va barcha o'quvchilar yaxshi ko'radilar va seni maqtaydilar. Agar egasini qidirmasdan uni o'zingniki qilib olsang, sen xoin bo'lasan. Ehtimol egasi tasodifan uni ko'rib qolib, seni o'g'irlab olgan deb o'ylar va odamlar orasida

seni xoin-o'g'ri deb gap tarqatar. Mana shunda sening kelajaging va sharafigga katta zarar bo'ladi.

Agar biron inson pul, zeb-ziynat yoki kitoblar kabi biron narsani senga omonatga qo'ysa, u narsa bo'yningda omonat hisoblanadi. Agar sen uni ehtiyot qilib, sog'-salomat saqlab bersang, sen ishonchga sazovor bo'lasan. Agar sen undan biron narsani kamaytirsang yoki biron joyiga nuqson etkazsang yoki egasining ruxsatisiz uni o'z foydangga ishlatsang yoki so'rab kelsa, sen uni inkor etsang, sen odamlarning orasida xiyonat qiluvchi deb tanilasan va hech kim senga biron narsani omonatga qo'ymaydi.

Hurmatli bolajonlar, omonatni faqat pul va moddiy narsalardan iborat, deb tushunmasligimiz lozim. Ma'naviy omonatlar ham bor. Masalan, bironta do'stimiz sirini saqlash ham omonatdir. Agar bir kishi senga o'z sirini omonat deb aytsa va sen uni hech kimga aytmasdan sir saqlasang, sen sir saqlovchi omonatli odam bo'lasan. Agar sen o'sha sirni odamlar orasida yoysang, sir saqlay olmaydigan, senga sir aytgan odamga xiyonat qilgan bo'lasan.

Agar tarozidan urmasdan biron narsa kamaytirmay berayotgan tijoratchini ko'rsang, bilginki u omonatga vafodor tijoratchidir. Hamma odam uni yaxshi ko'rib, omonati bilan taniladi va savdosiga baraka kiradi. Agar tarozidan urib qolayotgan boshqa bir tijoratchini ko'rsang, bilginki, u xoindir. Albatta odamlar uning bu qilmishini bilib, u bilan oldi-sotdi qilmay qo'yadilar. Natijada moli kasod bo'lib, unga nisbatan ishonch va muhabbat yo'qoladi.

Navbatchilik qilayotgan askarga vatan chegaralari omonat...

Tana a'zolarimiz biz uchun omonat. Bu omonatni saqlash uchun ularni zararli ishlardan asrashimiz kerak...

Farzandlar ota-onaga omonat...

Yo'lovchi haydovchiga, o'quvchilar o'qituvchiga, kasallik shifokorga, vazifalar mansabdorga omonatdir. Har kim bu omonatlar haqida bir kuni javob beradi...

Ey farzandim, omonat bu odamlar huquqini himoya etishdir. U ko'p ishlarni o'z ichiga oladi: ular jumlasidan vojib amallarni bajarish, topshirilgan ishlarni egalari yo'qligida puxta qilish, qo'shni qo'shnisining sirini saqlashi, shifokor kasallarning sirini

saqlashi, inson bilmaydigan narsasi haqida soʻralsa, “bilmayman”, deyishi, tijoratchi yaxshi mol bahosida pul olganida yomon mol sotmasligi va agar sotib oluvchi yoshi kichkina boʻlsa yoki narxni bilmasa, mollarning narxini koʻpaytirmasligi va hokazo.

### *Bolalar lugʻati*



**Omonat** – ishonchlilik, toʻgʻrilik, halollik, saqlash uchun berilgan narsa

**Xiyonat** – makr, hiyla, xoinlik, vafosizlik, ahdni buzish, birov ishonib topshirgan narsani suiisteʼmol qilish.

### **Hikoya**

**B**ir kambagʻal odam boylarning biridan sadaqa soʻradi. Boy bir chaqa bermoqchi boʻlib, sezmagan holda choʻntagidan bir tilla tanga chiqarib unga berdi. Bu kambagʻal omonatga vafodor odam edi. Shuning uchun boyning orqasidan yugurib borib unga dedi:

– Ey xojam, siz menga tilla tanga berdingiz, ehtimol bu yanglish boʻlgandir.

Boy bu kambagʻal kishining omonatdorligidan hayratlanib, choʻntagidan boshqa bir tilla tangani chiqardi va unga dedi:

– Omonatdorliging va toʻgʻri soʻzliging mukofoti uchun mana bu tilla tangani ham ol!

### **Aldoqchi Farrux jazo oldi**

*(Ibratli hikoya)*

**J**amol amaki qoʻli bilan ayblanayotgan shaxsni koʻrsatib:

– Hokim janoblari, men oʻtgan yili safarga ketayotib qimmatbaho olmos uzugimni shu odamga omonat qilib tashlab ketganman. Endi uni qaytarib berishini soʻrayapman, u esa qaytarib bermayapti, – dedi.

Hokim panjara ortida o'tirgan ayblanayotgan shaxs Farruxdan so'radi:

– Nima uchun uning uzugini qaytarib bermadingiz?

– U aldayapti, u menga hech qanday uzuk bergani yo'q, – dedi Farrux.

Hokim Jamolga yuzlanib:

– Siz uzukni berayotganingizda guvoh bo'lgan biror kimsa bormi?

– Yo'q, men unga uzukni kashtan daraxtini tagida bergan edim, u vaqtda bizlar bilan hech kim yo'q edi.

Hokim Jamolga kashtan daraxtining shohidan sindirib olib kelishni buyurdi.

Bir oz vaqt o'tgandan so'ng hokim Farruxga yuzlanib shunday dedi:

– U qaerga ketdi, endi qachon qaytib kelarkin? Derazani oldiga borib qarab tursak, qaytib kelayotgan bo'lsa ko'rinib qolarmikin?

Farrux joyidan qimirlamasdan shunday dedi:

– U kamida uch soatdan keyin qaytib keladi. Chunki kashtan daraxti bu erdan judayam uzoq.

Shunda hokim Farruxga qarab o'shqirdi:

– Sen nafaqat yolg'onchisan, balki yana g'irt ahmoqsan! Agar sen uzukni olmagan bo'lganingda, u daraxt qaerda ekanini ham bilmagan bo'lar eding. Sen mana bu hadisni eshitmaganmisan: “Ey insonlar! Hech qachon yolg'on gapirmanglar! Yolg'on va imon hech qachon birga bo'lmaydi”.

Hokim Farruxga bu jinoyati uchun og'ir jazo belgiladi.

## Rostgo'ylik fazilati

**E**y farzandim, agar do'stingdan yangi olgan kiyimining narxini so'rasang, u senga sotib olgan narxini to'g'ri aytsa, u to'g'ri so'zdir. Agar narxiga ozgina bo'lsa ham qo'shib aytsa, demak, u yolg'onchidir. Agar senga bir do'sting va'da qilib va'dasida qat'iy tursa, u va'dasiga sodiqdir. Agar va'dasida qat'iy turmasa, u yolg'onchidir.

Agar ustoz bir o'quvchiga uyda masala echib kelishni topshirsa, u dangasalik qilib boshqa o'quvchining daftaridan masala javobini ko'chirib olsa va ustoziga masalani o'zim echdim, desa, u yolg'onchidir. Agar maktab direktori bir o'quvchini guvohlik berish uchun chaqirsa va u eng qadrdon do'stining zarariga bo'lsa ham haqiqatni ochiq aytsa, u to'g'ri so'zdir. Agar guvohlik berishda biron narsani qo'shsa yoki kamaytirs, u yolg'onchidir.

Mana shu misollardan ko'rayapsanki, to'g'rilik so'z yoki amalning haqiqatga to'g'ri kelishidir. Sen maktabga bormaslik uchun yolg'ondan o'zingni betob qilib ko'rsatishing yoki bilmaydigan narsang haqida xabar berishing yoki yolg'on gapirayotganini bila turib birovni yolg'on gapirishiga indamay qarab turishing bularning barchasi yolg'onchilikdir.

To'g'ri so'zlash foydalaridan biri shuki, rost so'zlagan inson ko'pchilik muhabbatini va ishonchini qozonadi. Shuning uchun rostgo'y o'quvchini ota-onasi ham, ustozlari ham birday yaxshi ko'radilar. Odamlar har doim rostgo'y tijoratchi bilan oldi-sotdi qilishni xohlaydi. Oldiga odamlar borganlari uchun to'g'riso'z hunarmand xalqqa taniladi. Agar rostgo'ylik bo'lmaganda xalqning ahvoli buzilib, tarix, jo'g'rofiya va shunga o'xshash kitoblarda etib kelgan xabarlariga odamlarning ishonchi yo'qolgan bo'lar edi. Rostgo'ylik insonni omonat, ochiqlik va va'daga vafo qilish kabi ko'p fazilatlar bilan sifatlanishga chaqiradi.

## **Yolg'onchi bola**

*(Ibratli hikoya)*

**I**skandariya shahrida bolalar cho'milish uchun dengizga tushdilar va o'zlari bilan olib kelgan koptokni suvda o'ynay boshladilar. Ular koptokni suvga otishar va orqasidan suzib musobaqa o'ynardilar. To'satdan ulardan biri suvyutib "qutqaring, cho'kayapman!" dedi. Shunda qutqarish uchun oldiga etib kelganlarida u kulib:

– Men sizlarni masxara qilayotgan edim. Men mohir suzuvchiman. Sizlarning ichingizda suzishda menga bas

keladigani yo‘q, – dedi. Ikkinchi kuni ham odatlariga ko‘ra suvda ko‘ptok o‘ynadilar. Shu mahal kechagidek u “qutqaringlar, cho‘kayapman!” deb baqirdi. Bolalar o‘tgan kungidek bugun ham bizni masxara qilyapti deb o‘ylab, uning so‘ziga parvo qilmadilar. Natijada u suvga cho‘kib, o‘z yolg‘onining qurboniga aylandi.

### **Foydali nasihatlar**



1. Aql egalari va vijdon sohiblari har vaqt ko‘rgan, qilgan va bilganlarining haqiqatini va to‘g‘risini so‘zlaydilar.
2. Ibn Xatib aytadi:  
– Yolg‘onchilikdan saqlaning, chunki yolg‘onchilik fitna-fasodga (yomon ishlarga) olib boradi. Rostlik yo‘lini tanlang, barcha yaxshilikka etasiz!
3. Bir hakim aytadi:  
– Kimki yolg‘onchilikka o‘rgansa, u boshqalarni ham yolg‘onchi, deb o‘ylaydi.
4. Egri daraxtning soyasi ham egri bo‘ladi.
5. Og‘iz va tilning bezagi to‘g‘ri so‘zdir, so‘zni to‘g‘ri so‘zla, dilingni beza.
6. Rostgo‘ylik insonni ulug‘lar martabasiga ko‘taradi.
7. Yolg‘onchilikdan chetlanib, rostgo‘ylik yo‘lini tutgan kishini boshqa odam u yoqda tursin, hatto yolg‘onchining o‘zi ham yaxshi ko‘rib qoladi.
8. To‘g‘ri so‘z achchiqdir, uni hazm qilgin, keyin foydasi tegadi, xushnud qiladi.
9. To‘g‘ri so‘z kishi erkin nafas oladi.

### **Til va dil birligi**

**A**ziz bolalar, she‘riyat mulkining sultoni Amir Alisher Navoiy bobomiz: “Tiling bilan ko‘nglingni bir tut”, deb nasihat qilganlar. Tilshunos olim, vatandoshimiz Abulqosim Zamaxshariy esa: “Odamning sirtiyu botini (ichi) to‘g‘ri, salomat va tuzuk bo‘lsa, uning zohiri (tashqarisi) ham sog‘lom bo‘ladi”, deb aytganlar.

Bu insonni komilikka olib chiquvchi xislatdir. Zero, til va qalbning bir bo'lishi bilan odam rostgo'y va chin insonga aylanadi. Tili-da bir gap, qalbida boshqa gap bo'lsa, u yolg'onchi sanaladi. Do'stini tilida maqtab, qalbdan uni yomon ko'rish ikkiyuzlamachilikdir. Shu sabab bunday illatdan saqlanish uchun til va qalbni bir qilish, makkorlik, ayyorlik va yolg'onchilikdan saqlanish kerak.

## Va'dasi ustidan chiqish

**E**y farzand, shuni bilki, berilgan va'da qarz kabidir. Olingan qarzni uzish, uni vaqtida qaytarish shart bo'lganidek, va'dasiga vafo qilish haqiqiy insonga xos fazilatdir. Va'dasi ustidan chiqadigan bolalarni "yaxshi bola", "aqlli bola" deya ta'riflanadi. Va'da berib, unutilib yuboradigan bolalarni hamma "subutsiz", "va'daboz" deb yomonlaydi. Shuning uchun va'daga e'tiborli bo'lib, to'g'ri so'z bo'lishga harakat qilish kerak.

Yaxshi bolalar va'da bermasalar ham biron narsani bajarishga harakat qiladilar. Ming marta va'da berib, unga e'tibor bermay yuradigan bolalarga odamlar har qachon ishonmay qo'yadi. Odamlar nazaridan qolish juda yomon narsa. Kim odamlar ishonchini yo'qotsa, hayotda ko'p qiyinchiliklarga uchraydi. Zero, sen hali ulg'ayib, katta-katta ishlarni amalga oshirishing kerak. Bunda to'g'riso'zlik, va'daning ustidan chiqish kabi fazilatlar senga juda kerak. Shunday ekan, va'da bersang, uni albatta bajar! Qila olmaydigan ishni "bajara olaman!" deb katta gapirma! Faqat kuching etadigan ishga kirish, va'da berishdan oldin uni o'z vaqtida bajarishga ham e'tiborli bo'l!

### *Bolalar lug'ati*



**Va'da** – so'z berish, biron ishni bajarish majburiyatini o'ziga olish.

**Va'dasi ustidan chiqish** – va'dasiga vafo qilish, va'da bergan ishini bajarish.

**Va'daboz** – quruq va'dalar berib, uni bajar-maydigan yolg'onchi.

**Qarz** – ma’lum muddat o’tgandan keyin berish sharti bilan olingan yoki berilgan narsa (“va’da qarzdir”, deganda “va’da bergandan keyin uni bajarish lozim” ma’nosi tushuniladi).

### **Foydali nasihatlar**



1. “Munofiqlarning belgisi uchtadir: yolg’on so’zlash, va’dasining ustidan chiqmaslik va omonatga xiyonat qilish”.

2. Va’da berib bajarmaslik naqadar yomon ish, gapirmay turib ish bajarish esa qanday chiroyli!

3. Vafosizda hayo yo’q, hayosizda vafo yo’q.

4. Aytib qo’yib bermaydigan narsani tiling bilan aytmagin, va’da berib qo’ygandan so’ng o’z va’dangdan qaytmagin.

5. O’z va’dasida turmaganda turli sabablarni keltiruvchi kimsa hech qachon mard va himmatli bo’lmaydi.

6. Vaqti-soati o’tgandan so’ng bajariladigan va’dadan hech bir yaxshilik bo’lmaydi.

### **Ishonchli Muhammad**

*(Ibratli hikoya)*

**B**ir kuni Rasuli Akram alayhissalom Abdulloh ibn Abu Hamsa bilan tayinli vaqtda ko’rishishga va’dalashdilar. Payg’ambarimiz alayhissalom u joyga kechikmay etib keldilar. Ammo Abdulloh ibn Abu Hamsa bergan so’zini unutgan edi. Ikki kun o’tib, bergan va’dasi esiga tushadi va etib borganida amin (ishonchli-omonatdor) sifati bilan tanilgan Payg’ambarimiz alayhissalom u erda kutib turganlarini ko’rib hayratlanadi. Shundan keyingina bergan va’dasida turish naqadar muhim ekanini tushunib etdi.

### **Sabrli bo’lishni o’rganing!**

**H**urmatli bolalar! Shuni yaxshi bilib olingki, sabrli va vazmin bo’lish turli xatolardan saqlaydi. Zero, gunoh va xatolar ko’p hollarda shoshilish oqibatida sodir etiladi. Sabrli

odam har bir soʻzini obdon oʻylab, keyin gapiradi. Bu bilan u odamlar koʻngliga ogʻir botadigan gap-soʻzlardan tiyiladi va boshqa zararlardan omon qoladi.

Vazmin boʻlishni unutgan odam oʻz omadini qoʻldan boy beradi. Chunki omad aynan shoshilmaslik va aql-idrokni toʻgʻri ishlatish natijasida bir qarorga kelishdadir. Shoshilish oqibatida chiqarilgan har qanday hukm koʻp hollarda notoʻgʻri boʻladi. Shoshib amalga oshirilgan ish afsus-nadomatga olib boradi. Dono xalqimiz bejizga “avval oʻyla, keyin soʻyla” demagan. Bunda ham har bir gapni shoshilmasdan va oʻylab gapirishga chaqirilmoqda. Har qanaqa holatda ham sabrli va vazmin boʻlish va jiddiy munosabat bildirish faqat yutuq va gʻalaba keltiradi. Ayniqsa, shoshqaloq bolalar darslarini chala-chulpa bajarib, koʻp xatolarga yoʻl qoʻyadilar. Uy vazifasini sabr-toqat ila bajargan bolaning ishidan uning oʻqituvchilari ham xursand boʻlishadi.

Sabr barcha mehnat va ogʻirlikni engish va chidamli boʻlishdan iborat. Nochor ahvolda boʻlsa ham oʻzini badavlat kishidek tutish, duch kelgan odamga hol-ahvolidan shikoyat qilavermaslik, qiyin holatlarda ham oʻzini ochiq yuzli qilib koʻrsatish aynan sabrdir. Qahr-gʻazabi kelganda oʻzini bosa oladigan va oʻz nafsini toʻgʻri yoʻlga boshlaydigan kishi eng kuchlidir.

Ey farzand, sen maktabda va boshqa joyda ham birovning savoliga javob berishga shoshilma, zero sen biladigan narsang haqida savol berilsa-yu, ammo shoshqaloqlik qilib, tezroq javob berishni oʻylasang, xato qilib qoʻyishing mumkin. Shu sabab savollarga shoshilmasdan, oʻylab, fikrlab, xayolingni bir joyga jamlab javob ber. Shunda marra seniki boʻladi. Demak, shuni yodda tuting: sabrli va vazmin boʻlish aqlning boshidir. Zero, shoshilish aqlning nuqsansiz ishlashiga toʻsqinlik qiladi.

### ***Bolalar lugʻati***



**Sabrli** – chidamli, bardoshli, irodali, qatʼiyatli,  
**Vazmin** – ogʻir, bosiq, salobatli.

## **Foydali nasihatlar**



1. *Aytilishicha, odamlarning baxtlirog'i quyidagilardir:*

- qalbi ilmga tashna kishilar;
- jismi sabr qiluvchi kishilar;
- qo'lida bor narsaga qanoat qiluvchi kishilar.

2. *Sabrning avvali achchiq, oxiri esa shirin.*

3. *Yomon kunda sabr qilgan odam yaxshi kunga tez etadi.*

4. *G'azabning avvali jinnilik, oxiri nadomatdir.*

5. *Javobning yumshog'i g'azabni so'ndiradi, so'zning qattig'i odamni o'ldiradi.*

6. *Shoshqaloqlik bu adashgan odamlarning ishi, sabrlilik esa ezgu odamlarning ishidir.*

7. *Sabrli bo'l, murodga etasan.*

8. *Yaxshilarning darajasiga aziyat va mashaqqatlarga sabr qilish orqali erishiladi.*

9. *Agar mehnat-mashaqqat yoki qayg'u-alam duch kelsa, sabr bilan qarshi olsang, uning ortidan yana shodlik keladi.*

10. *Ishning fursatini kutish, shoshilmaslik kerak, hamma ish vaqti-soati kelganda bitadi.*

## **Qanoatli bo'lish fazilati**

**Q**anoat insonni boyitadi. Faqat shunday bo'lishiga ko'pchilik shubha bilan qaraydi. Qanoat so'zi qo'lidagi mavjud narsaga rozi bo'lib, taqdiriga yozilganidan boshqasiga ko'z tikmaslik ma'nosini bildiradi. Ba'zilar qanoatni noto'g'ri tushunib, uni dangasa bo'lib o'tirishdir deb o'ylaydi. Qanoat o'ziga ato etilgan narsaga rozi bo'lish, boshqalar mulki va rizq-nasibasiga ko'z olaytirmaslikdir. Bu zinhor g'ayrat-shijoatga teskari emas. Mashhur sahoba Sa'd ibn Abu Vaqqos o'g'liga shunday deb nasihat qilibdi:

– O'g'lim boy bo'lishni istasang, boylik bilan birga qanoat ham so'ra. Chunki qanoatsiz odam boy bo'lolmas. Qanoat esa bitmas-tuganmas boylikdir.

Aziz bolalar, bir e'tibor bering: tishlarimiz, bo'yimiz ma'lum bir o'lchovga etgach, o'sishdan to'xtaydi, to'g'rimi? Agar a'zolarimiz o'sishda davom etaversa nima bo'lardi?!

Xotiramiz ma'lum bir miqdorda ma'lumotni qabul qiladi. Undan ortig'ini sig'dira olmaydi.

Olma tarvuz kabi yiriklashmaydi. Yomg'ir keragidan ortiq yog'sa, qanday oqibatlarga olib keladi? Demak, hamma narsaning o'z me'yori bor. Qanoat insonga o'sha me'yorda yashashni o'rgatadi. Qanoatning ziddi ochko'zlikdir. Ochko'zlik insonni halokatga olib borishiga hayotiy misollar keltiramiz:

Bir haydovchi manzilga tezroq etib olay, deb tezlikni oshiribdi va oqibatda avtohalokatga uchrabdi. Bir yigit kuchli bo'laman, deb keragidan ortiq ovqat eyaverganidan o'zini ham ko'tara olmaydigan darajada semirib ketibdi.

Inson to'xtashi kerak bo'lgan nuqtani bilishi kerak. Bu nuqtani qanoat belgilab beradi. Ochko'zlik esa chegaradan chiqishga va ko'ngilsizliklar tomon yo'l olishga sabab bo'ladi.

Demak, hayotda hamma narsa o'z me'yorida bo'lishi yaxshi ekan. Qanoatni o'ziga shior qilib olgan inson ham mana shu mezon asosida hayot kechirgan bo'ladi.

### ***Bolalar lug'ati***



**Qanoat** – shukr qilish, boriga rozi bo'lish, ozi bilan ham kifoyalanish, mamnunlik, qoniqish hissi.

**Taqdir** – Alloh tarafidan oldindan belgilab qo'yilgan qismat (taqdir Allohning bandalar nima amallar qilishini bilishidir, aslo birovni ishga majburlash emas).

**Ko'z tikish** – birovlarining narsasiga yomon nazar bilan qarash. (Bu so'z «kutish» ma'nosida ham keladi)

### ***Foydali nasihatlar***

1. Kishi uchun eng foydali va dilni yorituvchi narsa qanoatdir. Eng zararli va nafratli narsa hirs va g'azabdir.



2. Qanoat barcha mamlakatlar unga tobe bo'lgan mamlakatdir. Qanoat shunday bir mamlakatki, hech kim unga zarar etkaza olmaydi. Kim unga egalik qilsa, hech bir narsaga muhtoj bo'lmaydi, baxtli hayot kechiradi. Boshqalarda ko'rganni juda qattiq istamaslik ham qanoatdir.

4. Ko'zi suq uchun butun dunyo ham kifoya qilmaydi, boriga qanoat qiluvchi kishi baxtli hayot kechiradi.

5. Ko'zi to'q odam har narsaga suqlanavermaydi, bir odam bir narsali bo'lsa, unga havas qilavermaydi.

6. Tana va nafsga erk berma, bo'yin egma, uning istaklari ermak va o'yin, u alam va qayg'u keltiradi.

7. Taomga ortiq darajada hirs qo'yish xudbinu pastkash kishilarning axloqlaridandir.

## Ochko'zlik oqibati

(Hikmat)

**M**uhammad ibn Yamoniy shunday dedi: “Olti kishidan olti narsa haqida so'raganimda bir xil javob olganim uchun bir umr ro'za tutishni ixtiyor qildim. Tabiblardan: “Kasalliklarga eng shifoli narsa nima?”, deb so'radim. Ular: “Ochlik va oz eyish”, deyishdi. Donishmandlardan: “Hikmatizlashda qaysi narsa ko'proq yordam beradi?”, deb so'radim. Ular: “Ochlik va oz eyish”, deyishdi. Obidlardan: “Alloh ibodatida ko'proq qaysi narsa foydaliroq”, deb so'radim. Ular: “Ochlik va oz eyish”, deyishdi. Zohidlardan: “Zuhdga qaysi narsa ko'proq undaydi”, deb so'radim. Ular: “Ochlik va oz eyish”, deyishdi. Ulamolardan: “Ilm olishda qaysi narsa eng afzali”, deb so'radim. Ular: “Ochlik va oz eyish”, deyishdi. Podshohlardan taom va ishtaha ochuvchining eng yoqimlisi haqida so'raganimda, ular ham: “Ochlik va oz eyish”, deyishdi”.

\* \* \*

Imom Shofe'iy: “O'n yildan beri to'yib ovqat emadim. Chunki to'yib eyish badanni og'irlashtiradi, zakovatni (aql-idrokni)

ketkazadi, uyquni keltiradi va egasini ibodatdan qoldiradi”, degan ekan.

Hakimlardan biri shunday degan: “Dunyoning ichiga kir, sayr qil, ko‘r, ammo ehtiyot bo‘l, dunyo sening ichingga kirib ketmasin!”

## Otning tuyoqlari nechta?

*(Ibratli hikoya)*

**B**ir kuni imom Abu Hanifa otda ketayotgan edi. Shunda u zotdan:

– Otning tuyoqlari nechta? – deb so‘rashdi.

Imom otdan tushib, otning oyoqlarini sanab ko‘rdilar va:

– To‘rtta, – deb javob berdi.

Bu bilan javob berish haqida shogirdlarga katta saboq bergan edi.

Aziz bolalar, ko‘rdingizmi, savolga javob berishda juda ehtiyotkor bo‘lish kerak. Biron narsani aniq bilsa-da, yana bir mulohaza qilib javob berish lozim ekan. Zero, dono xalqimiz bekorga “etti o‘lchab, bir kes”, deb aytmagan.

## Kechirimli bo‘lish fazilati

**A**ziz farzandim, hech bir odam xatodan xoli emas. Hamma xato qiladi, yanglishadi. Yoki bironta ham xato va nuqsoni yo‘q mukammal bir insonni ko‘rganmisan? Yo‘q, bunday odam aslo bo‘lmas. Shunday ekan, odamlar bir-birining xato va kamchiliklarini kechirish, ularni tuzatishga harakat qilishlari va bir-birlarini qo‘llab-quvvatlab, hayotda hamjihat bo‘lib yashashlari kerak. Hatto dushman deb qaralgan odamga ham insof bilan muomala qilinadi. Agar dushmanim deb unga zulm va adolatsizlik qilinsa, buning oqibati yomon bo‘ladi. Kechirimlilik dushmanni do‘stga, bag‘ritoshlik esa do‘stni dushmanga aylantirishi mumkin. Demak, bag‘rikeng va kechirimli bo‘lish hayotdagi shioring bo‘lsin!

## *Bolalar lug'ati*



**Kechirimli bo'lish** – birovning xatosini kechirish, bag'rikeng va mehribonlik.

**Yanglishmoq** – adashish, xato qilish.

**Hamjihat** – ahil, inoq.

**Bag'ritoshlik** – berahmlilik, shafqatsizlik.

**Bag'rikenglik** – biron narsaga ochiq ko'ngil bilan yondashish, qalbni keng qilish.

## *Foydali nasihatlar*



1. Sen kechirish xislatini o'zingga shior qil, atrofingdagilardan arzimas gunohlari uchun yuz o'giraverma!

2. Kechira olish mardlik va kechira olmaslik nomardlikdir.

3. Gunohkor kishining gunohini kechir, adovat ildizini kes va qo'porib tashla.

\* \* \*

## **Insoniy fazilatlar quyidagilardir:**

1. Islomiyat.
2. Diyonat.
3. Ota-onani hurmat qilish.
4. Ilm-ma'rifat.
5. Idrok, fahm-farosat.
6. Sabr-qanoat.
7. Tartib-intizom.
8. Vijdon.
9. Vatanni sevish.
10. Adolatli bo'lish.
11. Oliy himmat.
12. Tilni yomon so'zlardan saqlash.
13. Sir saqlay bilish.
14. Iffatli bo'lish, odamlar qo'lidagi narsalardan ta'ma qilmaslik.

15. Muloyimlik.
16. Xayrixohlik (odamlarga yaxshilikni istash).
17. Avf, kechirimli bo'lish.
18. G'ayrat, shijoat.
19. Viqor, salobatli bo'lish...

## **Kamtarinlik - ziynat**

**I**nson o'zini boshqalardan ortiq deb bilmaslighi, o'zini aqlli, o'zgalarni aqlsiz deb tasavvur qilmasligi, har qanday yaxshi ishni o'ziga loyiq va o'zgalarga noloyiq deb hisoblamasligi zarur. Kim yuqoridagi illatlarga qo'l ursa, demak u o'zini o'ylaydigan xudbin boladir. Xudbin odam faqat o'zini o'ylaydi, o'zgalalar bilan ishi yo'q. Ularga o'z xatolari ko'rinmaydi. Agar ko'rsalar ham uni kamchilik deb hisoblamaydi yoki tan olishni istamaydi. Boshqalarning fazilatlarini ko'rsalar yoki eshitsalar, bundan g'azablanadilar. Agar boshqalarda biron kamchilik ko'rib qolsalar, darrov shov-shuv ko'tarib, buni hammaga oshkor qiladilar.

Ey farzand, sen bunday kamchiliklardan uzoq yur. Doim kamtarin bo'l, faqat o'z aybingni ko'r, o'zgalarni tekshirib, ortidan ayb qidirib yurma. Agar birovning aybini ko'rib qolsang, bir o'ziga aytib, uni to'g'rilashga harakat qil. Zinhor manmalik ko'chasiga kirma, qilgan ishing va aytgan gaping zo'r bo'lganda ham kekkayma. Manmanlik insonni xorlikka etaklaydi. Kamtarlik seni ulug' martabalarga erishtiradi. Zero, kamtarga kamol, manmanga zavol, deydi xalqimiz.

### **Foydali nasihatlar**



1. *Kimda-kim manmanlik qilib o'zini yuqori tutsa, uni na xalq va na Tangri sevadi.*
2. *Kibr va g'ururdan uzoq bo'l. Kibr kishini el orasida xor, beqadr va bee'tibor qiladi.*
3. *Birov seni o'zingda yo'q sifatlar bilan maqtasa, unday odamga ishonma, chunki u senda yo'q yomon sifatlar bilan boshqa joyda seni yomonlashi mumkin.*

## Saroy qaerda?

*(Ibratli hikoya)*

**H**azrati Umar xalifaligi davrida xalqidan ajramas va ular qatorida hayot kechirardi. Kamtarin bo'lganidan o'zi uchun taxt qurdirmagan edi.

Vizantiyalik bir hokim hazrati Umarning ziyoratiga kelib, uni qidira boshladi. Qarasa shaharda na saroy va na bir dang'illama uy bor.

Yo'lda bir odamdan: "Xalifangiz qaerda?" deb so'radi. Yo'lovchi: "Xalifamiz shu erda, qumlar ustida yotibdi", debdi.

Shunda hokim juda ham hayratda qolibdi.

– Eron va Hindga farmon jo'natgan xalifa shumi? Toju taxti, saroyi yo'qmi? Posbonlar bilan qo'riqlaydigan odamlari yo'qmi? Bizning o'lkamizda bo'lsaydi, kattakon saroylari bo'lardi. Shunchalik kamtarlik ham bo'ladimi? – deb yoqa ushlab qolibdi.

## Shukr qilish fazilati

**A**ziz bolalar, bilasizki, biz foydalanadigan barcha narsalarni mehribon Alloh taolo beradi. Bular evaziga U Zotga shukr qilib, o'sha ne'matlarni faqat yaxshilik yo'lida ishlatishimiz kerak. Bir inson sizga ikki dona olma sovg'a qilsa, bundan qanchalik quvonasiz. Alloh bizga behisob ne'matlarni ato qilib qo'yibdi. Bularga, albatta, shukr qilish kerak.

Yana o'zingizga tegishli kitobni do'stingizga o'qish uchun bersangiz-u, ammo u kitob varaqlarini yirtib, muqovasini kir-chir qilib qaytarib bersa, qanchalik jahlingiz chiqadi. Shunday ekan, bizlar ham berilgan ne'matlarni avaylab-asrab, uni o'z holicha saqlash va tanamizni turli illatlardan himoya qilishimiz lozim. Buning uchun ichkilik, tamaki chekish, sog'liqqa zararli narsalarni iste'mol qilishdan uzoq bo'lib, qabih ishlardan saqlanishimiz va kompyuter o'yinlarini ko'p o'ynashdan ehtiyot bo'lishimiz kerak.

Bolalar, bizning tana a'zolarimiz bahosi yo'q ne'matlardir. Yorug' olamni ko'rish uchun berilgan ikki ko'zimiz qanchalik

qadrli, to'g'rimi? Ko'zning qadriga undan judo bo'lganlar etadi, deyishadi. Ammo aqlli bolalar ko'z va boshqa a'zolar qadriga etishi uchun ko'zlaridan judo bo'lishi shart emas. Zukko bolalar bir yomonlikni u kelmasdan oldin sezib, undan qutulish yo'lini biladilar. Bizning a'zolarimiz ham oltindan qimmatroqdir. Chunki oltinni pulga sotib olinsa ham, biroq tana a'zolarining sog'lig'ini qaytarib bo'lmaydi. Shunday ekan, bizga ato etilgan har bir ne'matni avaylab-asrashimiz, uni faqat yaxshilik va ezgulik yo'liga ishlatishimiz lozim.

### *Bolalar lug'ati*



**Shukr qilish** – minnatdorlik izhor qilish, maqtov aytish (ne'matlarni bergani uchun Allohga maqtov aytib, o'sha ne'matni yaxshi ishlarga sarflash shukrdir).

**Qadriga etish** – biron narsaning qiymatini bilish, avaylash.

**Avaylab-asrash** – ehtiyot qilish, saqlash, ozor va shikastlardan himoya qilish.

### **Havas qilib yashang!**

**B**olalar, havas deganda yaxshi insonlardagi fazilat va xislatlarni ko'rib, ularni o'zimizda ham bo'lishini xohlash tushuniladi. Havas qilish bizlarni shunday yaxshi sifatlarga intilishga chorlaydi. Havas qilib yashaydigan bolalar doim harakatchan va tirishqoq bo'ladilar. Havas qilish turlicha bo'lishi mumkin. Masalan, bir o'rtog'imiz ota-onasining gapiga quloq tutib, ularni hurmat qiladi. Shu sabab ota-onasi ham u bolani juda yaxshi ko'rishadi. Ular baxtli hayot kechiradilar. Mana shu o'rtog'imizga havas qilsak, arziydi.

Yana bir o'rtog'imiz ota-onasidan olgan pullarini tejab-tergab ishlatadi, pulni behuda sarflamaydi, faqat kitob, daftar kabi kerakli narsalarga sarflaydi. Uning bu tejamkorligi maqtovga loyiqdir. Biz ham unga o'xshashni havas qilsak arziydi. Pulni tejab ishlatsak, ota-onamizning topgan pullariga baraka kiradi,

o'zimiz ham foydasiz xarajatlardan saqlanamiz, isrofdan uzoq bo'lamiz.

Hayotda havas qilsa arzigulik insonlar ko'p. Ilm-ma'rifatli, olimu fuzalolarga havas qilish naqadar yaxshi! Yana kuchli, baquvvat kishilarga, vatan va millatini dushmanlardan qo'riqlaydigan askarlarga havas qilish ham yaxshidir.

Demak, aziz bolajonlar, hayotda yaxshi insonlarga havas qilib yashasak, faqat ezgulik va yutuqlarga erishamiz. Hasad bilan yashagan odamlar esa yomonlik sari qadam qo'ygan bo'ladilar...

### **Hasaddan uzoq bo'ling!**

**H**asad eng yomon illat. Bolalar, hasad nimaligini bilasizlarmi? Hasad bu bir kishidagi yaxshi xususiyatlar va yutuqlarni ko'ra olmaslik va undagi yutuq va yaxshilikning yo'q bo'lishini xohlashdir. Hasad ko'ngli qora, qalbi toshdek qattiq kimsalarning ishidir. Hasad insonni xudbin, faqat o'zi haqida o'ylab, o'zgalar bilan ishi bo'lmasligiga sababdir. Hasadgo'y biron natijaga erishganlarni oyog'idan chalib, ularga zarar etkazishga urinadi. Bu eng yomon odat. Hasadgo'y havas qilish nimaligini bilmaydi. Havas qiladigan odam o'ziga ham shunday yaxshilik berilishini xohlasa, hasadgo'y esa odamlardan bu yaxshilik olinib, faqat o'zigagina berilishini istaydi. Bu xudbinlik va ichiqoralikdan boshqanarsa emas. Demak, bolalar, biz hasaddan uzoq bo'lishimiz, kek va adovatdan saqlanishimiz kerak ekan.

### ***Bolalar lug'ati***



**Havas** – qiziqish, ishtiyoq, intilish, rag'bat, birovlar erishgan yutuqlar o'zida ham bo'lishini orzu qilish.

**Hasad** – odamlardagi yaxshiliklarni ko'rolmaslik, ichiqoralik.

**Hasadgo'y** – hasad qiluvchi, qalbi hasadga to'la odam.

**Xudbin** – o'zini o'ylovchi, hamma narsadan o'z foydasini ustun qo'yuvchi.

**Ichiqoralik** – dili buzuqlik, hasadgo'ylik, bironing yutuqlarini ko'ra olmaslik.

### **Foydali nasihatlar**



1. *Hasad va g'azab ikki qanot bo'lib harakatga kelsa, toza va chiroyli hayotlarni xira qilib yuboradi.*

2. *Olov o'zidan-o'zi yonib kul bo'lgani kabi hasadchining jasadi hasad o'tidan erib, barbod bo'ladi.*

3. *Odamzot hasad qilmasligi kerak, havas qilishi kerak. Havas qilgan odam murodiga etadi.*

4. *Hasadchida rohat yo'q.*

### **Ota-bobolarimiz o'gitalari**

**H**urmatli bolalar, mana kitobimizning oxiriga ham etib keldik. Siz ushbu kitobni o'qish orqali o'zingizga kerakli ko'p ma'lumotlarni bilib oldingiz, shundaymi? Endi ota-bobolarimizning qimmatli pand-nasihatlaridan bir qanchasini keltiramiz. Ularni yodlab olishga harakat qiling:

– Ikki toifa odam doimo boydir, hech kambag'al bo'lmaydi: biri – olim, ikkinchisi – qanoat egasi.

– Ikki narsa borki, ozi ham ko'pdir: birinchisi – adovat, ikkinchisi – chaqimchilik.

– Ikki narsa qalbni buzadi: biri – ko'p ovqat eyish, ikkinchisi – ko'p uxlash.

– Ikki narsa insonni tez ado qiladi: biri – ahmoqlik, ikkinchisi – axloqsizlik.

– Ikki narsani kishi o'zidan quvishi qiyin: biri – soya, ikkinchisi – badfe'llik.

– “Nima desam ekan” deb andisha qilish “nega aytdim” deb pushaymon bo'lishdan yaxshiroq.

– Uch narsani unutgan odam aqlli emas: dunyoning o'tkinchiligini, undan qachondir ajralishini va o'limdan hech kim qutulib qola olmasligini.

– Hakimlarning aytishicha, odamlar uch guruhga, ya'ni aqllilarga, yarim aqllilar va nodonlarga bo'linadilar. Aqlli shunday kishiki, biron voqea yuz bermasdan avval undan qutulishning chora-tadbirini o'ylab ish tutadi. Odamlar oxirida qiladigan ishni u oldindan qilib qo'yadi. Yarim yoki o'rta aqlli shunday kishiki, biron hodisa yuz bersa, esankirab qolmaydi, undan qutilish chorasini qidiradi va shu tufayli bu balo domidan ozodlikka erishadi. Nodon shunday kishiki, biron noxush voqea yuz bersa, undan qutilish yo'llarini qidirish o'rniga dod-voy qilish bilan cheklanadi.

– Uch sifat uch xil natija keltiradi: muloyimlik – ulug' martaba, qanoat – rohat, tavoze' – e'zoz keltiradi.

– Uch narsa inson uchun juda zarur: qahru g'azab vaqtida o'zini tuta bilish, boshga kulfat tushganda betoqat bo'lmay sabr qilish va xayrli ishlarga shoshilish.

– Uch ne'mat qadriga uch toifa odam etadi: yoshlik qadriga qarilar, salomatlik qadriga bemorlar va xotirjamlik qadriga g'am-tashvishli kishilar.

– Aqlli kishida uchta xislat bo'ladi: biron narsa so'ralsa, odob bilan javob beradi, birovdan yomonlik ko'rsa ham yaxshilik qiladi, xalqi uchun foydali fikrlarni olg'a suradi.

– Uch xil kishining xizmatidan bo'yin tovlamaslik kerak: ota-ona, mehmon va bemor xizmatidan.

– Bir ulug' kishi shunday dedi: “Kishining qalbida to'rtta gavhar bo'lib, bu to'rt gavharning to'rtta dushmani ham bor. Birinchisi aql gavharidir, uning dushmani g'azabdir. Ikkinchisi ilm gavharidir, uning dushmani takabburlikdir. Uchinchisi qanoat gavhari, uning dushmani hirsdir. To'rtinchisi saxiylik gavhari, uning dushmani ta'madir”.

---

---

## **Foydalanilgan manbalar**

1. Mashriqzamin – hikmat bo‘stoni. Hamidjon Homidiy, Mahmud Hasaniy. Toshkent, 1997.
2. Vatandosh allomalarimizning hikmatli fikrlari. Toshkent, 2012.
3. Farzandlar jannat rayhonlaridir. Tursunxo‘ja Hidoyatxo‘jaev. Toshkent, 2002.
4. Buyuk imom Abu Hanifa. Yo‘ldosh Eshbek. Toshkent, 2004.
5. Ilm olish sirlari. Safo Saygili. Toshkent, 2010.
6. Islom odobi va axloqi. Ahmadjon Bobomurod. Toshkent, 2002.
7. Saodat quchganlar ibratini. Abduqayum Hikmat. 2001.
8. Yaxshilar odobi. Sumayro Abdumurod qizi. Toshkent, 2013.
9. Saodat kaliti. Yo‘ldosh Eshbek. Toshkent, 2001.
10. O‘g‘limga o‘g‘itlar. Muhammad Kamol. Toshkent, 2001.
11. Qadimdan hozirgacha... Bobomurod Erali. Toshkent, 2013.
12. Odobli bola elga manzur. Muhammadamin To‘xliev, Muhammadso‘diq Tojaliev. Toshkent, 2013.
13. Ovqatlanish psixologiyasi. Safo Saygili.
14. Qalbimiz nuri. Abdulloh Murod Xolmurod o‘g‘li, 2003.
15. Nishonga urilgan so‘zlar. Muhammad Sobir. Toshkent, 1996.
16. Hayot tomchilari. Muhammad Kamol. Toshkent, 2002.
17. Luqmoni hakimdan o‘g‘liga 365 o‘git. Abdumurod Tilavov. Toshkent, 2013.
18. Internet ma’lumotlari: [www.muxlis.uz](http://www.muxlis.uz), [www.muslim.uz](http://www.muslim.uz) va ho-kazo.

---

---

## MUNDARIJA

KIRISH .....	183
Odob nima? .....	185
Nega inson aziz va mukarram? .....	186
Odob oltindan qimmat .....	187
Odobli va odobsiz bola .....	188
Qaysi biri yaxshiroq? .....	191
Duosi mustajob bola .....	191
Luqmoni Hakimning o'g'liga nasihatlari (1) .....	192
Bolalar tarbiyasining o'ziga xos jihatlari .....	194
Odobli bo'lish yo'llari .....	195
Odobli bolaning belgisi .....	196
Ota haqqini ado etgan o'g'il .....	198
Odobli bola bo'lish qiyinmi? .....	198
Qizaloqlar odobi .....	200
Inson jism va ruhdan iborat .....	201
Uxlash odoblari .....	201
Uyquga tayyorgarlik .....	201
Uyqu odoblari .....	202
Uyqudan erta turishni o'rganing .....	202
Uyqudan erta turish uchun nima qilish kerak? .....	203
Erta turishning foydalari .....	203
Uyg'ongandan so'ng .....	203
Uyg'ongandan so'ng qilish noma'qul hisoblangan amallar .....	204
Luqmoni Hakimning o'g'liga nasihatlari (2) .....	204
Hojatxonaga kirish va undan chiqish odoblari .....	206
Hojatxonaga kirishdan oldin .....	207
Hojatxonaga kirgandan keyin .....	207
Hojatxonada qilish ta'qiqlanadigan ishlar .....	208

Hojatxonadan chiqish.....	209
Ozodalik sog‘liq sababchisi .....	211
Ko‘chada holva egan bola.....	212
Toza tutish kerak bo‘lgan narsalar .....	213
Tana a’zolarini toza tutish .....	213
Har bir sohada tozalik muhimdir .....	215
Zararli odatlardan uzoq bo‘ling! .....	215
Janjalkash bola .....	216
Ovqatlanishdan oldin .....	217
Ovqatlanishga tayyorgarlik .....	217
Yoshi katta birinchi boshlaydi.....	218
Ovqatlanish paytida .....	218
Ovqatlanish paytidagi yoqimsiz ishlar.....	219
Ovqatlangandan so‘ng bajariladigan ishlar.....	220
Hikoya.....	223
Berkinmachiq o‘yini .....	224
Bolalar uchun nonushtaning foydasi.....	224
Halol rizq va halol mehnat.....	225
Bolalar lug‘ati .....	226
Harom luqma .....	226
Qulining qulidan narsa so‘ramagan odam .....	227
Nima uchun kiyim kiyiladi?.....	228
Kiyim kiyish va echish odoblari .....	228
Kiyim turlari.....	229
Kiyish mumkin bo‘lmagan kiyimlar .....	230
Kiyimlarni toza saqlash.....	231
Toza kiyim – pokiza tabiat.....	231
Ustki kiyimlar .....	232
Ko‘ylak va ichki kiyimlar .....	232
Oyoq qiyimlari .....	233
Dastro‘mol .....	233
Ahmadning yaxshi ishi .....	234
Narsalarni toza tutish .....	235
Buyumlar tozaligi.....	235
Kitoblar .....	235
O‘quv qurollari.....	236

Sochiq, tish cho‘tki va ko‘rpa-yostiqlar .....	237
Texnik jihozlar va o‘yinchoqlar .....	237
Uy va xonalarni ozoda saqlash .....	239
Rohat va tarbiya maskani.....	239
Mehmonxona .....	239
Yotoqxona va darsxona.....	240
Oshxona va ombor.....	241
Hovli, yo‘lak va hammom .....	242
Qo‘shnisini o‘ylagan Zokir.....	243
O‘quvchining uyidagi odobi .....	244
O‘quvchining maktabdagi odobi.....	245
O‘qimagan bolaning oqibati .....	247
Ko‘chada yurish odobi.....	248
Haqiqiy pahlavon kim? .....	249
Farzand ota-onasi uchun nima qilishi kerak?.....	249
Ona fazilati.....	250
Ota fazilati.....	250
Sen ota-onangga qanday yaxshilik qila olasan?.....	250
Ota-onaga yaxshilik qilish .....	251
Ota-ona o‘rnini hech kim bosolmaydi .....	252
Farzand ota-onadan doim qarzdor .....	253
Farzand onaning bir bo‘lagidir! .....	254
Boyish “yo‘li”ni topgan bola .....	254
Ota-onaga qanday munosabatda bo‘lish kerak? .....	255
Aka-uka va opa-singillarimiz oldidagi vazifalarimiz.....	256
Kichikning o‘zidan kattani hurmat qilishi va kattaning o‘zidan kichikka mehribonligi.....	256
Kattaning o‘zidan kichikka mehribonligi .....	257
Hikoya.....	257
Hikmat.....	260
Odamlarni hurmat qilish .....	260
Naqadar yomon ish .....	261
Odamlarning hurmati nima bilan o‘lchanadi? .....	262
Chiroyli muomala – bola ziynati.....	263
Nasihatlar .....	263

Olim bo‘lgan cho‘pon .....	264
Ziyorat qilish odobi .....	264
Yaxshilikning mukofoti .....	266
Uyimizga mehmon kelganda .....	267
Saxiy Abu Hanifa .....	268
Ruxsat so‘rash odobi .....	268
Ojiz odamlarga mehribonlik qilish .....	269
Ojizlarga mehribonlik oliyjanoblikdir .....	269
Sadoqatli xizmatkor mukofoti .....	270
Do‘st tanlash va ularni hurmat qilish .....	271
Jamiyat oldidagi vazifalar .....	272
Jonzotlarga shafqatli bo‘lish .....	273
Mushukka ozor bergan bola .....	275
Navoiy bobomiz ibrati .....	275
Mehribon Hasan .....	276
Mushukka aylangan sher .....	277
Salomlashish odobi .....	277
Hikmat .....	279
Haqiqiy do‘stlik qadri .....	279
So‘zlashish va muomala odobi .....	279
Turli holatlarga qanday munosabat bildirish haqida .....	282
Aqlli bolaning javobi .....	283
Jamoat joylarda odobsizlik sanalgan ishlar .....	284
Tilni befoyda so‘zlardan tiyish .....	284
Hikmatlar .....	286
Tilini tiymagan bola .....	286
Sir saqlash .....	287
Birovlarni yomonlamaslik .....	288
G‘iybat evaziga qilingan yaxshilik .....	289
Chaqimchilik illati .....	289
Sakkiz xil taom va bir og‘iz g‘iybat .....	289
Maqtanchoq bo‘lmang! .....	290
Hikmat .....	291
Bahouddin Naqshbandning karomati .....	291
O‘ynash odobi .....	292

Hikoya.....	293
Vaqtни tejash va umr qadriga etish.....	293
Maqollar.....	295
Hikmat.....	295
Yoshlik qadriga etish.....	296
Kundalik ishlarni tartibga solish.....	296
Tejamkorlik.....	297
Isrofdan saqlaning!.....	299
Foydali nasihatlar.....	301
Baxillikdan uzoq bo‘ling!.....	301
To‘rtga bo‘lingan olma.....	302
Baxillik oqibati.....	303
O‘rtacha bo‘lishni odat qiling!.....	304
Foydali nasihatlar.....	305
Televizorni me‘yorida ko‘ring!.....	305
Bolalar televizorni qancha vaqt ko‘rishlari mumkin?.....	306
Yomon sifatlarni bilib oling!.....	307
Ilm olish fazilati.....	308
Rivoyat.....	309
Hech kim olim bo‘lib tug‘ilmas.....	310
Doim olg‘a qadam tashlang!.....	311
(Ibratli hikoya).....	312
Ilm olish sirlari.....	312
Chet tillarni o‘rganish.....	317
Aql-idrok fazilati.....	317
Donolar xislati.....	319
O‘g‘ri topildi.....	319
Iste‘dod va qobiliyat.....	320
O‘z haqingni tani, birovning haqqidan qo‘rq!.....	320
Ko‘ylagi yamoq bola.....	321
Chiroqning yog‘i kimniki?.....	322
Shijoat va jasorat.....	322
Jasur o‘g‘lon.....	324
Dangasalikdan uzoq bo‘l!.....	325
E‘tiborli bo‘lish.....	325
Har bir qo‘y o‘z oyog‘idan.....	326

Mehnatkashlik kamolot omili .....	326
Maqollar .....	327
Omonat.....	327
Hikoya.....	329
Aldoqchi Farrux jazo oldi .....	329
Rostgo‘ylik fazilati.....	330
Yolg‘onchi bola .....	331
Foydali nasihatlar .....	332
Til va dil birligi .....	332
Va‘dasi ustidan chiqish .....	333
Foydali nasihatlar .....	334
Ishonchli Muhammad .....	334
Sabrli bo‘lishni o‘rganing! .....	334
Qanoatli bo‘lish fazilati.....	336
Foydali nasihatlar .....	337
Ochko‘zlik oqibati .....	338
Otning tuyoqlari nechta?.....	339
Kechirimli bo‘lish fazilati .....	339
Kamtarinlik - ziynat .....	341
Saroy qaerda?.....	342
Shukr qilish fazilati .....	342
Havas qilib yashang!.....	343
Hasaddan uzoq bo‘ling! .....	344
Ota-bobolarimiz o‘gitlari .....	345
Foydalanilgan manbalar.....	347

## QAYDLAR UCHUN

---

---

## QAYDLAR UCHUN

---

---

*(Farzand tarbiyalashda ota-onalarga maslahatlar)*

# ***Bola – odobi bilan aziz***

Nashrga tayyorlovchi:  
**Ziyovuddin Rahim**

Muharrir:  
**Iltom Xalilov**

Texnik muharrir:  
**Dilmurod Jalilov**

Bosishga 2014 yil 20 iyunda ruxsat etildi.  
Qog'oz bichimi 70x100 <sup>1</sup>/<sub>16</sub>. Ofset bosma usuli.  
Arno Pro garniturası. 22 bosma taboq. Adadi 5500 nusxa.  
4-sonli buyurtma. Bahosi shartnoma asosida.

«Navro'z» nashriyoti: Litsenziya № AI 170. 23 dekabr 2009 y.  
Manzili: 100000, Toshkent shahri, A.Temur ko'chasi, 19-uy.

“Elizabet print” MChJ bosmaxonasida chop etildi.  
Toshkent shahri, Buyuk Ipak Yo'li ko'chasi, 38-uy.  
e-mail: elprint\_info@mail.ru